ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

$3^{/1}$-son
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
M. Arslanova	4	Bo'lajak oligofrenopedagoglarda inklyuziv ta'lim kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik mazmuni
N. Kadirova	9	Texnologiya fanining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati
S. Abdirasilov	14	Tasviriy san'at o'qituvchisining pedagogik kompetentligi mohiyati va mazmuni
N. Bekmuratov, I. Urinbayev	19	Tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy-metodik tayyorlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari
M. Abralova, Z. Abralova	23	Raqamli transformatsiya sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining sanogen tafakkurini rivojlantirish
M.S. Nimatova	27	Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida topshiriqlar bajarishida kredit-modul tizimining mazmuni
T. Abdujabborova	32	Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning hamkorlik yo'llari
R. Tuxtasinova	36	Variativ dasturlarni amaliyotda qo'llash ta'lim sifatini oshirish omili sifatida
R. Eshimov	39	Elektron o'quv kontent yaratishga qo'yilgan talablar hamda uning ta'limdagi o'rni
A. Gulyamova	43	Hamkorlik pedagogikasi orqali talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish
B. Xakimova	46	Zamonaviy "Gender" atamasi va o'smirlarni mustaqil qaror qabul qilishiga yo'naltirishning gender muammolari
TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
D. Sobirov	50	Pedagogika fanlaridan o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning xususiyatlari
S. Farmonov	54	Umumta'lim darslik kitoblarida dizayn va illyustratsiyalarning o'quvchilarning ta'lim oilish jarayonidagi o'rni
K. Po'latova	58	Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining geometrik masalalar vositasida o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishdagi pozitsiyasi
M.T. Nurbayeva	69	Boshlang'ich ta'limni tashkil etishda sharq mutafakkirlarining odob-axloq masalalariga oid qarashlari
X. Muxammadjonov	75	Raqamli platformalar vositasida talabalarning kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirishning tarbiyaviy ahamiyati
TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT		
O. Ishmatova	78	Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarida tashkil etilgan ritmika mashg'ulotiga doir metodik ishlarning holati
A. Ernazarov	84	Ta'lim sifatini ko'tarish uchun o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish zarur
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		

F. Qodirova, S. Ulxo‘jaeva	89	Mustaqil ta’limda talabalarning kasbiy-amaliy traektoriyasini individual yo‘naltirish masalalari
MADANIYAT, SAN’AT VA MUSIQA TA’LIMI		
S.B. Karimov	93	O‘quvchilarning kuylash qobiliyatlarini rivojlantirishga qo‘yilgan zamonaviy talablar
MAKATBGACHA TA’LIM		
G.Tilavova	97	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutqini o‘stirish orqali fikrlash qobiliyatini shakllantirish
QIYOSIY PEDAGOGIKA		
Sh. Abdujalilova	100	Inklyuziv ta’limning o‘zbekiston tajribasi
KORREKSION PEDAGOGIKA		
Z.X. Xusnuddinova	103	Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda nutq kamchiliklarini bartaraf etish texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati
M. Dehqanova	107	Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan ishlarni samarali tashkil etishda daktilemali metodikalardan foydalanish
N. Egamberdiyeva	112	Autizm sindromli bolalarning diagnostika jarayonini tashkil etish
D. Pulatova, Z. Komilova	116	Autizm sindromli bolalar uchun sifatli inklyuziv ta’lim muhitining zarurati
Sh. Kobilova	120	Uzluksiz ta’limda imkoniyati cheklangan ta’lim oluvchilarning ijtimoiy sog‘lom ta’lim muhitini yaratish istiqbollari
ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ		
Р. Джураев	125	Развитие инновационных технологий в образовании и дальнейшее расширение партнёрства
А. Шин	134	Использование цифровых технологий в дошкольном образовании как основной фактар совркменной социализации детей
ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ		
М. Рахимова	140	Важность развития экологического образования и мышления в сознании молодого поколения

Madinaxon ARSLANOVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi p.f.f.d., dotsent v.b.

BO'LAJAK OLIGOFRENOPEDAGOGLARDA INKLYUZIV TA'LIM KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada oligofrenopedagog mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ularda inklyuziv kompetensiyalarni shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va mazmuni haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar. Oligofrenopedagog, maxsus pedagogika, korreksiya, inklyuziv ta'lim, inklyuziv kompetensiyalar, pedagogik shart-sharoitlar, pedagogik jarayonlar, oliy ta'lim.

В статье говорится об организационно-педагогических условиях и содержании формирования инклюзивных компетенций в процессе подготовки специалистов олигофренопедагогов.

Ключевые слова. олигофренопедагог, специальная педагогика, коррекция, инклюзивное образование, инклюзивные компетенции, педагогические условия, педагогические процессы, высшее образование.

The article talks about the organizational and pedagogical conditions and content of the formation of inclusive competencies in the process of training oligophrenic pedagogues.

Key words. oligophrenopedagog, special pedagogy, correction, inclusive education, inclusive competencies, pedagogical conditions, pedagogical processes, higher education.

Inklyuziv ta'lim bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonlarining eng muhim va faol rivojlanayotgan tarkibiy qismi hamda imkoniyati cheklangan bolalar ta'limining umume'tirof etilgan eng maqbul shakli bo'lib kelmoqda.

YUNESKOning ta'lim monitoringi bo'yicha hisobotlarida mazkur toifadagi bolalarning sog'lom bolalarga nisbatan 2,5 barobar kam ta'lim imkoniyatlaridan foydalanilayotganligi keltirilgan bo'lsa, keyingi yillarda dunyo davlatlarining inklyuziv ta'limni tadbiq etish va rivojlantirish bo'yicha faol sa'y harakatlari orqaligina mazkur tafovutni bosqichma-bosqich qisqartirishga umid bog'langan.

O'zbekistonda "Inson qadri uchun" g'oyasi bilan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatda nogironligi bo'lgan shaxslar, jumladan, bolalarning zamonaviy va cheklanmagan ta'lim olishlari masalalari alohida o'rin tutadi.

Jumladan, "nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish" va "yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish" kabi vazifalar mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasidan o'rin olgan va bu o'z navbatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga to'liq mos keladi.

Shu bilan birgalikda, O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni joriy etish istiqbolda inklyuziv jamiyatga o‘tish maqsadlari bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, “biz barcha fuqarolar, jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun bir xil imkoniyatlar amal qiladigan inklyuziv jamiyatni barpo etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiramiz. Shu asosda nogironlikni belgilashning allaqachon eskirgan tibbiy modelidan umume’tirof etilgan ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tishni o‘z oldimizga muhim vazifa qilib qo‘yganmiz”, deya ta’kidlagan edi Prezident Sh.Mirziyoyev.

Ma’lumki, inklyuziv ta’limni joriy etishda uning asosiy tamoyillaridan kelib chiqqan holda, bir qator shartlar (talablar) bajarilishi lozim bo‘ladi. Bular sirasiga esa, asosan, imkoniyati cheklangan bolalarni sog‘lom bolalar ta’lim-tarbiya olayotgan muassalalariga qatnashish, o‘z tengdoshlari bilan bir sinf yoki guruhda bo‘lishini ta’minlash, ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘quv maqsadlari va dasturlarining bo‘lishi hamda ularning butun ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z vaqtida va doimiy qo‘llab-quvvatlab borish kabi masalalarni kiritish mumkin.

Inklyuziya sharoitida bolalarni uzluksiz pedagogik-psixologik va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun esa birinchi galda ta’limning mazkur sohasi uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning, samarali, yangiliklar va o‘zgarishlarga tezkor moslashuvchan tizimini joriy etish masalalari bilan uzviy bog‘lanadi. Umuman olganda, bugungi kunda inklyuziv ta’lim yo‘lidan borayotan barcha mamlakatlar ham bu muammoni to‘laqonli yecha olgan, deb ayta olmaymiz.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda bir qator xorijiy davlatlar misolida inklyuziv ta’lim jarayonini malakali pedagoglar bilan ta’minlash masalalari faol o‘rganilayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Jumladan, bir qator mutaxassis-olimlar o‘z tadqiqotlari davomida olingan natijalarni hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda o‘qituvchilarning aksariyati imkoniyati cheklangan bolalarning boshlang‘ich sinflarda inklyuziv ta’lim jarayoniga kirishiga neytral yoki salbiy munosabatda ekanligi, ularda mazkur toifadagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari borasidagi bilimlar va tasavvurlar yetarli emasligi, ayni paytda maxsus pedagogik bilimlar va ko‘nikmalar sifati ham pastligi, mazkur masalalarga mutaxassislarni tayyorlash va oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichlarida ham sust e’tibor berilayotganligi kabi bir qator holatlar bilan xulosalaydi. Shu boisdan ham bu kabi tadqiqotlarda inklyuziv ta’lim uchun pedagog-mutaxassislarni tayyorlashni davlatning umumiy ijtimoiy siyosatining tarkibiy qismi sifatida tushunish lozimligi ham urg‘ulanadi.

Motivatsion-qadriyatlar, ya’ni inklyuziv ta’lim tamoyillari asosida pedagogik faoliyatni amalga oshirishga bo‘lgan o‘qituvchining ongli hoxish-istagi. Bunda o‘qituvchining inklyuziv ta’limning maqsad va vazifalariga mos bo‘lgan qadriyatlar, ehtiyojlar, motivlar to‘plamiga asoslanib, imkoniyati cheklangan bola bilan ishlash istagidan kelib chiqib o‘zini muayyan kasbiy harakatlarni bajarishga undash qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Kognitiv – pedagogda oliy ta’lim yoki qayta tayyorlash jarayonida shakllangan alohida ehtiyojli bolalarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari va inklyuziv ta’limda o‘quv jarayonini tashkil etish haqidagi nazariy va uslubiy bilimlar to‘plami. Kognitiv kompetensiya maxsus pedagogika sohasidagi innovatsion jarayonlarning ilmiy va kasbiy-pedagogik bilimlari bilan belgilanadi (hozirda bular sirasiga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarni bilish, imkoniyati cheklangan bola shaxsini rivojlantirish, inklyuziv ta’lim va tarbiyaning pedagogik va psixologik, turli toifalardagi o‘quvchilarning anatomik, fiziologik, yosh, psixologik va individual xususiyatlarini bilish kabi bilim, malaka va qobiliyatlarni kiritish mumkin).

Faoliyat – inklyuziv muhitda o‘quvchilarni muvaffaqiyatli o‘qitish va tarbiyalash

uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar (tashkiliy-boshqaruv, kommunikativ, izlanish va tadqiqot) hamda kasbiy tajriba, shuningdek, ish jarayonida oshirilgan malaka, o‘rganilgan va yaratilgan innovatsiyalar kiradi.

Tashkiliy-pedagogik – ya’ni ta’lim jarayonida aniq kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyati sifatida belgilanadi. Tashkiliy kompetensiyalar - inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish, yuzaga keladigan pedagogik vaziyatlarni hal qilish, pedagogik muammolarni mustaqil va mobil hal qilish usullari, o‘z ustida ishlash va tadqiqot faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik faoliyatning o‘zlashtirilgan usullari va tajribasidan iboratdir.

Refleksiv – kasbiy pedagogik faoliyat va uning natijalarini boshqalarga qaraganda ko‘proq va samaraliroq yuzaga chiqarish va bunga intilish qobiliyati. Mazkur komponentda pedagogning o‘zining tor mutaxassislik bilimlarini yanada rivojlantirishi, faoliyatga nisbatan ijodiy va innovatsion yondashuvi orqali kasbiy o‘sishini namoyon qilishi ham nazarda tutiladi.

Mazkur komponentlardan tashqari bizningcha, inklyuziv ta’lim jarayonida o‘qituvchida nafaqat tashkiliy-pedagogik, balki tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasi ham bo‘lishi lozim. Sababi, inklyuziv ta’limni boshlanish davrida har bir ta’lim tashkilotidagi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar, imkoniyatlardan kelib chiqib, shu bilan birgalikda, umumiy me’yoriy-huquqiy, pedagogik va metodik tavsiyalar asosida joriy etish lozim bo‘ladi. Shunday paytda, har bir pedagogdan o‘ziga xos boshqaruv, tashkilotchilik va tashabbuskorlik qobiliyatlari ham talab etiladi.

Shuningdek, bizningcha, inklyuziv kompetensiya pedagogog – mutaxassisning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan inklyuziv ta’lim jarayonini sifatli va samarali tashkil etish uchun zarur bo‘ladigan maxsus bilimlari, kasbiy malakasi, tajribasi va shaxsiy fazilatlaridan iborat qobiliyatlar majmuasidir.

Bo‘lajak oligofrenopedagoglarning bevosita inklyuziv ta’lim jarayonidagi faoliyati ham turli yo‘nalishlar va vazifalarni o‘z ichiga oladi. Mazkur faoliyat mazmuni o‘z navbatida inklyuziv ta’lim konpetensiyalarining ham yo‘nalishlari va mazmunini belgilab beradi.

Oligofrenopedagog mutaxassisning korreksion va rivojlantiruvchi faoliyati bolalardagi me’yoriy rivojlanishdan og‘ishlarni imkon qadar tuzatishga qaratilgan bo‘lib, aqli zaif o‘quvchilardagi sensomotor, muloqot, kognitiv, hissiy hamda xulq-atvor sohalaridagi nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlash, to‘g‘ri tashxislash, shu bilan birgalikda tuzatish va rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik dasturni tuzish, eng samarali texnologiya va metodlarni tanlash, bola rivojlanishining barcha bosqichlarida monitoring va rag‘batlantirish mexanizmlarni to‘g‘ri qo‘llashdan iborat bo‘ladi. Bu o‘z navbatida ayni shu yo‘nalishdagi kompetensiya mazmunini ham tashkil etadi.

Mutaxassis-pedagogning didaktik vazifalari esa, ma’lum bir yoshdagi bolalar uchun turli xil faoliyat turlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida olib borilib, bu jarayonda bolalardagi nuqsonlar darajasi, uning rivojlanish imkoniyatlarini prognozlash, eng muhimi, psixologik, yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, umumiy va maxsus ta’lim maqsadlari, vazifalari va ularga erishish uchun eng maqbul ta’lim-tarbiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog‘liq kompetensiyalarni talab etadi.

Ta’lim va tarbiya uyg‘unligi tamoyili inklyuziv ta’limda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar shaxsining shakllanishi va ijtimoiylashuvi boshqa nuqsonlarga qaraganda murakkab kechadi. Bu bevosita mutaxassisdan o‘z faoliyatini imkon qadar ko‘proq bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga, unda ijtimoiy va axloqiy qadriyat, ijobiy fazilatlar va munosabatlarni shakllantirishga

yo‘naltirilishi bilan bog‘liqdir. Shu boisdan, tarbiyaviy kompetensiyalar deganda, birinchi galda bolaning ma’lum bir ijtimoiy vaziyatlardagi hatti-harakatlari, reaksiya va boshqalar bilan munosabatlarini pedagogik-psixologik jihatdan to‘g‘ri tahlil va talqin qilish, uning rivojlanish imkoniyatlariga mos xolda tarbiyaviy dasturlarni tanlash bilan bog‘liq bilim, tajriba va malakalar tushuniladi.

Inklyuziv ta’limdagi ijtimoiy yondashuvga beriladigan ustunlik, bugungi kunda mutaxassislarda ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalar muhimligi va shartligini ifodalovchi omillardan birini tashkil etmoqda.

Oligofrenopedagogning ijtimoiy-pedagogik faoliyati deganda, aqli zaif bolalarning o‘zini va dunyoni anglashga, tushunishga va bilishga bo‘lgan ehtiyojini to‘g‘ri tushunish, bu borada unga yordam berish, qo‘llab-quvvatlash, jamiyatning barcha institutlari va vakillari bilan imkon qadar ijobiy munosabatlarga kirishiga ko‘maklashish bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirilishi tushunilib, bu jarayonda bolada jamiyat hayotining barcha sohalarida zarur bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarning boshlang‘ich va oddiy darajalarini shakllantirish va rivojlantirish, oila va boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik, ijtimoiy moslashuv va integratsiya ko‘nikmalariga tamal toshi qo‘yish bilan bog‘liq pedagogik mahoratlar yig‘indisi – kompetensiyalar zarur bo‘ladi.

Bugungi kunda inklyuziv kompetensiyalarni faoliyat mazmuni bilan bog‘lash bo‘yicha, o‘z o‘rnida aytib o‘tish joziki, turli yondashuvlar va qarashlar mavjud bo‘lib, bular sirasida biz L.A. Xijnyakning tasnifi va talqinlariga ko‘proq urg‘u bergan bo‘lar edik.

Galda maqolamizda biz yoritmoqchi bo‘lgan masala bu bevosita oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak mutaxassislarda inklyuziv kompetensiyalarni qanday shakllantirish mumkin degan, savolga javob izlashdan iboratdir.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari maxsus ta’lim (oltgofrenopedagogika) yo‘nalishlari talabalari o‘rtasida olib borgan kuzatuvlarimiz, o‘tkazilgan intervyular va o‘quv-metodik hujjatlarni o‘rganish natijalari bo‘lajak mutaxassislar, jumladan, oligofrenopedagoglarni tayyorlash jarayonida ularda kelgusidagi faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan inklyuziv ta’lim jarayoni uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishda qator muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan,

– inklyuziv ta’limning ta’lim tizimi (oligofrenopedagogikada shu jumladan) uchun hali yangiligi, bu yo‘nalishda pedagog mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ham islohotlarning davom etayotganligi sababli yangi paydo bo‘layotgan muammo va masalalarning to‘laqonli o‘quv rejalari va dasturlarida to‘liq ifodasini topmaganligi;

– oligofrenopedagog mutaxassislarni tayyorlashda inklyuziv kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha alohida o‘quv dasturi yoki fanlararo integratsiyaning yetarli emasligi;

– inklyuziv kompetensiyani shakllantirish bilan bog‘liq mavzularning bakalavrlik malakaviy bitiruv ishlari, shuningdek, magistrlik dissertatsiyalari doirasida tadqiq etilmayotganligi, umuman olganda oliy ta’lim muassasalarining ilmiy tadqiqot rejalarida alohida yo‘nalish sifatida belgilanmaganligi;

– talabalar uchun inklyuziv kompetensiyalar bo‘yicha umumiy yoki ularning alohida komponentlari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalarni yaratish zarurati vujudga kelganligi;

– mamlakatimizda inklyuziv umumta’lim maktablari sonining bevosita pedagogik malakaviy amaliyot o‘tash jarayonida bitiruvchilar soniga mos emasligini (bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda) inobatga oladigan bo‘lsak, bu masalalar yanada murakkablashadi.

Ushbu muammolarning yechimi sifatida biz pedagogik oliy ta’lim muassasalarida

bo‘lajak mutaxassislarda inklyuziv kompetensiyalarni samarali shakllantirish uchun quyidagilarni taklif qilishni joiz deb bilamiz:

1-yo‘nalish. O‘quv jarayonini inklyuziv ta’limning istiqbol rivojlanishiga yo‘naltirgan holda tashkil etish.

Ushbu yo‘nalishda o‘quv dasturlari mazmunini talabalarda inklyuziv ta’limning mohiyati, tamoyillari va maqsadlari, bu boradagi xalqaro va milliy me’yoriy – huquqiy hujjatlarni hamda pedagogik tajriba, texnologiya va metodlarni yaxshi bilishi, inklyuziv ta’limni tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalari shakllangan, bitiruvga qadar inklyuziv ta’lim tashkil etilgan muassasalarda amaliyot o‘tagan bo‘lishi, bitiruv malakaviy ishini inklyuziv ta’lim bilan bog‘liq mavzularda tayyorlagan bo‘lishi kabi masalalar inobatga olinadi.

2-yo‘nalish. Bitiruvchilarni inklyuziv ta’lim jarayoniga psixologik va ma’naviy tayyorgarlash. Ushbu yo‘nalishda bitiruvchilarning kasbiy fazilatlari qatorida imkoniyati cheklangan bolalarga g‘amxo‘rlik va xayrixohlik, imkoniyati cheklanganlikka nisbatan ijtimoiy yondashuv tarafdoriligi, fidoyilik, ota-onalar va keng jamoatchilik bilan do‘stona va samimiy muloqot muhitida ishlay olishi, ma’lum qiyinchiliklarga va stresslarga bardoshligigi kabi ma’naviy-axloqiy xususiyatlarni yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

3-yo‘nalish. Oliy ta’limdan keyingi va mustaqil ta’limning inklyuziv ta’lim rivojlanishiga yo‘naltirilganligi.

Bu yo‘nalishda bitiruvchilarni magistratura va tayanch doktoranturalarga jalb etish orqali ilmiy-pedagogik salohiyatni yanada oshirish, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimlari uchun inklyuziv ta’lim bilan bog‘liq yangi avlod dasturlari va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish, turli ilmiy loyihalarni amalga oshirish, konferensiyalar va seminarlar tashkil etish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, inklyuziv ta’limning mamlakatimizdagi bugungi rivoji ildamligi va istiqboli bugungi kunda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bo‘lajak mutaxassislarda inklyuziv ta’lim kompetensiyalarining qay darajada shakllanganligiga bog‘liqdir. Shu boisdan ham mazkur oliy ta’lim muassasalarida yangicha yondashuvlar bilan mutaxassislar tayyorlash tizimining takomillashtirilishi esa ayni zaruratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. 2022-yil 28-yanvar. PF-60-son

3. “Inklyuziv jamiyatni barpo etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiramiz”. O‘zbekiston Prezidenti. https://www.gazeta.uz/uz/2022/12/02/day/ (07.08.2023)

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 13.10.2020 yil. PQ-4860-son.

5. Специальная педагогика. Учебник. Под редакцией Н.М.Назаровой, Москва, “Академия”, 2013. 384 с.

6. Хижняк Л.А. Содержание компетенций педагога инклюзивного образования // Достижения науки и образования. 2016. №4 (5).

7. Наумов А.А., Ворошнина О.Р., Аюпова Е.Е., Лестова Н.Л., Лизунова Л.Р. Инновационные модели инклюзивного образования детей с ОВЗ // МНКО. 2019. №6 (79).

Nilufar KADIROVA,
Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

TEXNOLOGIYA FANINING IJTIMOIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada davlat va jamiyat taraqqiyotida texnologiya fanining tutgan o‘rni, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bu fanning o‘qitishning maqsad va vazifalari, o‘quvchilarni katta hayotda o‘rnini topishdagi ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati, o‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishdagi amaliy jihatlari, ishlab chiqarish va sanoatni rivojlanishidagi ilmiy-nazariy asoslari, ilm-fan va texnologiyalarning muhum yo‘nalishlarini tez suratlarda rivojlanishining asosiy omili ilmiy bilimlarning to‘planishi va fundamental tadqiqotlardan olingan natija jamiyat hayotiga to‘g‘ri yo‘naltirilganligi haqidagi ilmiy farazlar bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar. Texnologik ta’lim, hayotiy ko‘nikmalar, fundamental tadqiqotlar, elektrotexnika, internet, axborot-kommunikatsiya, foton nazariyasi, tranzistor, sanoat inqilobi.

В статье раскрывается роль науки о технологии в развитии государства и общества, цели и задачи преподавания этой науки в общеобразовательной средней школе, образовательно-воспитательная значимость учащихся в поиске своего места во взрослой жизни, ученически-практической аспекты направления молодежи в искусство, научно-теоретические основы развития производства и промышленности, главный фактор быстрого развития важных направлений науки и техники, накопления научных знаний и результатов, полученных в результате фундаментальных исследований. актуальны для жизни общества. Высказываются научные гипотезы о направленности ри.

Ключевые слова. Технологическое образование, жизненные навыки, фундаментальные исследования, электротехника, Интернет, информация и связь, теория фотонов, транзистор, промышленная революция.

In the article, the role of technology in the development of the state and society, the goals and objectives of teaching this science in general secondary education schools, the educational and educational significance in finding a place for students in a big life, practical aspects of student-youth in vocational guidance, scientific-theoretical foundations in the development of production and industry, the main factor in the development of important areas of Science and technology in quick pictures is the accumulation of scientific knowledge and the statement of scientific hypotheses that the result from fundamental Research is correctly oriented towards the life of society..

Key words. Technological education, life skills, basic research, electrical engineering, Internet, information and communication, photon theory, transistor, industrial revolution.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimida olib borilayotgan siyosatning asosiy maqsadi sifatli ta’lim masalasidir. Ta’lim sifati haqida gap ketar ekan, albatta asosiy e’tibor umumiy o‘rta ta’lim tizimiga qaratiladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida umumta’lim fanlari asosida o‘quvchi-yoshlarga jamiyatda mustaqil faoliyat yuritishi uchun hayotiy zarur ko‘nikmalar shakllantiriladi. O‘quvchi-yoshlarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan har bir umumta’lim fanlarining oldiga fanning xususiyatidan kelib chiqib maqsad va

vazifalar belgilab beriladi. Bu maqsad va vazifalar davlat ta’lim standarti asosida me’yorlashtiriladi.

Umumta’lim fanlarining xususiyati va o‘qitish metodikasidan kelib chiqib quyidagi sinflarga ajratiladi:

Aniq fanlar;

Tabiiy fanlar;

Ijtimoiy fanlar;

Amaliy fanlar.

Aniq fanlar o‘quvchilarning aqliy intelektualligini rivojlantirsa, tabiiy fanlar tabiat hodisalarini tushunish, bu hodisalarning qonuniyatlarini o‘rganish, tabiat va inson munosabatlarini kuzatish, eksperimentlar o‘tkazish salohiyatini oshiradi, ijtimoiy fanlar insonlarning bilimi va axloqi orqali ijtimoiylashuvi, jamiyat qonun-qoidalarini tushunishi, burch, ma’suliyat, xaq-huquqlarini anglab yetishi, insonlar bilan faol muloqot qila olish ko‘nikmalarini rivojlanishida asos bo‘ladi, amaliy fanlar negizida o‘quvchilar yuqoridagi fanlardan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda ya’ni, texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘llay olish, jamoaviy ishlash, mehnat qilish usullarini to‘g‘ri tanlash, o‘zgalar mehnatini qadrlash salohiyatini oshiradi. Amaliy fanlar o‘quvchilarni aqliy, jismoniy va ruhiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Masalan, texnologiya ta’limida oddiy qog‘ozdan buklash orqali buyum (kema) tayyorlash uchun matematika, tabiiy fanlardan olgan nazariy bilimlariga tayanadi. Buklash, o‘lchash, rejalash ishlarida aqliy yondoshsa, amaliy bajarishda jismoniy yondoshadi, yasagan buyumi ko‘ngildagidek chiqsa va undan foydalana olsa bola ruhiy zavqlanadi, o‘ziga nisbatan ishonchi ortadi.

Oxirgi yillarda umumta’lim fanlarini optimallashtirish masalasi ko‘rib chiqilmoqda va aksariyat fanlar umumta’lim fanlari qatorida o‘qitilish yoki o‘qitilmaslik masalasi so‘roq ostiga olinmoqda. Mana shunday fanlardan biri texnologiya fanidir. Bu masalaga to‘xtalishdan oldin biz texnologiya fanining maqsadi, vazifasi, o‘ziga xos xususiyati, o‘quvchilarni katta hayotga tayyorlashdagi ahamiyati, ilm-fan va mamlakat iqtisodiyoti rivojidagi o‘rnini tahlil qilib chiqsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Texnologiya ta’limi darslari maktabdagi boshqa fanlar uchun umumdidaktik prinsiplarni qo’llasada, uning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Texnologiya fani orqali o‘quvchilarda ham ma’naviy, ham moddiy madaniy ko‘nikmalar shakllantiriladi. O‘quvchilar umumta’lim fanlari asosida nafaqat ma’naviy madaniyat bilan balki, moddiy madaniyat dunyosi bilan ham tanishib borsalar, o‘zgaruvchan zamonaviy jamiyatga moslashishi osonroq kechadi. Moddiy madaniyat inson faoliyati va uning rivojlanishining barcha sohalarini qamrab oladi. Moddiy va ma’naviy madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, inson hayotining asosiy omillaridan hisoblanadi.

Davlat va jamiyatdagi muammolarga tanqidiy va kreativ yondashadigan, ishlab chiqarish jarayonlarini anglab yetadigan, to‘g‘ri va ongli kasb-hunar tanlay oladigan, o‘zida zarur hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirgan XXI asr o‘quvchisini tayyorlash, ilm-fan taraqqiyoti va davlat iqtisodiyotini rivojlantirishda texnologiya ta’limining ahamiyatli tomonlarini ilmiy-nazariy asoslab o‘tamiz.

Texnologiya ta’limi maktab o‘quvchilari uchun umumiy o‘rta ta’limning kerakli qismidir, ularga qo‘l mehnati va mexanizatsiyalashgan mehnat asoslarini, texnologiyani boshqarish va olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatini beradi. Texnologiya fani o‘quvchilarda aqliy va jismoniy mehnat turlari, mehnat jarayonlari haqida keng tushuncha hosil qilish; o‘quvchilarni hozirgi zamon sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi, qurilish, transport va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan tanishtirish;

o‘quvchilarni boshlang‘ich politexnik bilimlar, texnologik jarayonlar bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ishlab chiqarish sharoitiga tayyorlash; texnologiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarning bilish va qabul qilish (eshitish, ko‘rish, tam bilish, hid bilish, ushlab bilish) sezgilarini rivojlantirish; o‘qish va ijtimoiy foydali ish jarayonida o‘quvchilarda mehnatga oid ko‘nikma, malakalarini va mahoratini oshirish; ongli ravishda kasb tanlashga va boshlang‘ich hunar ta’limini olishga xizmat qiladi.

Barkamol shaxs tarbiyasida, albatta, texnologiya ta’limining alohida o‘rni mavjud. Maktabdagi texnologiya ta’limining tarbiyaviy maqsadi: o‘quvchilarga mehnatga muhabbat, mehnat ahliga hurmat tuyg‘usini singdirish; mehnatga axloqiy va psixologik tayyorlash; mehnatga bo‘lgan qiziqishni oshirish; mehnatsevarlik, mas’uliyat, intizomlilik, burch hissi hamda jamoatchilik hissini tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol topib borishlariga zamin yaratadi. O‘quvchilarda mehnatga bo‘lgan his-tuyg‘uning hosil bo‘lishi ularda do‘stlik, birodarlik, bir-biriga ko‘maklashish, jamoatchilik, hurmat-izzatda bo‘lish kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.


Texnologiya fani o‘quvchilarni zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarini tushunish, zamonaviy texnologik jihozlardan foydalana olish, tadbirkorlik, omilkorlik ko‘nikmalari va kasbga tayyorlash vazifalarini amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarni amaliy texnologik jarayonlarga tayyorlash va ularni boshlang‘ich texnologik jarayonlar (o‘lchash, rejalash, loyihalash, modellashtirish, texnologik hujjatlar bilan ishlash, mahsulot tayyorlash, mahsulotlarga ishlov berish usullarini o‘zlashtirish, kreativ va ijodiy yondoshgan holda yangi mahsulot turlarini yaratish, ishlab chiqarish omillari) bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini egallashlarini ta’minlaydi. Mazkur masala texnologiya fani bilan bir qatorda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida butun ta’lim-tarbiya tizimi hamda barcha o‘quv predmetlari yordamida hal etiladi.

Ilmiy va texnologik faoliyat deganda noma’lum hodisalarni yoritish, yangi tabiiy qonunlar va tamoyillarni kashf qilish orqali yangi bilimlarni yaratish tushuniladi va olingan yangi bilimlar keyinchalik jamiyat rivojlanishida qo‘llaniladi. Fan va texnologiyaning jamiyatga qanday hissa qo‘shishining mohiyati yangi bilimlarni yaratish, so‘ngra bu bilimlarni inson hayotining farovonligini oshirish va jamiyat oldida turgan turli muammolarni hal qilish uchun ishlatishdir. Ilmiy bilimlarning to‘planishi va fundamental tadqiqotlar natijasida olingan xulosalarni taqqoslash orqali fanning o‘ziga xos qiymati ortib borishini ko‘rish mumkin. Ilmiy bilimlar asosini turli xil yangi texnologik tadqiqot va ishlanmalarning xilma-xilligi bilan taqqoslash mumkin. Jamiyat hayotining farovonligini oshiradigan amaliy texnologiyalarni yaratishda tadqiqot va ishlanmalarga, jamiyat oldida turgan turli muammolarga javob berish uchun fan va texnologiyadan foydalanishga ehtiyoj tug‘iladi. Texnologiya inson hayotining qulayligi va farovonligi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan bo‘lsa, tabiiy fan falsafadan kelib chiqqan va odamlarning intellektual qiziqishi bilan qo‘llab-quvvatlangan. Texnologik taraqqiyot turli ilm-fan yutuqlari bilan ta’minlangan bo‘lsada, bu ilmiy tadqiqotlar yangi texnologiyalarni ishlab chiqish maqsadida olib borilgan degani emas, balki ilmiy bilimlardan faqat mavjud bo‘lganligi sababli foydalanilgan. XVII asrda birinchi sanoat inqilobidan keyin fan va texnikaning alohida yo‘llari bir-biriga yaqinlasha boshladi. Ilmiy natijalarni jamiyatda foydalanish uchun texnologiya bilan bog‘lash kontseptsiyasi taxminan 1850-yillardan keyin keng tarqaldi, ya’ni kimyo haqidagi bilimlardan foydalanishga asoslangan kimyo sanoati rivojlana boshladi va elektromagnetizm haqidagi bilimlarga asoslangan elektrotexnika texnologiyalari paydo bo‘ldi. Ilm-fan intellektual dunyo biznesidan uzoqlashdi, ilmiy natijalar endilikda ham makon, ham vaqt nuqtai nazaridan inson faoliyatining chega-

ralarini ochib berdi va inson faoliyati imkoniyatlarini kengaytirdi. XX asrning eng yirik olimlaridan biri Albert Eynshteyn ketma-ket foton nazariyasini e’lon qilganida, tarixdagi eng hayratlanarli yillardan biri edi. Broun harakati nazariyasi va maxsus nisbiylik nazariyasi o‘sha vaqtdagi fizik qarashlarni o‘zgarishi uchun xizmat qilgan.

Texnologiya ta’limi biz uchun ta’lim tizimining yangi sohalariga qadam qo‘yishga bo‘lgan imkoniyatlar eshigini ochadi. So‘nggi yillardagi IT inqilobi kompyuter texnologiyalaridagi ko‘plab ishlanmalarning, jumladan, Alan Tyuring tomonidan taklif qilingan hisoblash mashinasi kontseptsiyasi, Uilyam Shokli, Jon Bardin va Uolter Brattain tomonidan tranzistor ixtirosi, shuningdek, internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridagi boshqa yutuqlarni misol qilish mumkin. Biroq, IT inqilobi nafaqat yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki odamlarga qulayliklar yaratishdan iborat emas, balki butun dunyo odamlariga kibertexnologiyalardan foydalanish uchun ochilgan imkoniyatlar orqali odamlarning xatti-harakatlari va turmush tarzini tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Ilm-fanni zamonaviy sivilizatsiyaning o‘rnatilishiga qo‘shgan hissasining yana bir jihati ilm-fan taraqqiyot bilan ilmiy tafakkur dunyosiga doimiy ravishda tarqalishidir. Ilmiy natijalar yangi mahsulotlar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy va tibbiy taraqqiyotga, boshqa real ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatga katta hissa qo‘shadi. Jamiyat rivojida fan va texnologiyalarning o‘rni shundaki, ilmiy natijalar asosida haqiqiy, foydalanish mumkin bo‘lgan mahsulotlarni, xizmatlarni yaratilishi zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish bilan bog‘liqligi muhim nuqtayi nazardir. Tadqiqot xarajatlari va tadqiqot asbob-uskunalari, jihozlari, tadqiqot muhitining boshqa jihatlarini rivojlantirish, tadqiqot va ishlanmalarni rag‘batlantirish uchun muhim bo‘lsada, eng asosiy talab tadqiqotchilarni ijodiy qobiliyatga ega bo‘lgan holda tarbiyalashdir. Tadqiqotchilar ijodiy qobiliyatlarga ega bo‘lishi, yangi tadqiqot va ishlanmalarga o‘z tashabbusi bilan innovatsion va ijodiy yondashishi kerak. Fundamental tadqiqotlarning rag‘batlantirish inson resurslarini rivojlantirish nuqtai nazaridan ham muhim hisoblanadi.

Asosiy tadqiqotlar va boshqa ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida olingan yangi bilimlarni amaliy qo‘llanmalar asosida mustahkamlash muhim hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot muassasalarida olingan fundamental tadqiqotlar va boshqa ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari amaliy texnologik jarayonlar bilan mustahkam bog‘lanishi uchun s ilm-fan, sanoat va davlat o‘rtasidagi uchlik hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan Fundamental tadqiqotlar boshqa ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida yaratilgan yangi bilimlar tegishli himoya bilan ta’minlanishi va shu bilan birga jamiyat ulardan maksimal darajada foydalanishi kerak.



1-rasm. Davlat va jamiyat, ilm-fan va sanoatning uzviy bog‘liqlik strategiyasi

Jamiyatning asosiy bo‘g‘inlaridan biri oila hisoblanadi, oila muhitining sog‘lomligi, osoyishtaligi, albatta, jamiyat rivojiga salmoqli ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi asosiy omil ro‘zg‘orni boshqarish va ro‘zg‘or yuritishni bilishdadir. Rozg‘orshunoslik ta’limini puxta o‘zlashtirgan yigit va qiz oilasini mustahkam ushlaydi. Ro‘zg‘or tutishda uquvsiz bo‘lgan yoshlar tufayli bugungi kunda mamlakatimizda ajralishlar soni sezilarli darajada ortganini kuzatishimiz mumkin. Bu esa shubhasiz jamiyat sog‘lomligiga yetarlicha salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Texnologiya ta’limi negizida o‘g‘il va qizlarga ro‘zg‘orshunoslik asoslari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar berib boriladi. O‘quvchi-yoshlar kelajakda qaysi sohaning mutaxassisi bo‘lishidan qat’iy nazar, yigitlarimiz oila sohibi va qizlarimiz oila bekasi bo‘lishadi. So‘ngi yillarda ota onalar farzandlarini boqish va o‘qitish uchun pul topishga berilib ketishganligi sababli, o‘g‘il-qizlarimiz ro‘zg‘or ta’limini yetarlicha egallashmayapti va bu ajralishlar sonini ortishiga olib kelmoqda.

Davlat va jamiyat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillardan yana biri, bu o‘quvchi-yoshlarni kasb-hunar egallashdagi kamchiliklaridir. Kasbni ongli va to‘g‘ri tanlagan o‘quvchi yoshlar davlat va jamiyat taraqqiyotiga bor salohiyatini yo‘naltiradi. Kasb-hunarni noto‘g‘ri tanlagan o‘quvchi-yoshlar jamiyatda o‘rnini topishda, ro‘zg‘or yuritishda va farzandlar ta’lim-tarbiyasida ham qiyinchiliklarga uchrashi mumkin. Texnologiya ta’limi orqali o‘quvchilar o‘zlarining bilim imkoniyatlari, iqtidori, moyilligi va kasbga yaroqligi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lib boradilar. Bu ma’lumotlar asosida, texnologiya o‘qituvchilari ko‘magida tog‘ri va ongli kasb-hunar tanlab, jamiyatda, oilada o‘z o‘rniga ega bo‘ladi va mamlakat taraqqiyotiga o‘z xissasini qo‘shadi. O‘quvchilarga kasbdan tashqari, boshqa hunar turlarini ham o‘rgatib boriladi. Texnologiya ta’limi negizida o‘quvchilarga ajdodlardan me’ros bo‘lib kelayotgan milliy va xalq hunarmandchiligi asoslari o‘rgatiladi. Bundan maqsad yo‘qolib borayotgan hunarmandchilik turlarini qayta tiklash va avloddan-avlodga yetkazish, zamonaviy talablar asosida yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish va o‘quvchilarni o‘z-o‘zini band qilishga yo‘naltirish orqali mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishdan iboratdir. Biror kasb-hunar yoki foydali mehnat bilan bilan band bo‘lgan inson albatta jamiyatga zarar keltirmaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, kelajak avlodlar uchun go‘zal yashash muhitini yaratish, o‘z avlodimizning turmush darajasini saqlab qolishda ilm-fan va texnologiyaning roli tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Ilm-fan va texnologiya ham jahon iqtisodiy o‘sishi, ham global atrof-muhitni saqlashning kaliti ekanligini, odamlar hayoti xavfsizligi va farovonligini mustahkamlash hamda mamlakatimizning barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishini anglab yetishimiz qiyin masala emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A., Ishmuhammedov R.J. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T., 2008. – B. 128

2. Sharipov Sh.S., Qo‘ysinov O.A., Ergashev Sh.T., Tohirov O‘.O., va b. Texnologiya fanini o‘qitish va psixologik xizmatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. // O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – T.: “Muhammad poligraf” MChJ, 2017. – B. 80.

3. S.Bekmurodova. Texnologiya fanini o‘qitishga yangicha yondashuv. Metodik qo‘llanma. – Toshkent. 2017. – B. 140.

4. Kadirova N. Texnologiya fani servis xizmati yo‘nalishi darslarida o‘quvchilarning kreativ yondashuvini rivojlantirish. – Monografiya // Farg‘ona: “SUNRISE-PRO” nashriyoti, 2023. – B. 152.

Sunatulla ABDIRASILOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, M.Nabiyev nomidagi “Tasviriy san’at” kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi

TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHISINING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGI MOHIYATI VA MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada talabalarning pedagogik kasbiy kompetentligini rivojlantirish va kasbiy faoliyatiga tayyorlash shuningdek, kompetensiyaga asoslangan yondashuvning maqsad va vazifalari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Kompetensiya, ta’lim, universitet, xalqaro ta’lim, xorijiy so‘zlar lug‘ati, olimlar, institut.kk

В статье раскрыты также цели и задачи компетентностного подхода к развитию и подготовке к профессиональной деятельности педагогической профессиональной компетентности учащихся.

Ключевые слова. Компетенция, образование, университет, международное образование, словарь иностранных слов, ученые, институт.

The article reveals the goals and objectives of the approach based on competence, as well as the development and preparation of pedagogical professional competence of students.

Key words. Competence, education, university, international education, dictionary of foreign words, scientists, institutes.

O‘zbekistonda zamonaviy oliy ta’lim tizimida oliy o‘quv yurtining institut va universitetlarni xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday islohotlardan biri kompetensiyaga asoslangan yondashuvning ta’lim jarayonining metodologik asosi sifatida qabul qilinishidir.

Kasbiy kompetentlikni ta’riflash turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, uning sababi kompetensiya tushunchasining murakkabligi va ko‘p qirraligidir.

Kasb - maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma’lum bir sohada faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta’minlovchi insoniy mehnat faoliyatining turi .

Ilmiy adabiyotlar va lug‘atlar tahlillariga ko‘ra lotincha “competere” (“layoqatli, munosib bo‘lmoq”) so‘zidan kelib chiqqan “kompetensiya” so‘zi shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasini anglatadi.

Muvaffaqiyatli kasbiy sifatlarni aniqlash uchun “kompetentlik” tushunchasidan foydalangan birinchi mamlakatlardan biri AQShdir. Kompetensiyalar nafaqat olgan va o‘zlashtirgan bilimlardan foydalana oladigan, balki nazariy va amaliy vazifalarni hal qilishga mustaqil va ijodiy yondosha oladigan mutaxassisga qo‘yiladigan talablarni aks ettiradi. Kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati zamonaviy mutaxassis qo‘shimcha ma’lumotlar oqimini tushunishi, etishmayotgan bilimlarni topa olishi, mustaqil o‘rganishi, kasbiy bilimlarning yetishmasligini to‘ldirishi, qat’iyatli bo‘lishi, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi va zarur qarorlarni muayyan vaziyatlarda qabul qilishi kerakligi bilan asoslandi.

Xorijiy so‘zlar lug‘ati “kompetensiya” iborasini talqin qilishda ikkita ko‘rinishdagi tushuntirishni ajratadi:

– har qanday mansabdor shaxs yoki organning imkoniyatlari doirasi;

Ma’lum bir qator savollarni egallashi, bilim va tajribaga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan ma’lum bir shaxs.

“Zamonaviy kasb ta’limining lug‘at-ma’lumotnomasi” kompetensiyani “muvaffaqiyatli mehnat faoliyati uchun bilim, ko‘nikma va amaliy tajribani qo‘llash qobiliyati”, kompetentlik esa “shaxsda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kompetensiyaning mavjudligi” deb ta’riflaydi. “Kompetentlik” tushunchasi ta’limning yakuniy natijasini tavsiflash uchun zarurdir va “kompetensiya” tushunchasi pedagogikada ilgari qabul qilingan “Men nimani bilaman”dan farqli o‘laroq, “men qanday qilib bilaman” ma’nosini anglatadi.

Ilmiy adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini ta’riflashda turli qarashlar mavjud. F.Delamare va J.Winterton kompetensiyani ma’lum bir faoliyat talab qiladigan standart xulq-atvor, o‘zini tutish, kompetentlikni ushbu talabga moslik darajasi, ya’ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi sifatida tavsiflaydi.

J.E.Usarov o‘z ilmiy ishlarida kompetensiyaning “ma’lum soha yoki yo‘nalishdagi tajriba va bilimlar, faoliyatni amalga oshirishga bo‘lgan tayyorlikning namoyon bo‘lishi hamda shaxsning turli nostandart holatlarda muvaffaqiyatli harakat qila olishidir” ta’rifini ko‘rsatib o‘tgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili “kompetentlik” tushunchasining turlicha talqin etilishi to‘g‘risidagi xulosaga kelish imkonini beradi:

–“kompetentlik muayyan soha yoki vaziyatda muvaffaqiyatli faoliyat tavsifi sifatida” (Yu. G. Tatur)

– “kompetentlik bilim va ko‘nikmalar, motivlar va qadriyatli yo‘nalganlik tizimi sifatida” (A.K.Markova).

Yu.G.Taturning ta’kidlashicha, kompetentlik – bu “shaxsning o‘z imkoniyatini (bilimlari, ko‘nikmalari, tajribasi, shaxs sifatlari va boshqalar) muayyan sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun amalga oshirishga intilishi va qobiliyatini tavsiflovchi, uning integral xususiyati”.

Amerikalik olimlar nazariyasiga ko‘ra, “kompetentli ishchi”ning eng muhim sifati - bu nizolarsiz muayyan ish sharoitlariga tezda moslashish qobiliyatidir.

Shved va amerikalik olimlar G.Vayler, Ya.I. Lefsted va V. Chipanaxlar o‘zlarining “Kompetensiyani kompleks rivojlantirish” konsepsiyasida kompetensiyani o‘quv jarayonida shaxs tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi deb hisoblaydilar.

Ko‘pgina atama va ta’riflarni ko‘rib chiqib, tahlil qilib, biz shunday xulosaga keldik: kompetensiya – bu insonning olgan bilimlari, ko‘nikmalari va tajribasi qo‘llaniladigan inson faoliyati doirasi va kompetentlik – bu shaxsning sifati yoki xususiyati bo‘lib, u unga ma’lum muammolarni hal qilishda va barcha paydo bo‘lgan muammolarni hal qilishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi.

Kasbiy kompetentlik (lotincha “profession” – rasman belgilangan mashg‘ulot, “profiteer” – o‘z ishini e’lon qilish; “compete” – erishish, moslashmoq, yondashish) mutaxassisning shaxsiy va ishbilarmonlik sifatlarining ajralmas xususiyati bo‘lib, u ushbu turdagi faoliyatni amalga oshirish uchun etarli bo‘lgan bilim, ko‘nikma va tajriba darajasi, shuningdek, uning axloqiy pozitsiyasini aks etadi.

Pedagogik lug‘atda “kasbiy kompetentlik” o‘qituvchining o‘ziga xos xususiyati sifatida, uning o‘qituvchilik faoliyati va pedagogik muloqot sifatini belgilovchi qadriyatlar,

ideallar, pedagogik ong, bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini o‘z ichiga olgan tushuncha berilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilar orasida kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirish muammosini o‘rganishni boshlagan birinchi tadqiqotchilardan biri P.F. Kapterevning aytishicha, pedagogik jarayonda o‘quvchining rivojlanishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirishiga bog‘liqdir.

Ilmiy tadqiqotlarni tahlili asosida biz kasbiy kompetentlik deb insonning tegishli kasbiy sohada muhim va dolzarb qarorlar qabul qilishga tayyorligini va kasbiy faoliyatni yuqori darajada bajarish qobiliyatini tushunishga qaratamiz.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligi – bu kasbiy-pedagogik faoliyatga qobiliyat va tayyorlikni o‘z ichiga olgan, kelajakdagi kasbida psixologik-pedagogik va fan bilimlari, malakalari, ko‘nikmalari va kasbiy jihatdan muhim shaxs sifatlarining mavjudligini talab qiladigan shaxsiy xususiyatlar majmui.

Kasbiy kompetentlik malakali va mas’uliyatli mutaxassisning mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarurdir, shuning uchun u inson faoliyatining ko‘plab sohalarida ko‘rib chiqiladi. Pedagogik kompetentlik nafaqat o‘qituvchilar, balki o‘z farzandlarini tarbiyalayotgan ota-onalar, o‘z qo‘l ostidagi xodimlarni o‘qiydigan tashkilotlar rahbarlari va boshqalar o‘rtasida ham rivojlanishi mumkin.

Bo‘lajak san’at o‘qituvchilarini tayyorlashning kasbiy-pedagogik kompetentligining mohiyatini ochib berish uchun biz oliy ta’lim davlat ta’lim standartining 60111200 – “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” bakalavriat yo‘nalishi bitiruvchilarni tayyorlash mazmuni va darajasiga qo‘yiladigan talablari bilan tanishdik. Davlat standartlariga muvofiq bakalavr kasbiy va pedagogik vazifalarni hal qila olishi kerak.

Pedagogik va kasbiy kompetensiyalar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan va birlikda mavjud, shuning uchun pedagogik xodimlar uchun ularni keng ko‘lamli ta’lim muammolarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan o‘qituvchilar tayyorlashning barcha turlari va jihatlarini yuqori darajada birlashtirgan yagona kasbiy va pedagogik kompetensiya deb hisoblash mumkin. Kasbiy pedagogik kompetensiyaning dastlabki ko‘rsatkichi - bu shaxsga bo‘lgan munosabat, chunki o‘qituvchining kasbiy faoliyati “shaxs – shaxs” tizimidagi faoliyatdir.

Mutaxassisning bir qismi bo‘lgan kasbiy-pedagogik kompetentlikni ikki guruh shaklida taqdim etish mumkin: xususiy va umumiy.

Xususiy kompetensiya – bu mutaxassislarning ma’lum bir doirasiga qo‘yiladigan tizim talablari va ularning birgalikdagi faoliyat uchun zarur bo‘lgan maxsus bilim va tajribasi - bu maxsus kompetensiyalar, ya’ni. o‘qitiladigan fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar.

Umumiy kompetensiyalar ta’lim jarayonining har bir ishtirokchisi ega bo‘lishi kerak bo‘lgan bunday kompetensiyalarni nazarda tutadi – refleksiv, kommunikativ, umumpedagogik, texnologik.

Yuqorida muhokama qilingan materialga asoslanib, biz bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetentligining tuzilishini aniqlash zarur degan xulosaga keldik, bu uning mazmunini belgilaydi.

Keling, avvalo bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy kompetentlikni mazmunini ko‘rib chiqaylik.

L.L. Malinskaya bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi mazmuni 31 ta komponentdan iborat bo‘lib, ular kasbiy badiiy-pedagogikaga yo‘naltirganlik, san’at va pedagogika sohasidagi badiiy-pedagogik kompetensiyalarni egallashi va kasbga ahamiyatli bo‘lgan shaxs sifatlarni o‘z ichiga olganlarni hisoblaydi.

Ushbu mavzuda ko‘plab ilmiy ishlarni tahlil qilib, biz bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetentligi quyidagi komponentlardan iborat degan xulosaga keldik: qiymatli-motivatsion, kognitiv va faoliyatliga asoslangan.

Qiymatli-motivatsiya komponenti – o‘z kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish va unga qiziqish ko‘rsatish, kasbiy-pedagogik kompetentlikni egallashga intilish.

Kognitiv komponent – o‘z kasbining mazmuni, kasbiy-pedagogik kompetentlikni tuzilishini bilish; tasviriy san’at o‘qitish nazariyasi va metodikasini bilish, san’at turlarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash sohasida bilishlik.

Faoliyatli komponent – kasbiy pedagogik malaka va ko‘nikmalarning mavjudligi: o‘z kasbiy pedagogik faoliyatni tashkil etish, kasbiy pedagogik vazifalarni hal qilish metodlari, usullari va vositalarini tanlash, ularning sifati va samaradorligini baholash; maktab o‘quvchilarini o‘qitish jarayonida san’at sintezini qo‘llash, o‘quvchilarning integrativ badiiy rivojlanishi va tarbiyalanishini tashkil etish hamda bunday faoliyatda tajribaga ega bo‘lgan ta’lim muassasasining integratsiya badiiy muhitini yaratish.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligining rivojlanish darajasini baholash uchun mezon va ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan.

Mezon (yunoncha “Kriterion” – fikr yuritish vositasi) – bu nimadir baholanadigan, aniqlangan yoki tasniflanadigan belgi; fikr qilish o‘lchovi va baholash. U muhim xususiyatlarni aniqlaydi va ularning aniq ifodada namoyon bo‘lishining to‘liqligini baholashga imkon beradi. Mezon o‘rganilayotgan ob’ektni baholash vositasi sifatida zarur bo‘lgan vosita shaklida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotning amaliy vazifasi uning samaradorligini ko‘rish uchun mezonlarni ishlab chiqishdir.

Bizning ishimizda mezon bo‘lajak mutaxassis o‘z kasbiy burchini samarali bajarishga va keyinchalik kasbiy-pedagogik muammolarni hal qilishda o‘z kompetentligini samarali namoyish etishga qanchalik tayyorligini baholash mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar to‘plami shaklida namoyon bo‘ladi. Aytishimiz mumkinki, mezon – bu tashxis qo‘yilgan sifat yoki shaxsiy xususiyatning shakllanish sifatining yig‘indisi.

Demak, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetentligining shakllanish darajasini tavsiflovchi asosiy mezonlar uning komponentlariga mos kelishi kerak: qiymatli-motivatsion, kognitiv va faoliyatliga asoslangan.

Qiymatli – motivatsiya mezoni bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy ta’limga bo‘lgan motivlari, maqsadlari, qadriyatlari va ehtiyojlari, kasbiy pedagogik faoliyatga yaxshi shakllangan qiziqishi, kasbiy bilimlar va malakalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan va kasbiy-pedagogik vazifalarni ijodiy hal qilish maqsadida mavjud bilimlarni qo‘llash qobiliyatini aniqlash imkonini beradi.

Kognitiv mezon mutaxassisning kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan kasbiy-pedagogik sohadagi bilimini, ushbu bilimlarning hajmini, uning mobilligini, ushbu bilimlarni kasbiy faoliyatda qo‘llash va ko‘nikmalarni taqqoslash qobiliyatini baholashga qaratilgan.

Kasbiy pedagogik tayyorgarlikning natijasi talabalarning tayyorgarligining asosiy darajasi, shu jumladan shaxsiy va kasbiy farovonlikning muhim omili sifatida bunday tayyorgarlikka qadr-qiymatli munosabatdir; pedagogik borliklari haqida mulohaza yuritish imkonini beruvchi keng dunyoqarash; pedagogika, psixologiya va metodika sohasidagi bilimlar majmuasi; shaxsiy sifatlar, ularning eng muhimi – xushmuomalalik va ishbilarmonlik; pedagogik texnologiyasini egallash; xulq-atvori va faoliyati uchun javobgarlik.

Faoliyatli mezon bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyatdagi

mahoratini, kasbiy-pedagogik faoliyatda shakllangan ko‘nikma, malaka va tajribani baholash uchun zarurdir.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentligining shakllanganlik darajalarini tavsiflash uchun biz quyidagi mezon va ko‘rsatkichlarni aniqladik.

Tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetentligini shakllanganlik mezonlari va ko‘rsatkichlari

Mezonlar	**Qiymatli-motivatsi**ya
Ko‘rsatkichlar	– o‘z kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish va unga qiziqish ko‘rsatish; – kasbiy va pedagogik faoliyatni sifatli bajarish istagi; – kasbiy o‘zini-o‘zi takomillashtirishga doimiy intilish; – tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyatiga qadr-qiymatli munosabati.
	Kognitiv
Ko‘rsatkichlar	- kasbingiz mazmuni, kasbiy-pedagogik kompetentlik tuzilishi haqida bilish; - kasbiy-pedagogik faoliyatni o‘qitish nazariyasi va metodikasini bilish; - maxsus fanlarning nazariy va amaliy asoslarini bilish.
	Faoliyatli
Ko‘rsatkichlar	– kasbiy-pedagogik ko‘nikma va malakalarni shakllanganligi: – nostandart fikrlash qobiliyati (ijodkorlik); – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish qobiliyati; – kasbiy-pedagogik vazifalarni hal qilish metodlari, usullari va vositalarini tanlash, ularning sifati va samaradorligini baholash qobiliyati; – maktab o‘quvchilarini o‘qitish jarayonida san’at sintezini qo‘llash qobiliyati; – talabalarning integrativ badiiy rivojlanishi va tarbiyasini tashkil etish qobiliyati; – kasbiy-pedagogik vazifalarni mustaqil hal qilish qobiliyati.

Har qanday rivojlanish jarayonini bir darajadan boshqasiga, murakkabroqqa va sifatliga o‘tishini o‘rganish uchun darajali yondashuv asos bo‘ladi. Ilmiy adabiyotlarda daraja “biror narsaning rivojlanishida erishilgan bosqich, sifat holati, uning rivojlanish darajasi” deb ta’riflanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, shuningdek, malaka talablarini hisobga olgan holda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirishning uch darajasini aniqladik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O. // Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent: “Fan va texnologiya”. 2008. – 467 b.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. - Toshkent: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 592 b.

3. Иванов, Д. А. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании. – М. : Чистые пруды, 2007. – 32 с.

4. Словарь-справочник современного российского профессионального образования: Блинов В. И. , Волошина И. А., Есенина Е. Ю. , Лейбович А. Н. , Новиков П. Н. . – Выпуск 1. – М.: ФИРО, 2010. – 19 с.

Ne’matjon BEKMURATOV,
Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi
Isroiljon URINBAYEV,
Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi

TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHISINI KASBIY-METODIK TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada hozirgi zamonda dolzarb bo‘lib hisoblangan masala, ya’ni, tasviriy san’at o‘qituvchisini kasbiy-metodik tayyorlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari haqida yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Perspektiva, rangshunoslik, optika va yorug‘soya qonunlari, anatomiya, ufq chizig‘i, kuzatish nuqtasi, buyum va suvrat tekisligi, kesishish nuqtasi, blik, refleks, pedagogik-psixologik, pedagogik texnalogiya, xotira, tafakkur.

В статье рассматривается актуальная проблема, а именно педагогико-психологические возможности профессионально-методической подготовки будущего учителя изобразительного искусства.

Ключевые слова. Перспектива, цветоведение, оптика и законы света и тени, анатомия, линия горизонта, точка наблюдения, плоскость предмета и изображения, точка пересечения, взгляд, рефлекс, педагогико-психологическая, педагогическая технология, память, мышление.

The article covers the issue considered relevant in modern times, that is, the pedagogical-psychological possibilities of professional-methodological training of a teacher of Fine Arts..

Key words. Perspective, color science, optics and light and shadow laws, anatomy, horizon line, point of observation, object and image plane, point of intersection, gaze, reflex, pedagogical-psychological, pedagogical technology, memory, thinking.

Mamlakatimiz Prezidenti ham O‘zbekistonning kelajagi uchun yetuk shaxs tayyorlash maqsadida fanlarni zamon talabi darajasida o‘qitish zarurligini ta’kidlagan. Buning uchun umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, yosh avlodga puxta ta’lim berish har bir dars soatlaridan unumli foydalanish, darsda samaradorlikni oshirish chora-tdbirlarini izlab topish bugungi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining asosiy vazifasiga aylanib kelmoqda. Ushbu nuqtayi nazardan o‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish, nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy zaruriyat talabidan kelib chiqqan holda demokratik, fuqarolik jamiyatining faol ishtirokchisini shakllantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Tasviriy san’at darslarining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni shu fanga qiziqtira olish har bir pedagogning diqqat e’tiborida bo‘lishi lozim.

Oliy ta’limda tasviriy san’atni o‘qitishda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisidan bilim-malakalarning yuqori saviyada o‘tilishi mashg‘ulotlar mazmunidan kelib chiqqan holda dars materialini tushuntirish, asoslash, ko‘rsatish, takrorlash kabi bayon etishning eng qulay, samarali metodlari orqali olib boriladi.

Buning uchun yosh mutaxassislar doimo bilimlarini mustahkamlab o‘rgangan har bir detallarni xotirada eslab qolishlari muhim. Shu bilan birga bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisida faolligi, diqqati, sinchiklab o‘rganish va mustaqil ishlashga ko‘nikmalar

shakllanib boradi. Bu ko‘nikmalar tasviriy san’atning har bir jabhasida shakllantirishida muhim hisoblanadi. Bu ko‘nikmalar bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisida quyidagilarni rivojlantiradi:

– tasviriy san’at asarlari jamiyatimizni ma’naviyatini boyitishga xizmat qilishini tushunib yetishi;

– ijodiy asrlar tasvirlaganda tasviriy san’atning barcha qonun va qoidalarini qo‘llay olishi;

– o‘quvchilarga tasviriy sanatni sirlarini o‘rgarishda nazariyani amalyotda qo‘llay olishiga erishishi;

Yuqorida aytib o‘tkanimizdek oliy ta’limda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituv-chisining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirish tizimini takomillashtirishda mustaqil ishlashga bo‘lgan ko‘nikmalarini shakllantirish muhim. Mustaqil ishlash ularda perspektiva, rangshunoslik, optika va yorug‘ – soya qonunlari, anatomiya, ufq chizig‘i, kuzatish nuqtasi, buyum va surat tekisligi, kesishish nuqtasi, blik, refleks qonuniyatlarini amaliy ishlar davomida rivojlantirib boriladi.

Pedagog hamisha o‘z ustida ishlab yangiliklardan xabardor bo‘lib faoliyatida qo‘llay olishi muhim. O‘quvchilarni har bir darsda har hil yangiliklar bilan o‘qituvchilar o‘ziga jalb qilib olishi zarur. Bunda o‘qituvchilar naturani o‘ziga qarab ishlashga o‘rgatishda qo‘l keladi. Natyurmortni tasvirlashda yorug‘ – soya o‘quv-chilarga yaxshi ko‘rinishi uchun sun’iy yoritgichdan foydalanilsa ularga yorug‘-soya qonuniyatlarini oson tushunishiga ko‘maklashadi. Qachonki o‘quvchilar yorug‘ – soyani chuqur o‘rgangandagina qog‘oz tekisligidagi tasvirning hajm-dorligiga erishishlari mumkin.

Darslarni kuzatar ekanmiz talabalar orasida fanlarni yaxshi o‘zlashtirmaganlar ajralib qoladi. Sababi bunday talabalar darsdan tashqari mustaqil tarzda o‘z ustida ishlamaydilar. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki insonda iqtidor iste’dodga mehnat orqali erishish mumkun ekan. Shunday ekan bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘quvchilarni harakat va qobiliyatlariga qarab mashg‘ulotlarni to‘g‘ri taqsimlashi muhim. Bazi o‘zlashtirishi past o‘quvchilar bilan imkon qadar individual tarzda dars davomida yoki darsdan tashqari mashg‘ulot olib borishi kerak. Ularga tajribali rassomlar asarlaridan nusxa ko‘chirish vazifalari orqali ularning tajribasi va mahorati rivojlanishiga yordam beradi.

Yaxshi o‘zlashtira ololmayotgan o‘quvchilarga asosan “oddiydan murakkabga” usulidan keng foydalanadilar. Avvalo bunday o‘quvchilarga oson predmetlardan chizdirib borilsa ularni mavzularni tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga ular ularnig iqtidorini shakllantirish uchun yoshi, pedagogik-psixologik xususiyati, bilimi va qiziqishlarini hisobga olish muhim jarayon hisoblanadi.

Bunda o‘quvchilarning yoshi, pedagogik-psixologik xususiyati, bilim daraja- si, tayyorgarligi, qobiliyati muhim rol o‘ynaydi. Masalan, tasviriy san’atni o‘qitishda yaqindan uzoqqa borish prinsipida ish tutish maqsadida o‘qituvchi avval bolalarga yaqin bo‘lgan O‘zbekistonning tabiati, xalqimizning turmushi, mehnatini tasvirlovchi O‘zbekiston rassomlari asarlarini, so‘ngra O‘rta Osiyo, Sharq, Yevropa mamlakatlari san’atini o‘rgatadi.

Tasviriy san’at o‘qituvchisi har bir darsga puxta tayyorgarlik ko‘rib o‘quvchilarga yangidan yangi bilimlarni berib borish zamon talabi hisoblanadi. Hozirgi texnika davrida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanib, dars samaradorligini oshirib borishi lozim. Ta’limdagi didaktik prinsiplar talabalarga mavzularni yaxshi o‘zlashtirishga yordam bersa ularning badiiy ta’limi, tarbiyasi va rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shib boradilar. Shuning uchun pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini, tarixini, mazmun-mohiyatini o‘rganib, ularni bugungi maktablar faoliyatida qo‘llashning yo‘l-yo‘riqlari, metodlari, didaktik tamoyillari bo‘yicha pedagogik eksperiment, tajriba,

kuzatishlar o‘tkazilib, ularning natija va ilmiy xulosalari mamlakatimiz matbuotida e’lon qilib kelinmoqda.

Topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi katta ahamiyat kasb etadi. Mustaqil fikrlash jarayonida topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarni mustaqil ravishda hal etishlari, qo‘yilgan vazifalariga javob topa olishlari bilan belgilanadi. Ular o‘quvchilar faoliyatida turlicha shaklda ifodalanadi. Ayrim o‘quvchilar vazifalarni bajarishda turli yo‘llarni izlaydilar, muammoning yechimini asoslashga harakat qiladilar. Boshqalar qiyinchilik sezishlari bilanoq darrov o‘qituvchiga, o‘rtoqlariga murojaat qiladilar. Yana boshqa toifadagi o‘quvchilar qiyinchilikka duch kelishlari bilan taslim bo‘lib qo‘ya qoladilar va o‘ylashdan to‘xtaydilar.

Tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy metodik tayorgarligini takomillashtirishda psixologik xususiyatlarini ya’ni shaxs psixologiyasi, bilish jarayonlari, tasavvur, tafakkur, nutq, xotira, hayajon va iroda kabi tushunchalarini anglab yetmasdan turib, tasviriy san’atning kompozitsiya mashg‘ulotlarini yuqori saviyaga erishib bo‘lmaydi. Buning uchun esa, quyidagi xususiyatlariga e’tiborga olish zarur.

Tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishda shaxs psixologiyasi chuqur o‘zlashtirishi muhim. Shaxs psixologiyasi tarkibiy qismlari o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

– tasviriy faoliyatlarda shaxsning dunyoqarashlari, e’tiqodi, ehtiyoji va g‘oyalari;

– shaxsni shakllantirishda o‘qituvchining roli;

– bilim, malaka, ko‘nikma va odatlar;

– diqqat, faoliyatning turlari va xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

Tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishda bilish jarayonlarini anglab yetish darkor. badiiy ta’limda bilish jarayonlari bu: Sezish, his qilish bo‘lsa, uning turi va asosiy qonuniyatlaridan biri ranglarni his etish qonuniyatidir. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining faoliyati davomida o‘quvchilarda idrok etish jarayonining umumiy qonuniyatlari bilan bir qatorda tasviriy faoliyatda ya’ni badiiy ijodda tasavvurini uyg‘ota olishi zarur. Xotira, tafakkur, uning tur va shakllari fikrlash faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari. Nutq esa uning turlaridan biridir.

Tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida psixologik xususiyatlaridan hayajon, iroda va hissiyot turlarini, o‘quvchilarda hissiyotni o‘stirish va shakllantirish; hamda irodani tarbiyalash muhim o‘rinni egallaydi. Tasviriy san’at o‘qituvchisining o‘quvchilarni tarbiyalashdagi asosiy individual-psixologik xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quvchilarni xarakteri xususiyatlari, umumiy qobiliyat va ularlarning psixologik tavsifi o‘stirish va shakllantirish kabi tushunchalar bayon etiladi.

Abu Rayhon ibn Ahmad Beruniyni fikricha, inson bilish, tushunish, fikrlash, muhokama qilish, o‘ylab topish singari iste’dodga egadir. Inson taffakurining qudrati shundaki, u uning yordamida voqea va hodisalani bir-biriga solishtirish, tahlil qilish orqali rostni yolg‘ondan, adolatni adolatsizlikdan, yaxshilikni yomonlikdan, haqiqatni esa nohaqlikdan ajratish mumkinligi haqidagi fikr yuritish operatsiyalari har qanday fanning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishni isbotlaydi. U bilish lozim bo‘lgan hodisa va voqeani maydalab bo‘lib-bo‘lib o‘rganish uchun taffakurni tahlil qilish operatsiyasidan foydalanish g‘oyasini ilgari suradi. Shundan ko‘rinib turibdiki shoir ham, o‘qtuvchi ham, ilg‘ab ololmagan mohiyatni tasviriy san’at asarlari orqali yoritib boriladi.

“Rassom ruhiy jihatdan hayolparast va nevrotik o‘rtasida turadi ulardagi psixologik jarayon mohiyatan bir xil u faqat pog‘onalar bilan farq qiladi .” tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘quvchilarga asarlarni tasvirlashda psixologik ruhiy kechin-malarini yoritib boradi. Psixologlar bu jumlaning ma’nosiga ko‘ra, ongsizlik bizning ongimizdan tashqarida, ya’ni bizdan yashirin, bizga noma’lum narsadir va shuning uchun u o‘zining tabiatiga ko‘ra noma’lum narsa ekanligini ta’kidlashga moyil edilar. Nazariyadan shu-

ni ko‘rishimiz mumkinki, odam hissiyotlarini anglashda bevosita tasviriy san’at orqali amalga oshiriladi.

Eng avvalo bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi san’at orqali o‘quvchilarning dunyo qarashini o‘zgartitib yuborishiga sabab bo‘ladi. Tasviriy san’at yuqorida aytib o‘tkanimizdek ular o‘quvchilarni tasavvur dunyosini shakllantirib, uning ruhiy olamini kuzatib rivojlanishiga yordam beradi. Natijada o‘quvchilarning ishlagan ishlaridan ruhiyatidagi kamchiliklarni tahlil qilib hayotiy obrazlarda fantaziyalarini ko‘rsatib beradilar. O‘quvchilarning badiiy ijodiy faoliyatiga yo‘l ochadi.

Shunday ekan bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘quvchilar badiiy tassavur his-hayajon, his-tuyg‘ularining ularning onggida ishtirokchisiga aylanishi muhim. Talabalar tasviriy san’atni chuqur o‘rganish bilan inson psixologiyasini bilish talab etiladi. O‘quvchilar psixologiyasini tushunishda mashg‘ulotlar davomida ularning xotira, tasavvur, nutq, tafakkurlarini sinchiklab kuzatib borishi lozim. Buning uchun o‘qituvchi o‘z ustida muntazam ishlashi va badiiy kitoblarni ko‘proq o‘qisagina bunga erishadilar.

Biror bir ijodiy kompozitsiya ishlash uchun talabalar avvalo badiiy kitoblarni ko‘p o‘qishi bilan ulardagi obrazlar orqali ruhiy fazilatlarini tarbiyalab boradi. Natijada esa ular jamiyatizdagi manaviy muhitni yanada boyitishda, qadr-qimmatini o‘stiruvchi tafakkurni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Hech bir insonga sir emaski ruhiy olamiga ongdagi jarayonlarini qanday ekanligini tez anglab olishning oson yo‘llari musiqa va tasviriy san’atdir. Tasviriy san’atdagi tasvirlangan asarlar yoki o‘zlari chizgan chiziqlar orqali uning hayotidagi faoliyatidagi obrazlarni ko‘ramiz. Ular tasvirlagan obrazlar orqali tabiatdan xulq atvori salbiy yoki ijobiy ekanligini yoritib beradilar.

Tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘quvchilarga ijobiy obrazlarda xalqimizning urf odatlari, milliy ananalari, boy tariximizni gavdalantirishda yordam beradi. Ularda milliy g‘oyani rivojlantirishga mazmun bilan to‘ldirishga imkon yaratadi. Bunday yondashuv yangidan yangi ijodiy kompozitsiyalar tasvirlashga yo‘l ochadi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy boshqarishga tayyorlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlaridan kelib chiqib ijodiy kompozitsiyalarida tomoshabinga tezroq yetib borishi uchun ranglar uyg‘unligaga etibor berishi muhim. Har bir rangning inson ruhiy olamini boyitishda o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.

2. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T.: Moliya, 2003; N. Azizxojayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: TDPU, 2003;

3. Vigotskiy L.S. Psixologiya iskusstva 1998 y 92-b

4. Gilford, Dj. Tri storoni intellekta. // Psixologiya mishleniya / Dj. Gilford – M.: Progress, 1999.

5. Nishonova Z.T “Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari Psixologiya” fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. –T.: 2005. 41-b

Munojat ABRALOVA,
Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik Markazi bosh mutaxassisi
Zabarjat ABRALOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING SANOGEN TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada sanogen tafakkur muammosining dolzarbligi hamda nazariy asoslari tahlil qilinib, o'quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish jarayonining fazalariga ustuvorlik berish va sanogen xulq-atvorga oid tarkibiy komponentlari mazmuni yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida sanogen tafakkurni isloh etish, pedagogning ushbu jarayondagi ishtiroki tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar. Sanogen tafakkur, patogen tafakkur, sanogen refleksiya, sog'lom fikr yuritish, sanogen xulq-atvor.

В статье анализируется актуальность и теоретические основы проблемы саногенного мышления, освещается приоритетность фаз процесса развития саногенного мышления у читателей и содержание структурных компонентов саногенного поведения. Также, анализируется реформирование саногенного мышления у младших школьников, участие педагога в этом процессе.

Ключевые слова. Саногенное мышление, патогенное мышление, саногенная рефлексия, здравый смысл, саногенное поведение.

The article analyzes the relevance and theoretical foundations of the problem of sanogenic thinking and highlights the content of its structural components related to prioritizing the phases of the process of developing sanogenic thinking and sanogenic behavior in students. Also, the reform of sanogenic thinking in primary school students, the participation of an educator in this process are analyzed.

Key words. Sanogenic thinking, pathogenic thinking, sanogenic reflex, common sense, sanogenic behavior.

Yangi O'zbekistonda mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar sifatida belgilangan.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida o'z xatti-harakatlarini, his-tuyg'ularini, kayfiyatini nazorat qilishi kerak. Buning uchun u o'zini chuqurroq anglashi lozim. Har bir inson nafaqat o'zining his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini nazorat qilishi, balki muayyan qoidalarga muvofiq fikrlash tarzini ham nazorat qila olishi kerak. Mazkur holat bilan bog'liqlikda pedagog-psixolog olimlar fikrlashning ikkita turini ajratib ko'rsatishadi: sanogen va patogen fikrlash.

Sanogen tafakkur (lotincha: “sanus” - sog‘lom va yunon tilida – “genezis” – rivojlanish) his-hayajon, ichki kechinmalar, fikrlarni va emotsiyalarni boshqaruvchi, sog‘lomlashtiruvchi tafakkur.

Patogen fikrlash bu insonning salomatligiga zarar yetkazuvchi salbiy qarashlar yig‘indisi bo‘lib, u shaxsning o‘z-o‘zi va shaxslararo munosabatlar jarayonida vujudga keladigan emotsional beqarorlik va ichki nizolar bilan izohlanadi.

Sanogen tafakkurning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan professor Y.M.Orlov insonning ruhiy salomatligi masalasiga to‘xtalib, quyidagi fikrni bildirib o‘tadi: “Sanogen tafakkur yuritish hayot falsafasining, ong va tana salomatligining eng ishonchli yo‘llaridan biridir. Ushbu metodika yangi hissiy-aqliy odatlarni yuqori darajada o‘zlashtirishga imkon beradi, o‘tmishdagi patogen fikrlash tajribasini to‘playdi. Sanogen tafakkur inson ongini sog‘lomlashtirishning samarali usuli hisoblanadi. Ya’ni, insonning hayotiy faoliyati davomida yuzaga kelgan inqirozli holatlarini ruhiy qo‘llab-quvvatlash yordamida, hissiy-emotsional o‘z-o‘ziga ta’sir ko‘rsatish orqali bartaraf etish usuli.”

O‘z mulohazalarini davom ettirib, olim quyidagi fikrlarni qat’iy ta’kidlab o‘tadi: sanogen tafakkurning asosiy ahamiyati o‘z-o‘zini kamolga yetkazish maqsadlariga erishish uchun sharoit yaratish, ya’ni fe’1-atvor hamohangligi, o‘z-o‘zi va atrofdagilar bilan kelishish, shuningdek, yomon odatlarni bartaraf etish, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, o‘z ehtiyojlarini nazorat qilish deb hisoblaydi.

O‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik muammolarini tadqiq etgan Z.A. Abdiraxmonovaning fikricha, sanogen tafakkurni rivojlantirish fikrlashdagi refleksivlik va o‘z-o‘zini rivojlantirishga nisbatan ehtiyojning yuqoriligi bilan belgilanib, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish, shaxs xususiyatlari va xulq-atvoriga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar ta’lim jarayoni, shaxslararo munosabatlar, kasbiy kamolot kabi ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. T.N.Vasilyeva o‘qituvchining sanogen fikrlashiga bolani sanogen tarbiyalash vositasi sifatida jiddiy e’tibor beradi hamda o‘quvchilarda sanogen fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi korreksion-rivojlantiruvchi o‘yinlar va mashqlar to‘plamini ishlab chiqadi. A.B.Rossoxin sanogen fikrlash usulining quyidagi ijobiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi: sog‘lom fikrlash ko‘nikmalarini o‘zlashtirish shaxsda ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlaydi; sanogen fikrlash aqliy faoliyatning xilma-xilligi va mustaqilligini ta’minlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Ta’lim jarayoniga ontologik yondashuvdan kelib chiqib, sanogen tafakkur muammosini tadqiq etgan I.M.Spivak aynan sog‘lom fikr yuritishni yangicha xulq-atvor shakli sifatida baholaydi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotchi sanogen xulq-atvorning quyidagi komponentlarini ajratib ko‘rsatadi: refleksivlik, yo‘naltiruvchi, boshqaruvchi hamda mazmunli. Ontologik yondashuv yosh omili va yoshga doir xususiyatlarni inobatga olishni talab etadi. O‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini aniqlashtirishda ontologik yondashuv xususiyatlariga asoslanib faoliyat bosqichlarini belgilab olish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sanogen tafakkurni rivojlantirish omillari: tafakkur xususiyatlarini o‘stirish, o‘quv jarayoniga nisbatan bilish jarayonlarini mustahkamlash va shaxsning tafakkur xususiyatlari bilan bog‘liq ko‘nikma, malakalarni, emotsional bilimdonlikni shakllantirish, oilada ma’naviy sog‘lom muhitni yaratish, bolaga uning shaxsi shakllanishiga yordam berish omili, bolani yoshligidan o‘qib o‘rganishga odatlantirish omili; yoshlikdan halollik, to‘g‘riso‘zlik, mehnatsevarlik fazilatlarini, inson qadr-qiymati, vafo, sadoqat, sabr-qanoat, shukronalik tuyg‘ularini shakllantirish omili; oilaviy muno-

sabatlardagi ta'lim-tarbiyaning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi; jamiyatda o‘rnatilgan ijtimoiy tartib-qoidalarga rioya qilish, empatiya, ta'lim muassasalarida kuchli bilimlarning berilganligi va ustoz-shogird tizimining ratsional ravishda kechishi kabilardan iborat.

Sanogen fikr kishisi hamisha o‘z qarashlarini ijobiy asoslaydi, kerak bo‘lganda himoya qilib, to‘g‘ri xulosa chiqaradi, o‘z burchini adolatli baholaydi. Sanogen tafakkurga ega inson ichki nizoni ijobiy bartaraf etadi. Shuning uchun yurtimizda sanogen tafakkurga ega shaxslardan iborat barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish zaruriyatini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

birinchidan, yaqin vaqtgacha sanogen tafakkur muammosining asosan psixologik jihatlari ko‘rib chiqilgan. Zamonaviy voqelik nuqtayi nazaridan, uning pedagogik jihatlarini o‘rganish uchun jiddiy ehtiyoj mavjud;

ikkinchidan, sanogen tafakkur shaklining pedagogik hodisa sifatida mohiyatini ochib berish, uning tarkibiy qismlarini aniq belgilash, shaxsning patogenli (nosog‘lom) fikrlashga nisbatan barqaror munosabatlarini belgilovchi omillarni aniqlash;

uchinchidan, sanogen tafakkur xususiyatlarini rivojlantirish jarayoni unga ta'sir etuvchi omillarni, pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirishni va ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi. O‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish tizimli va faoliyatli yondashuvni talab etadi. Shundan kelib chiqib, sanogen tafakkurni rivojlantirishning asosiy komponentlarini quyidagicha belgilashimiz mumkin:

– motivatsion – sanogen fikrlashga nisbatan qiziqish uyg‘otish;

– mazmunli – sanogen tafakkur haqidagi bilim va ko‘nikmalarni, umummadaniy, kasbiy va maxsus xarakterdagi kompetensiyalarni qamrab oladi;

– faoliyatli – harakat usullarini qamrab oladi, fikrlashga oid mantiqiy jarayon, shuningdek, amaliy faoliyat usullari;

– refleksiv – shaxsning kasbiy va ijodiy faoliyati haqida fikrlashi va tahlil etishi;

qadriyatli – shaxsning o‘z-o‘zini, tafakkur tarzini rivojlantirishga nisbatan qadriyatli munosabatning mavjudligini belgilaydi.

O‘quvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirish ularning kelgusidagi faoliyatini to‘g‘ri tashkillashtirish, yuqori kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minlash bilan birgalikda, quyidagi ijobiy holatlarni keltirib chiqaradi:

– sanogen fikrlash tarzi shaxsning ham ruhiy, ham jismoniy va ma'naviy jihatdan sog‘lom bo‘lishiga xizmat qiladi;

– sanogen fikrlash o‘quvchilarning ta'lim olish jarayonida to‘g‘ri ko‘rsatmalar va xulosalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Ayni paytda, maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirish uchun evristik usullardan foydalanish ijodkorlikning algoritmik usullaridan foydalanish bilan birlashtirilishi kerak. Adabiyotlarni tahlil qilish asosida (G.S. Altshuller, V.A.Buxvalov, A.A.Gin, M.A.Danilov, A.M. Matyushkin va boshqalar) ijodiy vazifalarga qo‘yiladigan quyidagi talablarni ajratish mumkin:

– ochiqlik (muammoli vaziyat yoki ziddiyatning mazmuni);

– shartning tanlangan ijod usullariga muvofiqligi;

– turli xil yechimlarni topish imkoniyati;

– hozirgi rivojlanish darajasini hisobga olgan holda;

– o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Ijodiy vazifalar tizimi uchun tarkibni tanlashda ikkita omil hisobga olindi:

1. Kichik maktab o‘quvchilarining ijodiy faoliyati asosan jamiyat tomonidan hal qilin-

gan muammolar bo‘yicha amalga oshiriladi.

2. Boshlang‘ich maktab predmetlari mazmunining ijodiy imkoniyatlari.

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning eng muhim pedagogik shartlari quyidagilardir:

– faoliyatning mohiyatini o‘zgartirish;

– bolalarning ta’lim faoliyatida xayrixohlik muhiti;

– jamoaning shakllanishi.

Badiiy va ijodiy faoliyatni tashkil qilishda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir strategiyasini tanlash muhimligini esga olish lozim. Amalda, tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, o‘zaro ta’sir strategiyasini tanlashda odatda ikkita usul qo‘llaniladi:

– tashqi tomondan rivojlanish, shaxsning ichki dunyosiga aralashish sifatida, unga ishlab chiqilgan usullar, faoliyat normalari va xatti-harakatlarini yuklash;

– faollik, mustaqillik, mas’uliyatni rag‘batlantirish, shaxsga hurmat ko‘rsatish, unga xos bo‘lgan imkoniyatlarni ochib berish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish kabi ichki tomondan rivojlanish.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo‘nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan, o‘quvchilarda ijodkorlik, ijodiy faoliyatni rivojlantirish lozimligi kun tartibidagi muammo bo‘lib qoldi. Zero, 1-4 sinf o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olish, ta’limni samarali tashkil etishda darslarni noan’anaviy tarzda o‘tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish ularni har tomonlama yetuk bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019- y.

2. Abdiraxmonova Z.A. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Diss. avtoref. 2020. - 48 b.

3. Кананчук. Л.А. Саногенная рефлексия как фактор адаптации студентов в полиэтнической среде вуза. Автореф. канд. дисс. М., 2010.

4. Ismailov M. K. Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirish komponentlari va uning pedagogik-psixologik xususiyatlari //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. –2021. –T.: № 8. – C. 509-522.

M.S. NIMATOVA,
TAFU, ‘‘Pedagogika’’ kafedrasi tadqiqotchisi

MAKTABGACHA TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA TOPSHIRIQLAR BAJARISHIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim turkum fanlarni tashkil etish va uni o‘qitish ta’limda talabalarning mustaqil o‘quv topshiriqlarini rivojlantirishda amaldagi holati va istiqbollari, oliy ta’lim muassasalarini ilg‘or jahon tajribalari asosida oliy ta’lim tizimining tamoyillari, ta’lim oluvchi, ta’lim natijalarini tan olinishi. Ta’lim traektoriyasini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratilishi va akademik mobillik, baholarning to‘planib borilishi, Professor-o‘qituvchi, talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini tashkil etish va uni o‘qitish pedagogika faniga qiziqishi, hamda aniq belgilangan baholash tizimini joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar. Metodika, pedagogik xususiyatlar, oliy ta’lim, chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayorgarlik, tashkil etish, o‘qitish metodikasi, zamonaviy o‘qitish talablari, o‘quv topshiriqlari, nutqiy kompetensiya

В статье дошкольное образование категория организация и преподавание дисциплин в образовании текущее состояние и перспективы развития самостоятельных учебных заданий учащихся, принципы функционирования системы высшего образования на основе передового мирового опыта высших учебных заведений, признание обучающимся результатов обучения. Обосновано целесообразность создания возможности самостоятельного формирования траектории обучения и академической мобильности, накопления оценок, заинтересованности профессорско-преподавательского состава, студентов в педагогической науке организации и преподавании самостоятельных образовательных заданий, а также внедрения четко определенной системы оценок.

Ключевые слова. Методика, педагогическая характеристика, высшее образование, допризывная начальная подготовка, организация, методика обучения, современные требования к обучению, учебные задания, речевая компетентность.

The article organization of preschool educational category subjects and its teaching are the current state and prospects of students in the development of independent educational assignments in education, the principles of the higher education system based on the advanced world experiences of higher educational institutions, the recognition of educational, educational results. It is based on the fact that it is advisable to create the possibility of independent formation of educational trajectory and introduce academic mobility, the accumulation of grades, the interest of professors, students in pedagogical science in the organization and teaching of independent educational assignments, as well as a well-defined assessment system.

Key words. Methodology, pedagogical features, higher education, pre-call elementary skill, organization, teaching methodology, modern teaching requirements, teaching assignments, speech competence.

Ta’limning kredit texnologiyasining mohiyati shundaki, o‘quv ishlarining mehnat intensivligi o‘qitiladigan material hajmini tavsiflovchi kreditlarda hisobga olinadi. Ta’limning kredit texnologiyasining asosiy vazifalaridan biri talabalarning mustaqil ishlari rolini oshirishdir. Talabalarning mustaqil ishlari onlayn-platforma orqali yuklanadi. Birlamchi nazoratdan o‘tkazilish uchun maxsus dasturiy vositalardan (antiplagiat dasturlari) foydalanish tavsiya etiladi. Kredit-modull tizimining natijalarini nazoratchi o‘qituvchi tahlil qilib, baholashga tavsiya etadi yoki rad etadi. Baholashga

tavsiya etilgan ish mazmunan o‘rganilib belgilangan tartibda baholanadi. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining zamonaviy amaliyotida talabalarning mustaqil ishi samaradorligini oshirish uchun turli usul va usullardan foydalaniladi. Maktabgacha ta’lim-tarbiya, maktabgacha pedagogika fanlarni o‘qitishda ular orasida quyidagilarni ta’kidlash mumkin: talabalarga mustaqil ish usullarini o‘rgatish, talabalarning bilim faoliyatini o‘z-o‘zini tartibga solta’limni shakllantirish muim ahamiyatga ega. Kelgusi o‘quv va kasbiy faoliyat uchun o‘quv materiallarini o‘zlashtirish zarurligini namoyish etish orqali mustaqil ta’limni rag‘batlantirish lozim. Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga kredit texnologiyasini joriy etishdan maqsad:

– milliy ta’lim tizimining xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashuvi;

– o‘quv jarayoni subyektlarining akademik harakatchanligini ta’minlash.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida: talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushoxada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) moxiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a’lo) baho; talaba mustaqil mushoxada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baxo; Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida: talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho; talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi. Topshiriqlar uchun belgilangan muddatlar qat’iy belgilanadi (DEADLINE). Ta’limning kredit tizimiga ko‘ra, u o‘rganilayotgan maktabgacha ta’lim kursning umumiy mehnat intensivligining uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan ta’limning kredit tizimini joriy etish sharoitida talabalarning mustaqil ishlarini to‘g‘ri va samarali tashkil etish muammosi juda dolzarbdir. Shunday qilib, oliy o‘quv yurtlarida kredit texnologiyasini joriy etish universitetda o‘quv jarayonini tashkil ettilganligini tubdan qayta ko‘rib chiqb ta’limni o‘qitish texnologiyasidagi o‘zgarishlarni va ularni uslubiy qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi, talabalarning mustaqil ishlarini (TMT) faollashtirishga e’tibor qaratishga imkon beradi. TMT – bu mustaqil o‘rganish uchun ajratilgan, o‘quv-uslubiy adabiyotlar va tavsiyalar bilan ta’minlangan, testlar, nazorat varaqalari, kollokviumlar, referatlar, insholar va hisobotlar shaklida nazorat qilinadigan mavzularning aniq ro‘yxati bo‘yicha ishlash. TMTning barcha doirasi talabadan har kuni mustaqil ishlashni talab qiladigan vazifalar bilan tasdiqlanishi kerak. TMT soatlariga o‘quv rejasining yeng qiyin masalalari bo‘yicha konsultatsiyalar, uy vazifalari, hisobotlar va TMTning boshqa turdagi vazifalari kiradi. Talabaning mustaqil ishi (TMT) mazmuni, albatta, fanning ish dasturi va o‘quv dasturida aks etadi. Talabalarning mustaqil ishi-bu jarayonda o‘qituvchilarning bevosita ishtirokisiz talaba tomonidan yangi bilim va ko‘nikmalarni faol, maqsadga muvofiq o‘zlashtirish usuli. Talabaning mustaqil ish qobiliyatini rivojlantirish, ularning ijodiy faoliyati va tashabbusini tarbiyalash, shuningdek, umuman talabalarning mustaqil ishlarining normal ishlashini ta’minlaydigan tashkiliy chora-tadbirlar quyidagi shartlarga asoslanishi kerak:

– mustaqil ish o‘zining mavzu yo‘nalishiga xos bo‘lishi kerak;

– mustaqil ish samarali, uzluksiz monitoring va uning natijalarini baholash bilan birga olib borilishi kerak.

TMT ta’lim sifatini oshirish va bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning asosiy zaxiralaridan biridir. Rasmiy manbalarda “kredit” “tushunchasi” talaba-o‘qituvchining o‘quv ishlari miqdorining yagona o‘lchov birligi sifatida talqin etiladi. Bitta kredit akademik davrda haftada bir akademik soatlik talabalar auditoriyada ishlashga teng. Maktabgacha ta’lim-tarbiya, maktabgacha pedagogika fanlarni o‘qitishda mustaqil ta’limni tashkil etish va uni o‘qitish ta’limida talabalarning mustaqil topshiriqlarini rivojlantirish, ta’limning kredit texnologiyasini joriy etish samaradorligi va sifatini ta’minlash uchun kredit texnologiyalari, standartlari, o‘quv dasturlari, lavozim tavsiflari, o‘quv kurslari mazmunini tanlash tamoyillari, o‘qitish tamoyillari va usullari, o‘quv jarayonini tashkil etish, talabalarning mustaqil ishi (TMT) kredit tizimi ostida. Maktabgacha ta’lim-tarbiya, maktabgacha pedagogika fanlarni o‘qitishda mustaqil ta’limni tashkil etish va uni o‘qitish kredit tizimida nazariy bilimlarni oshiruvchi mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish usullari asosida kreditda o‘qitish texnologiyasi – bu o‘quv jarayonini tashkil etish usuli bo‘lib, unda talabalar o‘quv traektoriyasining ketma-ketligini alohida rejalashtirish imkoniyatiga ega. Talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etish uchun oliy maktab o‘qituvchisi bilishi kerak va uni tashkil etish tamoyillariga rioya qilish tavsiya etiladi: tizimlilik va izchillik prinsipi; faoliyat prinsipi; individual yondashuv prinsipi; mavjudlik prinsipi; ko‘rinish prinsipi; ilmiy asoslangan vaqt hisoblash va uy vazifalarini tozalash[1].

Maktabgacha ta’lim-tarbiya, maktabgacha pedagogika fanlarni o‘qitishda kredit tizimida nazariy bilimlarni oshiruvchi mustaqil ta’lim topshiriqlari tuzish usullari. Mustaqil ishlarni bajarish uchun zarur shart-sharoit va sharoitlarni yaratadigan tadbirlar har bir talabaning: axborot resurslari (ma’lumotnomalar, darsliklar, alohida vazifalar banklari, o‘quv dasturlari, amaliy dasturlar paketlari va boshqalar.); uslubiy materiallar (ko‘rsatmalar, qo‘llanmalar, ustaxonalar, ish daftarlari va boshqalar.); nazorat materiallari (testlar, vaziyatli vazifalar); moddiy resurslar (laboratoriya, o‘lchov asbob-uskunalari va boshqalar.); vaqt resurslari; konsultatsiyalar; individual ta’lim traektoriyasini tanlash imkoniyati (fakultativ fanlar orqali o‘quv dasturlari); talaba tomonidan mustaqil ravishda olingan nazariy va,yoki amaliy natijalarni (konferensiyalar, olimpiadalar, musobaqalar) jamoatchilik muhokamasi imkoniyati. Mustaqil ta’lim jarayonida talaba: o‘rganilayotgan fan bo‘yicha nazariy materialni o‘zlashtirish (TMI mavzulari, mavzularning individual masalalari, individual qoidalar va boshqalar.); nazariy material bo‘yicha bilimlarni amaliy usulda zarur vositalar yordamida mustahkamlash (vaziyatli vazifalarni yechish, nazorat ishlarini bajarish, o‘z-o‘zini test sinovlari); olingan bilim va amaliy ko‘nikmalarni vaziyatni tahlil qilish va to‘g‘ri yechimni ishlab chiqish uchun qo‘llang (guruh muhokamasiga tayyorgarlik, ishbilarmonlik o‘yini doirasida tayyorlangan ish, “amaliy ish”, ma’lum bir vaziyatni yozma tahlil qilish, loyihani ishlab chiqish va boshqalar.); olingan bilim va ko‘nikmalarni o‘z pozitsiyasi, nazariyasi, modelini shakllantirish uchun qo‘llash (tezis yozish, talabaning ilmiy-tadqiqot ishi va boshqalar). Talaba olgan topshiriqlar belgilangan muddatda va to‘liq bajarilishi kerak. TMT auditoriyadan tashqari ish sifatida taqdim etiladi, tekshirish seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar va TMTlarda amalga oshirilishi mumkin. Vazifalarni bajarishda quyidagilar kerak: mavzuni mustaqil ravishda o‘rganish, zarur hollarda o‘qituvchi bilan maslahatlashish; talabalarning maqsadi majburiy va qo‘shimcha adabiyotlarni, statistik ma’lumotlar materiallarini o‘rganishlari, zarur strategiya va qarorlarni asoslash uchun ularni tahlil qila olishlari kerak; bijg‘itish vazifalar yakka tartibda yoki guruxda tayyorlanadi.

[1] Lerner I. Ya. Didakticheskie osnovi metodov obucheniya Tekst. / I. Ya. Lerner. – M.: Pedagogika, 1981. –186 s.

TMI talaba faoliyatidagi ko‘payish va ijodiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi va uch darajada amalga oshirilishi mumkin: reproduktiv faoliyat (o‘quv materialini o‘zlashtirish va ko‘paytirish, namuna bo‘yicha bajariladigan mustaqil ishlarni tayyorlash: muammolarni hal qilish, jadvallar, diagrammalarni to‘ldirish; bunday ta’limning maqsadi bilimlarni mustahkamlash, ko‘nikma, ko‘nikmalarni shakllantirishdir); reproduktiv va amaliy faoliyat (o‘z tajribasi asosida o‘quv materialini o‘zlashtirish, materialni amalda, faoliyatda, mustaqil ish paytida tekshirish, reja, referatlar, annotatsiya amalga oshiriladi); ijodiy faoliyat (talaba mustaqil ravishda bajarilgan ish vositalari va usullarini tanlashi, o‘quv materialini tanqidiy baholashi va undan samarali fikrlash va faoliyat uchun foydalanishi kerak, muddatli ishlar va tezislar shu darajada bajariladi) .

TMT shakllari: Xulosa – A10 formatidagi 12-4 sahifada, TNR shriftida 14 ta mavzuni tanqidiy ko‘rib chiqish yoki taqdim etish. Tuzilishi an’anaviy: sarlavha sahifasi, kirish, asosiy qism, xulosalar, foydalanilgan manbalar ro‘yxati. Abstrakt guruhda muhokama uchun o‘rtaga qo‘yilishi mumkin. Hisobot 3-5 daqiqa davom yetadigan mavzuning asosiy qoidalarining qisqacha mazmuni. Sinopsis – bu standart formatdagi ish kitobining 2-4 betida asosiy tushunchalarni ajratish bilan berilgan mavzuning qisqacha tavsifi. Glossariy – berilgan mavzu bo‘yicha tushuncha va atamalar lug‘ati bo‘lib, jadvalda joylashtirilgan. Keys – bu guruh tahlili paytida yechimni talab qiladigan vaziyat. Guruh 3-4 kishidan iborat bo‘lib, ular muammoni mustaqil muhokama qiladilar va uni hal qilish yo‘llarini ishlab chiqadilar. Qaror natijalari umumiy guruhda yakuniy hisobotning taqdimoti shaklida taqdim etiladi. Hisobot – bu o‘rganish davomida olingan natijalar, asosiy muammolar va ishlab chiqish bo‘yicha takliflarning yozma va og‘zaki tavsifi. Taqdimot – bu turli xil texnik vositalar yordamida ham, ularsiz ham ma’lumotlarni taqdim etish shakli. Qoida tariqasida, yangi g‘oyalar, loyihalar, xizmatlar va boshqalar. taqdim etiladi. Unda matn, unga illyustratsiyalar kiritilgan va yagona grafik uslubda yaratilgan.

Loyiha – bu shaxsan yoki guruhda amalga oshiriladigan kerakli ma’lumotlarni qidirish, yig‘ish va tahlil qilish ta’limni o‘z ichiga olgan mavzu bo‘yicha tadqiqot. Bahs – bu mavzuning oldindan tayyorlangan masalalarini xulosa bilan muhokama qilish. Talabaning mustaqil ishi uchun vazifalar aniq shakllantirilishi, o‘rganilayotgan fan mavzulari bo‘yicha farqlanishi va ularning hajmi o‘quv dasturida ajratilgan soatlar bilan belgilanishi kerak. Vazifalarning quyidagi turlari tavsiya etiladi: eslatma olish; adabiyotlarni mavhumlashtirish; maqolalar, kitoblarga annotatsiya qilish; ilmiy va uslubiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish; ma’ruza xulosasi, xulosani tavsiya yetilgan adabiyotlar bilan qo‘shish; mustaqil, nazorat va tezis ishlarini bajarishda TMT nazorat ishi; mavzu bo‘yicha insho yozish berilgan muammo; hisoblash va grafik ishlarni bajarish (GIB); amaliyot davomida materiallarni kuzatish va yig‘ish bo‘yicha vazifalarni bajarish; o‘qituvchi tomonidan oldindan belgilangan mavzu bo‘yicha ilmiy nashrni analitik tahlil qilish; ma’lum bir mavzu bo‘yicha statistik va faktik materiallarni tahlil qilish, hisob-kitoblar qilish, statistik materiallar asosida diagramma va modellarni tuzish. TMTni to‘g‘ri va samarali tashkil etish uchun quyidagi shartlar katta ahamiyatga ega: o‘qituvchilarni o‘qitish ta’limning kredit tizimi bo‘yicha mustaqil ishlarni samarali tashkil etishga tayyorligi; har bir fan uchun o‘quv-uslubiy majmuaning mavjudligi, shu jumladan kursning bosma va elektron shaklda tavsifi, talaba tomonidan TMTning mustaqil rivojlanish darajasini nazorat qilish shakllari va vositalari, ularning mazmuni va o‘tkazish vaqti ko‘rsatilgan, talaba uchun butun o‘quv jarayoni uchun qo‘llanma. o‘qish davri, o‘quv, didaktik va o‘quv materiallarining mavjudligi, kutubxonani zarur adabiyotlar bilan ta’minlash, intizomning maqsad va vazifalariga, murakkablik darajasiga va amaliyotga bo‘lgan talabga qarab

TMT shaklini tanlash, TMT uchun vazifalarning asosiy maqsadlari talabalar uchun aniq bo‘lishi kerak, o‘quv vazifalari yangilik elementlarini o‘z ichiga olishi kerak, ularni amalga oshirish algoritmlarini o‘z ichiga olishi kerak, kompyuter va telekommunikatsiya uskunalarining mavjudligi. TMT vazifalarni individualizatsiya ta’limni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak, shuningdek, har bir talabaning tayyorgarligi va qobiliyatini hisobga olish kerak. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish (talabalarning turli xil axborot manbalaridan yerkin foydalanishlarini ta’minlaydigan va elektron o‘quv vositalaridan foydalanish uchun maqbul sharoitlar yaratadigan texnik vositalar to‘plami);.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki maktabgacha ta’lim-tarbiya, maktabgacha pedagogika fanlarni o‘qitishda TMTni tashkil etish ta’limning turli shakllaridan foydalanish talabalarning bilim faolligini eng samarali rag‘batlantirishga imkon beradi, talabalarning mustaqil ish bo‘yicha optimal yuklamasi, TMT monitoring tizimi shaxsiy, rivojlantiruvchi yo‘nalish va ijodiy xarakterga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lishi, birinchi navbatda talabaning o‘ziga kerakli va foydali bo‘lishi kerak, fanlararo mustaqil ish va loyihalarni amalga oshirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, talabalarning yashash va dam olish sharoitlarini yaxshilash va boshqa tashkiliy, subektiv omillar muhim ahamiyatga ega. Ta’lim traektoriyasini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratilishi va akademik mobillik, baholarning to‘planib borilishi, sohadagi professor-o‘qituvchi, talabalarning maktabgacha ta’lim-tarbiya, maktabgacha pedagogika fanlarni o‘qitishda tashkil etish va uni o‘qitish faniga qiziqishi, hamda aniq belgilangan baholash tizimini joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi muhim ahamiyatga ega. Kredit texnologiyasi sharoitida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish ayniqsa maktabgacha ta’lim-tarbiya, maktabgacha pedagogika fanlarni o‘qitishda talabalarning mustaqil ta’lm topshiriqlarini rivojlantirishda kredit-modul tizimiga o‘tish ta’limning amaldagi holati va istiqbollari, oliy ta’lim muassasalarini ilg’or jahon tajribalari asosida kredit-modul tizimining tamoyillari, ta’lim oluvchi, ta’lim natijalarini tan olinishi. TMT kompyuter va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilishi va ularni amalga oshirish quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin: elektron darslik, kompyuter o‘quv dasturlari, nazorat dasturlari, namoyish dasturlari, kompyuter modellari va boshqalar. TMT uchun vazifalarni farqlash va individuallashtirish; barqaror ijobiy faoliyatni shakllantirish bilishga munosabat; TMTning uslubiy ta’minoti, TMT uchun turli xil vazifalar. TMT majburiy nazoratini tashkil etish, TMT natijalarini tabaqalashtirilgan baholash, didaktik imkoniyatlarga ega kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, TMTning juft va kichik guruhli shakllari va usullarini joriy etish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova M.E. Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzish ta’limning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. –T., 2022. 173 b.

2. Axmedova M.E. Pedagogika. Darslik. “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. –T., 2022. 223 b.

3. Axmedova M.E. Meliboyeva R.N. Bekmirov T.R.Nurmatov A.N.Kasbiy pedagogika. Darslik. “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. Тошкент – 2022. 250 bet.

4. Axmedova M.E. Mustaqil topshiriqlar bilan ishlash va ularni baholash metodikasi (modul-kredit tizimida tilshunoslik fanlari misolida). // Metodik qo‘llanma, Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. –T., 2022. 121 b.

5. Usmonov B.Sh, abibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 b.

To‘lqinoy ABDUJABBOROVA,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HAMKORLIK YO‘LLARI

Annotatsiya

Maqolada ijodiy qobiliyatli o ‘quvchilarni tanlash, tayyorlashdagi bo‘g‘inlar, bosqichlar hamda tizimning yaratilishidagi yutuqlar bayon qilingan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti – maktab, kollej, litsey – texnikum va oliy o‘quv yurtlarida tizimni shakllantirish orqali o‘quvchi va talabalarni iqtidori, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Tayanch so‘zlar. Ilmiy loyihalar, innovatsion ta’limga yondashuv, ilmiy-madaniy maskanlar, Uchinchi Renessans, mental arifmetika, umummilliy harakat, prezident maktablari, notiqlik mahorati, STEAM tizimi, iqtisodiy ta’lim, layoqat.

В статье описаны этапы отбора и обучения учащихся с творческими способностями, а также достижения в создании системы. Развивать талант и творческие способности учащихся и студентов путем формирования непрерывной образовательной системы дошкольного образования – школа – колледж – лицей – техникум и высшие учебные заведения.

Ключевые слова. Научные проекты, подход к инновационному образованию, научные и культурные центры, Третье Возрождение, ментальная арифметика, национальное движение, президентские школы, ораторское искусство, система STEAM, экономическое образование, талант.

The article describes the stages and steps in the selection and training of students with creative abilities, as well as the achievements in the creation of the system. To develop the talent and creative abilities of pupils and students by forming a system in pre-school education organization - school - college - lyceum - technical school and higher education institutions.

Key words. Scientific projects, approach to innovative education, scientific and cultural centers, Third Renaissance, mental arithmetic, national movement, presidential schools, public speaking, STEAM system, economic education, talent.

Jahonda kollej o‘quvchilarining ta’limga qiziqishlarini o‘rganish, layoqati, ijodiy qobiliyati, maxsus qobiliyatlari, iste’dodlarini rivojlantirish, ixtisoslashtirish va tabaqalashtirish ta’lim sohasida innovatsion rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda bo‘lajak ijodiy qobiliyatli mutaxassislarni malaka talablariga asoslangan holda butun dunyo miqyosida alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, YUNESKO tomonidan belgilangan 2030-yilgacha barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadida kollej o‘quvchilari va bolalarning ijodiy qobiliyatini, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga o‘qitishning STEAM tizimi asoslarini tadbiq etish, ta’lim xizmatlarini diversifikatsiya qilish, yangi innovatsion vainteraktiv shakllarni joriy etish, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini tashxis etish, ma’naviy-ruhiy qo‘llab-quvvatlash, innovatsion modelini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik olimlar o‘quvchilarning ijodiy qobiliyati va iqtidorini rivojlantirishda maxsus dasturlar ishlab chiqdi. Rossiyada esa o‘quvchilar ijodiy qobiliyatini o‘stirishda innovatsion yondashuv, innovatsion texnologiyalardan, interfaol mashg‘ulotlardan foydalanish o‘quvchilarni faollashtiradigan tizimdir deb e’tirof etdilar. Janubiy Koreyada boshlang‘ich maktablardan universitetgacha bo‘lgan barcha ta’lim muassasalarida yuqori

tezlikdagi internetga kirishni ta’minlagan birinchi mamlakat. “Qo‘shimcha ta’lim” “Kasbiy tayyorgarlik” kurslari va “Oliy ta’limga kirish uchun tayyorgarlik” kurslari, “Kasb-hunar ta’limiga kirish”, kollejlarda ta’lim olishga kuchli e’tibor qaratadigan davlat bu Buyuk Britaniyadir. Maktab, kollej, oliy ta’lim muassasalarini yuqori darajada rivojlantirishda rahbarlarning kreativ fikrlashi, yondashishi, mustaqil fikrlashi, ta’limni real hayot bilan bog‘lashga alohida urg‘u berilganligini Singapur davlatini dunyoga tanitdi.

Respublikamizda ma’lumki, bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan mavjud ilg‘or davlatlarning o‘ziga xos rivojlanishi tamoyillarini o‘rganib chiqish tanlab olingan. Pedagogika kollejida xorijiy davlatlar ishtajribalarini o‘rganish va o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish borasida ehtiyojni mukammal qondirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni iqtidor va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda Arastuning quyidagi fikrlarini keltiramiz. Jon to‘g‘risidagi kitobida “jon qismlarga bo‘linmaydi, lekin u faoliyatning oziqlanishi, his etish harakatga keltirish, aql, idrok kabi turlarga oid qobiliyatlar ro‘yobga chiqadi. Uning mulohazasi, sezgi bilishning dastlabki qobiliyati, u tasavvur shaklida iz qoldiradi”deb izohlaydi. Buyuk allomalarimizdan biri Sa’diy Sheroziy – “Qobiliyat o‘z o‘zidan rivojlanmaydi” deb ta’kidlagan holda “Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak. Tarbiya uch asosiy – aqliy, nafosat va jismoniy, mehnat tarbiyasiga bo‘linadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kun tartibining ya’ni ertalabki soat, ertalabki badan tarbiya, sayrda kuzatish, o‘yin, mehnat orqali barcha narsa, jihozlar, hodisalarga qiziqishi kuchli bo‘ladi.

Masalan:

Maktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablarining 5 yo‘nalishi, ya’ni ta’lim faoliyati, rivojlantiruvchi markazlarda qurish yasash, tadqiqot ishi, syujetli ro‘lli o‘yinlar davomida qiziqib, taqqoslab samaradorli bo‘lsada o‘ylab ko‘radi. Topshiriqni sifatiga qarab-qaramay tez bajaradi. Yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Uning ish xarakatni bajara olish layoqati endiga rivojlana boshlaydi.

Katta tayyorlov guruhlarida tashkil etilgan ilk matematik mashg‘ulotlarda hisob – kitob, sanash, o‘lchash, pullarni ajrata olish, bank, tijorat, vaqt tushunchalari hamda iqtisodiy ta’lim kabilarni o‘zlashtirish orqali matematik qobiliyatlari rivojlanadi. Mental matematika bo‘yicha g‘oliblar borki, ularda aqliy hamda matematik qobiliyatlar juda kuchlidir.

Tasviriy san’at bo‘yicha – o‘yinchoqlar yasash, turli xil rasmlar chizish loydan narsalar yasash, ko‘p qavatli uylar, ko‘priklar qurish bu bolalarning ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganligidan dalolat beradi.

Musiqa mashg‘ulotlarida o‘zbek milliy musiqalarini tinglaydilar, musiqa asboblarini chalishga o‘rganadilar, bastakorlar bilan tanishadilar, raqsga tushadilar, ashulalar kuylaydilar, she’rlarni yod oladilar. O‘zbek, ingliz tillarida ko‘shiq kuylaydilar. A.Navoiy, Bobur ruboyilari va g‘azallarini ifodali qilib yodlab aytib beradilar. Bu bolada nutq qobiliyatini rivojlanganligidir. Tayyorlov guruhlarida murakkab mavzulardagi mashg‘ulotlarda qatnashadilar masalan yer sayyoralari mavzusi bo‘yicha yetti planeta (oy, quyosh, yulduzlar.) ni aniq bilib oladilar va vazifalarini tariflaydilar. Bu aqliy rivojlanishi va maktabga tayyorlashdir.

Sahnalashtiruvchi, didaktik, to‘garak ishlari, ro‘lli, barmoq harakatlarini rivojlantiruvchi, nutqning tovush madaniyatini o‘stiruvchi, chet tillarini o‘rganishga oid o‘yinlar, atrof-

olam bilan tanishtirish, tabiat bilan tanishtirish, elementar matematika faoliyatidagi ijodkorliklar, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, stol usti teatri, qo‘g‘irchoq teatri, rasm chizish ko‘rik tanlovlari orqali bolalarda bilish, aqliy va ijodiy, hissiy qobiliyatlar o‘sadi va nafosat tarbiyasi singdiriladi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari orqali sport qobiliyatlari o‘sadi. Ba’zi qobiliyatlar bolalarning xatti xarakatlari tufayli karate, badiiy gimnastika, boks, shaxmat-shashka turlari bo‘yicha to‘garaklarga qatnashib shahar, viloyat bosqichlarida o‘rinlarni olib, sport qobiliyatlari rivojlanib bormoqda. Milliy xalq o‘yinlari, kam, o‘rta, serxarakatli o‘yinlar, sport o‘yinlari, sport bayramlari, sport musobaqalari, chiniqtirish tadbirlari, bolalarni ijodiy faoliyatini faollashtirish bilan uning jismoniy, bilish, nutq, fikrlash va ijodiy qobiliyatini o‘stiradi. Qoidali va qoidasiz (masalan berkinmachoq) o‘yinlarida ham bolalar o‘zlari ijod qilib qoida yaratadilar. O‘zlari fikrlaydi, o‘ylaydi, shartlar qo‘yib kelishadi. Bu aqliy qobiliyatni o‘sishiga katta yordam beradi. Mental arifmetika bo‘yicha g‘oliblar borki, ularda matematik qobiliyati kuchlidir. Ya’ni maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarida qat’iyyatlilik bilan bir soha bo‘yicha kuch-quvvatini ayamasdan harakat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarida oila, sharoit, tarbiyachining faol mehnati tufayli ularning qiziqishi, layoqati, ijodiy qobiliyatlari,iste’dodlari takomillashganligi aniqlandi. Kasbga qiziqish, uchqunlari ko‘rina boshlandi. Bolalar ijodiy qobiliyatini aniqlash va qo‘llab – quvvatlash lozim. Ijodiy qobiliyat kurtaklariga e’tibor qaratish hamda asrab-avaylash, ijodiy qobiliyatli bolalarni topish va uni adashmasdan aniqlash, maqsad sari yetaklash, qolaversa javobgarlik talab etgan, hususan shaxs qobiliyati va salohiyatini topish hamda uni uyg‘otish ilmiy masala sifatida ko‘rinmoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalarida moddiy bazaning yetarliligi, tarbiyachining bilimi, ijodkorligi bolalar psixologiyasini mukammal bilish, mashg‘ulotlarni hozirgi kun darajasida tashkil etish, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash, bolalarning qobiliyatlarini o‘sishini uyg‘otadi va rivojlantiradi.

Haqiqatdan ham maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini, ta’bir joiz bo‘lsa, uning debochasidir. Darhaqiqat bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o‘z ona tilini o‘zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga muhabbat mehr uyg‘onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda eng avvalo, oila asosiy rol o‘ynasa, maktabgacha ta’lim muassasasining ham hissasi beqiyos. Zero bolaning sog‘lom, keng dunyo qarash va erkin shaxsiyatini shakllantirish, uning qobiliyatlarini ochib berish va bilim olishga intilishini rivojlantirishda, bu bo‘g‘in muhim ahamiyat kasb etadi. Millatning sog‘lom inofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi.

Hozirgi kunda prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan, xususiy hamda davlat maktablarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarning iqtidori, iste’dodi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga alohida e’tibor berilayotganligini guvohi bo‘lib turibmiz.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining keying bosqichi bo‘lgan umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida ham maktabgacha ta’lim tashkilotida olgan bilim va ko‘nikmalari, qiziqishlar, iqtidor va qobiliyatlari rivojlanib, kengayib boradi, ma’suliyat xissi kuchayadi. Maktab va kasb – hunar maktablari o‘quvchilarida bilish va bilim olishga qiziqish kuchli bo‘ladi. Ayniqsa shu yillarda ona tili va adabiyoti, fizika-matematika, ingliz tili, kimyo-biologiya, iqtisodiyot va biznes, informatika kabi fanlarni chuqur o‘zlashtirish uchun o‘qishga bo‘lgan aqliy, hissiy, bilish qobiliyati rivojlanadi, xotirasi mustaxkam

bo‘ladi. Ifodali o‘qish, she’rlarni yodlab, uzoq vaqt xotirasida ushlab turadi. Kitobdagi murakkab masalalar, so‘zlar, so‘z zaxiralari ko‘p bo‘ladi, alohida notiqlik maxoratiga ega bo‘lib o‘z ijodiy qobiliyatini namoyish etadi. O‘quvchilar dars va darsdan tashqari vaqtlarda turli tadbirlarda qatnashib, fan olimpiadalarida ishtirok etib, ingliz tli va fan to‘garaklariga qatnashib tafakkurini yanada rivojlantiradi. O‘ta qiziquvchan bo‘ladi, hayotga turmush voqea xodisalariga befarq bo‘lmaydi. Boy tasavvurlarga ega bo‘ladi. O‘ziga xos g‘oyalarni ilgari suradi. Kam kuch va vaqt sarflab, yuqori natijalarga erishishga mustaqil harakat qiladi. Shu bois ham umumta’lim maktablarining 11-sinf bitiruvchilari ingliz darajasini aniqlash imtixonlarini topshirmoqdalar, bundan tashqari masofadan turib, chet davlatlarning bir necha universitetlariga o‘qishga qabul qilin moqdalar.

Maktab davrida yoq bilim olishga qiziqish, o‘qish bilan birga, yaratuvchanlik, ixtirochilik, tasavvur qilish, ijodkorlik, orzulariga yetish uchun, yaxshi kasb tanlash va uning egasi bo‘lishga harakat qiladi. Ya’ni davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan sharoitlar tufayli, ijodiy qobiliyatli, iste’dodli bolalar maktab davridayoq ham bilimli, ham bir kasbning, hunarning egasi bo‘layotganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Kasb-hunar maktablarida esa masalan 25 nafar bolalardan 3–4 nafarini o‘qishga, bilim olishga, oliy o‘quv yurtida o‘qishini davom ettirish layoqati bo‘ladi. Masalan: tikuvchi – dizayner, oshpazlik, ayollar stilisti, gazlamaga ishlov berish, avtomabillarga texnik xizmat ko‘rsatish va xokazo. Kasb-hunar maktabining o‘quvchilari o‘zlari yoshligidan orzu qilib yurgan hunarni o‘rganishga tayyor bo‘lib keladi. Ya’ni kasbiy qobiliyatini shu tarzda rivojlantirib, sevgan kasbini egallaydi. Kasb – hunar maktablarida bilish, aqliy, ijodiy, va kasbiy kompetensiyasi rivojlanadi va iqtidor esa mustaxkamlanadi. Kollej va texnikumlarda oily o‘quv yurtiga o‘qishga kirishga tayyorgarlik bilan birga, kasbiy qobiliyatini mustahkamlab, rivojlantirib boradi. O‘quv, pedagogik, diplom oldi amaliyotlarida, tadbirlar, munozaralar, bahslar, kitobxonlik, “Zakovat” intellektual o‘yin kabi davrlarda bilish, ijodiy, hissiy qobiliyatlari hamda iste’dodlari juda rivojlanadi. Kasbning murakkab tomonlarini o‘zlashtiradi. Pedagogik kasbiy sifatlarni egallab va amalda qo‘llay oladigan o‘quvchilar tegishli hamkorlik shartnomalari asosida sevgan kasbi bo‘yicha ishga joylashadi. Hozirgi vaqtda dual ta’lim tizimi o‘quvchilarni bilish qobiliyatini rivojlanishi orqali amaliyotda yoki ish joyida uni qo‘llash bilan kasbiy qobiliyati rivojlanib boradi. Bitiruvchilar nazariy va amalliy blimlarini mustahkamlagan holda uch kunlik ish joyida qat’iy ravishda kuch quvvatini sarflaydi. Birinchi o‘rinda ular kasbiy qobiliyatini ijodiylashtirilgan holda o‘stiradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston tarqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2022 y. – 23-255-b.

2. A. Qodirov. Yoshota-onakitobi. Uzluksiz ma’naviy tarbiyasi trilogiyasi. I qism. 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha qo‘llanma. –T.: Muharrir nashroyoti, 2018 y. – 6-7-195-b.

3. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” o‘quv dasturi (Takomillashtirilgan ikkinchi nashr), 2022 y. - 94-95 b.

4. “Ilk qadam” maxsus son. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining debochasi, 2021 y. avgust – 5-7- b.

Ruxshona TUXTASINOVA,
Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti

VARIATIV DASTURLARNI AMALIYOTDA QO‘LLASH TA’LIM SIFATINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tizimiga variativ yondashuvning afzalliklari, variativ dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan ko‘zda tutilgan maqsad haqida so‘z yuritiladi.
Tayanch so‘zlar. variativlik, maktabgacha ta’lim, metod, dastur, modellashtirish, individuallik.

В статье говорится о преимуществах вариативного подхода в системе дошкольного образования, целях разработки и реализации вариативных программ.
Ключевые слова. разнообразие, дошкольное образование, метод, программа, моделирование, индивидуальность.

The article talks about the advantages of a variable approach in the preschool education system, the goals of developing and implementing variable programs.
Key words. diversity, preschool education, method, program, modeling, individuality.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog‘lom, aqlan yetuk va ma’naviy jihatdan shakllangan etib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bolani biror narsaga o‘rgatishgina emas, unda o‘z kuchiga ishonchni orttirish, o‘z g‘oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda “Men” konsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ2707-son “2017 – 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomni hamda Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqid”gi qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablarini belgilaydi. Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayoniga variativlik yondashuvni tadbiq qilishning pedagogik shart sharoitlari ta’lim-tarbiya jarayonni takomillashtirish va bolalar bilan ta’lim ishlarida rivojlanish samaradorligini oshirish bilan bog‘liqdir.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim tarbiya jarayonini rivojlantirishga oid tadqiqotlar respublikamiz olimlaridan F.Qodirova, R.Qodirova, D.Babaeva, Z.Azizova, G.A.Berdalieva, N.Abdullaeva, G.Nazirova, M.A’zamova, M.Berdieva, S.Raximova, D.Abdurahimova, M.Xushnazarova, F.Valixo‘jaeva, K.Mamedov, M.Masharipova, N.Nurmuxamedova, N.Rejametova, D.Ro‘zieva, D.Sobirova, I.Tuychieva, M.Umarova, M.Halimova, T.Chabrova, Sh.Shodmonova va boshqalar tomonidan olib borilgan.

MDH maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarning o‘qitish muammolari bo‘yicha

ye.Arnautova, T.Afanaseva, N.Nemova, K.Belaya, O.Zvereva, N.Mixaylenko. N.Korotkova, T.Danilina, T.Doronina, A.Kolotovalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Davlat talablari quyidagi tamoyillar asosida tatbiq etiladi: – bolaning noyobligi; – “Men” konsepsiyasi va shaxsiy ta’limini yaratishda bolaning faol roli; – bolaning huquqlarini himoya qilish va ta’minlashning muhimligi; – bola ta’limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli; – bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo‘lib, individual variativlik asosida yondashish. Variativ ta’lim - ta’lim iste’molchi sifatida talabalarga ta’lim xizmatlarini tanlash imkoniyatini beradi. Bu har bir zamonaviy o‘quv tashkilotining rivojlanish yo‘lini belgilaydi. Bu asosiy o‘quv dasturlarining tuzilishiga yordam beradi

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi.

Pedagogik jarayonini variativlashtirish ta’limning shaxsiy yo‘naltirilgan modelini qurishni, bolalar bilan individual faoliyatda ish olib borishni o‘z ichiga oladi. Bunda pedagog bolaning qiziqishi, istaklari, qobiliyatlari hisobga olishi, bilim olishda, samaradorligida, mehnatda, kundalik o‘zaro munosabatlarda hamkorlik qilishi talab etiladi.

Maktabgacha ta’lim tizimining variativ modeli amaliyotga amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ijobiy va salbiy tendensiyalar, mavjud muammolar, ta’lim muassasalarining potensial imkoniyatlari va h.k.lar tahlillarini inobatga olgan holda tatbiq etiladi.

Bunda maktabgacha ta’lim tizimining variativ modeli maqsadlari, yo‘nalishlari va amaliyotga joriy etishning asosiy yo‘nalishlari belgilanadi.

Pedagog olima N.Abdullaeva maktabgacha ta’lim tizimining variativ modeli maqsadlari sifatida quyidagilarni belgilaydi:

– maktabgacha ta’limning barcha uchun ochiq, hammabop bo‘lishini ta’minlash; maktabgacha ta’lim tizimida iste’molchilarining (ota-onalar, bolalar) doimiy rivojlanib borayotgan ehtiyojlarini qondirish;

– maktabgacha ta’lim dasturlarida uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari orasida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash;

– barcha bolalar uchun umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida teng va bir xil ko‘rsatkich asosida ta’limni boshlashlarini, davom ettirishlarini ta’minlash;

– maktabgacha ta’lim tizimi ilg‘or pedagog xodimlarining boshqaruv va pedagogik o‘sishlarini ta’minlash.

Maktabgacha ta’lim tizimining variativ modelini rivojlantirish yo‘nalishlari quyidagicha belgilash maqsadga muvofiq:

– maktabgacha ta’lim tizimida iste’molchilarining (ota-onalar, bolalar) talablarini to‘liq qondirilishini ta’minlash;

– bolalar uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim olish va parvarishlanish shart-sharoitlarini yaxshilash;

– maktabgacha ta’lim tizimida kadrlar salohiyatini rivojlantirish;

– maktabgacha ta’lim muassasalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish (maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatida ta’lim sifatini ta’minlash, samarali faoliyat ko‘rsatishni rag‘batlantiruvchi mutlaqo yangi moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish). Yuqoridagilar maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, bolalarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda muhim omil sanaladi.

Maktabgacha ta’lim tizimining variativ modelini tatbiq qilish bo‘yicha amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalarni shakllantirishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim: ta’lim muassasalarining manbalari va imkoniyatlarini hisobga olish; hududning aniq bo‘lishi; aholi talablaridan kelib chiqish; natijaviylik; bolalarni to‘liq maktabgacha ta’lim tizimiga qamrab olish; bolalarni umumta’lim maktablariga tayyorlash; barcha bolalar uchun xorijiy tillarni o‘rganish bo‘yicha to‘liq shart-sharoitlar yaratish va h.k.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish dasturlarining vazifalari (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalar asosida bo‘lishi shart).

Maktabgacha ta’lim jarayonining variativligi bu – maktabgacha ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini muvofiqlashgan faoliyati. Bu jarayon ta’lim mazmunini tanlashda (ta’lim standartlari va talablari doirasida), ta’lim vositalari, usullari va muloqot yo‘llarini umuman olganda maktabgacha ta’lim mazmuni va jarayonini tanlashda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi 595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni // https://lex.uz/docs/4646908

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020 y., 09/20/802/1658-son.

3. Abdullaeva N. Maktabgacha ta’limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish. Toshkent – 2019.- B.46.

4. Ilesova Lazzat Asan kызы. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarining amaliyotga tadbiq etilishi. journal of new century innovations. Volume–18_Issue-2_December_2022-B.141.

Raxmon ESHIMOV,
TDIU Samarqand filiali “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, PhD

ELEKTRON O‘QUV KONTENT YARATISHGA QO‘YILGAN TALABLAR HAMDA UNING TA’LIMDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada elektron o‘quv kontent yaratish talablari, elektron ta’lim muhitidagi o‘rni, kompyuter imitatsion modellar imkoniyatlari hamda talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Kontent, elektron, ta’lim, kompetentlik, model, resurs, axborot texnologiyalari, tendensiya.

В статье научно раскрыты требования к созданию электронного учебного контента, его роль в образовательной среде, возможности компьютерных имитационных моделей и значение развития цифровой компетентности студентов.

Ключевые слова. Контент, электронный, образование, компетентность, модель, ресурс, информационные технологии, тенденция.

The article scientifically explains requirements for creating electronic educational content, its role in the learning environment, opportunities of computer simulation models, and importance in developing students’ digital competence.

Key words. Content, electronic, educational, competence, model, resource, information technology, trend.

Hozirgi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalar asrida yurtimizda axborot-ta’lim muhitiga integratsiyalashishga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim tizimi paydo bo‘lmoqda. Bunday ta’lim jarayonini samarali ishga qo‘yish uchun zamonaviy texnik imkoniyatlarga mos keluvchi muhim yangiliklarni joriy etish zarur. O‘quv fanlariga oid elektron ta’lim vositalarining yaratilishi esa, mazkur fanlarni o‘qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish doirasini kengaytiradi. Natijada, talabalarning maxsus fanlardan chuqur bilim egallashiga sharoit yaratiladi hamda ta’lim jarayonining sifati va samaradorligi oshiriladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida elektron muhitning rivojlanishi talabalarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Kompyuter imitatsion modellar elektron ta’limning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ular talabalar va talabalar uchun real tajriba o‘rnini bosuvchi samarali vositalardan biri hisoblanadi. Bunday modellar murakkab jarayonlarni interaktiv va vizual shaklda tushuntirishga yordam beradi, natijada ta’lim sifati oshadi. Ayniqsa, texnika, muhandislik, tibbiyot, iqtisodiyot kabi fanlarda imitatsion modellar talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi.

Axborot texnologiyalari hayotimizga mustahkam kirib kelgan va endilikda ularsiz hayotni tasavvur qilishning iloji yo‘q. Kelayotgan avlod esa, navbatdagi “ekzotik harf” bilan nomlanayotgan bo‘lsa-da, ota-onalari bu elektron xilma-xilliksiz qanday yashaganini tushunmaydi. Shu bilan birga, ta’lim texnologiyalari ham zamon bilan bir qatorda rivojlanishi kerak va ta’limni modernizatsiya qilish maktabni “raqamlashtirish”ga olib keladi.

Bugungi kunda dunyoning deyarli barcha oliy ta’lim muassasalari kompyuter texnikasi bilan jihozlangan, internetga ulangan, o‘z veb-saytlariga ega, elektron o‘qitish va aloqa vositalarini rivojlantirmoqda. Bular, shuningdek, masofaviy ta’lim va axborot-ta’limiy makonning rivojlanish tendensiyalari talabalarda mustaqillik va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishga olib keladi.

F.U.Anarbayeva “Elektron ta’lim metodikasining ahamiyati” ilmiy maqolasida elektron ta’lim o‘zida ta’limning innovasion yondashuvini qo‘llagan holda ta’lim sifati va imkoniyatlarini oshirish uchun multimediya va internet-texnologiyalarni qo‘llashga asoslanadi. Ko‘plab xorijiy ochiq va virtual universitetlar an’anaviy ta’lim shakllari bilan raqobatlashadigan elektron ta’lim tamoyili asosida ishlaydi. Elektron ta’lim ta’lim shakli va muhitini talaba va o‘qituvchining hoxishiga ko‘ra o‘zgartiradi. Elektron ta’lim talabalarga qulay tashkillashtirilgan muhitda bilim olish imkonini beradi” - degan fikrlarini ilgari surgan [1].

M.Yulchiyev “Elektron ta’lim muhitida “elektr tarmoqlari va tizimlari” fanini o‘qitish mazmuni va muammolari” nomli ilmiy maqolasida “Elektron ta’lim muhitiga, mutaxassislikka tayyorlash jarayonini axborot texnologiyalariga asoslangan muhitni tashkil qilishning maksimal samarasiga mazkur jarayonning psixologik, texnik, texnologiya, axborot, huquqiy, metodik va boshqa tarkibiy qismlarini muvofiqlashtirilgan holda rivojlantirish hisobigagina erishish mumkin – degan fikrni ilgari surgan [3].

B.M.Suropov “Elektron ta’lim muhitida axborot kommunikatsiya texnologiyalari fanini o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish” disseratsiya ishida elektron ta’lim muhiti bu - axborotlashgan ta’lim muhitining sinonimi sifatida foydalanuvchilarning ta’limiy manbalariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan, mutaxassislikka tayyorlash jarayonining shaxsiy kompyuterlar, telekommunikatsiya, metodik va tashkiliy muhiti sifatida ta’riflash mumkin degan [4].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, biz elektron ta’lim muhitiga quyidagicha tarif keltiramiz. Elektron ta’lim muhiti - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish va rivojlantirish imkonini beruvchi raqamli platformalar, vositalar va resurslar majmuasidir.

Elekton ta’lim muhiti o‘z o‘rnida talabalarning faol ishtirokini ta’minlashi, mustaqil bilim egallash imkoniyatini yaratishi, materiallar bilan va insonlar o‘rtasidagi interaktiv muloqotni yarata olishi, axborotning katta hajmi va uni taqdim etishning turli usullari qo‘llashi, talabani faol bilim olishga undovchi muhitni yaratish afzalliklariga ega bo‘lishi lozim. Elektron ta’lim muhitining asosiy tashkil etuvchilaridan biri bu elektron o‘quv kontentlari (EO‘K) hisoblanadi.

EO‘Klarni yaratishda kompyuter imitatsion modellar muhim ahamiyat kasb etadi. Kompyuter imitatsion modellar o‘quv jarayonida bir nechta muhim vazifalarni bajaradi. Birinchidan, ular talabalarga xavfsiz muhitda tajriba o‘tkazish imkoniyatini taqdim etadi. Masalan, kimyo yoki fizika laboratoriyalarida qimmat va xavfli tajribalarni virtual shaklda amalga oshirish mumkin. Ikkinchidan, bunday modellar ta’lim jarayonini individualizatsiya qilish imkonini beradi, chunki har bir talaba o‘zining bilim darajasi va o‘rganish sur’atiga mos tarzda ishlashi mumkin. Uchinchidan, imitatsion modellar talabalarga muammolarni yechish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular real hayotga yaqin holatlarni aks ettiradi.

Bugungi kunda ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayoni jadal rivojlanib, o‘quv jarayonida elektron o‘quv kontentlardan foydalanish muhim pedagogik zaruratga aylanmoq-

da. Elektron o‘quv kontent — bu muayyan fan, mavzu yoki o‘quv moduli bo‘yicha bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi raqamli ta’lim resurslari majmuasidir. U matn, rasm, jadval, diagramma, audio, video, animatsiya, interaktiv topshiriq, test, simulyatsiya, virtual laboratoriya va boshqa multimediaviy vositalarni o‘z ichiga oladi. Elektron o‘quv kontent an’anaviy o‘quv materiallaridan farqli ravishda o‘quvchining mustaqil ishlashi, mavzuni qayta ko‘rib chiqishi, o‘z bilimini nazorat qilishi va individual ta’lim trayektoriyasi asosida rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi.

Elektron o‘quv kontent yaratishda, avvalo, uning didaktik maqsadi aniq belgilanishi zarur. Har bir kontent o‘quv dasturi, davlat ta’lim standarti, fan sillabusi va o‘quv natijalariga mos bo‘lishi kerak. Mazmun o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi, psixologik tayyorgarligi va individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda tanlanadi. Elektron kontent mavzuning mohiyatini ochib berishi, nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar bilan bog‘lashi, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammo yechish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishi lozim.

Elektron o‘quv kontentga qo‘yiladigan eng muhim talablardan biri — ilmiylik talabidir. Kontentda berilayotgan ma’lumotlar ishonchli, aniq, ilmiy asoslangan va zamonaviy manbalarga tayangan bo‘lishi zarur. Noto‘g‘ri, eskirgan yoki dalillanmagan ma’lumotlardan foydalanish ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli elektron kontentni yaratishda fan yutuqlari, sohadagi yangiliklar, amaldagi me’yoriy hujjatlar va ilmiy-metodik manbalarga tayanish muhim hisoblanadi.

Ikkinchi muhim talab — tizimlilik va izchillikdir. Elektron o‘quv kontentdagi mavzular osondan murakkabga, oddiy tushunchalardan murakkab nazariy xulosalarga tomon bosqichma-bosqich joylashtirilishi kerak. Har bir mavzu oldingi bilimlar bilan uzviy bog‘lanishi, keyingi mavzularni o‘zlashtirishga tayanch bo‘lib xizmat qilishi lozim. Bunday yondashuv o‘quvchining bilimlarni uzluksiz va mantiqiy izchillikda o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Elektron o‘quv kontent yaratishda ko‘rgazmalilik va multimediaviylik talabi ham alohida ahamiyatga ega. Matnli ma’lumotlarni rasm, sxema, jadval, grafik, video, animatsiya yoki simulyatsiyalar bilan boyitish o‘quv materialini tushunishni osonlashtiradi. Ayniqsa, tabiiy fanlar, texnika, iqtisodiyot, informatika, kimyo, fizika kabi fanlarda jarayonlarni oddiy matn orqali tushuntirish yetarli bo‘lmaydi. Bunday hollarda animatsion modellar, virtual laboratoriyalar, interaktiv tajribalar va video ko‘rsatmalar o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi.

Elektron kontent interaktivlik talabiga ham javob berishi lozim. Interaktivlik o‘quvchini faqat tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Masalan, elektron testlar, drag-and-drop topshiriqlar, muammoli savollar, virtual tajribalar, keys topshiriqlari va avtomatik baholash vositalari o‘quvchining bilimini mustahkamlashga yordam beradi. Interaktiv kontent orqali o‘quvchi o‘z xatosini ko‘radi, qayta urinadi, natijani tahlil qiladi va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Elektron o‘quv kontentga qo‘yiladigan yana bir muhim talab — foydalanishga qulaylikdir. Kontent interfeysi sodda, tushunarli, estetik jihatdan jozibador va texnik jihatdan barqaror bo‘lishi kerak. Undagi tugmalar, menyular, havolalar va topshiriqlar o‘quvchiga qiyinchilik tug‘dirmasligi lozim. Shuningdek, kontent turli qurilmalarda — kompyuter, planshet, smartfon va interaktiv doskalarda ishlashi, internet orqali yoki offline rejimda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Elektron o‘quv kontent yaratishda metodik talablar ham muhim o‘rin tutadi. Kon-

tent o‘qituvchiga darsni samarali tashkil etish, mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat qilish va baholash jarayonlarini yengillashtirishi kerak. Har bir elektron kontent tarkibida mavzu rejasi, asosiy tushunchalar, nazariy ma’lumotlar, amaliy topshiriqlar, mustaqil ishlash uchun savollar, testlar va foydalanilgan manbalar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘qituvchiga dars jarayonini rejalashtirishda, o‘quvchiga esa mustaqil ta’lim olishda qulaylik yaratadi.

Ta’limda elektron o‘quv kontentning o‘rni nihoyatda katta. Avvalo, u ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. O‘quvchi mavzuni faqat eshitish orqali emas, balki ko‘rish, kuzatish, bajarish va tahlil qilish orqali o‘zlashtiradi. Bu esa bilimlarning mustahkamroq shakllanishiga olib keladi. Ikkinchidan, elektron kontent ta’limni individuallashtirish imkonini beradi. Har bir o‘quvchi o‘z bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojiga qarab materialni qayta ko‘rib chiqishi, topshiriqlarni mustaqil bajarishi va o‘z natijalarini baholashi mumkin.

Elektron o‘quv kontent masofaviy va aralash ta’limni tashkil etishda ham asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Masofaviy ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi bir joyda bo‘lmasa ham, elektron kontent orqali mavzu mazmuni yetkaziladi, topshiriqlar beriladi, baholash amalga oshiriladi va teskari aloqa ta’minlanadi. Aralash ta’limda esa elektron kontent an’anaviy dars bilan uyg‘unlashib, o‘quv jarayonini yanada boyitadi.

Shuningdek, elektron o‘quv kontent o‘quvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Elektron resurslardan foydalanish orqali o‘quvchi axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, qayta ishlash va undan maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini egallaydi. Bu esa zamonaviy jamiyatda zarur bo‘lgan axborot madaniyati, raqamli savodxonlik va mustaqil o‘rganish malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, elektron o‘quv kontent yaratish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. U ilmiylik, tizimlilik, ko‘rgazmalilik, interaktivlik, foydalanishga qulaylik, metodik asoslanganlik va texnik barqarorlik talablariga javob berishi zarur. Sifatli yaratilgan elektron o‘quv kontent o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil ta’lim olishga yo‘naltiradi, ta’lim jarayonining samaradorligini kuchaytiradi hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini raqamli ta’lim muhiti bilan uyg‘unlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Anarbayeva F.U. “Elektron ta’lim metodikasining ahamiyati” // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Volume 1 | ISSUE 4 ISSN 2181-1784. Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

2. Muratov X.X. “Elektron ta'lim resurslari va multimediali elektron o‘qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi” ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723.

3. Yulchiyev M. “Elektron ta’lim muhitida “Elektr tarmoqlari va tizimlari” fanini o‘qitish mazmuni va muammolari” // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 11 (2021) / ISSN 2181-1415. B. 65-70.

4. Suropov B.M. “Elektron ta’lim muhitida axborot kommunikatsiya texnologiyalari fanini o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirish” PhD disseratsiya ishi. Toshkent 2019 y. 170 b.

Aziza GULYAMOVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

HAMKORLIK PEDAGOGIKASI ORQALI TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH HAMDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada talabalarni hamkorlik pedagogikasi orqali tanqidiy fikrlashga yo’naltirish hamda talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuni, o‘ziga xos jixatlari haqida munosabat bildirilgan.

Tayanch so‘zlar. Hamkorlik pedagogikasi, talabalar, bo‘lajak mutaxassis, pedagogik faoliyat, o‘quv topshiriqlari, mashg‘ulot turlari, nuqtai nazar, tanqidiy fikrlash, pedagogik qarash,

В статье рассматриваются содержание и особенности подготовки студентов к педагогической деятельности на основе кооперативной педагогики.

Ключевые слова. Кооперативная педагогика, студенты, будущий специалист, педагогическая деятельность, образовательные задачи, виды обучения, перспектива, критическое мышление, педагогическое образование.

The article discusses the content and specific aspects of preparing students for pedagogical activities based on cooperative pedagogy.

Key words. Cooperative pedagogy, students, future specialist, pedagogical activity, educational tasks, types of training, critical thinking, perspective, pedagogical education.

Barchamizga ma’lumki, XX asrning oxiri, XXI asrning boshiga kelib, ta’lim jarayoni subyektlari faoliyatiga nisbatan yangicha yondashuvlar rivojlanishlar vujudga kela boshladi. Bunday yondashuvning ahamiyati shundaki, shaxslararo munosabatlar o‘zaro hamkorlik jarayonida yangi sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi va kutilgan natijani beradi. Pedagogik hamkorlik ta’lim jarayoni sub’ektlari faoliyatida yangicha sifat o‘zgarishlarining shakllanishi va namoyon bo‘lishiga ko‘maklashadi. Pedagogik hamkorlikning asosiy muhim jihatlaridan biri shundaki, u ta’lim jarayoni subyektlari faoliyatini muayyan tarzda uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogik hamkorlik jarayonida ta’lim jarayoni sub’ektlari faoliyati uyg‘unlashadi va odatda ijodiy xarakter namoyon eta boshlaydi. U ta’lim jarayoni subyektlari faoliyatidagi o‘ziga xos jihatlarni hisobga olishni taqozo qiladi.

Pedagogik hamkorlik o‘quv-tarbiya jarayonidagi muntazam hamda nomuntazam holatlar, muvozanatsizlik bilan muvozanatlilikka oid qonuniyatlar, tartiblilik bilan tartibsizlik, izchillik bilan noizchillik orasidagi aloqadorlikning mazmuniga tayanadi. Hamkorlik orqali talabalarda turli xil muammolarni xal qilishimiz mumkin. Bulardan biri tanqidiy fikrlashlariga e’tibor qaratishdir.

Tanqidiy fikrlash – bu har qanday bayonot haqida tashqarida fikr yuritishga yordam beradigan va doimiy o’zgaruvchan axborot oqimi bilan kurashishga yordam beradigan fikrlash turi. Boshqacha aytganda, fikrlashning bunday turi talabalarga axborotni qayta ishlash, tartibga solish, o‘z fikrlarini tez va aniq ifodalash, mustaqil ravishda o‘z

ta’limiga kirishish va boshqalar bilan konstruktiv munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirish imkonini beradi. Bu 20-asrning 90-yillari o‘rtalarida paydo bo‘lgan yangi ta’lim texnologiyalaridan biridir. Ingliz tilida bu atama insonning bilimlarni qanday egallashi haqida fikr yuritish qobiliyatini anglatadi. Tanqidiy fikrlash axborot bilan samarali ishlash imkonini beradi, demak, avvalo u bilan ishlashni o‘rgatish muhim. Axborot makonining kengayib borayotgan zamonaviy davrida tanqidiy fikrlashni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy tartibi yosh avlod nafaqat ta’lim faoliyatida, balki kundalik hayotda ham zarur bo‘lgan fikrlash va fazilatlarga ega bo’lishi kerakligini taklif qiladi. Ushbu texnologiyaning asosiy mezonlaridan biri aks ettirishdir. Chiziqni chizish, ongli ravishda ma’lumotni o‘z-o‘zidan o‘tkazish va uni tushunish, aniq, to‘g‘ri va ko‘pincha ijodiy (hozir aytganidek - ijodiy) qaror qabul qilish qobiliyati – bularning barchasi XXI asrning muvaffaqiyatli odamini yaxshi tavsiflaydi. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi pedagog rahbarligida ta’lim maydonini mustaqil ravishda boshqaradigan ijodiy rivojlangan shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, tanqidiy fikrlash texnologiyasi Federal Davlat Ta’lim Standartiga muvofiq zamonaviy ta’lim maqsadlariga javob beradi: – o’quvchilarning umumiy madaniy, shaxsiy va kognitiv rivojlanishi, ta’limning asosiy kompetensiyasini ta’minlash – “qanday o‘rganishni o’rgatish” va amaliy amalga oshirilishini ta’minlaydi. Zamonaviy rus pedagogikasi uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi yangi, garchi uning ko‘pgina elementlari juda uzoq vaqt davomida ishlatilgan bo‘lsa-da, bu tushunchalarning ko‘pchiligi boshqacha nomga ega edi. Masalan, bilimlarni umumlashtirib fikrlash, motivatsiya esa qiyinchilikdir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi mustaqil qaror qabul qilish va mavzuni o’rganish yo‘nalishini tanlashga qaratilgan. Tanqidiy fikrlash 5 ta xususiyatga ega (D. Klester):

– birinchidan, bu mustaqil fikrlash;
– ikkinchidan, umumlashgan fikrlash;
– uchinchidan, bu muammoli va baholovchi fikrlash;
– to‘rtinchidan, bu asosli fikrlash;
– beshinchidan, bu ijtimoiy fikrlash.

Ta’lim insonning jamiyatda faol hayot kechirishini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy pedagogik hodisadir. Shuning uchun ham u jamiyatni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchini rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo‘llash ehtiyoji kuchaymoqda. Xuddi shunday rivojlangan yoshlargina jamiyat hayotini yangi bosqichga ko‘tara oladi. Chunki inson hayotni mustaqil o‘zgartirishga tayyor bo‘lishi uchun yetarli tarzda ta’lim-tarbiya olishi, bu jarayon esa uning o‘zini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Faqat shunday sharoitdagina jamiyat a’zolari yangi ilmiy g‘oyalarni qabul qilishga tayyor bo‘ladi. Bunday g‘oyalarning tadbiq etilishi va keng yoyilishi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Ta’limning alohida imtiyozga egaligi, fanni rivojlantirish omili sifatida xizmat qilishi, yutuqlarga erishishning zaruriy shartidir.

Mazkur strategiyaning tadbiq etilishi ta’lim tizimiga xalqaro tajribalarni olib kirish orqali faollishtiriladi. Ko‘plab xorijlik tadqiqotchilar o‘qituvchining professional tayyorgarligi, shaxsiy quvvatlarining rivojlanishi mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Bunda ayniqsa yosh o‘qituvchilar uchun pedagogik faoliyatni egallash jarayoni ularning mehnat faoliyati bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Amerikalik olim professor L.Sprintolning fikricha, shaxsning turli bosqichlarda rivojlanishining g‘oyaviy negizi turli nazariyalarda o‘z ifodasini topgan, degan fikrni ilgari suradi. Shuning uchun ham bugungi kunga kelib o‘qituvchilarning professional

tayyorgarligini oshirishning turli darajadagi dasturlari yaratilgan.

Ilm-fanning tezkor taraqqiyoti, pedagogika hamda ijtimoiy sohalarda jadal ro‘y berayotgan o‘zgarishlar bo‘lajak mutaxassislar tayyorlashda davriy o‘zgarishlarni inobatga olish, fan yangiliklarini ta’lim mazmuniga singdirish lozimligini taqozo etmoqda. Bu esa o‘z navbatida, bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini aniqlash asosida talabalarda o‘z tanlagan kasbiga nisbatan mas’uliyatli munosabat tajribasiga ega bo‘lishlariga erishish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatmoqda. Mazkur vazifalarni hal etishda bo‘lajak o‘qituvchilarning professional tayyorgarligini tashxislash va pedagogik monitoring qilish tizimini takomillashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, bu yo‘nalishni tatqiq etishning zaruriy shartlari ta’lim jarayonining shaxsga yo‘nalganligi va individuallashtirilishi, ta’lim muassasalarining xilma-xilligi va ijtimoiy buyurtmalarning yangiligi, innovatsion jarayonlarni faol qo‘llab-quvvatlash va jamiyatning ta’limni rivojlantirishda faol ishtiroki sanaladi.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim jarayoni sub’ektlarini yangi bilimlarni egallashga yo‘naltirish, ularda tashabbuskorlikni hosil qilish, pedagogik tafakkurni rivojlantirish, o‘quv hamda ilmiy-pedagogik faoliyatni o‘zaro uyg‘unlashtirishga xizmat qiladigan o‘quv topshiriqlari, mashg‘ulot turlarini loyihalash ehtiyoji kuchaymoqda. Taqdim etiladigan yangi bilimlar oliy pedagogik ta’lim jarayoni sub’ektlarining o‘z pedagogik faoliyatlarini mustaqil boshqarish, uni mustaqil tarzda tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi kerak. Ushbu imkoniyatlardan qulay tarzda foydalanish oliy pedagogik ta’lim jarayoni sub’ektlariga taqdim etiladigan bilimlar ko‘lamini kengaytirishni taqozo qiladi. Oliy pedagogik ta’lim jarayoni sub’ektlarida pedagogikaning ko‘plab xususiy tarmoqlari va sohalari haqida bilimlarni hosil qilish, ularning ilmiy dunyoqarashi va tasavvurini kengaytirish istiqboldagi pedagogik faoliyat mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, hamkorlik pedagogikasi orqali talabalarda tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish hamda pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biridir. Pedagogik hamkorlik universal metodologik paradigma tarkibiga kiradi. U ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida o‘quv jarayonining tarkibiy qismini tashkil etadi. Hamkorlik predmeti ta’lim jarayoni sub’ektlari faoliyatini uyg‘un tarzda tashkil etish mexanizmidir. Shuning uchun ham, pedagogik hamkorlik ta’lim jarayoni sub’ektlari faoliyatini uyg‘un tarzda tashkil etish imkoniyati sifatida talqin etiladi.

Foydalanilgan adabiyaotlar

1. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). – T.: “Sahhof”, 2023, 416 b.

2. Ma’murov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish tizimi. Monografiya.– T.: Fan va texnologiya, 2017.– 128 b.

3. Xalikov A.A. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish. // Monografiya. Iqtisod Moliya.– Toshkent. – 2015. 435 b.

4.Trubinova E. A. O‘quv jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi .// Yosh olim. – 2015y 946-948-b.

Barno XAKIMOVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

ZAMONAVIY “GENDER” ATAMASI VA O‘SMIRLARNI MUSTAQIL QAROR QABUL QILISHIGA YO‘NALTIRISHNING GENDER MUAMMOLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola gender va uning o‘smirlarda mustaqil qaror qabul qilishdagi ro‘lini o‘rganadi. Maqolada, shuningdek, turli jinslar o‘rtasidagi yosh mezonlariga muvofiq qaror qabul qilishdagi farqlar haqida ba’zi xulosalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Gender, o‘smirlar, mustaqil qaror qabul qilish, jins, tenglik, ayol, erkak, gender identifikatsiya, qiz, o‘g‘il.

В этой статье исследуется пол и его роль в принятии самостоятельных решений у подростков. В статье также приводятся некоторые выводы о различиях в принятии решений между разными полами по возрастным критериям.

Ключевые слова. Пол, подростки, самостоятельное принятие решений, пол, равенство, женщина, мужчина, гендерная идентичность, девочка, ма

This article explores gender and its role in independent decision-making in adolescents. The article also provides some conclusions about differences in decision making according to age criteria between different genders.

Key words. Gender, adolescents, independent decision making, gender, equality, female, male, gender identity, daughter, son.

Hozirgi vaqtda “gender” atamasi nafaqat tadqiqotchilarga, balki keng jamoatchilikka ham ma’lum. Yigirmanchi asrning oxirida, gender tadqiqotlari nafaqat xorijda, balki mamlakatimizda ham ancha keng tarqalgan va hatto ilmiy bazaga kiritilgan. Biroq, hozirgi vaqtda ushbu kontseptsiyaning umumiy qabul qilingan ta’rifi mavjud emas, bu ko‘plab ob’ektiv va sub’ektiv holatlar bilan bog’liq.

Gender muammolari hammaga ta’sir qiladi – murakkab, yashirin va ochiq shakllarda. Bizning jinsiy va gender o‘ziga xosligimiz inson tabiatining ajralmas jihatlaridir. Jins, jins, gender o‘ziga xosligi kabi atamalar turli xil ma’nolarga ega, ammo ular ko‘pincha chalkashib ketadi.

Gender erkaklar va ayollarni farqlovchi biologik va fiziologik xususiyatlarni bildiradi. Tug‘ilganda biz erkak yoki ayol sifatida belgilanamiz va bu o‘sha paytdan boshlab ijtimoiy va huquqiy haqiqatga aylanadi.

Gender yo‘nalishi ayollar va erkaklarning jinsiga qarab tayinlangan ijtimoiy jihatdan qurilgan kutishlari, xatti-harakatlari va faoliyati to‘plamini anglatadi. Gender rollarining har qanday ma’lum bir to‘plami uchun ijtimoiy kutishlar muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy kontekstga bog’liq va irqi, etnik kelib chiqishi, sinfi, jinsiy orientatsiyasi va yoshi kabi boshqa omillarga ta’sir qiladi.

Gender rollari o‘rganiladi va turli insoniyat jamiyatlari ichida va o‘rtasida keng farqlanadi va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Biz tug’ilganimizdanoq ijtimoiylashganmiz. Biz oilamiz, maktabimiz, kasbiy muhitimiz, ommaviy axborot vositalari, yangi axborot

texnologiyalari va ommaviy madaniyatning katta ta’siri ostida rivojlanamiz, o‘samiz va o‘zimiz yashayotgan jamiyatning kutilgan me’yorlariga muvofiq o‘zimizni qanday tutishni o‘rganamiz. Ijtimoiylashuv - bu odamlar guruhining haqiqiy a’zosi bo‘lish uchun muhim jarayon. Biroq, bizning sotsializatsiyamizning bir qismi sifatida olgan barcha ma’lumotlarni o‘zimiz va jamiyat uchun foydali deb hisoblash mumkin emas. Gender sotsializatsiyasi o‘g’il va qizlarning iste’dod va qiziqishlarini to‘liq o‘rganishni cheklashi mumkin. Bundan tashqari, ko‘pincha haqiqiy bo‘lmagan va qarama-qarshi umidlar ichki nizolarga, psixologik muammolarga olib kelishi mumkin va bu umidlarni qondirishni istamaslik yoki qobiliyatsizligi boshqa odamlar tomonidan ta’qibning muayyan shakllariga olib kelishi mumkin.

Gender identifikatori odamlarning tug’ilish paytida tayinlangan jinsi bilan bir xil bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan jinsini bildiradi. Bu har bir insonning gender o‘ziga xosligini chuqur his qilgan ichki individual tajribasiga ishora qiladi va tananing shaxsiy hissini va kiyim, til va xulq-atvor kabi ifodaning boshqa shakllarini o‘z ichiga oladi.

Xo‘sh, gender nima? Bu madaniyat jinslarga xos bo‘lgan xususiyatlar va xatti-harakatlarga ishora qiluvchi ijtimoiy tushunchadir. Eng oddiy misol – “haqiqiy erkak bo‘lishi kerak” yoki “haqiqiy ayol bo‘lishi kerak” degan iborani eshitganingizda xayolingizga keladigan fazilatlar to‘plami. Gender (inglizcha gender, lotincha jins “genus” dan) - biologik jihatdan berilgan jinsdan farqli o‘laroq, jamiyat tomonidan qurilgan ayol yoki erkak modeli. Turli madaniyatlar va jamiyat turlari tarixan o‘zlarining gender modellarini ishlab chiqdilar, ular asosan stereotiplarga asoslangan. Kontekstga qarab, bunday xususiyatlar ijtimoiy tuzilmalarni (ayniqsa, gender va boshqa ijtimoiy rollar) yoki gender o‘ziga xosligini bildirishi mumkin. Gender identifikatori jinsiy orientatsiya bilan bog‘liq emas. Amerikalik seksolog John Mani bu so‘zni birinchi marta 1955-yilda o‘z asarlarida biologik jins va ijtimoiy rolni ajratish uchun ishlatgan. Ammo “gender” tushunchasi faqat 1970-yillarning boshlarida keng tarqaldi. Ba’zi hollarda “gender” tushunchasi “jinsiy” tushunchasining sinonimi sifatida noto‘g’ri qo‘llaniladi. Aslida, gender va jins o‘rtasidagi farq juda muhim, chunki ayollar va erkaklar o‘rtasidagi ko‘p farqlar tabiatda biologik bo‘lmagan sabablarga ham ega.

Mahalliy pedagogika “gendersiz” bo‘lib qolganiga qaramay. Barcha sanab o‘tilgan atamalar orasidagi farqlarni bilish va tushunish muhimdir.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtasida nafaqat psixofiziologiyada, balki jamiyat tomonidan yaratilgan ko‘plab tub farqlar mavjudligini qabul qiladi. T.P.Xrizmanning tadqiqotlariga asoslanib, o‘g‘il va qizlar dunyoni turlicha idrok etadilar, ya’ni ular ko‘radi va ko‘radi, tinglaydi va eshitadi, gapiradi va sukut saqlaydi, his qiladi va boshdan kechiradi.

Ta’limda gender yondashuvi – bu jinsga qarab shaxsning potentsialini rivojlantirishdagi an’anaviy madaniy cheklovlarning o‘zgarishi, pedagogik ta’sir jarayonida qizlar va o‘g‘il bolalarning maksimal darajada o‘zini o‘zi anglash va ochib berish uchun sharoit yaratish.

Maktab o‘quvchilari uchun gender ta’limi ularga ijtimoiylashuv muammolarini engishga yordam berishga qaratilgan bo‘lib, uning muhim qismi bolaning o‘zini o‘g’il va qiz sifatida tanib olishi va shu bilan ma’lum bir ijtimoiy rolni qabul qilishidir.

Demokratiyaning paydo bo‘lishi bilan jamiyat ayollarga ta’lim olish, kasbiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etishda erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo‘ldi. Ammo bularning barchasiga qaramay, ta’lim usullari va uslubi o‘zgarishsiz qoldi – patriarxal. Bu, ayniqsa, oilaviy ta’lim uchun to‘g’ri

keladi, bu yerda qizlar uy ishlarini bajarishga va bolalarni tarbiyalashga, o‘g’il bolalar esa kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bir tomondan jamiyat, jinsidan qat’i nazar, raqobatbardosh mutaxassis yetishtirishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, oila va maktab yosh avlodni patriarxat doirasida tarbiyalaydi.

Shunday qilib, ta’limda gender yondashuvining asosiy g’oyasi “o‘g’il va qizlarning rivojlanishiga ta’lim jarayonining barcha omillarining (mazmun, o‘qitish usullari, maktab hayotini tashkil etish, pedagogik muloqot, sub’ektlar to‘plami va boshqalar)” odatda o‘smirlarning qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir qiladi.

Qaror qabul qilish jarayoni inson tafakkurining eng murakkab mexanizmlaridan biridir, chunki unga turli omillar va variantlar aralashib, turli natijalarga olib keladi. Orasanu va Connolly (1993) buni ma’lum bir vaqt va joyda atrof-muhit elementlarini o‘z ichiga olgan ongli ravishda bajariladigan bir qator kognitiv operatsiyalar sifatida belgilaydi. Narayan va Corcoran-Perry (1997) qaror qabul qilishni hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo va uni muayyan muhitda hal qilmoqchi bo‘lgan shaxs o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sifatida ko‘rishadi.

Qaror qabul qilish uchun siz bir necha bosqichlardan o‘tishingiz kerak: qaror qabul qilishingiz kerakligini tushunib oling. Qaror qabul qilish va erishish kerak bo‘lgan maqsadlarni aniqlash zarurligini anglash kerak. Erishilishi kerak bo‘lgan maqsadlarni aniqlang, taklif qilingan maqsadlarga erishadigan alternativalarni yarating, bu muqobillar kutilgan natijalarga javob beradimi yoki yo‘qligini baholang va nihoyat samarali global natijani ta’minlaydigan eng yaxshi alternativni tanlang (Halpern, 1997). Bu butun jarayonga shaxsiy va atrof-muhit o‘zgaruvchilari ta’sir qiladi. Aslini olganda, odamlar xo‘jayinining ularni kuzatayotganini his qilishlariga, ularda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning miqdoriga yoki ularning hayotida ma’lum motivlar muhim rol o‘ynashiga qarab turli xil qarorlar qabul qilishlari mumkin. Asosan, qarorlarni o‘rganuvchi nazariyalarni ikki yo‘nalishga guruhlash mumkin: me’yoriy va tavsiflovchi. Normativ nuqtayi nazar, qaror qabul qilishda oqilona harakat qiladigan shaxslarning tanlovini tushuntiradi va statistik modellardan foydalangan holda, har bir muqobil haqida taqdim etilgan ma’lumotlarga asoslanib, sub’ektlarning javoblarini bashorat qiladi. Tasviriy nuqtai nazar odamlarning aslida qanday tanlashlarini, ya’ni hukm va tanlov asosida yotgan psixologik jarayonlar, vazifa va atrof-muhit xususiyatlarini tushuntiradi. Bu qarashlar orasidagi asosiy farqlardan biri qaror qabul qiluvchiga qanday qarashidir. Normativ ko‘rinish qaror qabul qiluvchilarga “cheklanmagan” ma’lumotlarni qayta ishlash qobiliyatini beradi, bu qaror qabul qiluvchilarga barcha mumkin bo‘lgan alternativalarni to‘liq tekshirish va eng yaxshisini tanlash imkonini beradi. Ta’riflovchi nuqtayi nazar axborotni qayta ishlashning “cheklangan” qobiliyatini ta’minlaydi, bu ko‘pincha murakkab va dinamik muammolarni ko‘rib chiqishda xatolarga olib keladi, garchi ular ularni qoniqtiradigan variantlarni tanlashga moyildirlar.

Kannon-Bowers, Salas va Pruitt (1996) ga ko‘ra, yuqoridagi xususiyatlar boshqalar bilan bir qatorda qarorning asosiy belgilarini tashkil qiladi, bu mualliflar ularni o‘zgaruvchilarning uchta guruhiga ajratadilar: (a) tabiati bilan bog‘liq muammoli omillar. qaror, masalan, har bir muqobil bilan bog’liq noaniqlik, vaqt va pul yetishmasligi, ma’lumotlarning miqdori va sifati, kutilayotgan maqsadlar va qarorlarning mumkin bo‘lgan oqibatlari; (b) qaror qabul qiluvchining ichki omillari, masalan, motivatsiya, hissiyotlar, to‘liq ma’lumotlarni qayta ishlash, tajriba va qaror qabul qilish jarayonining bosqichlarini tartibga solish; v) qaror qabul qilinadigan muhitning omillari, garchi ular qarorning bevosita qismi bo‘lmasa-da, masalan, ijtimoiy ta’sir, yaqinlar tomonidan

majburlash va ish talablari. Boshqa psixologik hodisalarda bo‘lgani kabi, jins va yosh qaror qabul qilishga ta’sir qiluvchi o‘zgaruvchilar qatoriga kiradi va aniqrog’i, individual farqlarni aniqlashga imkon beradi. Gap shundaki, bizning qarorlarimizga jinslarni ajratib turadigan xususiyatlar haqidagi e’tiqodlarimiz ta’sir qiladi, garchi bu e’tiqodlar shubhali mezonlarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Jamiyat erkaklar va ayollar o‘rtasidagi ijtimoiy va mehnat tengligi tomon ketayotgan bo‘lsa-da, odamlarning qaror qabul qilish jarayonini belgilovchi omillarga ahamiyat berishda jinsiy farqlar mavjudligini psixologik nuqtai nazardan o‘rganishni davom ettirish kerak. Hozirgacha tadqiqot natijalari biroz aralashgan, chunki ba’zi muhim farqlar topilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati minimaldir (Crow, Fok, Hartman va Payne, 1991; Hatala & Case, 2000; Hawkins & Power, 1999; Venkatesh & Morris, & Ackerman, 2000). Ayollar atrof-muhit ta’siriga ko‘proq duchor bo‘lishadi; ular ko‘proq ma’lumot izlaydilar va qaror qabul qilish jarayoniga ko‘proq vaqt ajratadilar (Gill, Stockard, Jonson va Williams, 1987). Erkaklar esa ko‘proq dominant, qat’iy, obyektiv va realistik.

Biroq, bu farqlar gender bilan bog’liq ijtimoiy me’yorlar va stereotiplarning tarqalishi natijasida talqin qilinadi, ular qadriyatlar, an’analar va xatti-harakatlarning taxminlari shaklida uzatiladi. Bir qator boshqa ta’lim omillari bilan birgalikda ular qarorlarning ma’lum jihatlari bilan bog’liq ba’zi farqlarning paydo bo‘lishiga va saqlanib qolishiga hissa qo‘shishi mumkin (Bussey va Bandura, 1999). Shu sababli, tadqiqot natijalari hozirgi kunga qadar biroz cheklangan bo‘lsa-da, bu farqlarni o‘rganishni davom ettirish va ular qanday shakllanganligini aniqlash muhimdir.

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ushbu tadqiqot ishtirokchilarining qaror qabul qilish jarayonlarida jiddiy jins va yosh farqlari mavjud. Ya’ni, ishtirokchilar o‘zlarining yoshiga qarab qaror qabul qilishda o‘zlarini bir xil tutmaydilar, chunki ular vazifaga, qaror qabul qiluvchiga va qaror qabul qilish jarayonini shakllantirgan atrof-muhit omillariga ahamiyat berishlari ba’zi jihatlari bilan farq qiladi. Shunday qilib, ayollar qaror qabul qilish bilan bog’liq bo‘lgan noaniqlik, shubha va dinamizm haqida ko‘proq tashvishlanadilar. Ular vaqt va pulga katta ahamiyat berishadi; ular o‘zlariga yoki boshqalarga ta’sir qiladimi, qarordan kelib chiqadigan oqibatlarga ko‘proq e’tibor berishadi. Ayollar atrof-muhit va yaqinlari ularga qo‘yadigan cheklovlarni ko‘proq bilishadi va qaror qabul qilish jarayonida ularning his-tuyg’ulari ular uchun muhimroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Штылева Л.В. Педагогика и гендерных подходов в образовании // Женщины в российском обществе №3 (19)-2000. С.61-66

2. Еремеева В.Д., Хризман Т.П. Мальчики и девочки – два разных мира. Нейропсихология – учителям, воспитателям, родителям, школьным психологам. – М.: ЛИНКА-ПРЕСС,1998. С.33

3. Кон И.С. Ребёнок и общество. – М.: 1988. С.169

4. Narayan, SM., and Corcoran-Perry, S., 1997, Line of reasoning as a representation of nurses" clinical decision making. Research in Nursing & Health, 20, 353-364.

5. Crow, S.M., Fok, L.Y., Hartman, S.J. et al. Gender and values: What is the impact on decision making? Sex Roles 25, (1991). 255–268 pp

6. Venkatesh, Morris, Ackerman A Longitudinal Field Investigation of Gender Differences in Individual Technology Adoption Decision-Making Processes, 2000

Dilshod SOBIROV,
TAFU, ‘‘Pedagogika’’ kafedrasi o‘qituvchisi

PEDAGOGIKA FANLARIDAN O‘QUV TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Pedagogik ta’limda talabalarning mustaqil oquv topshiriqlarini rivojlantirishda kredit-modul` tizimiga o‘tishning amaldagi holati va istiqbollari, oliy ta’lim muassasalarini ilg‘or jahon tajribalari asosida kredit-modul tizimining tamoyillari, ta’lim oluvchi, ta’lim natijalarini tan olinishi, ta’lim traektoriyasini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratilishi va akademik mobillik, baholarning to‘planib borilishi, Professor – o‘qituvchi, talabalarning fanga qiziqishi, hamda aniq belgilangan baholash tizimini joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar. Pragmatik, pedagogik xususiyatlar, oliy ta’lim, o‘qitish metodikasi, zamonaviy o‘qitish talablari, o‘quv topshiriqlari, nutqiy kompetensiya.

Современное состояние и перспективы перехода на кредитно-модульную систему при разработке самостоятельных учебных задач студентов педагогического образования, принципы кредитно-модульной системы, основанные на лучшем мировом опыте высших учебных заведений, обучающегося, результаты признания образования. Обосновано, что желательно создать возможность самостоятельного формирования образовательной траектории и академической мобильности, накопления оценок, интереса преподавателей и студентов к науке, введение четко определенной системы оценивания.

Ключевые слова. прагматика, педагогические особенности, высшее образование, методика преподавания, современные требования к обучению, учебные задачи, речевая компетентность.

Current status and prospects of transition to the credit-module system in the development of independent educational tasks of students in pedagogical education, the principles of the credit-module system based on the best world experiences of higher education institutions, the learner, the results of education recognition, it is justified that it is desirable to create the possibility of independent formation of the educational trajectory and academic mobility, the accumulation of grades, the interest of professors and students in science, and the introduction of a clearly defined evaluation system.

Key words. Pragmatic, pedagogical features, higher education, teaching methodology, modern teaching requirements, educational tasks, speech competence

Oliy pedagogik ta’limda modul-kredit tizimining joriy etilishi mustaqil ta’lim topshiriqlariga e’tibor kuchayishini ko‘rsatadi. Davlat ta’lim standartlari va milliy baholash mezonlariga muvofiq tarzada pedagogika fanlarini o‘qitishda mustaqil ta’lim topshiriqlari, savol, mashq va topshiriqlar mazmunini tanqidiy o‘rganish, ularni bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish va baholash nuqtayi nazaridan tavsiflash va tasniflash zarurati mavjud. 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori va farmoni ijrosini ta’minlashga hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muay-

yan darajada xizmat qiladi.

Jahon pedagogikasida o‘quv topshiriqlarning metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan Avstraliyalik olim, professor Jak Richards maxsus shug‘illangan. Shuni ta’kidlash joizki, g‘arb pedagogikasi amaliylikka asosiy e’tiborni qaratadi. Dastlabki pragmatik g‘oyalar amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyui tomonidan ishlab chiqilgan. Fanda taraqqiyotni belgilovchi va davlatni, millatni, bunyodkorlarini jahonga mashhur qiladigan ilmiy maktab yo‘nalishlar tadqiq manbaiga yangicha talqin etishning qat’iy metodologik tamoyillari asosida yondashish natijasi o‘laroq shakllanadi va rivojlanadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning hayotga tatbiqi sharofati bilan o‘zbek pedagogikasining yevropaviy shablonlar asosida formal talqin etish asoratidan qutulib, hozir jahon pedagogikasi diqqatiga ham sazovor bo‘layotgan substansial tahlil metodologiyasi asoslariga – tom ma’noda o‘zbekona metodologik usullarga – to‘la ko‘chirildi.

Hozir o‘quv-metodik majmualarni yangilash munosabati bilan respublikamizda oliy ta’lim tizimida o‘qitilayotgan 20 dan ortiq pedagogik turkum fanlar bo‘yicha didaktik talqinlarni o‘zbekona (substansial) talqin usullariga ko‘chirib, birinchidan, OTMda beriladigan talqinlarni uyg‘unlashtirishga, ikkinchidan, jahon pedagogikasi silsilagida o‘zbek didaktik maktabi o‘rnini barqarorlashtirishga real imkoniyatlar mavjud. Bu oliy pedagogik ta’limda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatadi. Kreativ qobiliyatni o‘zlashtirish muvaffaqiyati motivatsion omillar va talabaning umumiy ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish darajasiga bog‘liqdir. M.B.Elkonin konsepsiyasiga ko‘ra, bolani rivojlantirish jarayonida, avvalo, faoliyatning motivatsion tomonini, keyin esa texnik jarayonni o‘zlashtirish amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga, olimlar quyidagi omillarni ham ajratib ko‘rsatadilar:

− ijtimoiy-siyosiy (tilning davlatga xosligi, maktabda o‘qish majburiyati);

− kasbiy qiymat (kasbga o‘qitish davlat tilida olib boriladi);

− ijtimoiy obro‘, jamoaviy mas’ullik;

− kommunikativ (ona tilida muloqot qilish zaruriyati);

− o‘z-o‘zini tarbiyalashga ehtiyoj, o‘zini takomillashtirish istagi bilan bog‘liq sabablar;

− utilitar (ma’lum hayotiy manfaatlarga erishish vositasi sifatida tilni bilish zarurati);

− xavotirlanish sabablari (auditoriyani orqaga tortmaslik, past baho olmaslik);

− ona tili va adabiyoti o‘qituvchisiga hurmat motivi.

Bo‘lajak pedagogning shakllanish darajasiga ta’sir qiluvchi psixologik shartlar orasida kasbiy qobiliyat alohida ahmiyatga ega. Shunday qilib, pedagogik shakllanish faqatgina oliy ta’lim jarayoni bilan cheklanib qolmaydi, balki insonning butun ongli hayotida davom etadi. Ko‘pchilik zamonaviy olimlar “kompetentsiya” tushunchasinining tuzilish tarkibiga quyidagilarni kiritadilar:

– kasbiy kompetensiyasi;

– didaktik kompetensiyasi;

– fan kompetensiyasi;

– pragmatik kompetensiya;

– kommunikativ kompetensiya;

– doimiy intellektual rivojlanish: ruhiy jarayonlar (xotira - vizual va eshitish, fikrlash – mavhum va majoziy, kuzatish, tasavvur – reproduktiv va ijodiy);

– insonning ma’naviy boyligi – doimiy ma’naviy rivojlanish, axloqiy me’yorlar, avvalo,muloqot me’yoriga rioya qilish;

Muloqot davomida odatda savollarga to‘g‘ri javob bergani uchun talabalarga

rag‘bat yoki noto‘g‘ri javob bergan taqdirda ularga dashnom beriladi. Darsda talabani savol berishga undash mumkinmi, ko‘p hollarda bunga e’tibor berilmaydi, imkoniyat yaratilmaydi. Talabalar tomonidan o‘qituvchiga savol berilsa, aksariyat holatda rag‘batlantirilmaydi. Pedagogika fanlari mashg‘ulotlarida va boshqa fanlarda ham talabalar, asosan, javob beruvchidir. Aslida talabaga ko‘proq savol berishni o‘rgatish lozim. Muloqot jarayonida javob savolning qanday berilganiga bog‘liq bo‘ladi. Fikrlash qobiliyati faqat savollarga javob berish qobiliyati bilan emas, balki ularni so‘rash qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Talabalarda to‘g‘ri va mantiqli savol bera olish ko‘nikmasini hosil qilish zarur. Bu kelajakda to‘g‘ri qaror qabul qiladigan fikrlovchi kishilarni tarbiyalash uchun juda muhimdir.

Bu borada G‘arb pedagogikasi mo‘tadillik, amaliylik va erishuvchanlik tamoyillariga tayanadi. Pragmatizm – ta’limni hayotga yaqinlashtirish, ta’lim maqsadlariga amalda erishish tarafdori bo‘lgan falsafiy-pedagogik yo‘nalishdir. Pragmatik falsafa asoschilari Ch. Pierz va Jeyms idealizm va materializmdan tashqarida turgan yangi falsafani yaratishni talab qilishdi. Dastlabki pragmatistlarning g‘oyalari amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyui tomonidan ishlab chiqilgan. Pragmatik pedagogika hayotdan olingan maqsadlarni himoya qiladi. Amerika maktabi pragmatik ta’lim zarurligini isbotlay olgan va umumiy aholining taraqqiyoti va manfaatlariga mos keladigan ta’lim maqsadlarini taklif qila olgan. Ta’lim, D. Dyuining fikricha, insonni hayotga tayyorlash vositasi emas, u hayotning o‘zi. Tarbiya odamlarni birlashtirishi, yoshlarni ijtimoiy tinchlik va totuvlik ruhida tarbiyalash lozim. D. Dyui ta’lim tizimi ijtimoiy muhitni yaxshilash, jamiyat turini inqilobiy o‘zgarishlarsiz o‘zgartirishning hal qiluvchi vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quv maqsadlari D. Dyuining uslubiy ko‘rsatmalari zamonaviy nazariyalar bilan hamohang. Bu nazariyotchilarning fikrlarini umumlashtirib, pragmatik pedagogikani tarbiyalashning umumiy maqsadi shaxsning o‘z-o‘zini tasdiqlashi, tan olishi, degan xulosaga kelish mumkin. Uning fikriga ko‘ra, ta’lim hayotiy muammolarni qanday hal qilishni o‘rgatishi kerak. Pedagogika fanlarini o‘qitishda, pedagogik ta’limida har bir dars mashg‘ulot orqali beriladigan savol, topshiriq va mashqlar ham xuddi shunday talabaning hayotiy muammolarini yechishga yo‘naltirishi lozim.

Bu borada o‘zbek pedagogikasida olib borilayotgan tadqiqotlardan ham foydalanish lozim. Pragmatika (yun. pragma, pragmatos) pedagogikaning muloqot belgisi jarayonida amal qilishini o‘rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o‘zlashtirib, undan foydalanuvchi sub’ektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o‘rganuvchi fan tarmog‘i. Pragmatika haqidagi asosiy g‘oya amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan o‘rtaga tashlangan; yana bir amerikalik olim Ch. Morris ushbu g‘oyani rivojlantirgan va “Pragmatika” terminini semiotika bo‘limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan.

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo‘ladi. Didaktik pragmatika aniq shakl, tashqi ko‘rinishga ega emas; uning doirasiga so‘zlovchi subyekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o‘zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog‘liq ko‘plab masalalar kiradi.

Pedagoogika ta’lmiga, xususan, o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishga yordam beradigan jihati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: Masalan, fikrning oshkora va yashirin maqsadlari (fikrni yetkazish, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat, va’da berish, uzr so‘rash, tabriklash, shikoyat va b.); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat,

so‘zlashish qoidalari; so‘zlovchining maqsadi; so‘zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg‘armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va b. xislatlariga baho berilishi; so‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar savol berish, topshiriq bajarish, umuman, o‘zaro muloqotda muhim ahamiyatga ega.[1]

Shu o‘rinda – topshiriq usullari – talabaning real amaliy harakatlarini ta’minlovchi, uning ichki munosabatini mujassamlashtiruvchi, munosabatni moddiylashtiruvchi, ikkinchisiga ko‘rinadigan ta’sirlar turidir. Topshiriqlar yordamida talabalarning faolligi tashkil etiladi va uning ijobiy motivlari (ishtiyoq) (topshiriqlar, talablar, musobaqalar shaklida alohida va guruh faoliyati uchun turli xil vazifalar, namunalar va misollar ko‘rsatish, muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratish) rag‘batlantiriladi.

Ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalovchi darsning asosini fikrlashga yo‘naltiruvchi o‘quv topshiriqlari tashkil qiladi. Bunday zamonaviy dars javob berishi kerak bo‘lgan umumiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Eng yangi ilmiy yutuqlardan, eng yaxshi pedagogik amaliyotdan foydalanib, ta’lim jarayoni savol-javob asosida dars tashkil qilish.

2. Darsni o‘quv topshiriqlaridan o‘rinli va maqsadli foydalangan holda amalga tashkil qilish.

3.Talabalarning bilish faoliyati uchun tegishli bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning qiziqishlari, mayllari va ehtiyojlarini hisobga olib matnga yoki mavzuga o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish.

4.Savol va topshiriqlar tuzishda fanlararo bog‘lanishlarni e’tiborda tutish.

Bugun talabaga OTMda taqdim etilayotgan test savollariga tadqiqotchi, pedagoglar ham qoniqarli javob bera olmaydi, chunki o‘quv topshiriqlari noto‘g‘ri shakllantirilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, OTMda pedagogika fanlarini o‘qitishda o‘quv topshiriqlaridan foydalanishning mavjud holati, topshiriq turlari, savol va topshiriqlarning vazifaviy farqlanishlari, pedagogika va metodikalardagi o‘rni, tuzilgan o‘quv topshiriqlarining tanlangan mavzu, shuningdek ta’lim maqsadiga mosligi, bo‘lajak mutaxassislarning topshiriq tuzish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqish masalalari haqida fikrlar muhim ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar

1. Azizxo‘jaeva N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2006.

2. Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi (O‘quv qo‘llanma) – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011.

3. Axmedova M.E. G.Niyozov. Pedagogika nazariyasi va tarixidan seminar mashg’ulotlar (O‘quv qo‘llanma) – T.: Noshir, 2011.

4. Axmedova M.E. Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. “Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi”, MCHJ. – T., 2022. 173 b.

[1] https://qomus.info/encyclopedia/cat-y/yoldosh-uz/

Sarvar FARMONOV,
Ilustratoir rassom

UMUMTA’LIM DARSLIK KITOBLARIDA DIZAYN VA ILLYUSTRATSIYALARNING O‘QUVCHILARNING TA’LIM OILISH JARAYONIDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada umumta’lim darsliklarida dizayn va illyustratsiyalarning o‘quvchilar ta’lim jarayonidagi pedagogik va psixologik ahamiyati tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida vizual elementlarning o‘quvchi ongi, idroki, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni sinf bosqichlari kesimida yoritib beriladi. Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi hamda O‘zbekiston umumta’lim darsliklarida olib borilayotgan islohotlar tahlil qilinib, darslik dizaynini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar beriladi.

Tayanch so‘zlar. Darslik dizayni, illyustratsiya, vizual ta’lim, pedagogik dizayn, vizual idrok, ta’lim sifati, boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim, yuqori sinf, xalqaro tajriba, infografika, didaktik material.

В статье систематически анализируется педагогическая и психологическая значимость дизайна и иллюстраций в общеобразовательных учебниках в образовательном процессе учащихся. В ходе исследования роль визуальных элементов в формировании сознания, восприятия, мышления и мировоззрения учащегося освещается в разрезе этапов класса. Также будет проанализирован опыт развитых стран и реформы, проводимые в общеобразовательных учебниках Узбекистана, сделаны научные выводы и даны практические рекомендации по совершенствованию дизайна учебников.

Ключевые слова. Дизайн учебника, иллюстрация, визуальное обучение, педагогический дизайн, визуальное восприятие, качество образования, начальное образование, среднее образование, старший класс, международный опыт, инфографика, дидактический материал.

The article provides a systematic analysis of the pedagogical and psychological significance of design and illustrations in general education textbooks for students' educational process. During the study, the role of visual elements in shaping the student's consciousness, perception, thinking, and worldview is highlighted across class stages. Additionally, the experience of developed countries and the ongoing reforms in Uzbekistan's general education textbooks will be analyzed, and scientific conclusions and practical recommendations for improving textbook design will be provided.

Key words. Textbook design, illustration, visual education, pedagogical design, visual perception, quality of education, primary education, secondary education, high school, international experience, infographics, didactic material.

So‘nggi yillardagi pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi axborotni ko‘p hollarda vizual obrazlar orqali tezroq va chuqurroq idrok etadi. Matn bilan uyg‘unlashtirilgan tasvir, rang va grafik elementlar bilimni qabul qilish jarayonini yanada faollashtiradi hamda o‘quvchi ongida barqaror assotsiativ aloqalarni shakllantiradi. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalar uchun vizual idrok bilim olishning yetakchi mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Shu bois umumta’lim darsliklarida dizayn va illyustratsiyalarni faqat bezak yoki estetik unsur sifatida emas, balki mustaqil didaktik vosita sifatida talqin etish zarurati doimo dolzard hisoblangan. Darsliklar dizayni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish bosqichlari va fanlar mazmuniga mos holda ishlab chiqilgandagina ta’lim jarayonida kutilgan yuqori natijaga erishish mumkin.

Mazkur ilmiy maqolada umumta’lim darsliklarida dizayn va illyustratsiyalarning

o‘quvchilar ta’lim jarayonidagi o‘rni sinf bosqichlari hamda fanlar kesimida tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro ta’lim tajribasi va O‘zbekiston darsliklari misolida vizual yondashuvning ta’lim sifati va o‘quvchi dunyoqarashiga ta’siri ilmiy asosda yoritib beriladi. Darslik dizaynini ishlab chiqishda o‘quvchilarning yoshi, psixologik rivojlanish bosqichlari va idrok mexanizmlari e’tiborga olinishi zarur. Vizual axborot miyada tezroq qayta ishlanadi va assotsiativ bog‘lanishlarni kuchaytiradi. Ranglar, obrazlar va grafik elementlar orqali berilgan ma’lumotlar o‘quvchi tafakkurida mustahkam bilim strukturasini shakllantiradi. Masalan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun obrazli va rang-barang illyustratsiyalar ustuvor ahamiyatga ega. Bu bosqichda darsliklar dizayni o‘quvchida o‘qishga bo‘lgan qiziqish va ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. O‘rta va yuqori sinflarda esa dizayn ko‘proq tahliliy, mantiqiy va tizimli fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida illyustratsiyalar bolaning ta’lim olish jarayonida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ona tili va alifbo savodxonligi, adabiyot darsliklarida qahramonlar, hayvonlar, kundalik hayot sahnalari orqali matn mazmuni ochib beriladi. Bu usul bolalarda nutq rivoji, so‘z boyligi va mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi. Matematika darsliklarida esa predmetli rasmlar, geometrik shakllar va rangli chizmalar abstrakt son tushunchalarini konkretlashtirishga xizmat qiladi. Bunday vizual yondashuv bolalarning mantiqiy fikrlashini bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Bu jihat ta’lim jarayonidagi eng asosiy talab hisoblanadi. Ma’lumki o‘qib o‘rganishda tasvirlar alohida o‘ringa ega. Ayniqsa, ba’zi fanlarni o‘zlashtirishda tasvirlar mantiqiy fikrlashga yordam beradi. O‘rta sinflarda o‘quvchilarning tafakkuri tahliliy va mantiqiy bosqichga o‘tadi. Shu bois illyustratsiyalar tushunchani izohlovchi didaktik vosita sifatida qo‘llaniladi. Biologiya fanida hujayra tuzilishi, geografiyada xaritalar va iqlim diagrammalari, tarixda esa voqealar ketma-ketligini aks ettiruvchi vizual materiallar muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqori sinflarda dizayn va illyustratsiyalar bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish vazifasini bajaradi. Fizika va kimyo fanlarida grafiklar, sxemalar va formulalar bilan uyg‘unlashtirilgan dizayn o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi.

Fanlar kesimida illyustratsiyalarning didaktik ahamiyati ulkan hisoblanadi. Illyustratsiyalar darsliklarda nafaqat matnni bezatish vositasi sifatida, balki didaktik maqsadlarga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida qabul qilinadi. Zamonamiz pedagogik psixologiyasi bo‘yicha o‘quv jarayonida “multimodal o‘rganish” konseptsiyasi katta rol o‘ynaydi. Ya’ni o‘quvchining e’tibor va idrok mexanizmlari faqat matn orqali emas, balki rasm, diagramma, sxema va grafiklar orqali ham shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, har bir fan kontekstida illyustratsiyalarning funksiyasi va maqsadi bir biridan farqlanadi.

Masalan, “Ona tili va adabiyot” fanida tasvirlar o‘rganish jarayonig mutlaqo boshqacha ta’sir qiladi. Adabiyotda illyustratsiyalar o‘quvchilarga badiiy tasvirni hissiy va estetik darajada qabul qilish imkonini beradi. Badiiy matnlarni tasvirlash orqali o‘quvchida nutqning emosional rang-barangligi, personaj xarakterlari va kayfiyatini idrok etish, voqea makonini tasavvur qilish rivojlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, badiiy tasviriy illyustratsiyalar o‘quvchida matn mazmunini kontekstual darajada eslab qolishni kuchaytiradi, bu esa o‘z navbatida o‘quv motivatsiyasini oshiradi va kommunikativ kompetentsiyani yaxshilaydi. Matematika darsliklarida esa holat biroz boshqacha. Matematika fanida illyustratsiyalar kontseptual abstraksiyani konkret shakllarga aylantirish funksiyasini bajaradi. Bu yerda vizual vositalar quyidagi didaktik rollarni bajaradi:geometrik shakllar va chizmalar orqali abstrakt kontseptsiyalar – masalan, sonlar, nisbatlar, ko‘paytmalar – konkret tasvirlarga aylanadi. Diagramma va grafiklar murakkab munosabatlarni (funksiyalar, o‘sish va kamayish tendensiyalari) kuzatishga

yordam beradi. Amaliy masalalarni yechishda rasmli ko‘rsatmalar mantiqiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Matematikaning didaktik psixologiyasiga ko‘ra, vizual tasvirlar o‘quvchida «matematik model yaratish» mexanizmini yo‘lga qo‘yadi, bu esa yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tabiiy fanlar – biologiya, kimyo va fizika – abstrakt tushunchalar, ko‘z bilan bevosita kuzatib bo‘lmaydigan jarayonlar hamda murakkab tizimlar bilan ishlaydi. Shu bois mazkur fanlarda illyustratsiyalar nafaqat bezak elementi, balki bilimni konstruksiyalash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Vizual modellar nazariy bilimni real hayot kontekstiga bog‘lab, o‘quvchining ilmiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tabiiy fanlarda illyustratsiyalardan foydalanish bir necha ilmiy nazariyalar bilan asoslanadi:

1) Dual kodlash nazariyasi (A. Paivio)

Ma’lumot matn va tasvir orqali bir vaqtda berilganda, u ikki xil kognitiv kanal orqali qayta ishlanadi. Bu esa eslab qolish va tushunish darajasini oshiradi.

2) Kognitiv yuklama nazariyasi (J. Sweller)

Murakkab ilmiy ma’lumotlarni faqat matn orqali berish o‘quvchining ishchi xotirasiga ortiqcha yuk tushiradi. Diagramma, grafik va sxemalar esa axborotni strukturaviy ravishda soddalashtiradi va kognitiv yukni kamaytiradi.

3) Ilmiy model tushunchasi

Tabiiy fanlar modellashtirishga asoslanadi. Illyustratsiya – bu real obyektning aynan o‘zi emas, balki uning ilmiy modelidir. O‘quvchi aynan model orqali abstrakt jarayonni anglaydi.

Shu jihatdan, illyustratsiyalar “obyektiv ilmiy haqiqat” va “subyektiv o‘quvchi tasavvuri” o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi.

Holatni fanlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak, “Biologiya” fanida ko‘plab mikroskopik va tizimli jarayonlarni o‘rganadi. Fizika fanida esa dinamik jarayonlarni o‘rganiladi. Ularni o‘quvchi tasavvursiz tushunish qiyin. Kimyo fanida atom va molekulalar ko‘z bilan ko‘rinmaydi. Shuning uchun vizual model hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tabiiy fanlarda illyustratsiyalar quyidagi funksiyalarni bajaradi. Informativ funksiya – yangi ma’lumotni yetkazadi. Tushuntiruvchi funksiya – murakkab jarayonni soddalashtiradi. Modellashtiruvchi funksiya – real obyektning ilmiy modelini beradi. Tabiiy fanlarda illyustratsiyalar oddiy vizual qo‘shimcha emas, balki ilmiy tafakkurni shakllantiruvchi metodik vositadir. Biologiyada tizimlilikni, fizikada dinamik jarayonni, kimyoda molekulyar tuzilmani anglash aynan vizual modellar orqali samarali amalga oshadi. Didaktik jihatdan, illyustratsiya abstrakt tushunchani konkretlashtiradi; kognitiv yukni kamaytiradi; sabab-oqibat aloqalarini ochadi; nazariy bilimni real hayot bilan bog‘laydi. Shu bois zamonaviy darsliklarda illyustratsiyalar ilmiy asoslangan, tizimli va pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan holda qo‘llanilishi zarur.

Ijtimoiy fanlarda ilustratsiyalarni o‘rni katta. Ijtimoiy fanlarda illyustratsiyalar vaqt va makon kontseptsiyalarini idrok etishda asosiy vosita hisoblanadi. Tarix darsliklarida xaritlar, tarixiy sahnalar, shaxslar portretlari o‘quvchilarga o‘tmish hodisalarini kontekstual tasavvur qilish imkonini beradi. Bu ko‘pincha faktlar zanjiridan voqea fazosini yaratishga yordam beradi. Geografiyada xaritaviy grafiklar, iqlim zonalari, manbalar diagrammalari makonning murakkab tuzilishini vizual tarzda yetkazadi. Bu fanlarda illyustratsiyalar o‘quvchining makon-navbat tushunchalarini, sabab-oqibat aloqalarini, ijtimoiy hodisalarning kontekstini chuqur anglashiga xizmat qiladi.

San’at va musiqa fanlarida illyustratsiyalar vizual madaniyatni o‘rganish, estetik

tasavvurni oshirish va o‘quvchining ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rasm va grafikalar san’at nazariyasi, kompozitsiya qonunlarini tushunishga yordam beradi; musiqa grafik notalar orqali ritm va melodiyani vizual anglashni ta’minlaydi. Fanlar kesimida farqlanishiga qaramay, illyustratsiyalar quyidagi umumiy pedagogik funksiyalarni ham bajaradi. Vizual idrokni faollashtirishtiradi. Kitobdagi matnli kontentni qo‘llab-quvvatlab, o‘quvchining e’tiborini jalb qiladi va ma’lumotni tezroq qabul qilishga yordam beradi. Assotsiativ bog‘lanishlarni mustahkamlaydi. Rasm va matn kombinatsiyasi olingan bilimni uzoq muddatli xotirada saqlash va qayta tiklashni osonlashtiradi.

Darsliklardagi rasmlar dbstrakt yoki murakkab tushunchalarni vizual modelga aylantirib, ularni anglashni yengillashtiradi. Vizual boy darsliklar o‘quvchi qiziqishini oshiradi va fanlarga bo‘lgan ijobiy munosabatni kuchaytiradi. Bu borada xalqaro ta’lim qay ahvolda? Xalqaro ta’lim amaliyotida darsliklar dizayni va illyustratsiyalar nafaqat axborotni yetkazuvchi vosita, balki ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi strategik element sifatida qaraladi. Turli mamlakatlarda darsliklar ishlab chiqishda pedagogik, psixologik va madaniy kontekstlar integratsiyalangan kompleks yondashuvlar qo‘llaniladi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning individual o‘rganish uslublariga mos vizual va kontseptual vositalarni yaratishga xizmat qiladi.

4K ko‘nikmalariga yo‘naltirilgan kontentlar esa rivojlangan ta’lim tizimlari (masalan, Finlyandiya, Yaponiya, Singapur) darslik dizaynida kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya va kommunikatsiyani mustahkamlashga qaratilgan vizual elementlar yaratiladi, bu o‘quvchilarga global kompetensiyalarni shakllantirishda yordam beradi. Finlyandiya kabi mamlakatlar darsliklarida kontseptual chuqurlik va minimalistik, lekin ma’noli illyustratsiyalar ustuvor bo‘lib, ular o‘quvchini mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.

Xalqaro tajribalar asosida darsliklarni ishlab chiqishda quyidagi nuqtalar o‘zaro bog‘liq. Pedagogik maqsadga xizmat qiladigan vizual dizayn: Xalqaro darsliklarda har bir vizual element pedagogik mazmunni samarali yetkazish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, O‘zbekiston darsliklarida ham illyustratsiyalar mazmuniy asosda joylashtirilmoqda, bu esa o‘quv jarayonini yanada faol qiladi. O‘zbekiston darsliklarida milliy madaniy kontekstni aks ettiruvchi tasvirlar bilan birga, xalqaro baholash talablari asosidagi yondashuvlar sintez qilinmoqda. Yangi darsliklar 14 ta hududda tajriba tariqasida qo‘llanib, ularning samaradorligi o‘rganilmoqda va bu bosqich xalqaro standartlar bilan solishtiriladi.

O‘zbekiston umumta’lim darsliklarida so‘nggi yillarda dizayn va illyustratsiyalarga bo‘lgan e’tiborning ortib borayotgani ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Milliy qadriyatlar va zamonaviy grafik yondashuv uyg‘unligi o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash bilan birga ilmiy dunyoqarashni ham shakllantirmoqda. Kelgusida darsliklarni ishlab chiqishda fanlar kesimida vizual yondashuvni yanada chuqurlashtirish, raqamli va interaktiv illyustratsiyalarni joriy etish, shuningdek, dizayn sifatini baholashning ilmiy mezonlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxodjayeva N.N. “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”. – Toshkent, “Fan”, 2006.

2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari”. – Toshkent, 2005.

3. Ishmuxamedov R. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2010.

4. Quronov M. “Zamonaviy darslik dizayni va uning pedagogik ahamiyati” Ilmiy maqolalar to‘plami.

Kamola PO‘LATOVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING GEOMETRIK MASALALAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING AQLIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI POZITSIYASI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida geometrik masalalar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o‘qituvchining matematik bilimlarini oshirish bo‘yicha o‘qituvchilarga ba’zi usullar va yondashuvlarning samarali jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar. Aqliy qobiliyat, geometik masalalar, formulalar, doira, kvadrat, uchburchak, tangram puzzle, geometrik mozaika, origami.

В статье показаны эффективные аспекты некоторых методов и подходов к развитию умственных способностей младших школьников с помощью геометрических задач на уроках математики в начальных классах, а также учителям для улучшения математических знаний учителя.

Ключевые слова. Умственные способности, геометрические задачи, формулы, круг, квадрат, треугольник, головоломка танграм, геометрическая мозаика, оригами.

The article shows the effective aspects of some methods and approaches to the development of mental abilities of younger schoolchildren using geometric problems in mathematics lessons in elementary grades, as well as teachers to improve the mathematical knowledge of the teacher.

Key words. Mental ability, geometic issues, formulas, Circle, Square, Triangle, tangram puzzle, geometric mosaic, origami.

Boshlang‘ich sinflarda geometrik masalalar yordamida aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish o‘quvchilarning fazoviy fikrlash, tanqidiy fikrlash va masalalar yechish malakalarini oshirishning samarali usuli hisoblanadi. Ular o‘quvchilarga mantiqiy qaror qabul qilish, muammolarini tahlil qilish va natijalarni o‘rganishni o‘rgatadi. Geometrik masalalar o‘quvchilarga ijodiy fikrlash uchun imkoniyat yaratadi. Ular masalalarni turli usullarda hal qilishni o‘rganish va yangi yechimlarni izlashda yordam beradi. Ushbu masalalar orqali bolalar munosabatlarni tushunish, qoidalar va nazariyalarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Geometrik figuralarni chizish, tahlil qilish va ularni o‘zaro bog‘lash bolalarning tasavvur qilish qobiliyatini oshiradi. Bu, o‘z navbatida, matematik masalalarni tushunish va echishda yordam beradi. O‘qituvchilar geometrik masalalarni dars jarayonida samarali qo‘llash orqali bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydilar. Ular turli xil metodlarni qo‘llash, masalalarni tushuntirish va bolalarni muammolarni yechishga yo‘naltirish orqali bolalarning faolligini oshiradilar. Har bir bolaning o‘ziga xos o‘rganish uslubi bor. O‘qituvchilar individual yondashuvni qo‘llash orqali har bir bolaning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa geometrik masalalarni yechishda yanada yaxshi natijalarga erishish imkonini beradi. O‘qituvchilar turli xil metodik yondashuvlardan foydalanib, bolalarning geometrik masalalarni tushunishi

va yechishi uchun qulay sharoit yaratadilar. Bu o‘z navbatida, bolalarning mantiqiy tafakkurini va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda aqliy qobiliyatni rivojlantirishda o‘qituvchilarning ahamiyati juda katta bo‘lib, geometrik masalalar bu jarayonda samarali vosita bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilarning to‘g‘ri yondashuvi va metodlari orqali bolalarning aqliy qobiliyatlari samarali rivojlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining vazifasi o‘quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarni tarbiyalashdan iboratdir.

O‘qituvchining yuqori aqliy qobiliyati ta’lim jarayonining sifatini oshiradi. Chunki o‘qituvchi o‘z bilimini kengaytirib, yangi pedagogik usullarni o‘zlashtirishi va ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashi mumkin. O‘qituvchi o‘z mantiqiy va tahliliy tafakkurini rivojlantirganda, o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni oson va samarali tushuntirish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘z navbatida, o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi hamda o‘z bilim va tajribasini boyitgan holda, darslarni yanada qiziqarli va interaktiv o‘tkazishi mumkin. Yuqori aqliy qobiliyatga ega o‘qituvchilar yangi texnologiyalar va metodlarni ta’lim jarayoniga joriy etishga tayyor bo‘ladilar. Bu esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshiradi va ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchining rivojlangan aqliy qobiliyati unga o‘quvchilarni yaxshi kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu orqali o‘qituvchi har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini aniqlab, ularga mos ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aqliy qobiliyatini rivojlantirishda geometrik masalalar katta ahamiyatga ega. Geometrik masalalar o‘qituvchilarga mantiqiy fikrlash, muammoni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish, diqqatni jamlash va ijodkorlikni oshirish imkonini beradi.

Quyida geometrik masalalar vositasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ba’zi usullar keltirilgan:

Turli shakllar va ularning xususiyatlarini o‘rganish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida turli geometrik shakllar va ularning asosiy xususiyatlari haqida batafsil ma’lumot keltirilgan:

– To‘g‘ri burchakli uchburchak

Xususiyatlari:

– Burchaklar: Bir burchagi 90 daraja.

– Tomonlar: Gipotenuza (eng uzun tomon) va ikkita katet (gipotenuzaga yondosh tomonlar).

– Teorema: Pifagor teoremasi

– Masala: To‘g‘ri burchakli uchburchakning gipotenuzasini topish uchun Pifagor teoremasidan foydalaning.

– Foydasi: O‘qituvchilar turli shakllar va ularning xususiyatlarini o‘rganish orqali tushunchalarni mustahkamlashadi va bu bilimlarni o‘quvchilarga oson tushuntira oladilar.

Masala: Berilgan katetlar uzunligi va bo‘lsa, gipotenuza ni toping.

Yechim:

Teng yonli uchburchak

Xususiyatlari:

– Tomonlar: Ikkita teng tomon va bitta asosga ega.

– Burchaklar: Teng tomonlar qarshisidagi burchaklar teng.

Masala: Asos va teng tomonlar uzunligi berilgan bo‘lsa, uchburchakning perimet-

rini toping.

Yechim: Perimetr = (asos + 2 teng tomon).

To‘g‘ri to‘rtburchak

Xususiyatlari:

Tomonlar: Ikkita teng uzunlikdagi qarama-qarshi tomonlarga ega.

Burchaklar: To‘rtta 90 darajali burchak.

Masala: Berilgan uzunlik va kenglik bo‘lsa, perimetri va yuzasini toping.

Yechim: Perimetr: Yuza:

Kvadrat

Xususiyatlari:

Tomonlar: To‘rtta teng tomonga ega.

Burchaklar: To‘rtta 90 darajali burchak.

Diagonallar: Teng uzunlikda va bir-biri bilan to‘g‘ri burchak ostida kesishadi.

Masala: Berilgan tomoni bo‘lgan kvadratning yuzasini toping.

Yechim: Yuza: =

Trapetsiya

Xususiyatlari:

Tomonlar: Ikkita parallel asos va ikkita yon tomon.

Yuza:

Masala: Berilgan asoslar va , balandlik bo‘lsa, trapetsiyaning yuzasini toping.

Yechim: Yuza:

Romb

Xususiyatlari:

Tomonlar: To‘rtta teng tomonga ega.

Burchaklar: Qarama-qarshi burchaklar teng va qo‘shni burchaklar yig‘indisi 180 darajaga teng.

Diagonallar: Bir-biri bilan to‘g‘ri burchak ostida kesishadi va burchaklarni teng ikkiga bo‘ladi.

Masala: Berilgan diagonallar va bo‘lsa, rombning yuzasini toping.

Yechim: Yuza:

Doira

Xususiyatlari:

Radius: Markazdan doira chetigacha bo‘lgan masofa.

Diametr: Doirani markazdan o‘tib, chekka nuqtalarni birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziq (2 × radius).

Yuza:

Masala: Berilgan radius bo‘lsa, doiraning perimetri va yuzasini toping.

Yechim: Perimetr: , Yuza:

Turli shakllar va ularning xususiyatlarini o‘rganish orqali o‘qituvchilar quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantiradilar:

– Mantiqiy va analitik fikrlash.

– Fazoviy tasavvur.

– Matematik bilimlar va terminlarni tushunish.

– Geometrik masalalarni yechish ko‘nikmalari.

Bu bilimlar o‘qituvchilarga o‘quvchilarga matematikani o‘rgatishda yordam beradi va ularning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Geometrik masalalarni mantiqiy tahlil qilish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aqliy

qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu usul o‘qituvchilarga murakkab masalalarni bosqichma-bosqich yechishni o‘rgatadi, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi va aniq tushunchalarni shakllantiradi. Quyida geometrik masalalarni mantiqiy tahlil qilish bo‘yicha ba’zi misollar keltirilgan:

Pifagor teoremasi

Masala: To‘g‘ri burchakli uchburchakning katetlari uzunligi 3 sm va 4 sm bo‘lsa, gipotenuza uzunligini toping.

Mantiqiy tahlil:

1. Berilgan ma’lumotlar: Katetlar uzunliklari 3 sm va 4 sm.
2. Kerakli natija: Gipotenuza uzunligi.
3. Teorema: Pifagor teoremasi –
4. Hisoblash:
5. Natija: Gipotenuza uzunligi 5 sm.

Kvadrat yuzasini topish

Masala: Tomoni 6 sm bo‘lgan kvadratning yuzasini toping.

Mantiqiy tahlil:

1. Berilgan ma’lumotlar: Kvadratning tomoni 6 sm.
2. Kerakli natija: Kvadratning yuzasi.
3. Formula: Kvadrat yuzasi .
4. Hisoblash:

S 36

5. Natija: Kvadratning yuzasi 36 kvadrat sm.

Doira yuzasini topish

Masala: Radiusi 7 sm bo‘lgan doiraning yuzasini toping.

Mantiqiy tahlil:

1. Berilgan ma’lumotlar: Radius 7 sm.
2. Kerakli natija: Doiraning yuzasi.
3. Formula: Doira yuzasi – ,
4. Hisoblash:
5. Natija: Doiraning yuzasi taxminan 153.86 kvadrat sm.

Geometrik konstruksiyalar - bu geometrik shakllarni sirkul va chizg‘ich yordamida chizish jarayonidir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun geometrik konstruksiyalarni o‘rganish juda muhim, chunki bu nafaqat ularning fazoviy tasavvurlarini rivojlantiradi, balki o‘quvchilarga geometrik tushunchalarni oson va aniq tushuntirishga yordam beradi.

Quyida geometrik konstruksiyalar va ularning asosiy usullari keltirilgan:

Teng yonli uchburchak chizish

Vazifa: Sirkul va chizg‘ich yordamida teng yonli uchburchak chizish.

Usul:

1. To‘g‘ri chiziq chizib, uning ustiga segmentini oling.
2. nuqtadan nuqtaga teng uzunlikda radius bilan sirkul yordamida yoy chizing.
3. Shu radius bilan nuqtadan yoy chizing, bu yoylar kesishgan joy nuqta bo‘ladi.
4. va nuqtalarni nuqtaga ulang.

Kvadrat chizish

Vazifa: Berilgan tomoni bo‘lgan kvadrat chizish.

Usul:

1. segmentini chizing, bu kvadratning bir tomoni bo‘ladi.
2. nuqtadan 90 daraja burchak ostida sirkul yordamida perpendikulyar chiziq chizing.

3. Bu chiziqda nuqtadan uzunlikda kesim olib, nuqtani belgilang.

4. Nuqtadan segmentiga parallel chiziq chizing va bu chiziqda nuqtadan a uzunlikda kesim olib, nuqtani belgilang.

5. Nuqtadan nuqtaga parallel chizing.

Masala: Sirkul va chizg‘ich yordamida teng tomonli uchburchak chizish.

Foydasi: O‘qituvchilar geometrik shakllarni chizish va konstruksiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, bu esa ularning fazoviy tasavvurlarini oshiradi.

Diqqatni jamlash va kuzatuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun juda muhimdir. Bu qobiliyatlar nafaqat matematik masalalarni yechishda, balki kundalik hayotda ham katta yordam beradi. Quyida diqqatni jamlash va kuzatuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ba’zi usullar va mashqlar keltirilgan.

Diqqatni jamlashni rivojlantirish

1. Diqqat markazlashgan mashqlar

Mashq: Berilgan shakllar yoki raqamlar ichidan kerakli raqam yoki shaklni toping.

Topshiriq: Misol uchun, 5 ta kvadrat va 5 ta doira ichida faqat uchburchakni topish. Bu mashq diqqatni jamlash va kerakli ma’lumotlarni tezda ajratib olishga yordam beradi.

2. Sekin-asta qiyinlashadigan mashqlar

Mashq: Oddiydan murakkabgacha bo‘lgan mashqlarni yechish.

Topshiriq: Dastlab oddiy shakllarni birlashtirib rasm chizish, keyinchalik esa murakkab shakllarni yaratish. Bu bosqichma-bosqich diqqatni jamlash qobiliyatini oshiradi.

3. Tafsilotlarni yodda saqlash

Mashq: Bir necha soniya davomida bir rasmdagi tafsilotlarni ko‘rish va yodda saqlash, keyin esa shu rasmdagi tafsilotlarni qayta eslash.

Topshiriq: Masalan, bir rasmda nechta kvadrat borligini aniqlash va keyin rasm yopilgach, bu sonni eslab qolish.

4. O‘yinlar

Mashq: Diqqatni jamlashni talab qiladigan o‘yinlar o‘ynash.

Topshiriq: Sudoku, krossvordlar, “topishmoqlar”, “Labirintdan chiqish” o‘yinlari. Bu o‘yinlar diqqatni jamlash va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Mashq: O‘quvchilaming diqqatni jamlash.

Topshiriq: Har bir o‘quvchiga 1 dan 10 gacha nomerlangan har-xil predmet yoki geometrik figuralar chizilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘qituvchi sanaydilar. Kimning qo‘lidagi kartochkada chizilgan predmetiar yoki figuralar soni o‘qituvchining taqillatgan soniga teng bo‘lsa, o‘sha o‘quvchi qo‘lini ko‘taradi. Ayrim o‘quvchilar to‘liq javob beradi. “Siz to‘rt marta taqillatdingiz, mening qo‘limda kartochkaga chizilgan uchburchaklar soni ham to‘rtta”[1].

Geometrik masalalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda diqqatni jamlash va kuzatuvchanlikni oshirish uchun samarali vositadir. Bu yondashuv o‘qituvchilarni nafaqat o‘quvchilarga yaxshiroq bilim berishga, balki o‘zlarining pedagogik mahoratini ham oshirishga yordam beradi. Quyida bu mavzu bo‘yicha ba’zi tavsiyalar va misollar keltirilgan:

Diqqatni jamlash uchun tavsiyalar:

1. Aniq va sodda topshiriqlar berish: Geometrik shakllar va ularning xususiyatlarini o‘rganish uchun boshlang‘ich darajadagi masalalarni tanlang.

[1] Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo’latova M.I. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkel etish (O‘quv-metodik qo‘llanma). TDPU.: 2011. –B.15.

2. Vizual materiallardan foydalanish: Rasmlar, diagrammalar va modellar yordamida tushuntirishlar berish diqqatni jamlashni osonlashtiradi.

3. Qiziqarli va ijodiy mashqlar: Geometrik shakllarni rasm qilish yoki ularni turli materiallar yordamida yasash kabi mashqlar bolalarni jalb qiladi.

Kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun tavsiyalar:

1. Tafsilotlarga e'tibor qaratish: Geometrik shakllarning kichik detallari va xususiyatlarini ta'kidlash kuzatuvchanlikni oshiradi.

2. Muammolarni yechish jarayonida mantiqiy fikrlash: Geometrik masalalarni yechishda bolalarga mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi savollar bering.

3. O'zaro muhokama qilish: Guruhlarda ishlash va masalalarni birgalikda muhokama qilish kuzatuvchanlikni oshirishga yordam beradi.

Misollar:

1. Shakllarni taqqoslash:

Bir nechta geometrik shakllarni bering va ularning farqlarini va o'xshashliklarini topishni so'rang. Bu mashq bolalarning kuzatuvchanligini oshiradi.

2. Shakllarni yasash:

Turli shakllarni yasash uchun bolalarga qog'oz, qaychi va elim bering. Bu jarayon bolalarni ijodiy fikrlashga va diqqatni jamlashga o'rgatadi.

3. Geometrik topishmoqlar:

Geometrik shakllar asosida topishmoqlar tuzing. Masalan, "Qaysi shaklda uchburchaklar soni ko'proq?" kabi savollar.

4. Muammolarni yechish:

"Kvadratning barcha tomonlarini toping" yoki "Doiraning radiusini hisoblang" kabi masalalar bolalarni mantiqiy fikrlashga va diqqatni jamlashga o'rgatadi.

Bu usullar va misollar orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining pedagogik qobiliyatlarini oshirib, bolalarni yanada yaxshi o'qitishlari mumkin. Geometrik masalalar orqali diqqatni jamlash va kuzatuvchanlikni rivojlantirish, nafaqat bolalar, balki o'qituvchilar uchun ham muhim va samarali usuldir.

Ijodiy masalalar o'qituvchilarning va o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirish, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun juda foydali. Ijodiy masalalar odatda oddiy geometrik tushunchalarni turli xil usullar bilan yechishni talab qiladi va yangi yondashuvlar topishga undaydi. Quyida ba'zi ijodiy geometrik masalalar keltirilgan:


Tangram puzzle


Masala: Berilgan yettita geometrik shakldan (tangram) turli xil tasvirlar hosil qiling.

Topshiriq:

1. Berilgan shakllarni ishlatib, tulki, quyon, it, daraxt, baliq, sigir, qush va bola tasvirlarni yarating.

2. Shakllarni o'zaro moslashtirib, turli xil figuralarni yasash.

1) 

2) 

Bu o‘qituvchilarning fazoviy tasavvur va geometrik tushunchalarni rivojlantiradi hamda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Geometrik shakllarni turli tasvirlarga aylantirish ko‘nikmasini oshiradi. Ijodiy va badiiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Geometrik mozaika

Masala: Berilgan shakllardan (uchburchaklar, to‘rtburchaklar, doiralar va h.k.) mozaika yarating.

Topshiriq:

1. Berilgan geometrik shakllarni ishlatib, chiroyli va murakkab mozaikalar chizing.
2. Ranglardan foydalanib, mozaikalarni rang-barang qilish.

Bu usul geometrik shakllarni tanish va ularni joylashtirish qobiliyatini oshiradi. Badiiy va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Murakkab shakl yarating

Masala: Faqat kvadrat va uchburchaklardan foydalanib, yangi murakkab geometrik shakl yarating.

Topshiriq:

1. Kvadrat va uchburchak shakllarini birlashtirib, yangi shakllar yasang.
2. Har bir yangi shaklni chizish va nomlash.

Murakkab shakl yaratish jarayonida geometrik ko‘nikmalar mustahkamlanadi hamda ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi.

Mandalalarni chizish

Masala: Geometrik shakllardan foydalanib, mandala chizing.

Topshiriq:

1. Doiralar, uchburchaklar, kvadratlar va boshqa shakllarni birlashtirib, mandala yarating.
2. Mandalani ranglang va bezating.


Mandala chizish geometrik shakllarni birlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Diqqatni jamlash va ijodiy fikrlashni oshiradi.


Origami


Masala: Qog‘ozdan turli geometrik shakllarni buklab origami yasang.

Topshiriq:


1. Kvadrat qog‘ozdan foydalanib, uchburchak, kvadrat, doira va boshqa shakllarni yasang.
2. Murakkab origami shakllarini yarating (masalan, gul, qush, quti).














Origami yasash natijasida geometrik shakllarni aniqlash va yasash qobiliyatini rivojlantiradi. Ijodiy fikrlash va qo‘llar bilan ishlashni rivojlantiradi. Bu o‘qituvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularga o‘quvchilar bilan ijodiy mashg‘ulotlar o‘tkazishda yordam beradi.

Muammo yechish metodikasi

Muammo yechish metodikasi matematika va boshqa fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Quyida geometrik masalalarni yechish metodikasiga oid bir necha bosqichlar va yondashuvlar keltirilgan.

1. Masalani tushunish va tahlil qilish

a) Masalani tushunish

– Masala matnini diqqat bilan o‘qish: Berilgan ma’lumotlarni va topilishi kerak bo‘lgan qiymatlarni aniqlash.

– Muammo mohiyatini tushunish: Masala shartlarini tushunish va muammo nima ekanligini aniq belgilash.

b) Ma’lumotlarni tahlil qilish

– Ma’lumotlarni ajratish: Berilgan va topilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash.

– Muammoni bo‘laklarga bo‘lish: Masalani kichikroq, boshqariladigan qismalarga ajratish.

2. Reja tuzish

a) Yechim strategiyasini tanlash

– Nazariy bilimlarni eslash: Masalani hal qilish uchun kerakli matematik qoidalar, teoremalar yoki qonunlarni aniqlash.

– Yondashuvni tanlash: Masalani yechish uchun qo‘llaniladigan usul yoki yondashuvni tanlash (analitik usul, grafik usul, algebraik usul va boshqalar).

b) Bosqichma-bosqich reja tuzish

– Yechish bosqichlarini aniqlash: Masalani yechish uchun ketma-ketlikda bajarilishi

kerak bo‘lgan qadamlarni belgilash.

– Har bir qadamni tushuntirish: Qadamlarning ma’nosi va nima uchun bajarilishi kerakligini tushuntirish.

3. Masalani yechish

a) Rejani amalga oshirish

– Bosqichma-bosqich harakat qilish: Belgilangan rejaga muvofiq masalani bosqichma-bosqich yechish.

– Hisob-kitoblar va yozuvlar: Har bir qadamda hisob-kitoblarni va mantiqiy xulosalarni yozib borish.

b) Diagramma va grafiklardan foydalanish

– Chizma va diagrammalar: Masalani tushunish va yechishda yordam berish uchun diagramma yoki grafiklar tuzish.

– Vizual yordamlar: Grafik yordamida masalani vizual ravishda tekshirish va tasdiqlash.

4. Yechimni tekshirish

a)Hisob-kitoblarni qayta ko‘rib chiqish

– Qayta hisoblash: Har bir qadamni qayta ko‘rib chiqish va natijalarni qayta hisoblash.

– Xatoliklarni aniqlash: Hisob-kitoblar va mantiqiy qadamlar to‘g‘riligini tekshirish.

b) Muqobil usullar bilan tekshirish

– Boshqa usullarni qo‘llash: Masalani boshqa yondashuvlar bilan yechishga harakat qilish.

– Natijalarni taqqoslash: Muqobil usullar yordamida olingan natijalarni solishtirish.

5. Natijani tahlil qilish

a) Olingan natijani baholash

– Natijani taqqoslash: Olingan natijani masala shartlari bilan taqqoslash va mos kelishini tekshirish.

– Mantiqiy va amaliy tahlil: Olingan natijaning mantiqan to‘g‘ri va amaliy jihatdan mumkin bo‘lishini tahlil qilish.

b) Xulosalar chiqarish

– Yechimning umumiyligi: Masalaning yechimini umumiylashtirish va boshqa shunga o‘xshash masalalarga qo‘llash imkoniyatini ko‘rib chiqish.

– Natijadan kelib chiqadigan xulosalar: Yechim asosida o‘rganilgan darslar va xulosalarni aniqlash.

6. Muammoni umumlashtirish va keyingi bosqichlar

a) O‘rganilgan darslar

– O‘rganilgan metodika: Muammoni yechish jarayonida qo‘llanilgan metodika va yondashuvlarni umumlashtirish.

– Yechim usullari: Yechimda qo‘llanilgan usullar va ularning samaradorligini tahlil qilish.

b) Keyingi qadamlar

– Mashq va qo‘llash: O‘rganilgan metodikani boshqa masalalarda qo‘llash va mashq qilish.

– O‘rganishni davom ettirish: Muammoni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun yangi masalalar ustida ishlash.

Muammoni yechish metodikasi o‘qituvchilarda turli xil usullar va strategiyalardan foydalanib muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Kollektiv muhokamalar

Kollektiv muhokamalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining va o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda juda samarali usuldir. Ular o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini, va birgalikda ishlash malakasini oshiradi. Quyida kollektiv muhokamalarni muvaffaqiyatli tashkil etish va olib borish uchun ba’zi tavsiyalar keltirilgan.

Kollektiv muhokamalarning ahamiyati:

1. Muloqot ko‘nikmalari: O‘quvchilar bir-birlari bilan fikr almashadi, savollar beradi va fikrlarni tinglaydi.

2. Tanqidiy fikrlash: O‘quvchilar berilgan mavzuni turli tomondan ko‘rib chiqadi va tahlil qiladi.

3. Jamoaviy ishlash: O‘quvchilar jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. Ijodiy fikrlash: Turli yondashuvlar va g‘oyalarni muhokama qilish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

5. Mas’uliyat: Har bir o‘quvchi o‘z fikri va qarorlaridan mas’ul bo‘ladi.

Kollektiv muhokamani tashkil etish:

1. Mavzuni tanlash: Muhokama qilish uchun qiziqarli va dolzarb mavzuni tanlang. Masalan, “Geometrik shakllarning kundalik hayotdagi roli” kabi mavzular qiziqarli bo‘lishi mumkin.

2. O‘quvchilarni guruhlarga ajratish: O‘quvchilarni kichik guruhlarga ajrating. Har bir guruh 3-5 kishidan iborat bo‘lishi mumkin.

3. Rollarni belgilash: Har bir guruhda yetakchi, yozuvchi va taqdimotchi kabi rollarni belgilang.

4. Muhokama qoidalarini belgilash: Muhokama davomida hurmat va e’tibor qoidalariga rioya qilish kerak. O‘quvchilar bir-birlarini tinglashlari va fikrlarini erkin bildirishlari kerak.

Muhokama Jarayoni:

1. Kirish qismi: Mavzu haqida qisqacha kirish qiling va o‘quvchilarni muhokamaga tayyorlang.

2. Muhokama bosqichi:

– Savollar berish: Har bir guruhga savollar yoki muammolar bering. Masalan, “Kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchakning farqi nimada?” yoki “Geometrik shakllar qanday kundalik obyektlarda uchraydi?”

– G‘oyalarni o‘ylash: Guruh a’zolari berilgan savolga o‘z fikrlarini bildirib, g‘oyalarini yozishadi.

– Munozara: Guruh a’zolari bir-birining fikrlarini tinglab, ularni tahlil qiladi va muhokama qiladi.

3. Xulosa qilish: Har bir guruh taqdimotchisi muhokama natijalarini taqdim etadi. O‘qituvchi har bir taqdimotni qisqacha sharhlaydi va umumiy xulosalarni keltiradi.

Muhokama misollari

Misol 1: Geometrik shakllar va ularning xususiyatlari

– Savol: Uchburchak, kvadrat, va doiraning xususiyatlarini qanday ta’riflash mumkin?

– Muhokama: Har bir guruh ushbu shakllarning xususiyatlarini muhokama qilib, taqdim qiladi.

– Masala: Geometrik masalalarni guruh bo‘lib yechish va natijalarni tahlil qilish.

Hamkorlikda ishlash, fikr almashish va o‘rganilgan bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan xulosa qilib aytganda, ushbu usullar orqali

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Geometrik masalalarni muntazam yechish o‘qituvchilarga nafaqat matematik bilimlarini, balki umumiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang‘ich ta’limga geometrik masalalarni integratsiyalash mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, fazoviy tasavvurni oshirish va muammolarni yechish ko‘nikmalarini oshirish orqali aqliy qobiliyatlarni rivojlantiradi. 6-10 yoshli davr bolalarining fikrlash qobiliyatlari va tasavvurlari shakllanishida eng mas’ul va muhim davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Bolalikning mana shu davrida shakllantirilmagan bilimlar poydevorini keyinchalik to‘ldirish juda qiyin. Shu sababli, boshlang‘ich ta’lim metodikasining, xususan, matematikadan boshlang‘ich ta’lim metodikasining asosiy vazifalaridan biri – o‘qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta’minlash, bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta’sirlarini jadallashtirishdan iborat[2].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy qobiliyatini rivojlantirishda o‘qituvchining ham aqliy qobiliyatini rivojlantirish juda muhimdir. Chunki o‘qituvchining o‘zi rivojlanib borgan sari, o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim berish imkoniyatlari kengayadi va ularning aqliy qobiliyatlari ham samarali rivojlanadi. Qiziqarli faoliyat va tizimli yondashuv o‘quvchilarda geometrik masalalarni ishlashda ularning umumiy kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan mustahkam poydevor qurishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2005. –B.12.

2. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo‘latova M.I. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkel etish (O‘quv-metodik qo‘llanma). TDPU.: 2011. – B.15.

3. Jumayev.M.E. Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. T.: O‘qituvchi, 2004. –B.6.

4. Bikbayeva N.U., Sidilinikova R.I., Adambekova G. A. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”, – T.: “O‘qituvchi’’ 1996.

5. Boltayev J., Qodirov A. “Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlar”. T.: 2002.

Alixonov S. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. – T.: Cho‘lpon, 2011.

6. Po‘latova K.N.(2023). Boshlang‘ich sinflarda geometrik masalalarni yechishda interfaol texnologiyalardan foydalanish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(7), 430-438.

7. Po‘latova K. N.(2024, April). Boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida geometrik shakllarni o’rgatish. In International Global Conference (Vol. 1, No. 4, pp. 317-321).

[2] Jumayev.M.E. Matematika o’qitish metodikasidan praktikum. T.: O‘qituvchi, 2004. –B.6.

M.T. NURBAYEVA,
Toshkent Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti, ‘‘Pedagogika va psixologiya’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ODOB-AXLOQ MASALALARIGA OID QARASHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola odob-axloq masalalariga qaratilgan bo‘lib, u dinimizning muqaddas kitobi “Qur’oni Karim”, Hadisi sharif hamda buyuk mutafakkirlarimizning shu boradagi qimmatli qarashlari bilan boyitildi.

Tayanch so‘zlar. Odob, axloq, Qur’oni Karim, Hadisi sharif, inson, fazilat, ta’lim, tarbiya, oila, farzand, mehr.

Это статя посвящена вопросам этики, которые обогатили священную книгу нашей религии “Коран”, Ҳадис и ценные взгляды наших великих мыслителей.

Ключевые слова. Мораль, этика, Коран, Хадис, человек, достоинство, образование и воспитание, семья, ребёнок, доброта.

This article focused on issues of etiquette and was enriched by the valuable views of the Holy Book of our religion “Koran Karim”, Hadisi sharif and our great thinkers on this subject.

Key words. Etiquette, morality, Quran Karim, Hadith sharif, man, virtue, education, upbringing, family, child, kindness.

Jamiyatimizda yashayotgan barcha insonlarning sharafi, obro‘si yaxshi xulq bilan ortadi, yomon xulq bilan kamayadi va oxir-oqibat xalq nazaridan qoladi. Oliy xulqli insonlar haqida xalqimiz insoniylik odobi zo‘r, axloqli inson, yaxshi fazilatli kishi kabi iboralar bilan alqaydi, baho beradi.

Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida insoniylikning asl nishonasini odamlarning bir-biriga mehr-oqibatli bo‘lishi va doimiy ezgulikka intilishida namoyon bo‘ladi, deb biladi. U shunday yozadi:

Senga kim qilarkan odamgarchilik,
Javob ber sen unga qilib yaxshilik.
Vafoga vafodur kishilik haqqi,
Vafo qil, odil bo‘l, nom ol mangulik.

Insoniylikning tub mohiyati aziz inson zotini hurmat qilish, baxt iqboli yo‘lida doimo fidokorlik bilan kurashish va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, bobolarimizning o‘tmishda jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan durdona hissalarini o‘rganish, mutafakkir va atoqli kishilarning odamlarni baxt va iqboli haqida g‘amxo‘rligini yoshlarimizga tushuntirishdan iborat. Odoblari juda ko‘p, biroq eng asosiylaridan xabardor bo‘lib, o‘zida shakllantirib boruvchi inson, albatta, xalq uchun ham o‘z oilasi va do‘stlari uchun ham foydali shaxs darajasiga yuksalib boradi. Qator noshoista odatlarini bartaraf qilib, o‘zligini anglay boshlaydi. Mavzumizning dolzarbligi ham ana shundadir.

Odob – insonni ma’naviy kamolotga yetkazuvchi jarayondir. Odob bolalikdan boshlanadi va shakllanib boradi. Yosh ulg‘aygan sari odob darajasi kengayib boradi. Odob kishi faoliyatini belgilovchi jarayon bo‘lib, uni barcha xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go‘zalligi ortadi.

Islom dinida belgilangan odob mezonlari umuminsoniy odob mezonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunonchi, muqaddas kitobimiz “Qur’oni Karim” inson kamolotining asosiy dasturidir. Unda insonni yuqori cho‘qqiga ko‘tarishga ahamiyat berilgan. “Qur’oni Karim” ning har bir oyati kishining kundalik hayotida odob mezonlariga og‘ishmay amal qilishini ko‘rsatadi va talab qiladi.

Adab – arabcha so‘z bo‘lib, u odob, axloq ma’nolarini anglatadi. Odob odamning ma’naviy yetukligi, ma’naviylik mezonidir.

Odob deganda, biz tarbiyali degan tushunchani anglaymiz. Odobli kishi el o‘rtasida e’zozlidir. Odob insoniy fazilat, kishi qadrini baland qiluvchi qimmatli sifatdir. U ta’lim-tarbiyaning asl mevasidir. Aqlning suyanchig‘i hisoblangan odob barcha fazilatlarning sharmi va hikmatidir. Dono xalqimizning “Adab bozorda sotilmas”, “Odob aqlli kishi uchun ulug‘lik va fazilatdir”, “Odobi yo‘qning aqli yo‘q”, “Odobsiz aql – aqlsiz odob yo‘q” naqllari bejiz aytilmagan. Shunday ekan, aql va odob bir-biriga bog‘liq. Insonda har ikkovi mavjud bo‘lgandagina u kamol topadi. “Hikmatnoma” da: “Adab ikki xildir: hikmat adabi va xizmat adabi. Hikmat adabi poklik va to‘g‘ri yo‘lga yetaklaydi, xizmat adabi esa badavlatlik va obro‘ga yetkazadi”, – deb bejiz aytilmagan.

O‘zbekistonning mustaqilligi tufayli ota-bobolarimizning axloq, odob haqidagi hikoyatlari, naql va rivoyatlari farzandlarimizning ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, odoblilik va axloqiylik, ezgulik, insoniylik, kabi ma’naviy qadriyatlar shaxs kamolotida dasturilamal bo‘lib kelmoqda. Shu o‘rinda Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida ifodalangan Bobur, Mohimbegim, Gulbadanlarning oilada odob bilan qurgan suhbatlarini tasavvur qilaylik.

Boburning 5 yoshli qizi Gulbadan odob bilan bosh chayqadi – u podshoh otasining oldida ovqat chaynab o‘tirishdan iymanar edi, lekin dadasining zar qo‘shib to‘qilgan qimmatbaho libosidagi oltin tugmalar uni juda qiziqtirib qo‘ydi. Bobur kamarga osilgan qindan kichkina qalantarosh oldi-yu, o‘sha tugmaning ipidan qirqib olib qizchasiga berdi:

– Lekin yo‘qotma, bu qush – Humo. Ilohim senga baxt keltirsin.

Gulbadan quvonib va hayajonlanib: – Rahmat, hazrat – dedi-yu, lekin jumlaning oxirini uncha kelishtira olmadi. Gulbadan keyin Mohimbegim o‘rgatgan she’rlarini o‘qidi. “Qo‘lchalari bilan otasining bo‘ynidan quchdi – “Otajon!” – deb uning yonog‘idan o‘pdi. Bobur ko‘pdan beri his qilmagan bolalarcha bir poklik va mas’umlik borligiga go‘yo nur bo‘lib taraldi.

Bu oddiygina bir parchada ota va qiz o‘rtasidagi odobni, mehrni ko‘rish mumkin. Ayniqsa, qizchaning odob-axloqli bo‘lib o‘sayotganligi ularning suhbatidan ko‘rinib turibdi. Bobur faqatgina o‘z farzandlari bilangina emas, balki umr yo‘ldoshi Mohimbegim bilan ham samimiy mehr-muhabbat bilan munosabatda bo‘lganligini quyidagi misollarda ko‘rish mumkin: “Bobur podshohlik udumiga yon berib, Mohimbegimning ustiga yana ikki xotin olgan bo‘lsa ham, Mohim buni bag‘rikenglik bilan kechirgani, yana o‘zini unga shunchalik fido qilgani tengsiz bir muhabbat va sadoqatning nishonalari emasmi?”

Bobur: – Mohim, siz mening benazir malagimsiz. Men shoh bo‘lsam ham ulug‘ qalbingiz o‘trusida qulmen! – desa, Mohim erining qulog‘iga: “Siz mening ko‘z ochib ko‘rgan yagona yorimsiz, sochingizdan-tirnog‘ingizgacha butun borlig‘ingiz menga jonimdan ham aziz, endi sizni boshqa hech kimga bermasmen!” – deydi.

Bu parchadan ko‘rinib turibdiki, Bobur Mohimbegimni doimo hurmat qilgan. Uning ko‘nglini ranjitmagan, maslahatlashib ish tutgan. Xotini va farzandlariga ochiq yuz va shirinso‘zlik bilan muomala qilgan. Qadim-qadimdan oila boshlig‘ining topganini behuda yerlarga emas, faqat oilasining ehtiyoji uchun sarf qilish, ishdan qaytganda

ko‘cha-ko‘ylarda sandiraklab yurmasdan, darrov uyiga qaytish, xotinining ota-onasini, aka-uka va qarindosh urug‘larini hurmat qilish, ular bilan aloqasini uzmaslik kabi milliy urf-odatlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Er doimo oilasini maishiy jihatdan tanglikda qoldirmasligi lozim. U oila a’zolarini moddiy va ma’naviy jihatdan ta’minlashi zarur. Oilaning totuv, baxtli hayot kechirishida er-xotinning bir-birlariga sadoqatli bo‘lishida, farzandlarning kamol topishida ayol odobi ham muhimdir. Yuqoridagi Bobur bilan Mohimbegim haqidagi misollardan ma’lumki, Mohimbegim aqlli, nomusli ayol edi. U erining shodlik va qayg‘usiga barobar sherikdir.

Boburni doimo shirinso‘z, xushmuomala bilan qarshi oladi. U uy yumushlarini ham, bolalar tarbiyasini ham o‘z vaqtida bajaradi. Eri va bolalari bilan birga o‘tirib, o‘ynab kuladi. Hech vaqt qovog‘ini solmaydi. Erining ko‘nglini ranjitmaydi. Mohimbegim hamisha muloyimlik bilan ish tutadi. Eriga doim muhabbat va sadoqatda bo‘ladi. Mohimbegim kundoshi Dilbar og‘achning bir emas, ikki farzandini mehr bilan tarbiyalaydi.

Er-xotinning yaxshi odobi oiladagi farzandlarga ham ta’sir qiladi. Natijada bolalarda vatanparvarlik, fidokorlik, sadoqatlilik, mardlik, jasurlik, chidamlilik, vazminlik, qadr-qimmat kabi xislatlar mujassamlashadi. Odobli bo‘lish, el o‘rtasida odob saqlash, nasihatlarga amal qilish, insof va iymonli bo‘lishning asosiy omillaridir. Odob ilm egallash, badiiy, axloqiy, she’riy asarlarni mutolaa qilishdan shakllanadi. Odobli kishi yaxshi ishlarni odat qiladi. Atrofdagi odamlarni, do‘stlarini, ota-onalarini hurmatlaydi. Odob-axloqli kishi sof vijdonli bo‘lib, og‘zidan hech qachon yomon so‘z chiqmaydi. Demak, o‘z tilini odob bilan qurollantirgan, qo‘lini esa to‘g‘rilikka odatlantirgan kishigina kamolotga yetishi mumkin. Kamolotga yetgan inson yaxshilik bilan yomonlikning farqini biladi, foyda bilan zarar o‘rtasidagi tafovutni anglaydi, o‘z faoliyatida yomon xislatlardan xoli bo‘ladi. Chiroyli fazilatlarni egallaydi.

Insonni odobli, yaxshi xulqli bo‘lishga chorlab kelgan xalqimiz doimo donishmandlari va allomalari so‘zlariga tayanib va oziqlanib kelganlar.

Insoniylik deganda, odamgarchilikni, yaxshilikni, mehr-muruvvatni, vafo-sadoqatni tushunamiz. Bizda shunday odamlar borki, ular o‘zlarining halol mehnati, xush odobi, kamtarligi, jo‘shqin faoliyatlari, ajoyib insoniy fazilatlari bilan kishilar o‘rtasida hurmat-e’tibor qozongan. Ular inson degan yuksak nomni ijtimoiy va shaxsiy hayotda pokiza saqlab, unga munosib ish tutadilar, kishilar taqdiri haqida qayg‘urib, og‘irini yengil, mushkulini oson qilishga harakat qiladilar. O‘zgalarni baxtiyor qilish bilan o‘zlarini ham baxtiyor sezadilar.

Dunyoda odamlarga g‘amxo‘r, mehribon bo‘lib yaxshi nom qoldirish ajoyib saodat ekanligini ulug‘ Navoiy mana bunday ta’riflagan edi:

Bu gulshan ichra yo‘qdur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bilan ot.

Odatda, bunday odamlar kishilarga mehribon, xushfe’l, oqko‘ngil bo‘ladilar.

Inson umri o‘tgan vaqt, necha yil umr ko‘rgani bilan o‘lchanmaydi. Umr inson baxt-saodati yo‘lida qilingan xayrli ishlar, ko‘rsatilgan muruvvat, chekilgan aziyat bilan ham o‘lchanadi.

Insoniylik birov og‘ir sharoitga duch kelib, umidsizlikka tushib qolganda, unga rahnamolik ko‘rsatishi, yuz bergan qiyinchilikni yenga olishga unda ishonch tug‘dirishdir.

Inson o‘z qadrini bilmas ekan, el-yurt nazaridan qolib nafratga uchraydi, qadr-e’tibori yo‘qoladi.

Yaxshilik – yaxshilik keltiradi. Yaxshilik qilgan odam murodiga yetadi. Yaxshilik orqasidan o‘ziga do‘st-birodar orttiradi. Hayoti zavqli va mazmunli o‘tadi. Yaxshi, yomon

kuning do‘stlar bilan deganlaridek, odamning kuniga odam yaraydi. Aytganday, yaxshilik beminnat bo‘lgani yaxshi. Qilgan ishini minnat qilib yurguvchini chayqovchidan farqi yo‘q. Buyuk Navoiy aytadi:

Ey Navoiy, olam ahlida ta’masiz yo‘q kishi,
Har kishida bu sifat yo‘qtur anga bo‘lg‘ay sharaf.

Inson hamisha yaxshi niyat, orzu-havas bilan yashaydi. Bular ilm olish, hunar egasi bo‘lish, jamiyatga va xalqqa naf keltirish, hayotga o‘zining muayyan o‘rnini topish singarilardir. U shu narsalarni amalga oshirish uchun hamisha yaxshi o‘qishi, odob-axloqli bo‘lishi, mehnatni sevishi, jamoat ishlarida faollik ko‘rsatishi doimo el-yurtga, do‘st-birodarlarga, qo‘ni-qo‘shnilarga halol va beminnat xizmat qilishi, qandaydir naf keltirishini o‘ylashi va buni o‘ziga muqaddas burch hisoblashi kerak. Bunday kishilar doim xalq tomonidan e’zozlanib, ardoqlanadi.

Ota-bobolarimiz va momolarimiz azal-azaldan yoshlarni odobli, yaxshi xulqli, mehnatsevar, to‘g‘ri so‘z, rostgo‘y, kamtar, insofli, diyonatli, or-nomusli, o‘z tug‘ishganlariga mehr-muhabbatli, bir so‘z bilan aytganda komil kishilar qilib tarbiyalashga kuch-g‘ayratlari, tajribalari va aql-idroklarini ayamay ishga solib alohida diqqatni qaratganlar.

Yuqorida keltirilgan har bir insoniy xislatlar, insonning insoniylik fazilatlari bo‘lib, ularning mazmun-mohiyatlarini to‘g‘ri anglash katta ahamiyatga egadir. Chunki insoniylik fazilatlarini o‘zida shakllantirgan har qanday inson xushxulq yoki odobli inson deb tan olinadi.

Ayrim insoniy fazilatlar yoki insoniylik odoblarini sharhlaymiz. Masalan, Alisher Navoiy xushfe’llik, shirinso‘zlikni ulug‘laydi. U yoshlarga nasihat qilib, shirinso‘zlik el ichra hurmatni oshirishini, noo‘rin va yomon so‘z esa xalq ko‘ngliga qattiq tegib beobro‘ qilishini ta’kidlaydi:

Har kishi chuchuk so‘z elga izhor aylar,
Har nechaki ag‘yor durur, yor aylar.

Sir saqlash ham odobdandir. Saqlanmagan so‘z o‘limga mahkum qilinishi “Qutadg‘u bilig” da Yusuf Xos Hojib tomonidan bunday ta’kidlanadi:

Ko‘ngil sirin asra, chiqarma tilga,
Chiqishi cho‘zilgan o‘ninchi yilga.

Donolar shirinsuxanlikning eng yaxshi alomatlaridan biri rost gapirishdir. Kishi so‘ziga yolg‘onni ishlatmasligi, rostlikni o‘ziga bezak qilib olishi lozim, dedilar. Ular yoshlarning tili bilan dili bir bo‘lishiga chaqiradi:

So‘z aytsak rostlikni aylagil odat,
Qidirma rostlikdan yaxshiroq ziynat.
Rostlikdan yaxshiroq ziynatni qachon,
Qayda ko‘rdi ekan biror bilimdon.

Tili zaharlar ham o‘z boshiga kulfat keltiradi, ham xalq ko‘ngliga jarohat yetkazadi. Shuning uchun shirinso‘z har bir so‘zni o‘z vaqtida so‘zlash, so‘zlashdan oldin puxta o‘ylab ko‘rishi, yolg‘on gapirmaslik lozim. Rostlik va to‘g‘ri so‘zlashda doim shayx Sa’diyning quyidagi misralari e’tiborga molikdir.

Dilo, rostiy gar kuni ixtiyor,
Shavad davlatat hamdam-u baxt yor…
Bex az rostiy dar jahon kore nest,
Ki dar gulbuni rostiy xore nest.
Mazmuni:
Dilo, rostlik aylasang ixtiyor,

Bo‘lur davlating hamdam-u baxtiyor…
Go‘zal rostdin dunyoda kor yo‘q,
Ki sadbargida rostning xor yo‘q.
yoki:
Kasero, ki gardat zaboni durug,
Charog‘i dilashro paboyad furug.
Durug odamiro kunad sharmsor,
Durug odamiro kunad be’ikor.
Mazmuni:
Kishigaki, bo‘lsa zaboni durug,
Charog‘i dili oni bo‘lmas yorug‘.
Yolg‘on odamni qilur sharmsor,
Yolg‘on odamni qilur be’ikor.

Inson ikki narsa tufayli qarilik nimaligini bilmaydi. Bularning biri xushxulq, ikkinchisi ezgu so‘zdir. Yer yuzida insondan qoladigan meros – yaxshi so‘zdir. Uning o‘zi olamdan o‘tib ketadi, shirin so‘zi esa mangu qoladi. Yusuf Xos Hojib: “So‘zingni tiyib yur, boshing yorilmasin, tilingni tiyib tur, tishing sinmasin”, – deb bejiz aytmagan.

Insoniy fazilatlarning yana biri mehnatsevarlikdir. Zeroki, inson hayotini bezaydigan, unga baxt-saodat keltiradigan, farovonlik baxsh etadigan yagona narsa bu mehnatdir.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug‘lab kelishgan, o‘zlari sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo‘lib qolgan oltin xazina ilmiy badiiy kitoblar, turli xildagi san’at asarlari, me’morchilik obidalari va boshqalar ana shu mehnatning mahsulidir. Ulug‘ alloma Navoiy mehnatni saodatning kaliti deb biladi:

Umrni zoye etma, mehnat qil,
Mehnatni saodatning kaliti bil.

Dono xalqimiz aytadi: “Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lur chiroylik”.

Demak, mehnat bilan topilgan mol-dunyo va boshqa yashashga oid jihozlar mehnat qiluvchi uchun aziz va qadrlidir. Bekorchi sarf-xarajat va manmanlik bilan isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilmaydi. Insonning eng yuksak fazilati bo‘lgan kamtarlik e’zozlansa, takabburlik, manmanlikni pastkash deb hisoblaydi.

Bobokalonimiz hazrati Navoiyning ustozi Abdurahmon Jomiy juda kamtar inson bo‘lganlar. Alloma o‘z farzandiga nasihat qilibdur:

Takabburlik ziyondir undan andisha qilg‘il,
Muloyim bo‘l odamga kamtarlik pesha qilg‘il.
Ko‘rdingmi u boshoqni bosh ko‘tardi ne bo‘ldi,
O‘roqni zarbi bilan yerga yiqildi, so‘ldi.

Kamtarlik to‘g‘risida qahramon adibimiz O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov shunday deydi:

Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?
Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam,
O‘tma g‘urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun,
O‘par doim peshonasidan.

Insoniylik odoblarining ayrimlaridan xabardor bo‘ldik, lekin bu odoblarning barchasini

bilib oldik, degan so‘z emas. Ayniqsa, ming yillar davomida shakllanib, sayqallanib xalq durdonalariga aylangan odob turlari bugungi yoshlarimizning tarbiyasi uchun havodek zarurdir.

Masalan, yaxshi so‘z va so‘zlash odobi, kattaga hurmat, kichikka izzat azaliy odatimiz, mehmon kutish va mehmonga borish odoblari, mehnatsevarlik, kamtarlik, bardoshlilik, sabr-qanoatli bo‘lishga doir ajdodlarimizning o‘gitlari, yaxshi bilan do‘st tutinish, yomon ishlardan hazar qilish, xalq va yor-u birodarlarga ezgulik qilishga doir da’vatlarning barchasi komil inson tarbiyasiga daxldordir.

Hadisi muborakda “Kimki ota-onasining roziligini olgan bo‘lsa, unga qanday yaxshi! Tangri uning umrini uzaytiradi”, – deb keltirilgani bejiz emas. “Kim nima eksa, shuni o‘radi”, degan naql mavjud. Shu bois Ahmad Donish:

Sen otangga harna qilding yaxshilik,
Kut bolangdan yaxshilikka yaxshilik – desa,
Abdulla Avloniy esa:
Tug‘ub tashlov bilan bo‘lmas bola, bo‘lgay balo sizga,
Vujudi tarbiyat topsa, bo‘lur ul rahnamo sizga.
Temirchilar bolasi tarbiyat topsa bo‘lur olim,
Buzulsa xulqi Luqmon o‘g‘li bo‘lsa, bo‘lguchi zolim deb yozadi.

Bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning azaliy odati bolalarni odobli qilib tarbiyalash ekanligini unutmasligimiz lozim. Buning uchun sabr-qanoatli bo‘lib, hayotning achchiq-chuchugiga bardosh beradigan, sadoqat bilan oila tutadigan odamlar kerak. Ana shunda farzandlarini aqlli, axloq-odobli qilib tarbiyalaydi. Sabrli kishida mehr-muruvvat, insof-diyonat mavjud bo‘ladi. Boyliklarga uchmaydi, turli-tuman so‘zlarga bardosh bilan chidaydi. Insonning fazilati ham ana shundadir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida quyidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tganlar:

Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan chuqur ma’noli so‘zlarini eslayman. Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat” 2008
2. Hikmatullayev H. Axloq-odobga oid Hadis namunalari. – T.: “Fan”, 1990.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. Toshkent. “Cho‘lpon”, 2007.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –T.: “Fan” 2018

Xojiakbar MUXAMMADJONOV,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

RAQAMLI PLATFORMALAR VOSITASIDA TALABALARNING KIBERXAVFSIZLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirishda raqamli platformalarning tarbiyaviy imkoniyatlari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Coursera, Cisco Networking Academy kabi zamonaviy raqamli platformalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda ularning talabalarning kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Kiberxavfsizlik madaniyati, raqamli platformalar, oliy ta’lim, axborot xavfsizligi, raqamli kompetensiya, pedagogik texnologiyalar, interaktiv ta’lim, raqamli transformatsiya, gamifikatsiya, masofaviy ta’lim.

В статье с научно-педагогической точки зрения анализируются воспитательные возможности цифровых платформ в развитии культуры кибербезопасности у студентов высших учебных заведений. В исследовании освещается роль современных цифровых платформ, таких как Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Coursera, Cisco Networking Academy в образовательном процессе, а также их педагогические возможности в развитии культуры кибербезопасности у студентов.

Ключевые слова. Культура кибербезопасности, цифровые платформы, высшее образование, информационная безопасность, цифровая компетенция, педагогические технологии, интерактивное образование, цифровая трансформация, геймификация, дистанционное обучение.

The article analyzes the educational opportunities of digital platforms in developing cybersecurity culture among higher education students from a scientific and pedagogical perspective. The study highlights the role of modern digital platforms such as Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Coursera, and Cisco Networking Academy in the educational process, as well as their pedagogical potential in developing students' cybersecurity culture.

Key words. Cybersecurity culture, digital platforms, higher education, information security, digital competence, pedagogical technologies, interactive education, digital transformation, gamification, distance learning.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jamiyatning barcha sohalarida, jumladan ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, katta ma’lumotlar (Big Data) va Internet of Things (IoT) texnologiyalarining keng joriy etilishi axborot xavfsizligini ta’minlash masalasini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Bunday sharoitda yoshlarning, ayniqsa oliy ta’lim muassasalari talabalarining kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda talabalar ta’lim olish, ilmiy izlanish olib borish va muloqot qilish jarayonida turli raqamli platformalardan muntazam foydalanadilar. Biroq ushbu platformalardan foydalanish jarayonida shaxsiy ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi, zararli dasturlar, fishing hujumlari, ijtimoiy muhandislik, internet firibgarligi hamda axborot manipulyatsiyasi kabi tahdidlar tobora ortib bormoqda. Shu sababli talabalarda nafaqat axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini, balki ulardan xavfsiz va

mas'uliyatli foydalanish madaniyatini ham shakllantirish zarur.

Kiberxavfsizlik madaniyati faqat texnik bilimlar majmui emas, balki shaxsning axborot xavfsizligiga oid bilimlari, qadriyatlari, mas'uliyati, huquqiy savodxonligi va kundalik raqamli xulq-atvorini o‘z ichiga oluvchi kompleks pedagogik hodisa hisoblanadi. Mazkur jihatlar raqamli platformalar vositasida samarali rivojlantirilishi mumkin.

Raqamli platformalar zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ta’lim oluvchilar va pedagoglar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular nafaqat masofaviy ta’limni tashkil etish, balki talabalarni mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirish, individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish hamda uzluksiz ta’limni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan raqamli platformalar quyidagi imkoniyatlarga ega:

• interaktiv ta’lim muhitini yaratish;
• o‘quv materiallaridan istalgan vaqtda foydalanish;
• ta’lim jarayonini individuallashtirish;
• tezkor monitoring va baholashni tashkil etish;
• talabalar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish;
• o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiyani shakllantirish.

Mazkur imkoniyatlar talabalarning faqat kasbiy kompetensiyalarini emas, balki kiberxavfsizlik madaniyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki raqamli muhitda ishlash jarayonida foydalanuvchi doimiy ravishda axborotni himoya qilish, maxfiylikni saqlash va xavfsizlik qoidalariga rioya etishga majbur bo‘ladi.

Kiberxavfsizlik madaniyati shaxsning axborot xavfsizligiga oid bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, qadriyatlari va mas'uliyatli xulq-atvorining uyg‘unlashgan tizimidir. U quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

Komponent	Mazmuni
Bilim komponenti	Axborot xavfsizligi, tahdidlar va himoya usullarini bilish
Amaliy ko‘nikma	Kuchli parollar yaratish, antiviruslardan foydalanish, ikki bosqichli autentifikatsiyani qo‘llash
Qadriyatlar	Raqamli etikaga rioya qilish, mualliflik huquqini hurmat qilish
Mas'uliyat	Internetdan ongli va xavfsiz foydalanish
Refleksiya	O‘z faoliyatini baholash va xatolarni tahlil qilish

Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi talabaning raqamli muhitda xavfsiz faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Raqamli platformalar faqat bilim berish vositasi emas, balki shaxsni tarbiyalashning ham samarali mexanizmi hisoblanadi. Ayniqsa, kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirishda ular quyidagi tarbiyaviy vazifalarni bajaradi:

• axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantiradi;
• mas'uliyat hissini rivojlantiradi;
• internet etikasi va kommunikativ madaniyatni tarbiyalaydi;
• tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;
• axborotni tahlil qilish va tekshirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Masalan, Moodle yoki Google Classroom platformalarida topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar o‘z akkauntlarini himoya qilish, maxfiy ma’lumotlarni saqlash va mualliflik huquqlariga rioya qilishni o‘rganadilar. Microsoft Teams platformasida esa xavfsiz muloqot qilish, fayllarni himoyalangan holda almashish va jamoaviy ishlash madaniyati rivojlanadi.

Kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirishda quyidagi metodlar yuqori samaradorlikka ega:

Metod	Afzalligi
Gamifikatsiya	Talabalarning motivatsiyasini oshiradi
Virtual laboratoriyalar	Amaliy tajribalarni xavfsiz muhitda bajarish imkonini beradi
Onlayn testlar	Bilimlarni tezkor baholaydi
Keys-stadi	Muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi
Refleksiya	O‘z-o‘zini baholash kompetensiyasini shakllantiradi

Mazkur metodlarning har biri alohida pedagogik ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularni integratsiyalashgan holda qo'llash yanada yuqori natijalarni ta’minlaydi. Jumladan, nazariy mashg‘ulotlarda gamifikatsiya elementlaridan foydalanish, laboratoriya mashg'ulotlarida virtual laboratoriyalarni tashkil etish, mavzu yakunida onlayn testlar orqali bilimlarni baholash, amaliy seminar mashg‘ulotlarida keys-stadi usulini qo‘llash hamda yakunda refleksiya o‘tkazish talabalarning kiberxavfsizlik bo‘yicha bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu metodlar talabalarda axborot resurslaridan mas’uliyatli foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kibertahdidlarni oldindan aniqlash, xavfsiz raqamli xulq-atvorni shakllantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda etik me’yorlarga rioya qilish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi. Natijada talabalarning nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki raqamli jamiyat sharoitida xavfsiz faoliyat yuritish madaniyati ham yuksaladi.

Demak, gamifikatsiya, virtual laboratoriyalar, onlayn testlar, keys-stadi va refleksiya metodlaridan kompleks va tizimli foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu metodlar talabalarning kiberxavfsizlik sohasidagi nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda barqaror kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, virtual laboratoriyalar, gamifikatsiya, refleksiya va onlayn baholash vositalaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, o‘quv dasturlariga kibergigiyena, raqamli etika, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va internet xavfsizligi bo‘yicha maxsus modullarni kiritish zarur. Bu esa bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalari bilan bir qatorda ularning raqamli madaniyati va axborot xavfsizligiga oid mas'uliyatini ham yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov N., Raqamli xavfsizlik asoslari, “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent, 2022, 250 bet.

2. Ibragimov R. – Pedagogik texnologiyalar va ta’lim samaradorligi. Toshkent, 2020.

3. Akbarov D.Ye. Axborot xavfsizligini ta’minlashning kriptografik usullari va ularning qo‘llanilishi. – Toshkent: O‘zbekiston markasi, 2009. – 432 b.

4. Abdullayeva Sh.A. Pedagogika. Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar, 2016. -378 b.

5. Islomov I.N. Ma’naviy xavfsizlik. Monografiya. – T.: Complex Print, 2023. – 188 b.

Ozodaxon ISHMATOVA,
Chirchiq davlat universiteti, “ Maxsus pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR UCHUN MO‘LJALLANGAN MAKTAB-INTERNATLARIDA TASHKIL ETILGAN RITMIKA MASHG‘ULOTIGA DOIR METODIK ISHLARNING HOLATI

Annotatsiya

Maqolada eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan maktab-internatlarida tashkil etilgan ritmika mashg‘ulotiga doir metodik ishlarning yo‘lga qo‘yilganligi yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Fonetik ritmika, metod, texnologiya, tamoyillar, korreksion texnologiya, kar va zaif eshituvchi, urg‘u, intonnatsiya, nutqiy melodika, refleksiv, taqlidiy.

В статье освещается методическая работа по обучению ритмике, организованная в школах-интернатах для детей с нарушениями слуха.

Ключевые слова. Фонетическая ритмика, метод, технология, принципы, коррекционная технология, глухой и слабослышащий, акцентуация, интонация, речевая мелодика, рефлексивная, имитационная.

The article highlights the establishment of methodical work on the rhythmic exercise, organized in boarding schools for children with in hearing defects.

Key words. Phonetic rhythmics, method, technology, principles, correctional technology, deaf and weak hearing, urg‘u, intonnation, colloquial melody, reflexive, imitation.

Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida ritmika mashg‘uloti korreksion fan sifatida fejalashtiriladi va olib boriladi. O‘quv rejada u musiqiy ritmika korreksion mashg‘uloti deb yuritiladi. Musiqiy ritmika mashg‘uloti haftasiga ikki marotaba o‘tkaziladi va ikki nafar o‘qituvchi (okkomponeator va surdopedagog mutaxassislari) olib boradi.

Ixtisoslashtirilgan maktab internatlarining 0-1 chi sinfida musiqiy ritmika mashg‘ulotlari o‘quv reja asosida, yillik va kalendar rejalarga tayangan holda tashkil etiladi. Mashg‘ulot mavzulari takrorlanmaydi, ammo ritmik harakatlar takroriy olib borilishi maqsadlidir. Mashg‘ulotlarda nutqiy materilallar tanlanadi, har chorakda 18-14 ta mavzu o‘tilsa, har birida musiqa ritmiga tushgan holda yurish , yugurish, tinglash, bajarish va hokazolar kabi jarayonlar bajariladi. Mavzuga ko‘ra tanlangan nutqiy material bolalar tomonida xo‘r va yakka tarzda talaffuz ettiriladi. 1-chorakning 6-7 mashg‘ulotiga yetib kelgach, bolalar turli xil raqs elementlarini o‘rgana boshlaydilar. Buning sabasi ular har xil bayramlarda chiqishlarga tayyorlanadilar. 0 chi sinfning II chi chorakidan boshlab hayvonlarga va qushlarga taqlid boshlanadi. So‘ngra III chi chorakdan musiqiy tovushlarni eshitib farqlashga, IV chi chorakda musiqa asboblari bilan tanishish va hokazolar ustida ishlanadi. 1-chi sinfning I-II choraklarida asosan 0 chi sinfda olingan malakalar takroriy rivojlantriladi, ammo III-IV sinfdan boshlab atrof muhitda mo‘ljal olishga doir ishlar va turli xil nisbatan murakkab raqs elementlarini bajarishga doir ishlar olib boriladi.

Mahalliy surdopedagog tadqiqotchi olimlarimizdan Z. Mamarajabova, D. Yakubjanova, F. Qodirova, X. Raxmanovalar tomonidan eshitishida muammolari bo‘lgan

bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida musiqa va ritmika korreksion mashg‘ulotlari tahlil etilgan.

Eshitishida muammolari bo‘lgan bola nutqini reja asosida, korreksion-kompensator choralarni qo‘llagan holda shakllantirish lozim. Musiqiy ritmika mashg‘ulotlari ana shu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quv rejada bu mashg‘ulot uchun haftasiga 2 soat ajratilgan bo‘lib, ushbu mashg‘ulot yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda quyidagilarni tashkil etadi:

– ENB bolalar umumiy motorikasini rivojlantirish bilan birgalikda, nutq-harakat va eshituv analizatorlari faoliyatini uyg‘unlashtirish;

– ENB bolalarning umumiy motorikasi orqali nutqini harakatga keltirishga o‘tish jarayonida nutq tabiiyligi, intonatsiya va ritmik jozibadorligini shakllanishiga erishish;

ENB bolalar talaffuz malakalarini shakllantirish va korreksiyalash jarayonida eshituv diqqatini rivojlantirish.

Mashg‘ulotlarda qo‘llanuvchi, o‘z ichiga harakat va og‘zaki nutqni qamrab oluvchi barcha mashqlar quyidagilarni ta’minlashga qaratilgan:

– nutqiy nafas va u bilan bog‘liq bo‘lgan nutqning ravonligini ta’minlash;

– ovoz kuchi va balandligini o‘zgartirish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– tovushlar, bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmalari va jumlalarni to‘g‘ri talaffuz qilish;

– tavsiya etilgan tezlikda nutqiy materialni talaffuz qilish;

– turli ritmlarni idrok etish, ajrata olish hamda qayta aytib bera olish;

– o‘z his-hayajonini turli intonatsion vositalar orqali bildira olish.

Musiqaviy ritmika mashg‘ulotlarida ishning quyidagi yo‘nalishlari belgilab olinadi:

– tovush va ulaming birikmalari ustida ishlash;

– ritm va temp (jadallik va sur’at) ustida ishlash;

– nutqiy nafas olish va nutqiy uyg‘unlik ustida ishlash;

– ovoz va intonatsiya ustida ishlash.

Barcha yo‘nalishlar nutq ustida ishlash jarayonida muhim sanalib, bir-biri bilan o‘zaro uyg‘unlikni tashkil etadi. So‘zlarda bo‘g‘inlarni, gaplarda va jumlalarda so‘zlarni uyg‘un holda talafiuz qilish muhim va oson bo‘lmagan talaffuzni shakllantirish bo‘limiga xosdir.

Ravonlik ustida ish olib borish nutqiy nafasni me’yorlash hamda o‘z ovozini boshqara olish malakasi bilan chambarchas bog‘liq.

Tovush, nutqiy nafas, temp va ritmni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar musiqa bilan birgalikda hamda musiqasiz olib boriladi. Mashg‘ulotlar jarayonida ba’zan faqatgina harakatdan iborat bo‘lgan mashqlar ham bajarilib, ular musiqaviy-ritmik stimulyatsiyalar deb nomlanadi. Ushbu mashqlaming maqsadi nafas olishni me’yorlashtirish, ritmni his etishni rivojlantirish, harakatlarni rivojlantirishdan iborat. Bunday harakatli mashqlar ritmni his etish va nafas organlaridan foydalanish malakasining rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, musiqa sadosi ostida harakatlar bolalar motorikasining rivojlanishiga ham samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Musiqali-ritmik stimulyatsiyalar harakatlarni raqs elementlari bilan uyg‘un holda olib borishdan iborat bo‘lgan mashqlardan tashkil topadi. Ular har bir darsda albatta amalga oshirilishi lozim bo‘lgan mashqlar sanaladi hamda musiqa sadolari ostida amalga oshiriladi. Musiqani tanlashda asosan o‘quvchilar ritmik urg‘ulatni qiyinchiliklarsiz ajrata oladigan raqs musiqalariga e’tibor qaratiladi. Bunday musiqalar sho‘x, qizdiruvchi xarakterga ega bo‘lishi lozim. Aynan shunday musiqa bolalar tomonidan ritmni harakatlar orqali yetkazib berish imkonini beradi. Bundan tashqari musiqaviy jo‘rlik eshitish idroki-

ning rivojlanishiga ijobiy ta’ir etadi. Musiqa yordamida (eshitish asosida) bolalar eshitgan ritm va templarini qiyinchiliksiz, turli xildagi raqs harakatlari bilan uyg‘unlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Musiqa ostida bajariluvchi harakatlarning xarakteri turlicha bo‘ladi. Nafasni me’yorlashtirishga qaratilgan mashqlarni bajarishda ohista (ravon) harakatlar ustunlik qiladi. Ritm ustida ishlashda bajarilishi taklif etilayotgan ritmga qarsaklar bilan uyg‘unlashgan raqs elementlari, so‘ngra ritmga mos bo‘lgan qadam tashlashlar ham asta-sekin jarayonga qo‘shib boriladi.

Talafiuz malakalarini me’yorlashtirishga qaratilgan mashqlar tizimida musiqasiz bajariluvchi harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular quyidagilardir:

– tana harakatlari – oldinga, yon tomonga, 90, 180, 360 gradusga engashish;

– bosh harakatlari – o‘ngga, chapga, oldinga, orqaga burilish;

– qo‘l harakatlari – tepaga, yon tomonga, oldinga ko‘tarish, yelkalami ko‘tarish va-tushirish, bilaklami aylantirish;

– oyoq harakatlari – tizzalarni bukish va to‘g‘ri qilish, oyoqni yelka kengligida ochish va boshqalar.

Ushbu harakatlaming xarakteri ham turlicha, ya’ni sokin, mayinlikdan toki qisqa va keskin bo‘lishi mumkin.

Nutqiy nafas va nutq ravonligi ustida ishlashda qo‘llanuvchi mashqlar mayin harakatlar bilan ajralib turadi.

Nutqning ritm, sur’ati, jadalligi, ovoz va intonatsiya ustida ishlashda tabiiy harakatlardan, shuningdek, kulgu, rad, inkor etish bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy imo-ishoralardan foydalaniladi.

Ushbu mashg‘ulotlarda qo‘llanuvchi barcha harakatlar talaffuz ko‘nikmalarini shakllantiruvchi va mustahkamlovchi vosita sifatida qaraladi. Mashg‘ulotlar jarayonida bajariluvchi har bir harakatga awaldan tayyorgarlik ko‘rilmaydi, yod olinmaydi va uyga vazifa berilmaydi. Shu sababli ular o‘qituvchiga taqlid asosida bir necha bor (2-5 marta) takrorlanadi. O‘quvchilar harakatlarni to‘g‘ri bajarishga o‘rganib borgach, ularni takroriy bajartirish ishlari qisqarib boradi. Harakatlar mobaynida talaffuz qilib boriluvchi tovush, bo‘g‘in va so‘zlar nutqda to‘g‘ri qo‘llanilganda, harakatlar o‘z vazifasini to‘liq bajargan, deb hisoblanadi. Shunday qilib, harakatlar – nutqni shakllantirish va uni korreksiyalash maqsadini amalga oshiruvchi vosita sanaladi. Ushbu mashg‘ulotlaming pirovard maqsadi – harakatlarsiz to‘g‘ri talaffuz qilingan nutqni tashkil etadi. Shu sababli o‘quvchilar o‘zlari tomondan talaffuz qilinganlarni ko‘rish-eshitish asosida nazorat qilib borishlari lozim bo‘ladi. Bunda cho‘ntak apparatlari, simsiz statsionar apparatlar foydalanish lozim bo‘ladi. O‘qituvchi bolaning ovoz kuchaytiruvchi apparati uning harakatlanishiga to‘sqinlik qilmasligiga ishonch hosil qilishi zarur.

O‘qituvchining barcha topshiriqlari eshitish-ko‘rishga tayangan holda beriladi. Lekin shu bilan birga sof eshitish asosidagi topshiriqlar ham beriladi. Eshitib farqlashga beriluvchi material turli ritm, mantiqiy urg‘u, intonatsiyani idrok etish va uni qayta aytishni nazarda tutadi.

Nutqiy material bolalarga lug‘aviy (ma’no) jihatdan tanish bo‘lib, mashg‘ulotning fonetik vazifalariga mos bo‘ladi. Nutq materiali bir vaqtning o‘zida ham talaffuz malakalarini shakllantirish, ham eshitish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida qo‘llanadi.

O‘quvchilarning o‘qituvchiga, uning harakatlariga namuna sifatida taqlid qilgan holda bir necha bor takrorlashlari tabiiy taqlidni yuzaga keltiradi.

Mashg‘ulotlar jarayonida ba’zi elementlarni bajara olmasalar, o‘zlashtira olinmagan

elementlaming bir qismi yakka mashg‘ulotlarga olib chiqiladi.

Bu mashg‘ulotlarni to‘g‘ri talaffuzga, chiroyli, ravon, yengil xatti – harakatlarga ega, tabiiy ovoz balandligiga ega, shu bilan birgalikda eshitish qobiliyati va talaffuz ustida ishlash metodikasini to‘liq o‘zlashtirgan surdopedagog tomonidan olib borilishi mumkin.

Ammo amaliyotni kuzatish davomida musiqiy ritmika mashg‘ulotlarining ish turlari ichida tovushlar talaffuziga e’tibor qaratilmasligi aniqlandi. Mashg‘ulot asosan bolalarning harakat koordinatsiyasi va qo‘shiqdagi so‘zlarni takrorlash bilan chegaralanishi kuzatildi. Mashg‘ulotda tanlanlan nutqiy material faqatgina asosiy fanlardan olinib, talaffuzda mustahkamlanmoqda, ammo so‘zdagi fonemalarning to‘g‘ri talaffuziga e’tibor berilmayapti.

Maxsus maktablarda korreksion mashg‘ulotlarning tashkil etilishi o‘rganildi. Buning uchun:

1. Dastlab bu mashg‘ulotlarning maqsad va vazifalari aniqlashtirildi.

Korreksion mashg‘ulotlarning maqsad va vazifalari:

– o‘quvchilar rivojlanishidagi muammolar natijasida kelib chiqqan ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish, yumshatish, bilinmaydigan holatga keltirish;

– muammolarning ta’limni egallashga bo‘lgan salbiy ta’sirini kamaytirish;

– fanlarni o‘zlashtirishda uchraydigan qiyinchiliklarning oldini olish va bartaraf etishning tegishli choralarini ko‘rish;

– o‘quvchilarni samarali muloqotga o‘rgatish, mustaqil faoliyatning turli shakllariga tayyorlash;

– salomatligini nazorat qilish va tiklashga o‘rgatish;

– o‘z-o‘zini baholash va namoyon qilish uchun qulay sharoitlarni yaratish.

Musiqa va ritmika mashg‘ulotlarini kuzatish davomida ushbu vazifalarning ayrimlarigin bajarilmoqda. Asosan yo‘l qo‘yilayotgan kamchilik o‘g‘zaki nutq ustida muntazam va sistematik ish olib borishda ko‘ rinmoqda.

Amaliyotda musiqa va ritmika korreksion mashg‘ ulotini tashkil etish bo‘yicha quyidagi muammolar aniqlandi:

1. O‘qituvchilar uchun respublika miqyosida yaxlit hujjatlashtirish me’yorlari ishlab chiqilmaganligi sababli turli maxsus maktab-internatlarda ushbu mashg‘ulotlarning natijaviyligini obyektiv baholashning imkoniyati mavjud emas.

2. Dars va mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiluvchi talablar ishlab chiqilmaganligi sababli o‘qituvchilarning faoliyati monitoringi tashqi omillarga asosan yuritilmoqda, ya’ni aynan o‘quvchilar erishgan ko‘rsatkichlarga ko‘ra emas, balki o‘qituvchilarning o‘quv va jamoat ishlari natijalariga asosan tahlil etilmoqda.

3. Aksariyat o‘qituvchilar, ayniqsa, tegishli yo‘nalishlarda qayta tayyorlov kurslaridan o‘tgan pedagoglarning o‘quvchilarda mavjud muammolarning darajalari (yengil, o‘rta, og‘ir, chuqur)ni inobatga olgan holda o‘quv topshiriqlarini tayyorlash bo‘yicha kasbiy kompetensiyasi yetarli emas. Chunki ular o‘quvchilarning rivojlanishidagi o‘zgarishlarni aniqlash imkoniyatini beruvchi ma’lumotlarni taqdim etish bo‘yicha tajribalarga ega emaslar. Bu esa, korreksion mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha o‘qituvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobatning yuzaga kelishiga to‘sqinlik qilmoqda. Aksariyat o‘qituvchilardan ayrim o‘quvchilarning nutqiy, jismoniy imkoniyatlaridagi o‘zgarishlarning sezilmayotganligi so‘ralganda ularning javobi – “bahonasi” bitta – “bu o‘quvchi og‘ir, shuning uchun bajara olmaydi”.

4. Korreksion mashg‘ulotlarni tashkil etishga qo‘yiladigan talablarning yaxlit tarzda ishlab chiqilmaganligi. Amaliyotda ushbu mashg‘ulotlar to‘plangan milliy tajribalar

va xorij adabiyotlarida keltirilgan uslubiy tavsiyalar asosida olib borilmoqda. Biroq xorij ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan uslubiy yondashuvlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi ko‘zlangan maqsadga erishish imkoniyatini bermayapti.

5. Yosh pedagoglarning kar va zaif eshituvchi bolalalar muloqotda qo‘llaydigan nutq shakllari va vositalaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega emasligi. Bu holat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqotni yuzaga kelishiga to‘sqinlik qilmoqda. Natijada o‘quvchilar mashg‘ulot mazmunini to‘liq tushunib yetmayaptilar. Mashg‘ulot jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqotning yetarli emasligi pedagogik jarayonning texnologik jihatdan va mazmunan to‘liq tuzilmaganligidan dalolat beradi.

6. Mashg‘ulotni rejalashtirish bo‘yicha uslubiy vositalar mavjud emasligi. Metodik vositalar qanchalik yetarli bo‘lib, ularning mazmuni zamon talablari darajasida o‘z vaqtida takomillashtirib borilsa, shunchalik korreksion mashg‘ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga sharoit yaratilgan bo‘ladi.

Mashg‘ulotlarda mavzularga oid nutqiy material so‘z va so‘z birikmalarni, she’rlarni xor hamda yakka tarzda takrorlatish ishlari amalga oshiriladi. Ammo bu turdagi ish bosqichlarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqidagi tovush talaffuzining aniq va ravonligiga alohida to‘xtalmaydi. Bu ishlar 3 chi sinfda mashg‘ulotning “Fonetik mashq” deb nomlangan bo‘limida amalga oshirilib, tanlangan tovushning so‘zlardagi talaffuziga ko‘proq urg‘u beriladi. Ammo, bu ishlar 0-1 sinfda amalga oshirilsa ham natija bo‘lar edi. Kuzatuvlar va izlanishlar natijasida aynan “Fonetik ritmika” metodikasi bunday imkoniyatga ega ekani ma’lum bo‘ldi. Pedagogik jarayonni tashkil etishda hamkorlik tamoyiliga asoslanish muhim o‘rin tutadi.

Fonetik ritmikada mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun tanlangan barcha harakatlar, talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash uchun stimulyatsiya hisoblanadi. Mashg‘ulotlarda bajariladigan harakatlar oldindan yodlab olinmadi. Shuning uchun ular o‘qituvchi bilan sinxron ravishda bir necha marta (har biri 2-5 marta) takrorlanadi. Bolalar harakatlarni to‘g‘ri takrorlashni o‘rganganlaridan so‘ng, takrorlashlar soni kamaytiriladi. So‘z, bo‘g‘in, tovush nutqda to‘g‘ri amalga oshirilgandagina va harakat to‘xtagandan keyingina harakat o‘z vazifasini to‘liq bajaradi. Shunday qilib, fonetik ritmika mashg‘uloti jarayonidagi harakat - nutqni shakllantirish yoki uni tuzatishga bo‘lgan maqsadga erishish vositasidir. Ushbu mashg‘ulotlarning yakuniy maqsadi – harakatsiz fonetik jihatdan to‘g‘ri shakllantirilgan nutqdir.

Ushbu vazifani hal qilish uchun bolalarning taqlid qilish qobiliyati (harakatli, ham nutqiy) va maksimal darajada eshitish qobiliyati safarbar qilinadi. Fonetik ritmika bo‘yicha mashg‘ulotlarda tovush kuchaytiruvchi uskunalardan foydalanish majburiydir. Bu simsiz ovoz kuchaytiruvchi uskunalar yoki shaxsiy eshitish vositalari bo‘lishi mumkin. Tanlangan jihozlar o‘quvchilarning harakat erkinligini va tovushning yaxshi sifatini ta’minlashi zarur.

O‘qituvchining mashg‘ulot davomida beradigan ko‘rsatmalari, shuningdek, barcha nutq materiallari o‘quvchilarga eshitish – vizual tarzda taqdim etiladi. Ammo bu bilan birga faqat eshitish idrokidan ham foydalaniladi. Eshitish asosida ko‘plab harakatli (yurish, yugurish, to‘xtash, sakrash) va nutqli (she’r o‘qish, tez aytishlar, savollarga javoblar, so‘zlarni, bo‘g‘inlarni talaffuz qilish) mashqlari bajariladi.

Eshitishga turli ritmlarni, mantiqiy urg‘uni, intonatsiyani farqlash, idrok etish va ifodalash bo‘yicha ko‘plab materiallar taklif etiladi.

Talaffuzni o‘rgatishning analitik-sintetik printsipiga muvofiq, mashqlar butun so‘z va uning elementlari (bo‘g‘inlar va alohida tovushlar) ustida ishlashni birlashtiradi. Mashq-

larning materiali bo‘lib so‘zlar, bo‘g‘inlar, bo‘g‘in birikmalari, alohida tovushlar, shuningdek, iboralar, frazalar, tez aytishlar, sanoqlar, qisqa matnlar va she’rlar hizmat qiladi.

Nutq materiali bolalarga tanish va leksik jihatdan mavjud, mashg‘ulotning fonetik vazifalariga javob beradi. Harakatlar bilan birga aytiladigan nutq materiali fonetik ritmika bo‘yicha mashg‘ulotning bir qismini egallaydi. Qolgan vaqt ushbu materialni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish uchun ajratilgan – avval harakatlar bilan, keyin ularsiz. Oxirgi bosqichning maqsadi mustaqil nutqqa yaqin sharoitlarda olingan ko‘nikmalarni avtomatlashtirishdir. Barcha nutq materiallardan talaffuzni to‘g‘rilash va eshitish qobiliyatini chiniqtirish uchun foydalaniladi.

Barcha mashqlar taqlid qilish orqali amalga oshiriladi. Nutq materiali oldindan yodlanmaydi. Mashg‘ulot davomida o‘quvchilar va o‘qituvchi doira shaklida turadilar. Ular o‘qituvchini yaqqol ko‘rib turadilar, o‘qituvchi bilan sinxron ravishda harakat qiladilar va nutq materialini talaffuz qiladilar. Vizual namoyish va ko‘p karra takrorlash o‘quvchini tabiiy to‘g‘ri taqlidga undaydi.

Agar mashg‘ulot jarayonida ba’zi bolalar uchun ayni elementlar qiyin bo‘lsa, bu elementlarning ustida ishlash, individual mashg‘ulotlarga qoldiriladi. Shunday qilib, fonetik ritmika bo‘yicha frontal mashg‘ulotlarning o‘zlashtirilmagan nutq materialining bir qismi yanada chuqurroq o‘rgatish uchun individual mashg‘ulotlarga o‘taziladi. Bunday harakatchanlik to‘g‘ri talaffuzni mustahkamlashga yordam beradi. Individual mashg‘ulotlar olib boradigan har bir surdopedagog fonetik ritmika bo‘yicha mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan metodik ish usullarini o‘zlashtirishi kerak.

Fonetik ritmika bo‘yicha mashg‘ulotni o‘qituvchi-defektolog olib boradi, u tananing, qo‘llarning, oyoqlarning, boshning turli harakatlarini to‘g‘ri va chiroyli bajarishni bilishi lozim.

Barcha holatlarda o‘qituvchi nutqi namuna bo‘lib xizmat qilishi, fonetik jihatdan to‘g‘ri shakllangan, hissiy rangga ega bo‘lishi kerak.

Shu bilan mashg‘ulot ENB bolalarning og‘zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi, darslar orasida bog‘liqlik hamda korreksion ta’sirda izchillik va ketma-ketlikka erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ишматова О. С., Кравченко А. П. (2024). Билингвизм И Его Влияние На Речевое Развитие Ребёнка. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(1), 307-312.

2. Ишматова О. С., Камбылова З. Н., Абдурахмонова Р. Х. (2024). Механизм логопедической работы и рекомендации для детей с потолгией заикания при судорожных ситуациях чтобы улучшить речь. pedagog, 7(2), 591-599.

3. Ishmatova O. S. (2022). Korreksion mashg‘ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og‘zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish. chirchiq, 1(1), 70.

4. Ishmatova O. S. (2022). Mavzu: Eshitishida nuqsoni bor bolalarni estetik tarbiyalashning muhim omil. uzbek scholar journal, 10, 333-336.

5. Ishmatova O. S. (2022). Role of phonetic rhythm in correction of speech defects. galaxy international interdisciplinary research journal, 10(11), 487-491.

6. Xusnuddinova Z. X. (2023). Alohida ehtiyojli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. Ta’lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari, 1(1), 365-368.

Abror ERNAZAROV,
Samarqand davlat universiteti huzuridagi aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktabi direktori

TA’LIM SIFATINI KO‘TARISH UCHUN O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL ISHLASHGA O‘RGATISH ZARUR

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchining ijtimoiy faolligini oshirish va mustaqil ishlashga o‘rgatishdagi muhim omillarga e’tibor qaratilgan. Ta’lim tizimida shaxsni rivojlantirish, egallagan nazariy bilimlarini amaliy ishlarni bajarishda qo‘llay bilishi, mustaqil ishlashga o‘rgatishning qulay yo‘llaridan biri ekanligi ta’kidlangan. Yana ta’lim sifatini ko‘tarishga va o‘quvchilarni mustaqil ishlashiga ta’sir e’tuvchi ba’zi omillar yuzasidan o‘tkazilgan kichik tadqiqotlar keltirilgan

Tayanch so‘zlar. Raqamli texnologiya, mustaqil ishlash, ta’lim va tarbiya, rivojlantirish, dekiaratsiya.

В статье основное внимание уделяется важным факторам в повышении социальной активности учащегося и обучении самостоятельной работе. В системе образования подчеркивается, что развитие личности, умение применять полученные теоретические знания при выполнении практической работы-один из удобных способов обучения самостоятельной работе. Далее следует небольшое исследование, посвященное некоторым факторам, влияющим на повышение качества образования и самостоятельную работу учащихся.

Ключевые слова. Цифровые технологии, самостоятельная работа, образование и воспитание, развитие, деконструкция.

The article focuses on important factors in increasing the student’s social activity and teaching them to work independently. It is argued that the development of personality in the educational system, the ability to apply the acquired theoretical knowledge in the performance of practical work, is one of the convenient ways to teach independent work. Again, there are small studies conducted on some factors that are considered to raise the quality of education and affect the independent functioning of students

Key words. Digital technology, independent work, education and training, development, deciaration.

Bugungi dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv sharoitida jamiyatning rivojlanishi yuqori texnologik ta’minlanganlik, sifat, fan va texnologiyalar yutuqlarining hayotiy masalalarga tadbiq e’tilganligiga bog‘liq. Agar bunga qo‘shimcha ravishda zamonaviylik bilan birgalikda qadim avlod-ajdodlar qadriyatlari asosida tarbiyalangan, avvalombor ustozlar va ulug‘larni tinglay oladigan darajada ahloqli, mustaqil fikrini ham ifoda eta oladigan, sabrli va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash masalasi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, jamiyatimiz yuksak darajada rivojlanar edi. Raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilayotgan bugungi davrda barcha aholini sifatli bilim va kasb-hunarga o‘qita olayotgan davlatlarda farovonlik yuqori bo‘lib, munosib ish o‘rinlari va ish haqlari mavjud. Ulkan axborotlar oqimidan unumli foydalanib, o‘zgaruvchan dunyoda samarali faoliyat yurita oladigan, mamlakatni har tomonlama rivojlantiradigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi oldimizda turibdi. Jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan “Ta’lim-2030” Inchxon deklaratsiyasiga ko‘ra aholisini barcha qatlamlarini ilm-hunarga o‘rgatishga, daromadlarni o‘shirish va ishlab chiqarishni kengaytirishga harakat qilishi

uchun davlatlarni ta’lim sifatini oshirishga katta ehtiyoj bor. O‘zbekiston ta’lim tizimida shaxsni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi va bo‘shlang‘ich sinflardan bunga e’tibor qaratiladi. Shu jihatdan shaxs rivojida umumiy qonuniyatlar deganda individni ta’lim va tarbiya vositasida ijtimoiy shaxsga aylantirish asoslari tushuniladi. Bu boradagi asosiy qonuniyatlar tizimini quyidagilar tashkil etadi: Aqlni rivojlantirish, estetik his-tuyg‘ularni shakllantirish, jismoniy rivojlantirish, turli streslarga bardoshlilikni rivojlantirish, o‘z-o‘ziga ishonchni rivojlantirish, mustaqillik ko‘nikmasini rivojlantirish, shaxsiy faollikni rivojlantirish, o‘zgalarga va atrof-muhitga munosabatni rivojlantirish. Mazkur qonuniyatlar asosida ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilar shaxsi izchil rivojlantirib boriladi. O‘zbekistonda xalq an’analari, insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, oilaparvarlik kabi milliy qadriyatlar va bag‘rikenglik, demokratlik, birodarlik singari umuminsoniy qadriyatlarga ham amal qilinadi.

O‘quvchilarni aqliy rivojlanishi hisobga olinadi, mustaqil ishlashga o‘rgatiladi va o‘rgatish jarayonida beriladigan bilimlar tabaqalashtiriladi. Bunda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

– o‘quvchining bilim darajasi;
– o‘quvchining tushunish darajasi;
– o‘quvchining fikrlash darajasi;
– o‘quvchining qiziqish darajasi.

O‘quvchining ijtimoiy faolligi ham mustaqil ishlashga o‘rgatishda muhim omillardan hisoblanadi. Egallangan nazariy bilimlarni amaliy ishlarni bajarishda qo‘llay bilish mustaqil ishlashga o‘rgatishning qulay yo‘llaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Asta-sekin loyiha topshiriqlari berish bilan o‘quvchilarni yanada mustaqil qarorlar qabul qilish, yechimlar taklif qilish va tadbiqiy jihatlarini ilg‘ab olishga o‘rgatib boriladi.Beriladigan masala yoki topshiriqni bir necha yechimlarini taklif qilishga o‘rgatish ham o‘quvchi iqtidorini o‘sishiga, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga hamda umumiy xulosalar chiqarishga turtki beradi. Lekin bunda yo‘sh xususiyatlari, o‘quvchilarning temperamentlari va alohida yondashuvni talab qiladigan hissiyotlari bilan hisoblashish kerak. Turli rasmiy va norasmiy tadbirlar,diniy marosimlar, to‘ylar, bazmlar yoki oila davralarida yo‘shlar fikrini eshitmaslik, faqat kattalar bo‘sh ro‘lda bo‘lishi aksariyat yoshlarni tinglovchi bo‘lib o‘sishiga sabab bo‘ladi. Ta’lim jarayonida ham bu holat davom etadi va “tayyor” ma’lumotlarni tinglab, faqat ruxsat berilganda fikr bildirish yoki mustaqil o‘ylab ko‘rish kabi xarakter shakllana bo‘shlaydi. Shuning uchun ta’lim sohasidagi islohatlarimiz to‘laqonli amalga o‘shishi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan jamiyatda oilalardagi munosabatlarni ham takomillashtirishni talab qiladi. Agar maktab va oila hamkorligi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, maktab yoshidagi mustaqil ishlashga o‘rganmagan o‘quvchini ham shakllantirish mumkin bo‘ladi. O‘zbekistondagi juda ko‘p oilalarda 3-4 nafardan farzandlar borligi ham bu muammoni hal qilishda asqotadi. PISA tadqiqotiga ko‘ra farzandlari bitta bo‘lgan oilada o‘sayotgan o‘quvchiga nisbatan ikki yoki undan ko‘p farzandli oilada o‘sayotgan o‘quvchilarning fanlarni mustaqil o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada farq qilgan. Bu kabi tahlillarni X asr oldin buyuk bobokalonimiz Farobiy ham e’tirof etgan. Farobiyning fikrlariga ko‘ra, inson o‘z aqli bilan atrofidagi dunyoni anglaydi. Inson o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiydir(odamlarsiz ko‘p narsaga erisha olmaydi). Bugungi kun o‘quvchilarining o‘qituvchilar bilan va o‘zaro muloqot qilish vositalarining rivojlanganligi ularni mustaqil ishlash imkoniyatlarini oshiradi. O‘quvchilardagi turli gatdjetlar mavjudligi, chat botlar(kanallar) va ta’lim ilovalarining ta’komillashib borayotganligi o‘qituvchi va ota-onalarning nazorati ostida o‘quvchilarning ma’lumotlar izlashi

va natijalarga tezroq erishishiga juda katta qulayliklar tug‘diradi.

Ta’lim va tarbiyaga qaratilgan xalqaro tadqiqot asosida men rahbarlik qilayotgan maktabda o‘quvchilarni mustaqil ishlashiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishga qaratilib, o‘tkazilgan kichik tadqiqotda ham o‘quvchilarning bir qismi berilgan topshiriq va mustaqil ishlarni bajarishda telefon, turli gadjetlar va ulardagi ilovalardan foydalanishlarini bildirishdi. Bundan tashqari iqtisodiy holatlari yaxshi bo‘lgan holda ovqatlanish va sportga e’tibor kamligi, hamda mustaqil bilim olishda o‘quvchilarning bir qismigina darsliklardan foydalanishlari va dunyo yangiliklaridan internetga ulanganlar miqdoridagilarning xabardorligi ma’lum bo‘ldi. Achinarlisi ko‘pgina o‘quvchilarning ota-onasi chet ellarda ekanligi va uydagilarining ham katta qismi farzandlar o‘qishini tekshirmasligi farzandlari tomonidan e’tirof etildi.

Sh.Rashidov nomidagi SamDU aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktabida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari jadvali:

	Savollar	**Maktabning so‘ro‘vnomada qatnashgan jami o‘quvchilari.**		**Ha deb javob berganlar**	**Foizlarda %**
1	Fanlarni, uy vazifalarini bajarishda telefondan foydalanasizmi?	**283**		**158**	**56 %**
2	Uyingizda nechta kitob bor? (20 tadan ko‘p bo‘lsa HA)	**283**		**205**	**72 %**
3	Mashina,konditsaner, televizor,holadenlik,aristo nuyingizdabormi?	**283**		**202**	**71 %**
4	Uyda necha kishi yashaydi?(3 tadan ko‘p bo‘lsa HA)	**283**		**198**	**70 %**
5	Kompyuter bormi?	**283**		**172**	**61 %**
6	Internet tarmog‘i mavjudmi(wi- fi)?	**283**		**188**	**66 %**
7	Tushlik vaqtida issiq ovqat istemol qilasizmi ?	**283**		**181**	**64 %**
8	Bazan och qolasizmi ?	**283**		**149**	**52 %**
9	Kerakli darsliklar bormi?	**283**		**180**	**64 %**
10	Ota yoki onangiz chet eldami?	**283**		**95**	**34 %**
11	Badantarbiya qilasizmi?	**283**		**155**	**55 %**
12	Sport bilandoimiyshug‘ullanasizmi?	**283**		**123**	**43 %**
13	Dunyo yangiliklarini kuzatasizmi?	**283**		**174**	**61 %**
14	Kelajakda kim bo‘lmoqchisiz ?	**283**	**Moliya-iqtisod va biznes**	**121**	**43 %**
			Shifokor	**102**	**36 %**
			IT , dizayner	**26**	**9 %**
			Rahbar va yuqori amallar	**19**	**7 %**
			O‘qituvchi	**15**	**5 %**
15	Ota-onangiz o‘qishingizni tekshiradimi?	**283**		**162**	**57 %**
16	Har zamonda tekshiradi, tekshirmaydi?	**283**		**125**	**44 %**

17	Bir kunda qancha pul sarflaysiz?(25-30000 dan ko‘p bo‘lsa HA)	**283**	**127**	**45 %**

Tadqiqotimizda o‘quvchilar oilasining umumiy iqtisodiy ahvoli qoniqarli bo‘lishiga qaramay, yaxshi tushlik qilmasliklari ma’lum bo‘ldi. Ota-onalar bilan gaplashganimizda oziqlanish uchun berilgan pulni boshqa maqsadda ishlatishlari ayon bo‘ldi. Maktabga boradigan farzandlarga tushlik uchun pul emas, balki yegulik tayyorlab berilsa, darsdan keyin qolib, mustaqil ishlashiga yetarli vaqt ajratishlari mumkin. Yuqoridagi tahlillarimizdan kelib chiqib o‘quvchi bilimini oshirishda hattoki ota-onaning nazorati ham pasayib ketayotganini e’tiborga olsak, o‘quvchilarning mustaqil ishlashga o‘rgatib borishimiz naqadar dolzarb ekanligini ko‘rish qiyin emas. Munosabatlar tizimi kabi hamkorlik ham ko‘pqirrali hodisadir. “O‘qituvchi-o‘quvchi” munosabatlari bu tizimda muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchi shaxsiga yangicha nuqtai nazardan yondashishni ta’limning markaziga qo‘yib, uni shaxsning barcha sifatlarini yaxlit tarzda rivojlantirishga yo‘naltirish lozim. Bunday rivojlantirish choralari o‘quv jarayonining asosiy natijasini ifodalaydi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchining shaxsiyati, ichki olamiga e’tibor qaratishi lozim. Chunki ularning layoqatlari bu davrda to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Natijaga erishish uchun pedagoglar maktab psixologi bilan birgalikda o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini kashf etishlari lozim. Shundagina ularning ahloqiy sifatlari, mustaqilliklari va haqiqiy qiyofalari to‘liq tarzda namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayoning asosiy maqsadi o‘quvchilarning salohiyati va imkoniyatlarini safarbar qilish, ularning hayotiy faoliyatlari bilan uyg‘unlashtirishdan iborat. Shuningdek, mazkur imkoniyatlardan o‘quvchi shaxsining mukammal, mustaqil rivojlanishi yo‘lida foydalanish usullarini izlash lozim. Iqtidorli o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatishni o‘quvchi shaxsiga e’tibor bilan yondashishdan boshlash kerak.

– ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxs sifatida to‘laqonli shakllanishini ta’minlash;

– o‘quvchilar pedagogik jarayonning subyekti sifatida faoliyat ko‘rsatishiga erishish;

– o‘quvchilarni rivojlantirishni ta’lim jarayoninig asosiy maqsadiga aylanishini ta’minlash;

– har bir o‘quvchini layoqatini e’tirof etish va ularni qobiliyatli ekaniga ishonish;

– o‘quvchilarda shaxs uchun zarur bo‘lgan ijobiy sifatlar : rahmdillik, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vijdonlilik, yetuklik, mustaqil fikrga egalik nomoyon bo‘lishi uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratish.

O‘quvchilar topshiriqlarni mustaqil bajarganda ularning aqliy faoliyati ishga tushadi, o‘z bilimi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchi ortadi.

Raqamli texnologoyalar esa darslarni o‘tishda ta’lim samaradorligini o‘shiradi va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashlarini shakllanishiga yordam beradi.

Amaliyotda dars loyihasi ham, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari ham har doim ham qulay bo‘lavermaydi. O‘quvchilarni juda ko‘p vaqtlari o‘qituvchi nazoratisiz o‘tadi. Demak ularni mustaqil ishlashini qandaydir metodlar bilan shakllantirib borish eng muhim masalalardan bo‘lib qolmoqda. Bunda o‘quvchilarda mavjud intelektual hususiyatlardan unumli foydalanish kerak.

Mustaqil ishlashda o‘quvchi o‘z-o‘zini rivojlantirish rejasiga ega bo‘lishi, atrofidagilar ham uning rivojlanishiga ta’sir qiladigan bo‘lishi, kerak bo‘lganda uning yolg‘iz ishlashiga sharoit yaratishda o‘qituvchi omili ham muhim hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy insonlarga qo‘yiladigan talablar: o‘z ona tilida saviyali munosabatlarga kirishish, chet tillarda muloqot qilish, fan-texnologiyalar bo‘yicha matematik

savodlilik, kompyuter savodxonligi, yaratuvchanlik va tadbirkorlik kabi turli ko‘nikmalariga ega bo‘lishdan iborat. PISA tadqiqotlarida ham zamonaviy dunyo kadrlari tanqidiy fikrlash, kreativlik, ilmiy qobiliyat, tashabbus va qat’iylik, mustaqil fikrlash, sistemali va funksional savodxonlik darajasi rivojlanganligi bo‘yicha baholanadi. 80-yillarda zamonaviy texnologiyalar sifatida kompyuter, kodoskop, elektron doskalar tushunilgan. Bugungi kunga kelib raqamli texnologiyalar shu darajada rivojlandiki, kerakli materiallarni saralash, ma’lum bir qo‘yilgan talabga mos keladiganlarini tavsiya qilish yoki maslahatlashadigan dasturiy manbaalar yoki sun’iy intelektdan foydalanilyapti.

Imkoniyatlar ko‘lamining bu darajada o‘shib borishi o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish uchun yanada katta sharoit yaratadi. Yani raqamli texnologiyadan behabar o‘qituvchi bugungi kun o‘quvchisini talablarini bajara olmaydi. Mustaqil ishlashni esa samarali tashkil qila olmaydi. O‘zbekiston maktablarida o‘quvchilar qiziqishlaridan kelib chiqib, kasbga yo‘naltirilgan yoki ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilmoqda. Bu masalaga yillar davomida e’tibor qaratilayotgan bo‘lsada olingan bilimlarni amalda qo‘llay olish masalasida juda ko‘p muammolarimiz bor. Shu sababli o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ishlashga o‘rgatish bo‘yicha strategiya ishlab chiqish zarurati bor. Buni amalga o‘shirish boyicha (Sank-Peterburg samarali o‘qitish instituti) beshta tamoyil taklif qilinadi:

1. Reja tuzish, 2. Holat ahvoli. 3. Kelajakda ishlar, 4. Qabul qilish va 5. Xulq tamoillari. Yana o‘z-o‘zini nazorat qilishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli dasturlarni rejalashtirish va tadqiq qilish talab qilinadi. O‘quvchi-yo‘shlarni o‘ziga xos jamoalari va auditoriyasidan kelib chiqib, maktabda yoki mustaqil egallangan bilimlarni o‘zaro almashishlari va bo‘shqalarga o‘rgatishlarini yo‘lga qo‘yish juda samarali hisoblanadi. Shveytsariyaning Jeneva shahridagi soatsoz oilasida tug‘ilgan mutafakkir Jan Jak Russoning(XVIII-asr bo‘shi) fikricha o‘quvchini shakllantirish va samarali tarbiyalashda tabiiylikka e’tibor qaratish kerak. Bolaga bilimni zo‘rlab emas, uning qiziqishlaridan kelib chiqish zarurligini , bola o‘zi qiziqish bilan shakllantirgan tajribalarni egallaydi. Yani qiziqadigan bilimlarni mustaqil egallashi mumkin. Buning uchun eng samarali vaqt 12-15 yo‘sh ekanligini ham aytib o‘tgan.

Jaloliddin Rumiyning ham kitob o‘qishdagi asosiy maqsad ma’nodir degan fikrlari bor. Yani o‘rgatilgan va o‘rganiladigan bilimlarni mohiyatini tushunish hamda qo‘llay olish maqsadi aniq bo‘lishi kerak. Yuqorida keltirilgan barcha fikrlardan xulosaqilamiz. Demak, o‘quvchilarni (iqtidorli) mustaqil ishlashga o‘rgatishning meyoriy-huquqiy va metodologik asoslari shakllantirilishida dunyo xalqlari tajribalari, zamonaviy metodlar, raqamli texnologiyalar bilan birgalikda ularni o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijodkorlik xususiyatlari, tanqidiy fikrlash, kreativlik, ilmiy qobiliyat, tashabbus va qat’iylik, mustaqil fikrlash, sistemali va funksional savodxonlik darajasi rivojlanganligi, o‘ziga xoslik va ta’lim–tarbiyaning qadriyatlarimiz bilan uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E. Psixologiya 1-48-165- b. –T.: “Universitet”-2002.

2. Saydimova.M. Raqamli texnologiyalardan foydalanish. Наука и технология в современном мире 1(7) 249-254-стр uz.wikipedia.org

3. O‘rishev A.N ChirDPU(2021) Mobil ilovalar texnologiyasi va ulardan ta’lim tizimida foydalanish texnologiyasi.Экономика и социум, 11.

4. Avlayev O.U., Jo‘rayeva S.N., Mirzayeva S.P. “Talim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, –T., 2017

Feruzaxon QODIROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Maxsus pedagogika" kafedrasi mudiri, p.f.d., professor
Sevara ULXO'JAEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

MUSTAQIL TA'LIMDA TALABALARNING KASBIY-AMALIY TRAEKTORIYASINI INDIVIDUAL YO'NALTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada mustaqil ta'lim jarayonida faoliyatni tizimli tashkil etish orqali talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning turli yo'llari tahlil etilgan. Mustaqil ta'lim orqali talabalarda shakllanishi kerak bo'lgan sifatlar aniqlashtirilgan.

Tayanch so'zlar. Mustaqil ta'lim, kasbiy faoliyat, kompetensiya, faoliyat, ustoz-shogird.

В статье анализируются различные способы подготовки студентов к профессиональной деятельности посредством системной организации деятельности в процессе самостоятельного образования. Определены качества, которые необходимо формировать у студентов посредством самостоятельного обучения.

Ключевые слова. Самостоятельное образование, профессиональная деятельность, компетентность, активность, наставник-ученик.

The article analyzes various ways of preparing students for professional activities through the systematic organization of activities in the process of independent education. Qualities that should be formed in students through independent education have been defined.

Key words. Independent education, professional activity, competence, activity, mentor-student.

Bo'lajak logopedlarda kasbiy faoliyat bilan bog'liq hamda ijtimoiy muhitda qulay harakatlanish imkonini beruvchi ko'nikma va malakalarni ijtimoiy, kommunikativ, informasion kompetensiyalar tarzida mujassamlashtirgan holda hamda kasbiy va shaxsiy sifatlar kabi turkumlarga ajratgan holda rivojlantirish zarurati mavjudligi amaliyotdagi holatlarni kuzatganda aniqlandi. Bundan tashqari har qanday kompetensiya haqida gapirilganda, eng avvalo, kasbiy bilimdonlikni unutmaslik lozim. Ya'ni talabalarning mustaqil ta'lim davrida an'anaviy yondashuvmi yoki zamonaviy texnologiyalarmi qaysi biridan foydalanilmasin, eng muhim talab bu – bo'lajak mutaxassislarga qo'yiluvchi malaka talablarida ko'zda tutilgan kasbga oid va modullar mazmuniga mos bilimlarni talabalarga yetkazishning zarurligini oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari anglashlari maqsadga muvofiqdir.

Abu Nasr Forobiy bolaga turli bilimlarni o'rgatishning mazmuni va qoidalarini bevosita o'z faoliyatida sinab ko'rgan. U ta'lim-tarbiya berishda rag'batlantirish va jazolashga yohud majbur qilishga ajratgan holda quyidagi fikrlarni ilgari surgan: "Bolalarga ta'lim bergan kishi muallim bo'lib, u tarbiya berishda turli usullardan foydalanadi. Shundan ma'lum bo'ladiki, hukumat va muallim har ikkovi oz bo'lsa-da, bolalar yoki xalqqa tarbiya beruvchilar, ustoz va muallimlardir. Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so'zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchici majburiy ravishda tarbiyalaydi". Alloma o'qituvchini xolis, odil, oqilligini alohida ta'riflaydi. Uning fikricha, o'qituvchi – jamiyat ko'zgusi

sifatida quyidagi sifatlarni o‘zida shakllantirishga muvaffaq bo‘lishi lozim, ya’ni u aytadi: “O‘qituvchi barcha organlari mukammal, masalani tez va mantiqiy tushunadigan, xotirasi kuchli, zehni o‘tkir, nutqi ravon, bilish va o‘qishga muhabbati kuchli, ko‘zi to‘q, pokiza, haqiqatparvar, g‘ururli va vijdonli, pulni sevmaydigan, adolatli, qat’iyatli, qo‘rqmas va jasur bo‘lmog‘i lozim”. Bundan tashqari Forobiy har biri bir olam bo‘lgan bolalarning fe’l-atvoriga qarab, ta’sir etish jarayonida “qattiq” yoki “yumshoq” usullardan foydalanish kerak, deb hisoblagan.

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimiz o‘zining ajoyib ma’naviy boyliklari – asarlarini qoldirganlar. Ushbu ma’naviy boyliklardan yosh avlod ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanishda, asosiy tamoyillarga tayangan holda samarali yo‘llarni tanlab olishda qo‘llanilib kelinmoqda. Bo‘lajak logopedlarni ham vatanparvarlik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat va o‘zaro hurmat ruhida tarbiyalashda sanab o‘tilgan Sharq mutaffakkirlarining pedagogik qarashlari har bir o‘qituvchi uchun dasturulamaldir.

V.I. Andreev kompetensiyaning quyidagi komponentlarini sanab o‘tadi: “Shaxsning ijobiy motivatsiyasi, sohaga oid bilimi, mahorati, iqtidori va ijodiy faoliyat tajribasi hamda o‘quv, kasbiy va boshqa kompleks masalalarni yechishda namoyon bo‘luvchi, rivojlanib boruvchi integral ko‘rsatkich, tayyorgarlik darajasidir”. Olimning ushbu tavsifidan bo‘lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismlarini ajratishda tayanish mumkin, deb hisobladik. Natijada quyida bo‘lajak logopedlarga o‘z kasbiy faoliyatini oldindan ko‘z oldiga keltirishiga erishish maqsadida quyidagi ta’rifni shakllantirdik.

Demak, kompetentli logoped-o‘qituvchi deb, o‘zining ustida muntazam ishlaydigan, kasbiy mahoratini rivojlantirishni qadriyat darajasiga ko‘targan, korreksion-pedagogik jarayonini nafaqat loyihalashtiradigan, balki uni samarali boshqaradigan, davlatning ta’limga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmasini, zamon talablarini, innovatsion yondashuvlarni tez fursatda ilg‘ab, uni o‘z amaliyotiga moslashtirgan tarzda qo‘llay oladigan mutaxassisni tushunish mumkin, deb ta’rif berdik.

Yuqorida keltirilgan kasbiy faoliyatga qo‘yiluvchi talablarni o‘zida mujassamlashtirgan ta’rifni quyidagicha umumlashtirish mumkin: kompetentlik – bu kasbga oid harakatlar mohiyatini tashkil etuvchi funksional (lavozim majburiyatiga xos) vazifalarni samarali hal qiladigan bilim, ko‘nikma va malaka hamda shaxsiy sifatlarning tizimli tarzda namoyon bo‘lishidir.

Mustaqil ta’lim jarayonida bo‘lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asos bo‘luvchi bosqichlarni ajratib olish ehtiyoji tug‘ildi. Mustaqil ta’limda pedagogik jarayonlarni tashkil etish, sifat va samaradorligini ta’minlashda subyektlar (o‘qituvchi va talaba) faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish (darsda va darsdan keyin), nazorat qilish (davriy olib boriladigan ish turlari: suhbat, konsultatsiya, “Master klass”lar, “Ustoz-shogird” soatlari...) va obyektiv baholash (o‘z-o‘zini baholash, boshqa talabalar faoliyati va ularning natijalarini namoyish qilish orqali taqqoslash...), rag‘batlantirish(-ma’naviy, motivatsion, stimullashtirish) asosida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

Mustaqil ta’lim davrida talabalarning kasbga oid faoliyatlari natijalarini sifat jihatdan baholash mezonlaridan biri ularning logopedik bilimi va korreksion ishlarni tashkil etish malakasiga qarab belgilanadi. Shuning uchun talabalar mustaqil ta’lim davrida o‘zining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati orqali pedagogik, metodik mahoratini rivojlantirishi, o‘z bilimlarini muntazam oshirib borishlari zarurdir.

Biz talabalarning bu jarayondagi faoliyatlarini samarali tashkil etishlariga erishishni ta’minlaydigan oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari e’tiborlarini qaratishlari lozim bo‘l-

gan quyidagi tavsiyalarni asosladik:

– mustaqil ta'lim davrida talabalar faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining muayyan maqsadga yo'naltirilganligi, ilmiy-amaliy jihatdan asoslanganligi, bundan tashqari, eng muhimi, ushbu ta'limning mazmunini to'g'ri tanlash, o'quv-topshiriqlarning murakkablik darajalarini aniqlash mexanizmlarini muntazam o'rganish orqali tegishli tuzatishlar kiritib borish;

– mustaqil ta'lim sifatini baholash, tashkil etilish bosqichlari va ularning taraqqiy etib borishini ta'minlash, strategik va taktik yo'llarni tanlash hamda belgilash;

– mustaqil ta'limda talabalarni o'qitish va tarbiyalashning muqobil usullarini ishlab chiqish, ularning kasbiy dunyoqarashini rivojlantirishga, turli jamoa(amaliyot o'taydigan, ko'chma mashg'ulot (amaliy mashg'ulotning boshqa muassasada o'tilishi)olib boriladigan muassasalarda)larning barcha a'zolari orasida hurmat, ishonch, "Ustoz-shogird"-lik, do'stlik va o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o'rnatishga o'rgatuvchi texnologiyalarni tatbiq etish.

Bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini turli ta'lim shakllari va vositalari orqali rivojlantirish muammosini har tomonlama ilmiy-nazariy o'rganish jarayoni bu yo'nalishda xorijiy hamda pedagogika rivojlanishining turli davrlari olimlarining bu masaladagi qarashlarini ham o'rganishga ehtiyoj tug'dirdi. Chunki kompetensiya o'qituvchining yuqori sifat ko'rsatkichli faoliyat darajasi sifatida tavsiflanar ekan, o'qituvchilik, unga qo'yiluvchi talablar, o'qituvchi shaxsi va boshqa tushunchalarning amaliyotda qo'llanilishi uzoq tarixga borib taqaladi.

Rivojlangan logopedik o'quvlarni kasbiy kompetentsiyalar sifatida talqin etish mumkin. Ya'ni shaxs faoliyatiga kasbiy mehnat harakatlarini muvaffaqiyatli singdirilishi kasbiy kompetensiyaning elementlari tarkib topganligidan dalolat beradi. Demak, kasbiy kompetentlilik – bu amaliyotga mos harakatlar tizimini samarali amalga oshirish orqali natijalarga erishishdir. Demak, bo'lajak logopedlarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashda amaliyotning o'rni va ta'siri kattadir. Oliy ta'lim muassasasi mutaxassisni kelajak amaliyotiga tayyorlash nuqtayi nazaridan qochib, bugungi kun amaliyotiga zarur bo'lgan kasbiy ehtiyojlardan kelib chiqib, tegishli kompetensiyalarni talabalarda shakllantirishga mas'uldir.

Shuning uchun mustaqil ta'lim aynan talabani bugungi kun amaliyotidan kelib chiqib, mos yondashuvlarni tanlash va qo'llash imkonini beradigan ta'lim turidir.

Oliy ta'lim muassasalarda mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ish turlari va yo'nalishlarini belgilashda kasbiy faoliyat bilan bog'liq yo'llarni tanlash lozim. Shundagina talabalar kelajakda kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli bilim, ko'nikma va tajribalarni namoyon eta oladilar.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyasiga qo'yiluvchi talablarni ajratish mumkin:

Umumiy va maxsus pedagogika nazariyasi hamda psixologiyani bilish.

Korreksion ishlarni amalga oshirishga doir pedagogik mahorat, ta'lim-tarbiya texnologiyalarini egallashga intilish.

Mustaqil ta'lim va pedagogik amaliyot jarayonida mashg'ulotlarni samarali tashkil eta olish uchun zarur choralarni o'qituvchi va amaliyotchilar bilan hamkorlikda ko'rish va ishlarni rejalashtirish.

Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni boshqa bolalar bilan birdek sevish, uning noyobligini yuzaga chiqarish usullarini topish va qo'llash.

Logopedlikning muhim harakat elementlarini o'zida tarkib toptirish, xususan, sabrli

bo‘lish, o‘zini tuta bilish, bolalarni tushunish va ular bilan ishlashni bilish.

O‘z nutqi ustida doim ishlash.

O‘zida tashkilotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish, maqsadni qo‘ya olishi va unga erisha olishi.

Mustaqil ta’lim davrida turli ish turlarini bajarishda vaqtni to‘g‘ri taqsimlay bilish.

Intizomli, mas’uliyatli, faol bo‘lish.

Kichik guruhlarda ishlaganda o‘zaro ishlarni taqsimlay olish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola bilish.

Nazariy va amaliy ma’lumotlar hamda milliy hamda xorijiy tajribalarnii tahlil etish orqali kompetentli logoped-o‘qituvchiga quyidagicha ta’rif shakllantirildi: “Kompetentli logoped o‘zining ustida muntazam ishlaydigan, kasbiy mahoratini rivojlantirishni qadriyat darajasiga ko‘targan, korreksion-pedagogik jarayonini nafaqat loyihalashtiradigan, balki uni samarali boshqaradigan, davlatning ta’limga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmasini, zamon talablarini, innovatsion yondashuvlarni tez fursatda ilg‘ab, uni o‘z amaliyotiga moslashtirgan tarzda qo‘llay oladigan mutaxassisdir”. Sanab o‘tilgan talablaarga to‘liq javob berishda har bir talabaning mustaqil ta’limini individual rejalashtirish va amaliyotga yo‘naltirish muhimdir. Shundagina talabalarning mustaqil ta’limi samarasiz vaqt o‘tkazish emas, balki kasb egallash uchun mashq maydoniga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Baxt-caodatga erishish yo‘llari haqida ricola. – T., 1992, – 120-b.

2.Usmanovna, Q. F. (2018). Zamonaviy ta’lim texnologiyalari kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali omili sifatida. Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan), (10), 55-62.

3.Kodirova, F. U. (2021). Optimalnые PUTI resheniya metodicheskix problem inklyuzivnogo obrazovaniya. integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 2(4), 216-224.

4. Qodirova, F. U., & Kenjaev, N. U. (2020). Inklyuziv ta’lim sharoitida kar va zaif eshituvchi bolalarning o‘qishiga ta’sir etuvchi omillar. Academic research in educational sciences, (3), 904-910.

S.B.KARIMOV,
A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

O'QUVCHILARNING KUYLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Annotatsiya

Maqolada maktab o'quvchilarini musiqaga o'rgatish, qo'shiq kuylash texnikasida alohida ahamiyatga molik bo'lgan innovatsion yondashuvlar haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar. Musiqa darslari, o'quvchilar shaxsi, musiqiy madaniyat, musiqiy qobiliyat, qo'shiq kuylash, o'quv mashg'ulotlari, nafas olish tempi, deksiya, xor, xor ijrochilari, vokal, ovoz, ovoz mashqlari, musiqaviy jumlalash.

В статье рассматриваются новаторские подходы к обучению школьников музыке, имеющие особое значение в технике пения.

Ключевые слова. Уроки музыки, личность учащихся, музыкальная культура, музыкальные способности, пение, учебные занятия, темп дыхания, декламация, хор, хороводы, вокал, голосовые упражнения, музыкальное предложение.

The article focused on innovative approaches to teaching schoolchildren to music, which have a special significance in the technique of singing.

Key words. Music lessons, student personality, musical culture, musical ability, singing, training, breathing tempo, declension, choir, choral performers, vocals, voice, voice exercises, musical sentence.

Har qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quv tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan olib chiqqan holda o'quvchini kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganligiga bog'liq. Dars jarayonida o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning muhum hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtayi nazarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Shuning uchun ham musiqiy ta'lim muassalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarni o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning musiqiy ta'limda qo'llanilishiga oid bilmlar, tajribalar o'quvchilarni bilmli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Ayniqsa 5-7 sinf o'quvchilari bilan dars o'tish davrida bolalarni ovoz apparatini to'g'ri tahlil etib olib borilishi talab etiladi.

Insonning ovoz apparati o'ziga xos murakkab "musiqa asbobi" bo'lib, u o'zining rang-barang tembr boyligi, nihoyatda nozik musiqa ifodalash hususiyatlariga egaligi bilan hamma musiqa asboblaridan ustun turadi. Chunki kishi ovozi kuy va sozni o'rganish payvandlash natijasida musiqiy nutqning asl ma'nosini ochib beradi. Bu borada inson ovoziga teng keladigan birorta ham musiqa asbobi yo'q. Shuning uchun ham inson ovozi ko'pincha "gapiruvchi musiqa asbobi" deb ham yuritiladi.

Bolalar ovozi va ularning tavsifi. Bolalar ovozi diskant (saprano) va altga bo'linadi. Diskant (saprano)-bolalarning yuqori ovozi bo'lib, uning qamrovi birinchi oktava "do" dan, ikkinchi oktava "fa-sol" gacha (ba'zida undan ham yuqori) ko'tariladi. Diskant yengil, o'zgaruvchan, yumshoq (bosh registrda) yangraydigan ovoz bo'lgani uchun har hil

kuy va ohanglarni juda ta’sirchan ijro eta oladi.

Alt-bolalarning pastki ovozi. U kuchli va birmuncha yo‘g‘on jarangdor tembrli bo‘lishi bilan birga, ba’zi hollarda mayin harakterga ega ham bo‘ladi. alt tovushining diapazoni kichik oktava “sol-lya” dan II oktava “re-me” (ba’zida-“fa”) gacha bo‘ladi. Shunga e’tibor berish kerakki, alt ovozining juda ham yuqori pardalari qo‘llanilsa, bolalar zo‘riqib kuylaydi, shuningdek, juda past pardalar ishlatilsa, ovoz kuchsiz bo‘lib chiqadi. Shuning uchun juda yuqori tessiturada yozilgan asarlar bolalar xoriga tavsiya etilmaydi. Bunday paytda asarni bolalar xorining diapazoniga qarab qayta moslashtirish maqadga muvofiqdir. Alt ovozi diskantlarga nisbatan sustroq bo‘ladi. Ko‘p hollarda bu ovozga ikkinchi tovush topshirilishiga qaramay, u ba’zida asosiy kuyni ham olib boradi, unda bu ovozning ijrosi juda ravon va ifodali jaranglaydi.

Xor ikki asosiy turga bo‘linadi:

Yaxlit (bir jinsli) va aralash xorlar;

Yaxlit bir jinsli xorlarga: bolalar xori, ayollar xori, erkaklar xori kiradi.

Aralash xorlar esa turli ovozlardan (ayollar va erkaklar) tashkil topadi. Bir jinsli va aralash xorlar ko‘rinish jihatidan bir, ikki uch, to‘rt va undan ko‘p ovozli bo‘lishi mumkin.

Bolalar xori boshlang‘ich va o‘rta sinf (qizil va o‘g‘il) o‘quvchilaridan tashkil qilinadi. Uning tarkibida, asosan, diskant va alt ovozlari mavjud. Har qanday xor ma’lum ovoz guruhlaridan tashkil topgan bo‘ladi.

Bu guruhlar esa partiyalar deyiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, xor partiyalari xonandalar ovozining ohangdorlik (tembriga) harakteriga va diapazoniga qarab tuziladi. Bolalar xori asosan, ikki ovoz partiyasidan tashkil topadi. Birinchi diskant-yuqori ovoz, ikkinchi alt-pastki ovoz hisoblanadi. Bolalar xori, asosan, ikki ovoz partiturasidan tashkil topadi. Birinchi diskant-yuqori ovoz, ikkinchi alt-pastki ovoz hisoblanadi. Bolalar xori ham quyidagi ko‘rinishlarda bo‘ladi: bir ovozli bolalar xorida diskant va alt unisonda kuylanadi;

Ikki ovozli bolalar xori-diskant va alt ovoz partituralaridan iborat;

Uch ovozli bolalar xorida ovoz partituralaridan bittasining ikki ovozga bo‘linishi (“divisi”)-“divizi”.

I diskant yoki I alt

+alt+diskant;

II diskant II alt

To‘rt ovozli bolalar xori-har ikkala partituraning ikkitadan ovozga bo‘linishi

I diskant I alt + II diskant II alt

Bolalar xorning umumiy va ishchi diapazoni qo‘yidagicha bo‘ladi.

Ovoz diapazoning ko‘proq ishlatiladigan qismiga ishchi diapazoni deyiladi. Ishchi diapason umumiy diapazondan qisqaroq bo‘ladi.

Badiiy ifoda asarning g‘oyaviy mazmunini ochish shakli hisoblanadi. Agar xor yaxshi talaffuz (intonatsiya) va sozga, ansamblga va so‘z talaffuziga, vocal-xor texnikasiga ega bo‘lsa-yu, uning ijrosi badiiy ifodaga ega bo‘lmasa, unda asarning g‘oyaviy-badiiy mazmuni tinglovchilarga yetib bormaydi.

Demak, xorda olib boriladigan barcha ishlar badiiy-ifodali ijro bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi zarur. Ze’ro, ifodali ijro asarining asosiy mohiyatini ochib beradi.

Ijroda badiiy ifoda tinglovchilar qalbini hayajonga soladi, quvonchga to‘ldiradi, ma’naviy oziq beradi hamda asar muammolarini tasavvur etishga ko‘maklashadi.

3.Tessitura – italyanch so‘z bo‘lib, kuy-tovushlarning yuqori yoki past holatda ekanligini bildiradi. Tessitura baland, o‘rta va past bo‘ladi va shunga qarab, tessitura qulay va noqulay deyiladi.

Xor jamoasi esa dinamik, ritmik, temp, jumlalash (frazalash) kabi har hil badiiy-ifoda vositalariga ega bo‘lishi kerak.

Musiqa asari qism va davralarga bo‘linadi.Asarning ma’lum bir qismidagi musiqaviy fikr davrini tashkil qiladi. Davr esa gaplarga, gaplar jumlalarga, jumlalar ohanglarga bo‘linadi. Ana shu (ohang, jumla, gap, davr) musiqa bo‘laklarini yaxlit bir fikrga birlashtirib, ma’nosini tushungan holda ijro qilish musiqaviy jumlalash deyiladi.

Musiqaviy jumlalash muhim ifoda vositasidir. Musiqa asarining ijrosida jumlalarni aniq tushungan holda ifodali ijro etish katta ahamiyatga ega.

O‘qituvchi xor jamoasiga asarning musiqaviy tilini, ifoda vositalarini va uning mantiqiy rivojlanishini, umuman, asar mazmunini to‘liq tushungan holda ijro etishni o‘rgatish zarur.

Musiqa jumlalarini ravon ijro qilish, so‘zdagi asosiy fikrni yaqqol ko‘rsatish va kulminatsiyasini (avjini) aniq kuylash-to‘g‘ri va ifodali jumlalash hisoblanadi.

Xor jamoasi yaxshi vokal texnikaga ega bo‘lmasa, u xorning ijrosida na uyg‘unlik, va tiniq ovoz talaffuz va badiiy ifoda bo‘ladi. Shuning uchun xorda har doim vokal-xor texnikasini rivojlantirish va ularni takomillashtirib borish zarur. Chunki xorda yaxshi ansamblga so‘zga, dinamik mustahkamlikka, diksiya va tembr bo‘yoqlariga erishishda vokal “fundamental” mustahkam bo‘lishi kerak. Qo‘shiq aytish ko‘rsatmasi. Qo‘shiq aytishdan oldin o‘quvchilar unga tayyor bo‘lishlari, ma’lum holatni egallashlari zarur. Bu holat ikki xil bo‘ladi: turib kuylash va o‘tirib kuylash holati.

Turib kuylaganda gavdani va boshni to‘g‘ri, erkin tutish, oyoqlarni yerga bir xil kuch bilan bosish, ko‘krak qafasini salgina ko‘tarish va oldinga chiqarish, kiftlarini to‘g‘ri tutish va ularni sezilarsiz orqaga tortilgan bo‘lishi, qo‘llar pastga tushurilgan bo‘lishi kerak.

O‘tirib kuylash xolatida bosh va gavda to‘g‘ri va erkin tutilishi, oyoqlarni yerga to‘g‘ri burchak qilib bosish, qo‘llarni esa tizzalarga erkin qo‘yish lozim. Agar gavda, bel egilgan holatda bo‘lsa, ovoz kuchsiz, yoqimsiz chiqadi. Shuning uchun bo‘yini, boshni bemalol tutish kerak. Xalqum va pastki jag‘ tomoqni siqmasligi, bosh (shuningdek, til, og‘iz, yuz) erkin tutilishi kerak. Shuningdek, yuzda zo‘riqish alomatlari sezilmasligi lozim.

Umuman, xorning turib kuylash eng qulay holat hisoblanadi. Xorda o‘quvchilarning to‘g‘ri kuylash, o‘tirish holatini o‘qituvchi doimo nazorat qilib turishi kerak.

Nafas ma’lumki, kishi nafas organlari orqali nafas oladi, ovoz apparati yordamida ovoz chiqaradi, artikulyasiya apparati orqali gapiradi va kuylaydi. Demak, vokal-xor ijrochiligining asosini nafas tashkil qiladi.Shuning uchun to‘g‘ri nafas olish vokal-xor texnikasining eng muhim elementlaridan hisoblanadi. U ovoz shakllanishi jarayonida fundament vazifasini o‘taydi. Kuylaganda nafas olish oddiy nafas olishda farq qiladi. Kuylaganda nafas tez olinib, sekin chiqariladi. Nafas olish uch turga bo‘linadi:

Yuqori ko‘krak, nafas ko‘krakning yuqori qismiga olinib, kiftlar ko‘tariladi. Nafasning bu turi zararlidir. Vocal-xor ijrochiligida bu nafas turi qo‘llanilmaydi.

Ko‘krak-qorin (O‘rta qovurg‘a-biqin).

Aralash (pastki qovurg‘a-diafragma yoki kosto-abdaminal).

Xorda nafas pastki qovurg‘a-diafragma usulida. Bu usul o‘quvchilarga (havaskorlik xorlarida) oldin tushuntirilib, keyin ko‘rsatib berilishi kerak.

Nafas asarning tempiga, jumlalarning katta-kichikligiga qarab bir maromda, tez, yengil, tekis, chuqur olinadi. Demak, nafas olishda gavda, bo‘yinning to‘g‘ri, erkin holatda bo‘lishiga, kiftlarning ko‘tarilmasligiga va nafasning diafragma olinishiga erishish zarur.

Tovush hosil qilish. Tovush-ovoz apparatining “mahsuli”dir. Tovush hosil qilishni fonatsiua (grekcha “fofno”-“tovush” ham deb yuritiladi.

Qo‘shiq aytishga monand tovush ovoz pardalarining tebranish hamda rezanatorlar tovushni kuchlantirishi natijasida paydo bo‘ladi. Demak, hosil bo‘lgan tovushni rezanatorlar kuchlantiradi va har hil tembr bo‘yoqlari beradi. Rezanator o‘zi nima?

Rezanatorlar ikki hil bo‘ladi: yuqori va pastki.

Yuqori-bosh rezanatorga ovoz pardalarining tepasida joylashgan-hiqqildoq, burun va og‘iz bo‘shliqlari kiradi.

Rezanatorlar tovush hosil qilish vaqtida o‘z shaklini, hajmini artikulyasiya apparati orqali o‘zgartirib turadilar.

Diapazonning yuqori regestr tovushlari-bosh rezanator, pastki registr tovushlar - ko‘krak rezanatori deyiladi.

Tovushning baland yoki past bo‘lishi ovoz pardalarining uzun yoki qisqaligiga, tarangligiga va havo yo‘lining bosimiga bog‘liq. Shuningdek, nafas olish organlarining past yoki yuqori joylashishiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Nafas olish tugab, tovushning boshlanishi ataka deyiladi. Ataka italyancha “attasare”-hujum qilmoq, degan ma’noni bildiradi. Ataka so‘zi vokal-xor, shuningdek, boshqa musiqa janrlarida qo‘llaniladi.

Vokal-xor ijrochiligida yumshoq, qattiq va nafas olinganidan so‘ng ataka turlari bo‘ladi. Tovush yumshoq mayin boshlanishi yumshoq ataka deyiladi. Yumshoq ataka ovoz pardalari nafas chiqa boshlashi bilan kuchsiz jipslashadi.

Tovushning qattiq qo‘qqisdan paydo bo‘lishi (chiqishi) qattiq ataka deyiladi. Qattiq atakada ovoz pardalari nafas chiqishidan oldin qattiq jipslashadi.

Diksiya, xor san’ati-musiqa va adabiyot poetik ijodiyotini organic birlashtiruvchi san’atdir. Diksiya lotincha “distio”– nutq, aniq so‘z talaffuzi ma’nosini bildiradi. Anniq talaffuz texnikasiga ega bo‘lish xor ijrochiligining zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Zero, diksiya so‘z talaffuzi ekan, u ijrodagi badiiy ifoda hamdir.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarimizni umumlashtirib biz shu fikrga keldikki har bir fanning hususiyatidan kelib chiqib fanlararo integratsiya jarayonida optimallashtirish uchun ilg‘or tajribalarni o‘rganib musiqiy ta’limga joriy etilgan tadbiq etish masalasi o‘ta dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibraimov X.I. Quronov. M Umumiy pedagogika (darslik). – T., “Shaffof”, 2023, 416-b.

2. Ibragimov X. I. ПЕДАГОГИКА И ВОСПИТАНИЕ //Экономика и сотсиум – 2021. – №. 1-1 (80). – S. 608-611.

3. Ibragimov Holboy. “Intensive methods of teaching foreign languages at university.” Вопросы науки и образования 27 (39) (2018): 78-80.

4. Ataullaev F.F.U., Ibragimov X.I. Понятие профессионально-коммуникативной компетентности будущих учителей в психолого-педагогических исследованиях // Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 1 (42). – С. 70-74.

5. Ibragimov X.I. Педагогические психологические особенности обучения взрослых //Аадемй. – 2019. – №. 10 (49). – С. 39-41.

6. Ibragimov X.I. Организатсия самостоятелной работы студентов в условиях сифровизатсии вузовского образования //Наука и образование сегодня. – 2020. – №. 7 (54). – С. 74-75.

7. Ibragimov X.I., Yo‘ldoshev U.A. Bobomirzayev X. “Pedagogik psixologiya.” O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiriyoti Toshkent (2009).

G.TILAVOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR NUTQINI O'STIRISH ORQALI FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim o'zluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich turi hisoblanishi shuningdek, ta'lim tarbiya bilan birgalikda nutq o'stirishni rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar. Ta'lim, maktabgacha ta'lim, nutq, tashkilotlar, bolalar, tarbiya, so'z boyligi.

В статье дошкольное образование как начальный вид системы непрерывного образования также рассматривается развитие речевого развития в сочетании с воспитанием.

Ключевые слова. Образование, Дошкольное образование, речь, организации, Дети, воспитание, словарный запас.

The article reflects on the fact that preschool education is considered the initial type of an inalienable education system, as well as the development of speech cultivation in conjunction with educational education.

Key words. Education, preschool, speech, organizations, children, upbringing, vocabulary.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri – yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz". Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan har bir jabhada innovatsion yondashishning talab qilinishi zamirida kelajak avlodni barkamol qilib tarbiyalash masalasi yotganligini anglash vaqti yetib keldi deb aytishi ham bejiz emas albatta. Shunday ekan, bugungi kunda Maktabgacha ta'lim jarayonida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi-pdagog hamda maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham har bir o'tayotgan dars jarayonida innovatsion yondashgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish zamon talabidir.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomda Maktabgacha ta'limga alohida urg'u berilib, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich turi hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'limda uzviylikni ta'minlashda ilk bo'g'in hisoblanadi va ta'lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi – Barkamol yosh avlodni tarbiyalashga va ulardagi dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini yuqori saviyaga ko'tarish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi bolalarga ta'lim-tarbiya birgalikda uzviy holatga amalga oshiriladi "Nutq o'stirish mashg'ulotlari"ni o'tishda bolalarning nutqini o'stirish orqali nafaqat so'z boyligini oshirish, balki uning mustaqil fikrlash qobili-

yatini shakllantirish, fikr mahsulini boyitish maqsadga muvofiq sanaladi.

Bolaning nutq tafakkurini rivojlantirish orqali dunyoqarashni ham bir ko‘lamda yangi va muloqatdan chetlashgan lug‘atlar asosida boyitib borish muhim vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Tarbiyalanuvchi bolalar maktabga yani 1-sinfga qadam qo‘yguniga qadar Maktabgacha ta’limda, oilada tilning grammatik jihatidan tushunchaga ega bo‘lmasligi mumkin biroq muloqot jarayonida so‘zlarning o‘z o‘rnida qo‘llay olish ko‘nikmasiga egadir.

Shunday ekan, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Nutq o‘stirish metodikasi fanining o‘qitilishi asosiy omillardan ekanligi mazkur fan dasturiga amal qilgan holda mashg‘ulotlarni tashkil qilishda guruh-guruh bo‘lib ishlash bugungi kunda o‘z samarasini berib kelmoqda.

Maktabgacha ta’limda bola sog‘lom, har tomonlama shakllanib kamol topishida og‘zaki nutq bevosita rivojlanib boradi.

Shu o‘rinda maktabgacha ta’limni rivojlantirish uchun quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi:

– malakali, tajribali tarbiyachi va pedagog kadrlarni tayyorlash;

– maktabgacha ta’limda yetuk psixologik-pedagogiklarning uslublarini joriy etish;

– dastur asosida o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, texnik vositalar,

bola yoshiga va didiga mos keladigan o‘yinchoqlar bilan ta’minlanishi;

– mashg‘ulotlarni tashkil qilishda aynan innovatsion texnologiyalardan ya’ni kichik guruhlarda ishlashni yo‘lga qo‘yish;

– maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida guruhlarda har bir o‘tiladigan mashg‘ulotlarda ta’limiy o‘yinlarni tashkil etish ham albatta o‘z samarasini beraoladi.

Ta’limiy o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, fikrlar, tushunchalar berib borish va bu o‘yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, nutq madaniyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi.

Ta’limiy o‘yinlarda narsa va buyumlardan keng ko‘lamda foydalaniladi va bolaning kun tartibida ta’limiy o‘yin uchun vaqt ajratilib, havfsiz joy ajratilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Albatta bunday o‘yinlarni tashkil qilish mashg‘ulot jarayonida va mashg‘ulotlardan tashqari vaqtlarda umumiy va guruh.

tartibida o‘tkaziladi. Masalan tarbiyachi faslarga oid mavzularni ishlab chiqib, tevarak-atrofdagi voqyealar rivoji asosida topshiriqlar beradi.

Ta’limiy o‘yinlarda ularga beriladigan topshiriqlar silsilasi shuni e’tirof etadiki, bolalarning tevarak-atrof haqidagi fikrlar mahsulini boyitish orqali ularda bog‘lanishli nutqni ham rivojlantirishga olib keladi. Bunda asosan tarbiyachi bolalarni mashg‘ulotga yo‘naltirib beradi va o‘yin mazmuni haqida tushunchalar berib va uning natijasi tarbiyachi tomonidan tahlil qilinadi. Albatta har bir o‘tiladigan mashg‘ulotda kichik guruhlar bilan ishlaganda bolajonlarimizni ma’naviy jihatdan rag‘batlantirilishi muhim sanaladi.

Bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilim va ko‘nikmalarini boyitish bilan birga, bog‘lanishli nutqni ham rivojlantirishga hizmat qiladi.

Bolalarning so‘z zahirasi bevosita ko‘rgan-kuzatganlari asosida fikr mahsuli orta boradi. Tevarak-atrofni o‘rganishda (tarbiyachilar yoki ota-onalar tomonidan) bolalar shunchaki kuzatishlari hamda predmetlarni, hodisalarni idrok etish bilan birgalikda ular to‘g‘risida bevosita mulohaza yurita olishlari lozim.

Bunga erishish uchun tarbiyachi oldiga qiyoslash, taqqoslash, ajratish, umumlash-

tirish, tahlil qilish va boshqa shu kabi usullardan foydalanish vazifasi qo‘yiladi. Bundan tashqari, o‘rganish jarayonida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni mehnatning ular uchun qulay bo‘lgan turlari (daraxtlar tagini yumshatish, gullarni begona o‘tdan tozalash va parvarish qilish)ga jalb qilish va bundan ko‘rinadiki , inson biron narsani o‘z qo‘li bilan bajarsa, uni esda saqlab qoladi.

Bolalar nutqini rivojlantirish uchun ma’lum bir tizimda ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar bilan yoz, kuz, qish, bahor oylarida tarbiyachi sayohatlar uyushtiradi va shu o‘rindi bolalarning javob berishini talab qilmasdan, ularni savol berishga ham o‘rgatishi zarur. Chunki bolajonlarimiz bu jarayonda ko‘p narsani biladi va bilgisi ham keladi.

Sayr jarayonida bolalar bilan birgalikda didaktik o‘yinlarni tashkil qilish va ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltiriladi, fikrlash qobiliyati shakllanadi.

Masalan, tarbiyachi tomonidan “Qaysi fasl qanday o‘tadi?” degan savoliga bolalar:

– Qish sovuq, qor yog‘adi, qorda mazza qilib chana uchamiz, qorburon o‘ynaymiz, mazza qilib yaxmalakda uchadi va hakozalar.

– Yoz issiq, mevalar g‘arq pishadi, quyosh charaqlab o‘z nurini sochada,bolalar lagerga boradi.

– Kuz salqin, qovun-tarvuzlar pishadi, yomg‘ir yog‘adi, Qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketadi. Kuzda daraxtlarning barglari sarg‘ayadi.

– Bahor iliq, yomg‘ir yog‘adi, tog‘yon bag‘irlarida ko‘m-ko‘k maysalar unib chiqadi lola qizg‘aldoqlar ochiladi, issiq o‘lkalarga ketgan qushlar qaytib keladilar.

Sayohatdagi uyushtirilgan suhbat maqsad, bir tomondan, bolalarni tevarak-atrof, o‘simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishtirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularda mavsumiy o‘zgarishlarning yuz berishi bilan bog‘liq nutqini shakllantirish hamdir.

Sayohat davomida tarbiyachi bolalarga tevarak-atrof va daraxtlardagi o‘zgarishni kuzatish vazifasini topshiradi. Buning uchun quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

– Bahorda va yozda (kuz faslida) daraxtlarning bargi qanday rangda edi?

– Hozir daraxtlarning bargi qanday tus olibdi?

– O‘t-o‘lanlarning rangi-chi?g

– Daraxtlardagi mevalar qaysi faslda pishadi?

– Kuz fasli nimasi bilan go‘zal?

– Qish fasli-chi? va hakozalar.

Bolalar bu savollarga javob berar ekan, olma, nok barglarini solishtiradilar o‘zlarining fikrini namoyon qiladilar. Tarbiyachi qo‘shimcha qilib olma bargi bilan nok barglari bir biriga o‘hshash faqat nok bargi olma bargiga qaraganda silliqroq ekanligi va mevasi bir biridan farq qilishi va bog‘bon bobomizni qanchalik mashaqqatli mehnati evaziga yetishtirilishi, mevalar pishgach yashiklarga joylab bozorlarga chiqarib el-dasturxoniga tortilishi haqida tushunchalarni beradi.

Bu sayrda bolalar yeb ko‘rgan, ammo daraxtini, unda mevalarning pishib yetilishini ko‘rmagan, endi nok mevasi haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Bahor kelsa, bog‘cha hovlisiga ham nok ko‘chati o‘tqazishga kelishadilar.Sayr oxirida bolalar qizil, sariq, qirmizi barglardan terib har xil gulchambarlar, gerbariylar yasaydilar. Bunday ekskursiyalarni tashkil etishda tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, lug‘at boyligini oshirishga, nutqini boyitishga yordam beradi.

Yuqoridagi amalga oshiriladigan ishlar to‘g‘ri tashkil etilsa demak,mashg‘ulot va mashg‘ulotdan tashqari olib borilayotgan ishlar ya’ni bolalarni tevarak-atrofdagi o‘zgarishlar voqyea va xodisalar o‘z o‘rnida aytadigan bo‘lsak ijobiy samarasini beradi.

Shoira ABDUJALILOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti p.f.n., dotsent

INKLYUZIV TA'LIMNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Annotatsiya

Maqolada inklyuziv ta'limning O'zbekiston tajribasi to'g'risida fikr yuritilgan va muallifning individual yondoshuvlari taqdim etilgan. Asosiy e'tibor mazkur tajribaning eng muhim jihatlari tahliliga qaratilgan.

Tayanch so'zlar. Ta'lim, inklyuziv, O'zbekiston, tajriba, o'qitish, yondoshuv, ko'nikma, malaka.

В статье рассматривается опыт инклюзивного образования в Узбекистане и представлены индивидуальные подходы автора. Основное внимание уделяется анализу наиболее важных аспектов этого опыта.

Ключевые слова. Образование, инклюзивное, Узбекистан, опыт, обучение, подход, навыки, квалификация.

The article examines the experience of inclusive education in Uzbekistan and presents the author's individual approaches. The focus is on analyzing the most important aspects of this experience.

Key words. Education, inclusive, Uzbekistan, experience, training, approach, skills, qualifications.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida mamlakatimizda 2030 yilga qadar sifatli ta'lim ko'rsatgichlariga erishish qo'yilgan. Mazkur vazifalarning ijrosi jarayonida ta'lim turlarining barchasidan foydalanish taqozo etiladi. Shu jihatdan O'zbekistondan inklyuziv ta'limni amalga oshirish bo'yicha muayyan tajribalar mavjud. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu masalaning asosiy jihatlari tahliliga tortamiz.

1. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning me'yoriy asoslari. Mamlakatimizda inklyuziv ta'limning me'yoriy asoslari Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barcha uchun ta'lim" konvensiyasi va YUNESKOning "Hayot davomida ta'lim" dasturlariga asosan ishlab chiqilgan. Shu jihatdan O'zbekistonda inklyuziv ta'limning eng muhim me'yoriy asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

1) Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi va O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida", "Pedagog maqomi to'g'risida" hamda O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida", "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunlari;

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13 oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, "2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi", 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi";

3) inklyuziv ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standartlari, davlat talablari, o'quv reja va dasturlari.

Bu me'yoriy asoslar O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha milliy taj-

ribani tarkib toptirish imkonini berdi. Shu sababli mamlakatimizda inklyuziv ta'lim bo'yicha o'ziga xos tajribaviy yondoshuv idrok etiladi.

2. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning asosiy shakllari. Mamlakatimizda 2020-2021-o'quv yilidan boshlab inklyuziv ta'limni tashkil qilishning bir necha shakllari amaliyotga joriy etila boshladi. Buning natijasida bugungi kunda mamlakatimizda inklyuziv ta'limning quyidagi asosiy shakllari faoliyat yuritmoqda:

– umumiy o'rta ta'lim maktablari sinflarida inklyuziv sinflar faoliyati;

– ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyati;

– oliy pedagogik ta'lim muassasalaridagi inklyuziv ta'lim faoliyati.

Bu asosiy shakllar O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tashkil qilishning milliy tajribasini belgilaydi. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablari sinflarida tashkil qilingan inklyuziv sinflar sog'lom o'quvchilar va inklyuziv ta'lim oluvchi o'quvchilarning birgalikda ta'lim olishini ta'minlamoqda. Natijada inklyuziv ta'lim oluvchilar sog'lom tengdoshlari qatorida o'zlarini to'laqonli shaxs sifatida idrok qilmoqda. Bunday sinflarda 2-3 nafar inklyuziv ta'lim oluvchi o'quvchilar o'qimoqda va bu sinflarda asosan defektolog, logoped, pedagoglar faoliyat yuritmoqda.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida asosan aqliy va ruhiy imkoniyati cheklangan o'quvchilarga inklyuziv ta'lim berilmoqda. Bunda defektolog, logoped, olegofrenopedagog kabi mutaxassis pedagoglar ta'lim va tarbiya jaryonini amalga oshirmoqda. Ushbu ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim oluvchilar imkoniyatlari doirasida kasb va hunarga yo'naltirilmoqda.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida "Maxsus pedagogika" fani vositasida bo'lajak o'qituvchilar inklyuziv ta'lim va tarbiya metodikasi bilan qurollantirilmoqda. Bunda mazkur o'quv fanining barcha sohalari bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash masalasi idrok etilmoqda.

E'tibor berilsa, O'zbekistonda inklyuziv ta'limning bunday shakllari milliy mentalitet, milliy qadriyatlar va umuminsoniy yondoshuvlar asosida tashkil qilingan. Shu sababli "Umumiy ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ga asosan mamlakatimizda nogiron bolalarning tug'ilishini oldini olish maqsadida ayollarning xomiladorlik davri davlat nazoratiga olingan va bu bilan inklyuziv ta'limga muhtoj qatlamning tarkibi kamayib borishiga erishilayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

3. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning istiqbolli yo'nalishlari. Mamlakatimizda inklyuziv ta'limning aniq istiqbolli yo'nalishlari mavjud. Bunday istiqbolli yo'nalishlarning asosiylarini quyidagilar tashkil qiladi:

– inklyuziv ta'lim bo'yicha oliy ma'lumotli pedagoglarni tayyorlash istiqbolli yo'nalishi;

– klaster inklyuziv ta'lim istiqbolli yo'nalishi;

– qo'shma inklyuziv ta'lim istiqbolli yo'nalishi.

Mazkur asosiy yo'nalishlar bo'yicha tashkiliy ishlarni yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib turibdi. Shu jihatdan inklyuziv ta'lim turlari bo'yicha pedagog, psixolog va sotsiolog o'qituvchilarni tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chirchiq davlat pdagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan klaster tizimi asosida inklyuziv ta'limni tashkil etish muhim istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Bunda oliy pedagogik ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari, maktab o'qituvchilari, psixologlar va shifokorlar hamkorlikda inklyuziv ta'limni intensiv ravishda amalga oshiradi.

Inklyuziv ta'limning yana bir istiqbolli yo'nalishlaridan biri qo'shma ta'limdir. Unda xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda inklyuziv ta'lim bo'yicha pedagog kadrlar

tayyorlash, mazkur ta’lim bo‘yicha yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish va inklyuziv ta’lim oluvchilarni ijtimoiylashtirish markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi.

Diqqat qilinsa, mamlakatimizda inklyuziv ta’limni kuchaytirishning o‘ziga xos istiqbolli yo‘nalishlari mavjud. Bu masalalar ta’lim sohasi vakillari tomonidan idrok etilishi kerak.

Shunday qilib O‘zbekistonda o‘ziga xos inklyuziv ta’lim tajribasi mavjud. Bu tajribaga asosan inklyuziv ta’limni jamiyat ehtiyojlari va xalqaro ta’lim qoidalariga mos ravishda rivojlantirish mumkin.

Foydalanigan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasiyu.// www.ziyonet.uz.
2. Qonun hujjatlari to‘plami. № 6.// www.Lex.uz.
3. Abdujalilova Sh.A. Maxsus pedagogika.Darslik.- Chirchiq, 2023.

Z.X XUSNUDDINOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Maxsus pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

KO'RISHDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARDA NUTQ KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan tizimli logopedik yordamni tashkil etish orqali ularni umumta'lim fanlarni egallashlariga moslashtirish haqida berilgan. Shuningdek, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarini, bog'langan nutqni, lug'at boyligini korreksiyalash va ijtimoiy hayotga moslashtirish va integrativ texnoligiyalardan kompleks foydalanish orqali samarali natijaga erishish haqida so'z yuritilgan.

Tayanch so'zlar. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola, korreksiya, korreksion mashg'ulot, texnologiya.

В статье рассказывается о адаптации детей с нарушениями зрения к овладению общеобразовательными предметами путем организации системной логопедической помощи. Также речь шла о коррекции дефектов произношения звуков, связной речи, словарного запаса и адаптации к социальной жизни и достижении эффективного результата за счет комплексного использования интегративных технологий.

Ключевое слово. Ребенок с нарушениями зрения, коррекция, коррекционное обучение, технология.

The article is about adapting children with visual impairments to master general education by organizing systematic logopedic care.It was also made about correcting the shortcomings of sound pronunciation, bound speech, vocabulary wealth and achieving an effective result through the adaptation to social life and the complex use of integrative technologies.

Key words. Visually impaired child, correction, remedial education, technology.

So'nggi yillarda mamlakatimizda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, xususan ko'zi ojiz va ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur yo'nalishdagi islohotlarning izchilligi va tizimliligini ta'minlash, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, ularning jamiyatga moslashuviga ko'maklashish hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlar yangi bosqichga olib chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-apreldagi PQ-209-son Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi qarori asosida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning huquqlarini har tomonlama himoyalash va ularning bilimini rivojlantiruvchi asosiy omil hisoblanadigan ta’lim olish huquqini sifatli ta’minlash eng muhim majburiyatga aylanishi belgilab berilgan. Shu borada ijtimoiy himoyaga muhtoj o‘quvchilar uchun sifatli ta’lim berish bo‘yicha amaliy ishlar tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan.

Bugungi kunda uzluksiz ta’limning har bir bo‘g‘inida ta’lim oluvchilarning akademik faoliyati hamda ijtimoiy rivojlanishini barqaror ta’minlashga e’tibor kuchaytirilgan. Ta’lim oluvchilar orasida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar borki, ular ham sifatli ta’lim olishga, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishga haqlidirlar. Buning uchun ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida umumta’lim fanlarini o‘qitish hamda korreksion mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayononi ijtimoiy buyurtmalar asosida hamda zamonaviy yondashuvlarga tayangan holda tashkil etilishi lozim.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, korreksion mashg‘ulotlarning o‘zaro bog‘liqligi, bir-birini to‘ldirishi hamda bu mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malakalar ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga boshqa umumta’lim fanlarini o‘zlashtirishda asosligi aniqlandi. Masalan, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan tizimli logopedik yordamni tashkil etish orqali ularni umumta’lim fanlarni egallashlariga moslashtirish, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarini, bog‘langan nutqni, lug‘at boyligini korreksiyalash va ijtimoiy hayotga moslashtiriladi. Shu bilan birga ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga nutq nuqsonlarini bartaraf etish (logopediya) korreksion mashg‘uloti yordamida hissiy yetishmovchilikni to‘ldirishga, bolalarning bilim faolligini oshirishga va shaxsiyat xususiyatlarini shakllantiriladi.

M.Zemsova, N.Kostyucheklarning aniqlanishicha, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqining shakllanishi me’yorda ko‘radigan tengdoshlari kabi amalga oshishi, biroq ko‘rish idrokining yo‘qligi yoki uning pasayishi uchta yetakchi eshitish, kinestetik va ko‘rish analizatorning o‘zaro bog‘liq faoliyatini o‘zgartirishga olib kelishi qayd etilgan.

L.Volkova o‘z tadqiqot ishida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan maktabga tayyorlov guruhi va kichik maktab yoshidagi bolalar nutq kamchiliklarini korreksiyalash ishlarining yetakchi tamoyillar, kompleks va har tomonlama yondashish asosida amalga oshirishning zarurati ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu tadqiqot natijasida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning taxminan 13,4 foizida talaffuz qilishning, 84,6 foizida nutqning tizimli buzilishi holatlari kuzatilishini aniqlagan. Olima nutq kamchiliklarining bartaraf qilinishi umumiy motorika va artikulyatsiya a’zolarining harakatchanligini rivojlantirish hamda fazoda mo‘ljal olish reaksiyalarini takomillashtirish bilan birga olib borish lozimligini ta’kidlaydi.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqiy faoliyati bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, hozirgi kunga qadar ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutq faoliyati rivojlanishining ortda qolishi, kamchiliklarning sabablari, omillari aniqlangan, lekin ularni bartaraf etishning integrativ texnologiyalari ishlab chiqish masalalariga kam e’tibor qaratilgan.

Logopedik texnologiya – bu maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishni kafolatlaydigan pedagogik harakatlarning ilmiy dizayni va aniq takrorlanishi. Logoped amaliyotida turli xil pedagogik texnologiyalar mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishda asosiy va yordamchi deb ajratish mumkin.

Asosiy texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

logopedik tekshiruv;

tovushlar talaffuzi va ovozni korreksiyalash;

nutqiy nafasni shakllantirish;

prosodik tarkibiy qismlarning rivojlanishi, leksik va grammatik tomoni, nutqning iz-

chilligi rivojlantirish.

Ikkinchi darajali yoki yordamchi texnologiyalar boshqa kasalliklar va og‘ishlar fonida yuzaga kelgan nutq buzilishlarini yengishga yordam beradigan texnologiyalarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

kinestizioterapiya;

sensor-integrativ terapiya;

Sud-Jok terapiyasi;

musiqa terapiya;

aromaterapiya;

ertak terapiya;

qum terapiyasi va boshqalar.

Logopopedik korreksion mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish va muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun mutaxassis barcha an’anaviy logopedik texnologiyalarni, shuningdek ularga kiritilgan usullarni o‘zlashtirishi kerak: artikulyatsion gimnastik mashqlar, tovushlarning to‘g‘ri profili haqidagi bilimlar, to‘g‘ri nutqiy nafas mashqlari, barmoq mashqlari, logopedik massaj, logopedik ritmika, multimedia texnologiyalari, mnemonika, o‘yin terapiyasi. Noan’anaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish logopedning imkoniyatlarini kengaytiradi, unga og‘ir nutq nuqsonli bolalarga individual yondashuvni topishga yordam beradi. Quyida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutq kamchiliklarini bartaraf etishning integrativ texnologiyalaridan namunalar keltiramiz.

To‘g‘ri nutqiy nafasni rivojlantirish

Bolalarga to‘g‘ri nutqiy nafas olishni o‘rgatish o‘yin shaklida maxsus mashqlar yordamida amalga oshiriladi. Shuni yodda tutish kerakki, har qanday mashq bolani individual xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. O‘yinlar vaqtida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bola topshiriqlarni yaxshi va to‘g‘ri eshitayotganini nazorat qiling.

Gulni hidlang

Ushbu mashq uchun: gul, daraxt bargi, archa novdasi, olma, shirinlik kerak bo‘ladi. Bolaga gul (daraxt bargi, archa novdasi, olma, shirinlik)ni hidlash tavsiya etiladi

1. Burun orqali chuqur nafas oling, burundan nafas chiqaring.

2. Burun orqali chuqur nafas oling, og‘izdan nafas chiqaring.

3. Burun orqali chuqur nafas oling, og‘izdan nafas chiqarishda “A” tovushini pichirlab talaffuz qiling AAAA .

Sovuqda isinib ol

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolaga qo‘l kaftlarini birlashtirishi va sovuqda qanday harakat qilishga imitatsiya qilinadi.

Mashq o‘rgatilgach burun orqali nafas olinib, qo‘l kaftlariga puflanadi. “Sovuq”da qolgan qo‘llar go‘yo isitayotgandek, og‘iz orqali silliq nafas chiqariladi.

Yuz mushaklarini rivojlantirish

Qoshlaringni ko‘tar, avval alohida-alohida, so‘ng chap va o‘ng, keyin esa, ikkalasini ham bir vaqtning o‘zida ko‘tarish taklif etiladi. Logoped barmoqlar bilan bolaning qoshlarini ko‘tarishga yordamlashadi. Mashq bir necha marotaba takrorlanadi.

O‘ng ko‘zingni yum, chap ko‘zingni yum, ikkisini ham bir vaqtning o‘zida yum.

Burunni, peshonani burishtir.

Til mushaklarini rivojlantirish uchun passiv mashqlar:

1. Tilni og‘iz bo‘shlig‘idan oldinga chiqaz

2. Tilni og‘iz bo‘shlig‘ining ichiga tort

3. Tilingni pastga tushir (pastki lab ustiga)

4. Tilingni yuqoriga ko‘tar (yuqori lab ustiga)
5. Tilni labning chap va o‘ng burchaklariga tekkaz
6. Tilning uchini og‘iz bo‘shlig‘ining pastki qismiga bos
7. Til uchini qattiq tanglayga ko‘tar.

Lab mushaklarini rivojlantirish uchun passiv mashqlar:

1. Yuqori labingni ko‘rsatkich barmoqlaring bilan bos
2. Pastki labingni ko‘rsatkich barmoqlaring bilan bos
3. Lablaringni ko‘rsatkich hamda bosh barmoqlar bilan siq ikki o‘ng va chap tomonga galma – gal tort.
4. Lablaringni ko‘rsatkich hamda bosh barmoqlar bilan cho‘chaytir
5. Lablaringni ko‘rsatkich hamda bosh barmoqlar bilan kulgu holatiga olib kel.

Qo‘l kaft mushaklarini rivojlantirish uchun mashqlar:

Tipratikon

Soch uchun massaj tarog‘i, yoki maxsus ignachali gilamchalari ustida barmoq uchlari harakatlantiriladi. Mashg‘ulot davomida ignachali gilamchalari ustida kaft bilan harakatlantiriladi.

Xamir qoramiz

Bolaga xamir haqida tushuntirilib, uni qanday qorilishi, mushtlanishi tushuntiriladi hamda imitatsiya qilinadi.

Biz xamirni qorishtirdik,

Mushtlab mushtlab pishitdik.

Eshitish idrokini rivojlantirish uchun mashqlar:

Tingla va takrorla

Bolaning qarshisidagi stolga o‘tiring. Ayting: “Meni diqqat bilan tingla!” va stolga ikki marta uring. Har bir zarbadan keyin qisqa tanaffus qiling. Bolaga ham takrorlashni taklif qiling. Agar u tez-tez urishga harakat qilsa, “yo‘q” deb ayting. Bola to to‘g‘ri bajargunga qadar takrorlatiladi.

Yuqorida berilgan mashqlar o‘zaro bog‘liq, bir-birini to‘ldiradi. Bu mashqlar kompleks ravishda olib borilsa, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalardagi nutq nuqsonlarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 12.10.2021-yildagi 638-son.
2. Qodirova F.U va Xusnuddiniva Z.X “Tiflopedagogika” Chirchiq 2023
3. Ермаков В.П. “Основы тифлопедагогики” (развитие, обучение и воспитание детей с нарушениями зрения) учебное пособие для вузов. Владос -2000.
4. Костючек Н.С., Денискина В.З. “Особенности проведения занятий со слепыми детьми в часы коррекции” учебно-методич. пособие под ред. Л.И. Солнцевой. Москва - 1990.
5. Тумаева Ю.В. “Особенности коррекционно-педагогической работы с детьми с нарушением зрения. Материалы X Международной студенческой научной конференции “Студенческий научный форум 2021”.
6. Xusnuddinova, Z. (2022). Corrective pedagogy for blind children cluster mechanisms to increase work efficiency. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(2), 68-70.

Muborakxon DEHQANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Maxsus pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA DAKTILEMALI METODIKALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun samarali yo‘llarni va metodikalarni tushuntirish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan. Shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj o‘quvchilar uchun sifatli ta’lim berish bo‘yicha amaliy ishlar haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar. Daktilema, surdopedagog, surdotarjimon,chaynvord so‘zlashuv nutqi, talafuz mashqlari.

В статье представлена информация, объясняющая эффективные способы и методики обучения детей с нарушениями слуха. Также будет рассмотрена практическая работа по обеспечению качественного образования учащихся, нуждающихся в социальной защите.

К**лючевые слова.** Дактилема, сурдопедагог,сурдопереводчик, чейнворд разговорная речь, упражнения на произношение .

The article provides information on explaining effective pathways and methodologies for educating children with hearing impairments. There is also a reflection on practical work to provide quality education for students in need of social protection.

Key words. Dactylem, surdopedagog,surdotarjimon, chainvord colloquial speech, pronunciation exercises.

Mamlakatimizda alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar ta’lim tarbiyasiga juda ko‘p e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 2022-yil 20-oktabrda 407-sonli “O‘zbek imo-ishora tili va brayl alifbosini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning huquqlarini har tomonlama himoyalash va ularning bilimini rivojlantiruvchi asosiy omil hisoblanadigan ta’lim olish huquqini sifatli ta’minlash eng muhim majburiyatga aylanishi belgilab berilgan. Shu borada ijtimoiy himoyaga muhtoj o‘quvchilar uchun sifatli ta’lim berish bo‘yicha amaliy ishlar tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan.

Hozirda Chirchiq davlat pedagogika universitetida Prezident qarorini amaliy ta’minlash maqsadida surdotarjimonlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish va uni kengashtirish uchun keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta’lim tarbiya jarayoni sog‘lom bolalarnikidan tubdan farq qilib, ularda avvalo daktil nutq asosiy nutq shakliga aylanadi.

Daktilologiya (qadimgi yunoncha: δάκτυλος [daktilo] – barmoq va qadimgi yunoncha: λόγος [logiya]) – nutq shakli; o‘ziga xos tarzda qo‘l barmoqlari yordamida gaplashish hisoblanib, muayyan alifbodagi har bir harfni ifodalash uchun barmoqlarga turlicha shakl

beriladi. Daktilologiyada bir yoki ikkala qo‘l barmoqlaridan foydalanish mumkin (asosan o‘ng qo‘l barmoqlaridan foydalaniladi). Daktilologiya kar, kar-soqovlarning oson va tez so‘zlashuviga imkon beradi. Kar va zaif eshituvchilar daktilologiya belgilarini ko‘zi bilan qabul qiladi. Kar bolalar uchun bog‘cha va maktabning boshlang‘ich sinflarida daktilologiyadan asosiy o‘qitish vositasi sifatida, shu maktabning yuqori sinflarida esa undan yordamchi o‘qitish vositasi sifatida foydalaniladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta’lim berishda daktilologiya birdan-bir muomala vositasidir.

Daktilologiya – kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o‘ziga xos shaklidir. U so‘zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma xarakatga ko‘ra yozma nutqqa o‘xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo‘l, barmoq harakatlari hisoblanadi.[1]Daktil nutqi so‘zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko‘ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin.

Bog‘cha davrda kar bola daktilologiyaga savod o‘rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko‘rsatishicha, daktilologiya eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar so‘zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

 A	 B	 D	 E	 F	 G
 H	 I	 J	 K	 L	 M
 N	 O	 P	 Q	 R	 S
 T	 U	 V	 X	 Y	 Z
 O‘	 G‘	 SH	 CH	 NG	


Oliy ta’limda bo‘lajak surdotarjimon, surdopedagoglarni tayyorlashda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun mo‘jallangan metodikalar tanlab olinadi. Bugungi kunda 1 kurs bo‘lgan surdotarjimonlarga amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilinganda avvalo ularning o‘ziga daktilema o‘rgatiladi. Bunda birinchi har bir daktil harf tushuntiriladi. Ushbu

[1] F.U.Qodirova, D.A.Pulatova, M.G‘.Dehqonova, Sh.N.Ibadullayeva “Surdopsixologiya” O’quv qo’llanma, 2023 yil, 124-126 bet


metodikani o‘rgatishda eng samarali usul bu 1+4+5 strategiyasi2 hisoblandi. Bu strategiyaning mohiyati 1 ta so‘z – tushunchaning 4 xil shakli o‘quvchining xotirasida saqlanishiga erishishdi va 5 xil variantda xotirada mustahkamlashga alohida urg‘u berilgan.

So‘z	So‘zni ifodalash	So‘z birikmasi
So‘z	- daktillash:	- so‘z birikmasi
	- talaffuz qilish:	- sodda gap:
	- imo - ishora belgisi:	- savol tuzish va berish:
	- yozish.	- faol lug‘atga kiritish:
		- yodda saqlash.

Mashg‘ulotda qo‘llanuvchi ish turlarini tanlashda talabalarning og‘zaki va yozma muloqotini rivojlantirish ustuvorlik qiladi. Berilayotgan topshiriqlar talabalarni grammatik jihatdan to‘gri qurilmalarda so‘zlashishga tayyorlaydi. Buning uchun pedagog tomonidan har bir dars uchun nutq materiallari aks etgan kartochkalar, plakatlar va turli didaktik vositalarni tayyorlashi va dars jarayonida ulardan samarali foydalanishi alohida talab etiladi. Ma’lumki, kar va zaif eshituvchi bolalar muloqotda og‘zaki, yozma, daktil va imo – ishorali nutq vositalaridan foydalanadilar. Ushbu korreksion mashg‘ulot orqali kar va zaif eshituvchi bolalar o‘z fikrini og‘zaki ravishda tushuntira olmagan vaziyatlarda mustaqil yozma nutq orqali murojaat qilishga o‘rganadilar. Nutqiy muloqot darsida bolalar labdan o‘qishga o‘rganadilar. Tovushlar qo‘yilib, eshitish ustida ishlar tizimli olib borilgandan so‘ng nutqning turli shakllaridan foydalanish bo‘yicha topshiriqlar kiritiladi. Mazkur mashg‘ulotni o‘tkazishdan maqsad o‘quvchini nafaqat chiroyli yozishga, balki o‘z fikrini qisqa va lo‘nda atrofdagilarga tushunarli tarzda bayon etishga o‘rgatadi. Dastlab talabalar savol – javob, nutqiy topshiriqlarni bajaradilar, so‘ngra shu nutqiy materialni mustaqil ravishda yozish ustida mashqlar bajaradilar.



[2] F.U.Qodirova “Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari” p.f.d. (DSc) dissertatsiyasi 2020, Toshkent 190 bet.



Daktilemani va uni ifodalashni o‘rgatgandan so‘ng daktilema qatnashgan turli metodikalar o‘rgatiladi.

Hozirda daktillemani o‘qish tezligini oshirish uchun biz ta’limda chaynvordlardan foydalanish mumkin. Ushbu chaynvorddagi yashiringan so‘zlarni topish uchun tezlik asosiy o‘rinni egalaydi.



Sabzavotlar



Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, ta’lim tamoyilidan biri bo‘lgan “soddadan murakkabga” tamoyili orqali ulardagi bilimlarni sekin asta mustahkamlab boramiz. Dastlabki bosqichda yuqoridagi metodikalardan foydalansak, keyingi bosqichda imo-ishorani o‘rgatishda ushbu qilgan metodikamiz tezkorlikni oshirish uchun xizmat qiladi. Shuni unutmasligimiz lozimki, o‘quv o‘rgatish jarayonining dastlabki bosqichidayoq yaxshi bilim olib mustahkamlasa kelajakda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun to‘g‘ri ta’lim muhitini yaratib beradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirova F.U. “Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari” p.f.d. (DSc) dissertatsiyasi 2020, –T.: 190 b.
2. Qodirova F.U. Pulatova D.A. Dehqonova M.G‘. Ibadullayeva Sh.N. “Surdopsixologiya” O‘quv qo‘llanma, 2023 yil, 124-126 b.
3. Qodirova F.U. Fayziyeva U.Y. Umaraliyeva M. Kobilova Sh.X. Ishmatova O.S. “Surdopedagogika” darslik, 2023 yil, Chirchiq 200 b.
4. Qodirova F.U. va boshqalar “Maxsus pedagogika asoslari” o‘quv qo‘llanma, chirchiq 2023 yil, 79 b.
5.“O‘zbekiston karlarining imo-ishora nutqi”, 2011-yil
6. R.Fradkina, “Gapiruvchi qo‘llar” Moskva 2001
7. Avvalboyeva D. Imo-ishora tili, –T., 2021

Nigora EGAMBERDIYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, pedagogika fakulteti, “Maxsus pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

AUTIZM SINDROMLI BOLALARNING DIAGNOSTIKA JARAYONINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Maqolada autizm sindromli bolalarni to‘g‘ri tashxislash ishlari, xulq-atvori va umumiy rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etish hamda ularni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashishini ta’minlovchi korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni samarali tashkil etish va olib borishning uzviyligini ta’minlash omillari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Autizm spektridagi kamchilik, ASB, autizm sindromi, simptom, streotip, diagnostika, bolaning yaqin rivojlanish zonasi, erta aralashuv.

В статье освещаются факторы обеспечения непрерывности работы по правильной диагностике детей с синдромом аутизма, эффективной организации и проведению коррекционно-развивающей работы, обеспечивающей устранение недостатков в поведении и общем развитии, а также их успешную адаптацию к социальной жизни.

Ключевые слова. Дефект аутистического спектра, РАС, синдром аутизма, симптом, стреотип, диагностика, зона ближайшего развития ребенка, раннее вмешательство.

The article highlights the factors of ensuring continuity of work on the correct diagnosis of children with autism syndrome, effective organization and conduct of correctional and developmental work that ensures the elimination of deficiencies in behavior and general development, as well as their successful adaptation to social life.

Key words. Autism spectrum defect, ASD, autism syndrome, symptom, stereotype, diagnosis, zone of immediate development of the child, early intervention.

Autizm butun dunyo bo‘yicha tobora global ahamiyat kasb etayotgan muammolardan biri aylanmoqda. Respublika bolalarni ijtimoiylashtirish markazi taqdim etgan ma’lumotga ko‘ra, O‘zbekistonda ham 200dan ziyod autizm tashxisi qo‘yilgan bolalar ro‘yxatga olingan. Lekin hanuzga qadar reabilitatsiyaga jalb qilinmagan, e’tibordan chetda qolayotgan bolalar ham anchaginani tashkil etadi.

Autizm klinik ko‘rinishlarining xilma-xilligi, ushbu kasallikning murakkab shakllari mavjudligi, shuningdek, korreksiyalash va tarbiyalash ishlarining murakkabligi autizm sindromini o‘rganish nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va dolzarb muammodir.

Autizm muammosiga ilk bor fransuz tadqiqotchisi J.M.Itar e’tibor qaratib, uni “intellektual mutizm” deb, bu bilan mutizmning asosiy belgilaridan biri – buzilgan intellektda nutqning rivojlanmaganligi yoki orqada qolishini ko‘rsatib o‘tdi.

Autizm atamasi (yunoncha. autos-o‘zi) 1912-yilda E.Bleyler tomonidan amaliyotga tadbiq etilib, insonning hissiy ehtiyojlari bilan tartibga solinadigan va real hayotga mos bo‘lmagan fikrlashning o‘ziga xos turini anglatadi.

Autizm spektrdagi kamchilik – bu haddan tashqari yolg‘izlikka intilish, hatto yaqin odamlar bilan hissiy aloqaning buzilishi, xatti-harakatlar va nutqdagi stereotiplar, bir xil turdagi affektiv harakatlarning ko‘pligi (qiziqishlar), nutq, muloqot va intellektual rivojlanishining o‘ziga xosligi bilan tavsiflanadi.

E.R.Baenskaya va M.M.Liebling erta bolalik autizmi bor bolalarning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadilar:

– hissiy aloqani o‘rnatish qobiliyatining buzilishi xulq-atvorda stereotip, monoton harakatlarning mavjudligi;

– nutqi rivojlanishida: mutizm, exolaliya, nutq shtamplari, nutqda shaxs son olmoshlarining yo‘qligi yoki buzilganligi kabi kamchiliklardir.

Shu sababli, autizm sindromli bolalarni reabilitatsiya qilish muammosi juda dolzarb hisoblanib, EBA (erta bolalik autizmi) holatlarining 70 foizdan ko‘prog‘ida terapevtik va korreksion ishlari olib borilmasa, chuqur nogironlik kuzatiladi.

Autizm sindromli bolalar bilan ishlash ularni jamiyatga integratsiya qilish va muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Autizm sindromli bolalar bilan olib boriluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning eng avvalida to‘g‘ri diagnostik masalalarni hal etish zarur. Autizm spektrida kamchiligi bo‘lgan shaxslarning diagnostikasi 4 bosqichda amalga oshiriladi:

I. Indikativ bosqich. Bu bosqichda bolaning eng dolzarb muammolari, buzilishning etiologiyasi o‘rganiladi, keyingi diagnostik usullar strategiyasi tanlanadi, moslashuvchan va birlamchi korreksion yondoshuvlar tanlanadi.

Bu bosqichda quyidagi asosiy ish usullari olib boriladi:

1) biografik – hujjatlarni o‘rganish va ota – onalar hamda bolaning yaqin qarindoshlari bilan suhbatlar paytida amalga oshiriladi.

2) kuzatish – bola faoliyatining turli vaziyatlarida (u yoki bu mutaxassis tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tekshirish paytida, sinfda, o‘yinda, yurishda va hokazo) olib boriladi;

3) bola va ota-onalar bilan suhbat.

Indikativ bosqichning to‘g‘ri olib borilishi natijasida bolaning somatik, asab-ruhiy va psixologik holati, oilaviy tarbiya sharoitlari, bolalar jamoasida moslashish darajasi va potentsial imkoniyatlari, hissiy-ixtiyoriy namoyon bo‘lish xususiyatlari, ishchanlik darajasi, charchoq, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida dastlabki ma’lumotlarni umumlashtirish mumkin bo‘ladi.

II. Bolaning yaqin rivojlanish zonasini chuqur o‘rganish va aniqlash bosqichi.

Bu bosqichning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Psixologik funksiyalarning rivojlanish jarayonlarini o‘rganish (diqqat, idrok, xotira, fikrlash, nutq).

2. Hissiy-ixtiyoriy sohaning xususiyatlarini va motivatsion tayyorgarlikni tahlil qilish;

3. Shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish;

4. Bolaning yoshi va xususiyatlari bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarning hajmi va tabiatini o‘rganish;

5. Uy-joy sharoitlarini, oilaviy munosabatlarni va oilaviy tarbiya uslubini o‘rganish.

Buning uchun quyidagi asosiy ish usullaridan foydalaniladi:

1) pedagogik eksperiment;

2) psixologik eksperimental usullari.

Bunda ota-onalar uchun standartlashtirilgan psixologik usullar, anketalar va so‘rovnomalardan hamda boshqalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Bu bosqichni amalga oshirish, olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish har tomonlama tahlil qilish, bola bilan ishlashning yagona strategiyasini ishlab chiqish va uni ota-onalar bilan muvofiqlashtirish maqsadida psixologik, pedagogik, logopedik, tibbiy-pedagogik kengashda taqdim etilgan tibbiy xulosalarni tuzishga imkon beradi.

III. Dinamik diagnostika bosqichi. Bu bosqichda autizm sindromli bolalarga aniq tashxis qo‘yiladi, individual ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha konkret korreksion ish tizimi yo‘nalishini aniqlanadi, rivojlanish dasturining korreksion usullari tahlil qilinadi va o‘rganiladi.

Bu bosqichda ta’kidlovchi pedagogik tajriba o‘tkazilinib, unda o‘qitishning individual

yondashuvlarini optimallashtiriladi hamda autizm sindromli bolani tarbiyalash va korreksiyalash sohalarini tahlil qilinadi.

IV. Katamnestik ma’lumotlarni o‘rganish bosqichi.

Bu bosqichda bolalarning turli vaziyat va shart-sharoitlarga moslashish darajasi baholanadi.

Bu bosqichda bolaning barcha katamnestik ma’lumotlari to‘planadi va psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash xizmatining samaradorligini baholanadi.

Amaliy faoliyatda katamnez ma’lumotlariga ko‘ra ijtimoiy moslashuv darajasi uchga ajralib turadi:

a) bola maktabda ijtimoiy jihatdan moslashgan, aloqa va o‘quv faoliyatida alohida qiyinchiliklarga duch kelmaydi;

b) muloqotda qiyinchiliklarga duch keladi, lekin ularni muvaffaqiyatli yengib chiqadi, ijtimoiy buzilish kuzatilmaydi;

c) o‘quv faoliyati va ijtimoiy o‘zaro munosabatlarda qiyinchiliklarga duch keladi, psixologik va pedagogik yordamga muhtoj.

Autizm sindromli bolalarni reabilitatsiya qilish uchun tibbiy, pedagogik, logopedik, evritmik va boshqa korreksion qo‘llab-quvvatlash ishlari mujassamlashgan nostandart yondoshuvlar kerak. Reabilitatsiya yondashuvlari, birinchi navbatda, streotipik xatti-harakatlar, nutq, motorika, aqliy va ruhiy zaiflik kabi rivojlanish nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lishi autizm spektrida kamchiligi bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashuviga samarali yordam beradi.

Autizm spektrida kamchiligi bo‘lgan bolalar bilan olib boriluvchi metodlar 2 guruhga bo‘linadi: asosiy va yordamchi metodlar.

Asosiy metodlar – kundalik hayotda zarur bo‘lgan muloqot, ijtimoiy, o‘quv, kasbiy, mehnat va boshqa amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga imkon beradi. Asosiy metodlardan birini qo‘llash ta’limni tashkil qilish uchun zarur shartdir, ammo bu har doim ham yetarli bo‘lmaydi.

Yordamchi metodlar – asosiy usullarni amalga oshirish uchun sharoit yaratadi, ammo asosiy metodlar bilan birga foydalanilganida samarali natija beradi. Yordamchi metodlar orasida hippoterapiya, delfinoterapiya, xolding, estetik va ergoterapiyasining turli usullari va hatto yoga ham mavjud.

Hozirgi kunda autizm sindromli bolalarni korreksion va rivojlantiruvchi yagona samarali usuli mavjud emas. Muayyan natijalarga bir vaqtning o‘zida turli xil korreksion usullarini qo‘llash va turli ixtisoslikdagi mutaxassislar guruhini jalb qilish orqali erishish mumkin. Autizm sindromli bolalar bilan ishlashda asosiy rolni ota-onalar egallab, ular oilada maxsus o‘quv jarayonini va farzandlari bilan munosabatlarni o‘rnatishga tayyor bo‘lishlari uchun kerakli bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tizimini shakllantirishlari zarur hisoblanadi. Ya’ni, autistik bola bilan ishlash ota-onasini tayyorlashdan boshlanib, korreksion ish tizimiga barcha mutaxassislarning aralashuvi bilan amalga oshiriladi.

Olimlarning fikricha, autizm sindromli bola bilan korreksion-reabilitatsiya ishlari imkon qadar erta boshlanishi kerak.

Bolalardagi kamchiliklar qanchalik tez aniqlansa, autizm uchun korreksion ishlarining natijasi shunchalik yaxshi bo‘lishiga umid qilish mumkin. Ushbu mavzu bo‘yicha birinchi tadqiqot AQShda psixiatriya va xulq – atvor fanlari professori Salli Rojers tomonidan 2012-yilda o‘tkazilgan. Uning tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, erta aralashuv 18 oylik autistik bolalarda miya faoliyatini normallashtiradi. Amerika bolalar va o‘smirlar psixiatriyasi akademiyasining jurnalida chop etilgan ‘‘Autizm sindromli bolalarda miya faoliyati

me’yorlashtiruvchi erta xulq-atvor aralashuvi” deb nomlangan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ma’lum bir aralashuv terapiyasini olgan bolalar narsalarga emas, balki yuzlarga qaraganlarida ko‘proq miya faoliyatini ko‘rsatgan.

Autizm sindromli bolalar bilan olib boriluvchi maxsus tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar boshida albatta, parxezlardan: vitaminlarga boy mahsulotlar iste’mol qilish, ovqatlanish rejimiga rioya etish, glyutensiz, kazeinsiz va soyasiz parhezlarni kiritish, antibakterial va kandidozga qarshi dori vositalaridan foydalanish, immunitet tizimini qo‘llab-quvvatlash, organizmdan og‘ir metallarni chiqarish kabi metodlar foydalanish yaxshi natija beradi.

Autizm sindromli bolalar bilan ishlash jarayonida tibbiy usullardan foydalanish asosiy o‘rinda turadi. ASB bolalar bilan amaliyotda Tomatis usulidan keng foydalaniladi. Shu bilan birga tibbiy usullarga, ya’ni yuqori chastotali terapiya (tovush terapiyasi), miya mikropolyarizatsiyasi (nutq zonalarini rag‘batlantirish, aqliy rivojlantirish), biakustik stimulyatsiya, Barok kameralar (kislorod bilan davolash), Gomeopatiya va boshqalar kiradi.

Autizm sindromli bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning psixologik usullari juda xilma-xildir.

Evritmiya – XX asr boshlarida paydo bo‘lgan badiiy harakat san’ati. Bu raqs yoki pantomimikaga o‘xshash maxsus uyg‘un va sinxron harakatlar bilan birlashtirilgan musiqadir. Evritmik harakatlar musiqa jozibasi va nutq malakalari tajribasiga asoslanadi.

Ta’lim muassasalarida autizm sindromli bolalarni bilish jarayonlarini rivojlantirishga hamda ijtimoiy hayotga moslashishiga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar avvalo, yakka tartibdagi mashg‘ulotlar tarzida tashkil etiladi. Keyinchalik, bola o‘zaro ijtimoiy ta’sirlarga tayyor bo‘lgandan so‘ng, mashg‘ulotlar kichik guruhlarda hamda guruhlarda davom etiriladi. Bu o‘z o‘rnida bolaning o‘z tengdoshlari bilan muloqotga kirishishiga zamin bo‘lib, ijtimoiy adaptatsiyaning amalga oshishiga yordam beradi.

Bolalar bilan olib boriluvchi guruhli mashg‘ulotlar autizm sindromli bolalarning umumta’lim maktablarida inklyuziv sinflarda ta’lim olishida ko‘maklashadi. Bu dolzarb masalalardan biri bo‘lib, sababi hozirgi kunda autizm sindromli bolalar maxsus ixtisoslashtirilgan maktablar (intellektual kamchiliklariga ega bolalar uchun)da yoki uy ta’limida tahsil olmoqdalar.

Autizm sindromli bolalar o‘z tengdoshlari qatorida ta’lim olishi, jamiyatda o‘z mavqeiga ega bo‘lishi, har tomonlama shakllanishi va o‘zligini namoyon etishida tibbiy, pedagogik-psixologik ta’sirning uzviyligi hamda o‘zaro aloqasi katta ahamiyatga ega. Bu ishni amalga oshirishda Sog‘liqni saqlash, Maktabgacha va maktab ta’limi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar, Yoshlar siyosati va sport vazirliklari hamda mahalla fuqarolar yig‘ini va shu bilan birga autizm sindromiga ega farzandni tarbiyalovchi oilalarning birgalikdagi hamkorligi yuqoridagi vazifalarni amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Никольская О. С, Баенская Е.Р., Либлинг М.М. Аутичный ребенок. Пути помощи. – М.:Теревинф,1997.

2. Autizm sindromli bolalar bilan ishlash hozirgi kunning dolzarb masalasi sifatida Egamberdiyeva N.A. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 3 (4), 95-100

3. Egamberdiyeva N.A. “Ta’lim klasteri sharoiti – autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida”. INSON FAROVONLIGINI O‘RGANISHDA FANLARARO YONDASHUV xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. II qism. Toshkent – 2023-yil. 154-158-b

Dilfuza PULATOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Zumrad KOMILOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

AUTIZM SINDROMLI BOLALAR UCHUN SIFATLI INKLYUZIV TA’LIM MUHITINING ZARURATI

Annotatsiya

Maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiylashuvida inklyuziv ta’limning ahamiyati ochib berilgan. Xususan, autizm sindromli bolalar inklyuziv ta’limida tolerantlik muhitining yaratilishiga oid ma’lumotlar bayon etilgan.

Tayanch sozlar. Inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan, alohida ta’lim ehtiyoji bor bola, aytizm sindromli bola, maktabgacha ta’lim, tolerantlik muhiti.

В статье раскрывается значение инклюзивного образования в социализации детей с ограниченными возможностями здоровья. В частности, представлены данные о создании атмосферы толерантности в инклюзивном образовании детей с синдромом аутизма.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, ребенок с ограниченными возможностями, особыми образовательными потребностями, ребенок с аутистическим синдромом, дошкольное образование, среда толерантности.

The article reveals the importance of inclusive education in the socialization of children with disabilities. In particular, data on creating an atmosphere of tolerance in the inclusive education of children with autism syndrome is presented.

Key words. Inclusive education, a child with disabilities, special educational needs, a child with autistic syndrome, preschool education, environment of tolerance.

Dunyoda inson huquqlari degan oliy tushuncha borki, bu har bir kishining jamiyatda mavjud barcha imkoniyatlardan birdek va barcha qatori teng foydalana olishini anglatadi. Imkoniyati cheklangan, alohida ehtiyojli insonlar ham shular jumlasidan. Ularning barchasi jamiyat hayotidagi keng ko‘lamli, samarali va teng huquqli ishtirokini cheklaydigan, jismoniy, ijtimoiy-iqtisodiy to‘siqlarga duch keladi. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, nogiron shaxslar ta’lim, mehnat, sog‘liqni saqlash hamda ijtimoiy va huquqiy ko‘mak kabi asosiy manbalardan teng ravishda foydalana olmaydi. Jamiyat bunday kishilarni boricha qabul qilib, teng munosabatda bo‘lishga o‘rganmas ekan, mamlakatda inson huquqlari kafolati to‘laqonli ta’minlangan, deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, butun dunyoda nogironligi bo‘lgan qariyb 1 milliardga yaqin shaxs borligiga e’tibor qaratsak, bu chindan dolzarb masala ekani ko‘zga tashlanadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 1 mlnga yaqin kishi yoki umumiy aholining 2,3 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslar deb tan olingan. Uch va undan yuqori yoshdagi jami aholining 13,5 foizi nogironlikning ma’lum bir shakliga, 3,5 foizi esa nogironlikning og’ir shakliga ega. Kelajakda turli xil jismoniy va ruhiy kamchiliklarga ega shaxslar, nogironlarning soni ortib borishi ham ayni haqiqatdir. Nogiron bolalar uchun ta’lim bilan birgalikda maxsus xizmatlar tashkil etilishi lozim. Ko‘zi ojizlar, kar va eshitish nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar, poliyemiyelit bilan kasallanganlar, aqli zaif bolalar, nutqida nuqsoni bor bolalarga mo‘ljallangan 90 ta maxsus ta’lim muassasalar, 52 ta maxsus bolalar bog‘chalari mavjud.

Hozir nogironligi bo‘lgan bolalarning umumta’lim maktablari, davlat tipdagi mak-

tabgacha ta’lim tashkilotlariga integratsiyalashuvi, ya’ni inklyuziv ta’lim amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu jamiyat va davlat tomonidan nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan munosabatni qayta ko‘rib chiqish, nafaqat ularning huquqlari tengligini tan olish, balki bunday bolalarga turli sohalar, jumladan, ta’limda ham keng imkoniyatlarni taqdim etish majburiyati bilan ham bog‘liq. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida “ta’lim olish har bir insonning huquqi” ekani belgilab qo‘yilgan. Bosh qonunimizda ham bu kafolatlanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning bir qancha meyyorida ham bu o‘z aksini topgan bo‘lib, xususan, 50-moddasida inklyuziv ta’lim huquqi belgilandi. Shunday ekan, imkoniyati cheklangan bolalar boshqalar singari bir xil sharoitda ta’lim olishga haqli. Gap faqat ularga bilim berish emas, balki sifatli ta’lim olishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berish haqida bormoqda. Ya’ni nogironligi bo‘lgan bolalar ham sog‘lom o‘g‘il-qizlar kabi qiynalmasdan bog‘cha va maktabga borishi, ta’lim olishning barcha imkoniyatlariga ega bo‘lishi, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yetishmovchiligiga duch kelmasligi zarur.

Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi alohida ehtiyojga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlash va ularning inklyuziv ta’limini rivojlantirishga e’tibor qaratib kelinmoqda. “Biz hammamiz boshqachamiz, ammo barchamiz tengmiz”– ushbu fikr mamlakatimizning alohida ehtiyojga muhtoj bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarining asosiy shioriga aylangan deb aytishimiz mumkin.

Shu o‘rinda inklyuziv ta’lim tushunchasiga to‘xtab o‘tishni joiz deb bildik. Ushbu so‘z “uyg‘unlashmoq”, “uyg‘unlashtirmoq”, “jalb qilmoq” ma’nolarini beradi. Ya’ni, alohida ehtiyojga muhtoj bo‘lgan va sog‘lom bolalarning birgalikdagi ta’lim shaklidir. Bunda rivojlanishida uchraydigan psixik yoki jismoniy nuqsonlardan qat’i nazar, imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan ommaviy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga jalb etiladi.

Inklyuziv ta’lim – alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni o‘qitishning eng ilg‘or shakli bo‘lib, o‘quv jarayonida bolalar, ota-onalar va pedagoglar birgalikda tadbirlarda faol ishtirok etishadi.

Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi – alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu sharoitda alohida yordamga muhtoj bolalarni integrasiyalash va reabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv talim turini tanlash lozim.

Inklyuziv ta’limning quyidagi afzalliklari alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun ham, me’yorda rivojlangan bolalar uchun ham birdek tegishlidir:

– ijtimoiy imtiyozlar: bolalarga yordam ko‘rsatishda mustaqillikni rivojlantirish, ijtimoiy tajribalarni umumlashtirish, sabr-toqat va tolerantlikni rivojlantirish;

– psixologik foydalar: ustunlik tuyg‘usini shakllantirishdan qochish yoki kamlik tuyg‘usini rivojlantirish;

– tibbiy foydalar: ijtimoiy ma’qul xulq-atvorni taqlid qilish;

– pedagogik afzalliklar: har bir bolaning rivojlanishini o‘ziga xos jarayon sifatida ko‘rib chiqish (bolalarni bir-biri bilan taqqoslashdan bosh tortish).

T.G.Zubareva, N.G.Petelina va N.V.Efremovaning ta’kidlashicha, alohida ta’limga ehtiyojli bolalarning sifatli ta’lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar talab etiladi. Ularning nuqtayi nazariga ko‘ra, inklyuziv ta’limda qulay psixologik muhit yaratadigan tolerantlikning darajasi muhim rol o‘ynaydi.

Tolerantlik muhiti o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari ya’ni, alohida ta’lim ga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning tengdoshlari, ularlarning ota-onalari, pedagoglar va mutaxassislar bag‘rikenglikka ega bo‘lgandagina yaratilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi autizm sindromli bolani sog‘lom bolalar bilan umumiy tipdagi ta’lim muhitiga jalb qilish orqali inklyuziv ta’limga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga imkon beradi. Ish bolalarning individual dasturlari bo‘yicha bilim olishlarigaimkon beradigan amaliy xatti-harakatlar tahlili asosida qurilishi lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inkluziya quyidagicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

– vaqtinchalik-bola o‘yinlarda, bayramlarda, sayrda jamoada bo‘lishi mumkin;

– qisman-bola to‘liq bo‘lmagan kuni tengdoshlari bilan bo‘ladi, vizual, musiqiy va motorli mashg‘ulotlarda qatnashadi;

– to‘liq-bolaning doimiy guruhga kechayu-kunduz tashrifi.

Amaliyotda ko‘proq vaqtinchalik va qisman inklyuziyadan foydalanilishini kuzatishimiz mumkin. Ta’lim va ijtimoiy dasturlarga moslashganda, bola maxsus pedagog yoki (tyutor)? bilan birgalikda muayyan faoliyat turlari bo‘yicha doimiy guruhga kiradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, inklyuziya paytida barcha tomonlarning manfaatlari hisobga olinadi, shuning uchun alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bola tayyor bo‘lgunga qadar u qo‘shma darslarga jalb qilinmaydi, eng muhim jihat esa-bu ma’lum bir vaqt istalgan xatti-harakatlarning yo‘qligidir. Bolalar bir-biriga yordam berib, o‘rtalarida yaqin munosabatlar rivojlanadi, bir-birlariga bo‘lgan ishonch paydo bo‘ladi, hissiy adovat asta-sekin yo‘qoladi, bolalar o‘zaro farqlarga e’tibor berishni to‘xtatish orqali bag‘rikeng va chidamli bo‘lishadi.

Autizmga chalingan bolalarni ijodiy faoliyat, sport tadbirlari, frontal mashg‘ulotlar va o‘yinlarga integrasiyalash bilan bir qatorda quyidagi ish shakllaridan ham foydalanish mumkin:

– tematik video-resurslardan foydalangan holda, autizm muammosi haqidagi multfilm va filmlarni tomosha qilish. Ushbu guruh ishi usuli bolalarning o‘zlarida va atrofida sodir bo‘layotgan voqealar to‘g‘risida ijtimoiy-psixologik voqelik va hodisalar to‘g‘risida xabardorligini kengaytirishga yordam beradi;

– ijodiy ishlar ko‘rgazmasi: “dunyo autizm bilan kasallangan bolaning nigohi bilan”, “biz boshqachamiz, lekin biz birgamiz”, “moviy rangda rang” va boshqalar;

– ertak terapiyasining elementlari;

– badiiy adabiyotdan foydalanish, do‘stlik, munosabat va o‘zaro tushunish va boshqalar;

– ijtimoiy harakatlar, bayramlar.

Ota-onalar bilan ish olib bormay turib bolalarda tolerantlikni shakllantirish mumkin emas. Ular bola uchun asosiy namunadirlar. 2013-yilda E.N.Morgacheva tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida inklyuziv ta’lim g‘oyasi va nogiron bolalarning xususiyatlari to‘g‘risida yetarli tushunchaga ega bo‘lishlariga qaramay, ota-onalarning alohida ta’lim ehtiyojli bolalarga munosabatlari neytral yoki salbiy bo‘lishi aniqlangan. Inklyuziv ta’lim jarayonida ko‘pincha sog‘lom bolalarning ota-onalari autizm sindromli bolalar tomonidan namoyish etiladigan hissiy-emotsional sohaning o‘ziga xos xususiyatlaridan cho‘chishadi. Shuning uchun ham bolalarda bag‘rikenglikni tarbiyalashda pedagoglarning ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishlari lozim bo‘ladi. Bunda ota-onalar bilan ishlashning turli shakllarini qo‘llash mumkin: ota-onalarning tematik yig‘ilishlari, adabiyot ko‘rgazmalari, qo‘shma bayramlar, ota-onalar bilan individual ishlar.

Autizm sindromli bolalarning inklyuziv ta’limi ularning ijtimoiy moslashuvi darajasini oshirishga, yetarli ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalarini mustahkamlashga imkon beradi, sog‘lom bolalar boshqa bolalarning rivojlanish xususiyatlariga, o‘zaro yordam berishga moyil bo‘lishni o‘rganadilar va ularda o‘zaro bag‘rikenglik shakllana boshlaydi.

Shunday ekan autizm sindromli bolalarga nafaqat sifatli ta’lim berish, balki jamiyat ularni barcha qatori qabul qilishi, ular ham shu yurtning teng huquqli fuqarosi sifatida barcha imkoniyatlardan birdek foydalanishiga erishish maqsad qilinishi lozim. Har bir maktabgacha ta’lim muassasasi esa inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat olib borishga tayyor turishi va autizm sindromli bolalarning rivojlanishi, to‘laqonli ijtimoiylashuviga hissa qo‘shishni oliy maqsad deb bilmog‘i lozim. Zero, bugun ta’limning har qanday shakli rivojiga e’tibor ortib, unga barkamol avlod kamolidagi asosiy vosita sifatida qaralayotgani ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanovna Q. F., Azamkulovna P.D., Maxkamovna M.D. (2022). Inklyuziv ta’limda kadrlar masalasi. o‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(14), 834-842.

2. Pulatova D., To‘raqulova D., Mammadiyeva D., Abduvaxobova N. (2023). Inklyuziv ta’limning terminologik asoslari. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(5), 60–62. извлечено от https://www.in-academy.uz/index.php/yota/article/view/13970

3. Pulatova D., To‘raqulova D., Najmiddinova N., Ikromova F. (2023). Inklyuziv ta’limda aktdan foydalanish. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(5), 84–86. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/yota/article/view/14040

4. Pulatova D., To‘raqulova D., Saydalova B., & Zuhriddinova D. (2023). Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalarni saralash. Наука и инновация, 1(6), 80–82. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/14418

5. Kodirova F.U., Fayzieva U.Y., Pulatova D.A., Ibadullaeva Sh.N., Khusnuddinova Z.H. Inclusive education: theory and practice. Journal of Advanced Zoology. // ISSN: 0253-7214. Volume 44 Issue S7 Year 2023 Page 660:664

6. Kodirova F.U., Pulatova D.A., Khusnuddinova Z.H. Increasing The Profitability Of The Learning Environment Through The Organization Of Adaptive Education In The Conditions Of Inclusion. Journal of Advanced Zoology. // ISSN: 0253-7214. Volume 44 Issue S7 Year 2023 Page 615:620

Shaxnoza KOBILOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

UZLUKSIZ TA’LIMDA IMKONIYATI CHEKLANGAN TA’LIM OLUVCHILARNING IJTIMOIY SOG‘LOM TA’LIM MUHITINI YARATISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Maqolada inklyuziv ta’limni tashkil etishda ta’lim makonini barqarorlashtirish, pedagogik shart-sharoitlarni yaxshilash, uning istiqbolli imkoniyatlarini oshirish, uzluksiz inklyuziv ta’lim jarayonini real amaliy tadqiqot natijalariga muvofiq tashkil etish lozimligi xususida so‘z yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Uzluksiz ta’lim, komponent, , inklyuziv, imkoniyati cheklangan o‘quvchi, ta’lim sifati va samaradorligi, diskriminatsiya, psixologik jarayon, psixologik xususiyat, psixologik xavfsizlik.

В данной статье при организации инклюзивного образования обсуждается необходимость стабилизации образовательного пространства, улучшения педагогических условий, повышения его потенциала, а также организации процесса непрерывного инклюзивного образования в соответствии с результатами практических исследований.

Ключевые слова. непрерывное образование, компонент, инклюзия, студент с ограниченными возможностями, качество и эффективность образования, дискриминация, психологический процесс, психологическая характеристика, психологическая безопасность.

In this article, in the organization of inclusive education, it is discussed the need to stabilize the educational space, improve pedagogical conditions, increase its potential, and organize the process of continuous inclusive education in accordance with the results of practical research.

Key words. Continuous education, component, inclusion, student with disabilities, quality and efficiency of education, discrimination, psychological process, psychological characteristic, psychological safety.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni amaliy faoliyatini tashkillashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ularni kasbiy tayyorlash va shaxsiy rivojlantirish jarayonida xavfsiz hayotga tayyorgarligini shakllantirishda (yoshi, jinsi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda) samarali ta’lim muhitini yaratish katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni amaliy faoliyatga bo‘lgan motivini oshirish, rag‘batlantirish, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, kognitiv faoliyatning kamchiliklarini yumshatish, individual tipologik xususiyatlarini shakllantirish omil va manbalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish lozim.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun sog‘lom ta’lim muhitini yaratish, ma’lum soha va kasblarga tayyorlash uchun tegishli bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi hamda mazkur masala muhim ijtimoiy zaruratdir.

Jamiyatimizda shakllanib borayotgan inklyuziv ta’limning o‘quv-reabilitatsiya muhiti tashkiliy, uslubiy va texnologik jihatdan imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni alohida ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lib, uning ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, sog‘lig‘ini muhofaza qilish, mustaqil faoliyatini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Bu dasturdan ko‘zlangan maqsad inklyuziv ta’lim muassasasining axborot va ijtimoiy-madaniy makonini yanada mustahkamlaydi.

Shu nuqtayi nazardan Toshkent shahar, Shayxontohur tumani inklyuziv ta’limga

yo‘naltirilgan 324-sonli maktabning 5,7,8,9,10-sinf o‘quvchilari o‘quv muhitini psixologik xavfsizligi xususiyatlari o‘rganildi.

O‘quvchilar "O‘quv muhiti xavfsizligining psixologik diagnostikasi" I.A.Baeva metodikasi orqali tadqiq etildi. Tadqiqot natijalarini ikkita mezonga muvofiq tahlil etdik:

1. Inklyuziv maktabda tahsil olayotgan sog‘lom o‘quvchilar mavjud maktabning psixologik xavfsizligini qanday baholaydi;

2. Inklyuziv maktabda tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan o‘quvchilar mavjud maktabning psixologik xavfsizligini qanday baholaydi;

Inklyuziv ta’lim muhitining pedagogik-psixologik xavfsizligi ta’kidlangan bir qator omillar bilan o‘zaro bog‘liq va bir-biriga ta’sir qiladi. Inklyuziv maktabda tahsil olayotgan sog‘lom o‘quvchilar nuqtayi nazarida o‘quv muhitining psixologik xavfsizligini tarkibiy qismlari bo‘yicha diagnostika natijalarini ko‘rib chiqish mumkin.

Inklyuziv maktabda tahsil olayotgan sog‘lom o‘quvchilar kognitiv komponentga ko‘ra, ta’lim muhitining psixologik xavfsizligiga 87 foiz ijobiy munosabatda bo‘lishgan bo‘lsa, 9 foiz o‘quvchi neytral munosabat, 4 foiz salbiy munosabat natijalari qayd etilgan.

So‘rovda ishtirok etgan o‘quvchilarning aksariyati inklyuziv ta’lim muhitiga ijobiy munosabatda ekanligini ko‘rish mumkin. Bundan ko‘rinadiki, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar, sog‘lom o‘quvchilarning amaliy bilim olishiga deyarli xalaqit qilmaydi.

Ushbu fikrlarni mantiqiy jihatdan, taqqoslab o‘rganish maqsadida, tadqiqot jarayonida biz inklyuziv ta’limda tahsil olayotgan sog‘lom o‘quvchilarning xulq-atvor komponentini o‘rgandik. Inklyuziv ta’lim muhitida o‘quvchilarning xavfli vaziyatlar vujudga kelganda himoya choralarini ko‘rish qobiliyati, hamda o‘zlarini imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga nisbatan munosabatlarini qanday namoyon qilishi tadqiq etildi.

Xulq-atvor komponentida kognitiv komponentda bo‘lgani kabi, respondentlarning 73 foiz inklyuziv ta’lim muhitiga ijobiy, 21 foiz neytral, 6 foiz salbiy munosabatda ekanliklarini namoyon etdi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning katta qismi inklyuziv ta’lim muhitida xulq-atvor munosabatlarini barqarorligini ushlab turish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Bundan shu narsa ko‘rinadiki, inklyuziv ta’lim muhitida yuz beradigan negativ omillarga nisbatan, sog‘lom o‘quvchilar shaxsida o‘zini boshqarish va imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan barqaror psixologik munosabatni yo‘lga qo‘yish kompetentligining elementlari shakllanganligidan dalolat beradi. Neytral munosabatda bo‘lgan sog‘lom o‘quvchilar, inklyuziv ta’lim muhitida yuzaga keladigan beqaror vaziyatda, mavjud xavflarni his etgan holda o‘zini qanday tutish kerakligini tushunadi, imkon qadar o‘quv sharoitini, ya’ni ta’lim muassasasini o‘zgartirish xususida kattalar bilan maslahatlashadi. Shuningdek, inklyuziv ta’lim muhitida tahsil olayotgan salbiy munosabatda bo‘lgan o‘quvchilarning shaxsiy munosabatlari to‘liq shakllanmagan, xatti-harakatlar strategiyasini muvofiqlashtira olmaydi hamda o‘zi va boshqalar imkoniyatiga to‘g‘ri va to‘liq yondasha olmaydilar. Aynan mana shu o‘quvchilar bilan, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar orasida tushunmovchilik va diskriminatsion munosabatlar kuzatilishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan inklyuziv ta’limda tahsil olayotgan o‘quvchilarning xavfli vaziyatlar bilan bog‘liq hissiy munosabati va psixologik barqarorlik holatini namoyon etuvchi hissiy komponenti o‘rganildi.

Hissiy komponentda inklyuziv ta’lim muhitiga nisbatan o‘quvchilarning 72 foiz ijobiy munosabat (psixologik barqarorlikni ta’minlay olishi) bildirgan bo‘lsa, 23 foiz neytral munosabat, (bu borada aniq fikr ayta olmasligi), 5 foiz salbiy munosabatni (hissiy ho-

latlarini boshqara olmasligini) bildirgan.

Bundan ko‘rinadiki, o‘quvchilarning aksariyat qismi inklyuziv ta’lim muhitini ijobiy baholab, ularning ruhiy beqarorligiga ta’sir o‘tkazmaydigan jarayon deb baholagan holda, ma’lum ma’noda qiziqish va motivatsion omillarni berishini ta’kidlagan. 23 foiz o‘quvchi inklyuziv ta’lim tizimini hissiy jihatdan to‘liq mos kelish yoki kelmasligi haqida aniq tushunchaga ega emasliklarini ta’kidlagan. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu toifadagi o‘quvchilar inklyuziv ta’lim jarayonida o‘z irodasiga muvofiq o‘quv faoliyatini tashkil eta olmayotganligi, qaysiki ma’noda ta’lim faoliyatiga nisbatan majburiy ixtiyoriy ishtirok etayotganligini kuzatish mumikin. Inklyuziv ta’lim muhitida tahsil olayotgan 5 foiz salbiy munosabatni qayd etgan sog‘lom o‘quvchilar (hissiy holatlarini boshqara olmasligini) o‘z o‘qish joyini boshqa maktabga o‘zgartirishga nisbatini, ichki xohish yuqoriligini namoyon etgan holda, o‘zlarini psixologik jihatdan beqarorligi, xavfsiz muhitda emasligini ko‘rsatgan. Bu o‘quvchilarda ichki bezovtalik yuqori bo‘lib, ruhiy jihatdan inklyuziv ta’limni xavfsiz muhitiga doimiy negativlikni his qilib turadi.

Inklyuziv maktabda tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan o‘quvchilar mavjud maktabning psixologik xavfsizligi xususiyatlaridan qoniqish darajasi bo‘yicha o‘rganilganda o‘qituvchilar bilan munosabatlardan qoniqish: "juda yaxshi darajada" - 17 foiz, "ko‘proq darajada" - 41 foiz, "yetarli darajada" - 40 foiz bo‘lib, bu o‘quvchilar o‘quv jarayonida o‘qituvchilar bilan qulay muloqot qilishlarini ko‘rsatadi. Bu jarayon pedagogik muloqotdan qo‘rquvga olib kelmaydi. Shuningdek, o‘qituvchilar bilan munosabatlardan 2 foiz o‘quvchilar "kichik darajada" qoniqish hosil qilishganligini, ta’kidlagan bo‘lib, muloqot qilishda noqulaylik mavjudligi va ruhiy bezovtalik ustunligini ko‘rsatgan.

Inklyuziv maktabda tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning sinfdoshlar (sog‘lom o‘quvchilar) bilan munosabatlari quyidagi ko‘rsatgichni qayd etgan. 28 foiz “juda yaxshi darajada”, 47 foiz “ko‘proq darajada”, 22 foiz “yetarli darajada” ekanligi ta’kidlangan bo‘lib, o‘quvchilarning do‘stona munosabatlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bunda shu narsa ko‘rinadiki, sog‘lom o‘quvchilar va imkoniyati cheklangan o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro yordam berish, taklif qilish, qo‘llab-quvvatlash omillari mavjud. 3 foiz imkoniyati cheklangan o‘quvchi “kichik darajada” javobini qayd etishgan. Bizning nuqtai nazarimizcha bu o‘quvchilar sinfdoshlari bilan to‘liq munosabatga kirishida ob’ektiv va sub’ektiv omillarga muvofiq, to‘liq munosabatga kirisha olmaganlar. (sabablar: tortinish, o‘zlariga bo‘lgan ishonchni to‘liq shakllanmaganligi, bir birini qabul qila olmaslik, ichki xavotirni yuqoriligi, masxara qilish, shaxlararo integratsiyani psixologik omillari yetishmasligi va boshqa omillar).

Emotsional qulaylik (odam hamma narsadan mamnun, optimistik, o‘z his-tuyg‘ularini ochiq ifoda etadigan, qo‘rquv va tashvishlardan xoli bo‘lgan ishonch, xotirjamlik, qulaylik holati) imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning 49 foiz "juda katta darajada", 37 foiz "ko‘proq darajada", 14 foiz "kichik darajada" hissiy qulaylikni qayd etgan bo‘lib, ta’lim jarayonida o‘z nuqtai nazarini aytish, o‘qituvchi va sinfdoshlaridan yordam so‘rash imkoniyati borligini qayd etgan. Bundan ko‘rinadiki, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar xavfsiz ta’lim muhitida o‘qiyotganliklari, ijtimoiylashuv jarayon barqarorligi, ruhiy holatiga tahdid soluvchi ijtimoiy psixologik muhit yo‘qligini ko‘rish mumkin.

Shuningdek ta’kidlash mumkinki, bu toifadagi o‘quvchilar, doimiy ravishda boshqalar yordamiga, xususan o‘qituvchi va sinfdoshlarining amaliy qo‘llab-quvvatlashiga muhtojligini his qilishadi. Shu nuqtai nazardan, bu borada zaruriy pedagogik-psixologik dastur va amaliy ko‘rsatmalarni ishlab chiqqan holda, ijtimoiy psixologik trening mashg‘ulotlari asosida ta’lim jarayonining psixologik muhitini barqarorlashtirib borish omillarini doimiy va uzluksizligini ta’minlash borasida zamonaviy pedagogik texnologi-

yalarni amaliyotga joriy etib borish taqozo etiladi.

Inklyuziv ta'lim muhitida tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan o'quvchilar o'zlarining hayot xavfsizligiga daxldor bo'lgan psixologik zo'ravonlikdan himoyalanish darajasi so'ralganda, 76 foiz haqorat va kamsitish jarayoniga duch kelmaganligini ta'kidlagan bo'lsa, 18 foiz ma'lum ma'noda bu holatni his qilganligini qayd etishgan. 6 foiz o'quvchi aytishga qiynalaman degan javobni ko'rsatgan. Bundan ko'rinadiki, bu borada inklyuziv ta'lim jarayonida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va sog'lom o'quvchilar bilan ijtimoiy psixologik, pedagogik va ma'naviy – ma'rifiy ishlarni olib borish, targ'ibot va tashviqot masalalarini gumanistik g'oyalar negizida shakllantiruvchi dasturlarini ishlab chiqish hamda ta'lim mazmuniga singdirishni zamonaviy dasturlarini ishlab chiqish lozim.

Tadqiqotimizda ishtirok etgan imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ruhiy ta'sir jarayoniga nisbatan irratsional munosabatlarni ijtimoiy xavf darajasini taqiq etganda quyidagi natijalarni qayd etishdi.

"Katastrofizatsiya" shkalasi bo'yicha - 35 foiz imkoniyati cheklangan o'quvchilar o'z hayotidagi har bir salbiy voqeani dahshatli, falokatga olib keladigan deb baholaydi. Bu holat ularni tez tushkunlikka tushib qolishi va vaziyatni muvofiqlashtira olmaganliklari sababli stressga olib kelishi mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri, o'zlarini ba'zi sohalarda imkoniyati cheklanganligini doimiy ravishda domenentligini saqlab turganligi, hamda o'z kelajagi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni pastligidan dalolat beradi.

Bu toifadagi imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan doimiy ravishda pedagogik-psixologik motivatsion trening mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish orqali ijtimoiylashtirishini ta'minlab, o'ziga va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni oshirish, hamda jamiyat bilan integratsiyasini ta'minlagan holda sohalar o'rtasida kasbiy mobillikga xos kompetentlikni shakllantirish taqozo etiladi.

"O'ziga nisbatan majburiyat" shkalasiga ko'ra, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning 30 foiz irratsionallikni qayd etgan bo'lib, boshqalar ularga nisbatan ya'ni "o'zlariga nisbatan majburiyat" ga ega degan tushunchani ustuvor tutib turibdi. Bundan shuni anglash mumkinki, ularning nazarida boshqa odamlardan deyarli har doim va hamma narsa uchun ularga "qarzdor" ekanligini his qilib yashashadi. Psixologik nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, bu toifadagi imkoniyati cheklangan o'quvchilar manipulyatorning "qurbonlari" bo'lish xavfi ostida. Istiqbolda o'zlarining mavjud imkoniyati va qobiliyatidan mahrum bo'lgan holda, real vaziyatlarda boshqalarga nisbatan qaramlikning maksimal darajasi yuz beradi. Bu holat ularda ruhiy formani izdan chiqishiga, qolaversa depressiyani yuzaga kelishiga olib keladi. Bu jarayon ular uchun xavfli ijtimoiy vaziyatni yuzaga chiqarish ehtimolliligi yuqoridir.

"O'z-o'zini hurmat qilish va fikrlashning ratsionalligi" shkalasi subyektlarning 58 foizda o'zini o'zi adekvat baholash qayd etilgan bo'lsa, 23 foizda fikrlashning mantiqsizligi aniq namoyon bo'lgan holda, 19 foizda noaniqlik va ikkilanish ustuvorligi kuzatildi.

"Ko'ngilsizlikka chidamlilik" shkalasi stressga chidamliligini ko'rsatadi. Ushbu shkala bo'yicha imkoniyati cheklangan o'quvchilarning 62 foiz stressga chidamli - hissiy jihatdan barqaror natijalari qayd etilgan bo'lsa, 38 foiz stressli vaziyatlarda o'zini tuta boshqara olmasligi namoyon bo'ldi.

Bu jarayonda shu o'quvchilar bilan individual va guruhiy psixologik korreksion dastur asosida pedagogik-psixologik ishlar olib borilishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak A.Ellis metodikasining barcha shkalalari bo'yicha imkoniyati cheklangan o'quvchilarda irratsional munosabatlarning o'rtacha darajadan

yuqori ekanligi, hamda uning dinamik o‘suvchanligi nuqtai nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, bu borada alohida pedagogik-psixologik korreksion ishlar PTIK doirasida olib borilishi taqozo etiladi.

Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar faoliyatida irratsional munosabatlarning shakllanish darajasini oshishi o‘quv muhiti xavfsizlik darajasiga real tahdid bo‘lib, sinfdoshlari, tengdoshlar, ota-onalari, yaqinlari va o‘qituvchilar bilan munosabatlarda keskinlikni yuzaga kelishiga olib kelishi, hamda shaxsiy faoliyati va o‘quv jarayonida o‘z faolligi va tashabbusini mavhumlik tomon yo‘naltirib yuborishi mumkin. Bu jarayon hayotiy qiziqish va motivatsiyasini yo‘qolishiga olib kelgan holda o‘ziga va kelajagiga bo‘lgan ishonchni pasaytirib yuboradi.

Natijada, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar hayotidagi voqealar noqulay ekanligiga, dahshatli va chidab bo‘lmas oqibatlarga olib kelishi mumkinligiga qanchalik ko‘p ishonch hosil qilsalar, o‘quv muhiti, ular bilan muloqotda bo‘lgan odamlar ularni xavfsizlikni ta’minlashga qodir ekanligiga shubhalari ortib boradi. Irratsional yondashuvning haddan tashqari namoyon bo‘lishi, o‘quvchilarning o‘zlariga beradigan bahosini pasayib borishiga, hamda o‘quv va ijtimoiy faolligini tushishiga olib kelgan holda kuchli psixologik taranglikni keltirib chiqaradi. Irratsional munosabatlar shakllangan imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning hayot xavfsizligiga o‘zlari tomonidan bo‘lgan tahdid ortib boradi, hamda sotsializatsiya jarayoni turg‘unligi yuz beradi, oqibatda ijtimoiy integratsiya jarayoni sekinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarorga muvofiq “2020 – 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” https: //lex.uz/docs/5044711

2. Артюшенко, Н. П. Организатсия протсесса включения детей с ограниченними возможностями здоровя в образователние учреждения / Н.П. Артюшенко. – (Наука – практике) // Практический психолог и логопед в школе и ДОУ. – 2011. – № 1. – С. 57-76.

3. Белов С. В. Безопасност жизнедеятелности и защити окружающей среди (техносферная безопасност). М., 2011. 680 с.

4. Бгажнокова И.М. Обучение детей с вираженним недоразвитием интеллекта: программно-методические материали / под ред. И.М. Бгажноковой. – Москва: ВЛАДОС, 2007. – 188 с.

5. Голиков, Н. А. Инклюзивное образование: новие подходи к качеству жизни детей с особими образователними нуждами / Н.А. Голиков // Сибирский педагогический журнал. – 2009. – № 6. – С. 232-240

6. Инклюзивное образование / сост.: С.В. Алехина, Н.Я. Семаго, А.К. Фадина. – Москва: Школная книга, 2010. – Вип. 1. – 272 с.

7. Назарова Н.М. К проблеме разработки теоретических и методологических основ образователной интегратсии / Н.М. Назарова // Психологическая наука и образование. – 2011. – № 3. – С. 5-11

8. Qodirova, F. U., Kobilova, Sh. X. (2021). Ta’lim klasteri asosida inklyuziv ta’limga jalb etilgan o‘quvchilar hayot xavfsizligini ta’minlash shart-sharoitlari. Muammo va ularning yechimlari, 2(2), 85-86.

Рисбай ДЖУРАЕВ,
Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук им. Т.Н. Кары Ниязи, дейтвиельный член Академии наук Республики Узбекистан, д.п.н.

РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ И ДАЛЬНЕЙШЕЕ РАСШИРЕНИЕ ПАРТНЁРСТВА

Annotatsiya

Maqola ta'lim va ochiq innovatsiyalarda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha muhim masalani ko'rib chiqishga bag'ishlangan.

T**ayanch so'zlar.** Shaxsni shakllantirish, metodologiya, innovatsion texnologiyalar, ochiq innovatsiyalar, boshqaruv tizimi, ta'lim tizimi, axborot, mutaxassislar.

Статья посвящена рассмотрению важного вопроса о применении современных инновационных технологий в образовании и открытых инноваций.

Ключевые слова. Формирование личности, методики, инновационые технологии, открытые инновации, система управления, система образования, информация, специалисты.

The article is devoted to the consideration of an important issue of the application of modern innovative technologies in education and open innovations.

Key words. Personality formation, methods, innovative technologies, open innovations, management system, education system, information, specialists.

Концептуальные основы всего активного обучения были сформулированы замечательным философом, психологом и педагогом Джоном Дьюи (1859-1952). Его замечательные мысли, уникальные и столь нужные для многих, кстати, были неожиданными.

Цель воспитания, по Дьюи, — формирование личности, умеющей «приспособиться к различным ситуациям» в условиях свободного предпринимательства (!). Д. Дьюи и его последователи полагали, что можно положительно повлиять на жизнь каждого человека, заботясь с детства о здоровье, отдыхе и, заметьте, карьере будущего семьянина и члена общества. Все они предлагали сделать ребёнка предметом интенсивного воздействия многообразных факторов воспитания — экономических, научных, культурных, этических и пр. Д. Дьюи считал, что мы знаем только то и тогда, когда можем своей деятельностью произвести действительно изменения в вещах, которые затем подтвердят или опровергнут наши знания. Без этого знания остаются только догадками. Как видим, Дьюи выступал за практическую направленность воспитания, предлагая решать педагогические задачи посредством спонтанного развития ребёнка. Воспитание в этом контексте – процесс накопления и реконструкции опыта с целью углубления его социального содержания. Великая идея создания «инструментальной» педагогики, строящейся на спонтанных интересах и личном опыте ребёнка. Согласно этой концепции, обучение должно сводиться преимущественно к игровой и трудовой деятельности, где каждое действие подопечного становится инструментом его познания, собственного его открытия, способом постижения истины.

Такой путь познания представлялся более соответствующим природе ребёнка, нежели привычное сообщение ему системы знаний. Конечным итогом обуче-

ния, по Д. Дьюи, должна была стать выработка навыков мышления, под которыми понималась способность в первую очередь к самообучению. А целями обучения выступали умение решать жизненные задачи, овладение творческими навыками, обогащение опыта, под которым понимались знания как таковые и знания о способах действия, воспитание вкуса к самообучению и самосовершенствованию.

По мнению Д. Дьюи, школа (мы скажем сегодня «образовательное учреждение») обязана просто мгновенно откликаться на изменения в обществе и сама стать неким обществом в миниатюре, должна предоставлять детям наибольшие возможности для выработки общественного чувства сотрудничества и навыков взаимопомощи. Школа — воспитывающая и обучающая среда, должна выполнять именно такие задачи: упрощать сложные явления жизни, предоставляя их детям в доступном виде; выбирать для изучения наиболее распространённые и важные моменты из опыта человечества; содействовать выравниванию общественных различий, создавая единство мыслей и согласованность действий. Содержанием образования становится приобретённый опыт, обогащающийся в условиях обучающей среды. И способом приобретения такого опыта становится решение различных деловых задач: изготовить макет, найти ответ на вопрос и т.д., а приобретение, в свою очередь, необходимых для этого знаний связывается с интересами ребёнка, которые обеспечивают его внимание и всю последующую деятельность. Д. Дьюи, «стати, допускал, что не всё жизненно важное может представлять для детей интерес, и, в связи с этим, у них нужно развивать силу воли, воспитывать характер (противоречие между интересом и усилием устраняется, по мнению Д. Дьюи, знанием воспитателем возрастных особенностей детей).

Обучение, согласно Д. Дьюи, следует начинать с деятельности учащихся, имеющей общественное содержание и применение, и только позже подводить их «теоретическому осмыслению материала, к познанию природы вещей и способов их изготовления. Содержание обучения, таким образом, усваивается как побочный продукт входе исследования проблемной обучающей среды, организованной как логическая последовательность педагогических («читай проблемных!) ситуаций. Единственным критерием педагогической ценности учебного предмета выступал только его вклад в «становление системы внутренней личностной ориентации» ребёнка.

Дьюи считал, что традиционной системе образования, основанной на приобретении и усвоении знаний, нужно противопоставить обучение «путём делания», чтобы новые знания извлекались человеком из практической деятельности и личного опыта. В 50-60-х годах XX века подобные идеи активно развивались. В результате оформились две любопытных концепции: «пирамида обучения» (learning pyra-mid) и «конус опыта Эдгара Дейла» (Dale’s cone of experience).

«Конус опыта» американского педагога Эдгара Дейла иллюстрирует, каких образовательных результатов можно добиться, используя различные средства или «носители» (media) содержания обучения.

Как видим, данные демонстрируют зависимость между методами обучения и степенью усвоения материала. Вот как-то сразу становится очевидно, что классическая лекция (монолог преподавателя, который не сопровождается слайдами и другими иллюстрациями) – наименее эффективный метод обучения: он обеспечивает освоение в среднем около 5% содержания. В то же время «активное обучение» (вовлечение участников образовательного процесса в различные виды активной деятельности позволяет добиться значительно лучших результатов. Ак-

тивное обучение, проблемное обучение, проблемно-модульное обучение — всё это общая и высшая школа, в принципе, уже проходила. Однако будем, по возможности, точны и объективны: на различных этапах развития систем и парадигм образования использовали несколько вполне определённых ключевых методических (технологических) подходов к обучению:

- практика;
- трансляция материала;
- разбор и анализ ситуаций;
- игра;
- имитация;
- проект.

Практика – старейший способ обучения. Идея проста и понятна: человек осваивает профессиональные навыки и инструменты, включаясь в реальную деятельность. Этот подход использовался как при обучении охоте или земледелию в древние времена, так и в ремесленных мастерских в Средние века. В современной системе образования практика широко применяется ещё и при организации стажировок и практик: производственная, учебная, педагогическая, преддипломная практики.

Трансляция материала – скажем очень утилитарно – передача знания о предмете или способе деятельности от одного Человека другому. Этот подход используется с далёкой древности, когда знающий и опытный учитель рассказывал молодым и неопытным ученикам о том, как устроен мир. В XVII веке великий Педагог Ян Амос Коменский усовершенствовал эту педагогическую технологию, создав на её основе не менее великую и бессмертную классно-урочную систему, при которой учащие меньше бы учили, учащиеся больше бы учились. В современной системе образования трансляция материала происходит по-разному: при помощи лекций разного типа, чтении книг, дистанционном обучении посещении, мастер-классов и пр.

Один из наиболее эффективных методов обучения — метод проектов, чья история, пожалуй, наиболее известна. Суть проектного подхода заключается в том, что учащийся неким образом встраивается в систему коллективных работ, направленных на решение реальной практической задачи. Проектируя развитие ситуации, анализируя данные, он получает возможность освоить способы выполнения соответствующих работ. Групповая форма функционирования учебного проекта вынуждает участников организовывать совместную деятельность и налаживать коммуникации, то есть учиться действовать в команде.

Преподавателю в рамках проекта отводится роль разработчика, координатора, эксперта, консультанта. Таким образом, в основе метода проектов лежит развитие познавательных навыков учащихся, умений самостоятельно конструировать свои знания, ориентироваться в информационном пространстве, развитие критического и творческого мышления.

Разработанный ещё в первой половине XX века на основе прагматической педагогики Д. Дьюи метод проектов становится особенно актуальным именно в современном информационном обществе. В свете новых стандартов и громко звучащего понятия компетенции можно заметить, что основная цель любого проекта – формирование различных ключевых компетенций, под которыми в современной педагогике понимаются комплексные свойства личности, включающие взаимосвязанные знания, умения, ценности, а также готовность мобилизировать

их в необходимой ситуации.

В процессе проектной деятельности формируются:

• рефлексивные умения;

• поисковые (исследовательские) умения;

• умения и навыки работы в сотрудничестве;

• менеджерские (управленческие), организационные (организаторские) умения и навыки;

• коммуникативные умения;

• презентационные умения и навыки.

Современное содержание, которое передаётся учащимся и предполагает не столько освоение предметных знаний, сколько развитие компетенций, адекватных современной практике жизнедеятельности, профессиональной деятельности. И это содержание должно быть хорошо структурированным и представленным в виде различных учебных материалов, в том числе и мультимедийных, которые передаются с помощью современных средств коммуникации.

Современные методы обучения (в том числе, конечно, интерактивные) — методы формирования компетенций, основанные на взаимодействии учащихся и их вовлечении в учебный процесс, а не только на пассивном или репродукционном восприятии материала.

